

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 208 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Durdiyeva Azzatjon, Ro'zmetova O'g'iljon KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR	12
2. Matyoqubova Fazilat BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	14
3. Nizomova Gulnoza Oybekovna, Zakirova Nargiza Yo'ldashboyevna KASBIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	16
4. Arofat Maxkamovna Isakova, Хурсанова Шахноза TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA MATN BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	18
5. Abdusharipova Mexriban Ibadullayevna BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA VIDEODARSLAR VA TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	20
6. Alikulova Salima Ishboltayevna, Ravshanova Yulduz Ulug'berdiyevna, Eshmurodova Nodira Botir qizi MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	22
7. Allaberganova Nilufar Baxromovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISHDA HUSNIXATGA O'RGATISH MUAMMOSI.....	25
8. Axmedova Raya Nazarovna, Raximova Yulduz Maksudovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHGA NISBTAN IJODKORLIK BILAN YONDASHISHLAR	27
9. Эргашова Умида Содикжон кизи, Орзикулова Адиба Турғуналиевна ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА СИФАТ ВА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ	28
10. Islomova Feruza Shodmonovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH.....	31
11. Jalolova Yulduz Sa'dullayevna SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KOMIL INSON TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI.....	33
12. Kuryazova Gulbahor Sapayevna, Ismoilova Nodira Ravshanovna SUST O'ZLASHTIRISHNING OLDINI OLISHGA YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR.....	35
13. Mamaraimova Zebo Tojimurodovna, Irgasheva Gulmira Shuxratovna, Mardonova Shahnoza Karimjonovna BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	37
14. Niyazova Ozoda Atabekovna BOLADA MUSTAQIL DARS QILISH VA KITOB O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH.....	40
15. Nurullayeva Nilufar Xolmurat qizi BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	42
16. Gulmurodova Asiya Chorakulovna, Nurimbetova Gulzada Ilhom qizi TECHNIQUES AND METHODS FOR IMPROVING READING SKILLS	44

17. Parmanova Dilnoza Choriyevna, Xurramova Lola Ziyodullayevna, Alibayeva Gavhar Djurayevna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA O'QUVCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR	46
18. Qirg'izova Sayyora Abdullayevna, Nurmatova Zirolat Ergashboyevna PEDAGOGIKADA MUOLAMA VA MAHORATNING AHAMIYATI.....	49
19. Raximova Janonxon Mirzayevna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QITISH USULLARI.....	51
20. Sadiqova Anajon Kamilovna DIDAKTIK O'YINLARNING O'QUVCHILARNI BILIMGA QIZIQTIRISHDAGI O'RNI	53
21. Sanayeva M.I, G'ayratova D HUYAYRADA KECHADIGAN FAOL TRANSPORT JARAYONINI IJODIY FIKRLASH YORDAMIDA O'RGANISH.....	55
22. Sapayeva Nuquljon Karimovna ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TEXNIK VA TEXNOLOGIK YECHIMLARI.....	58
23. Turayeva Gulsanam Turgun qizi TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA NISBATAN INNOVATSION YONDASHUVLAR MAZMUNI.....	60
24. Yuldosheva Zilola Otaqulovna MAKTAB BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	62
25. Abdiraimova Dinora Abdumannon qizi, Olimova Baxtigul Norberdiyevna, Xusanova Gulchehra Bekniyozovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGLAR MAHORATIGA SAMARALI TA'SIR ETUVCHI USUL VA O'YINLAR	64
26. Abdrimova Dilrabo Ko'palovna, Xolmurotova Rayxon Kadirberganovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA MASHG'ULOTLAR O'TKAZISHNING SAMARASI	66
27. Abduraxmanov Yashin Tulqinovich RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI MATEMATIKA DARSLARIDA QO'LLASH DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	67
28. Adamova Shaxnoza Davronovna, Axmedova Sevara Komiljon qizi BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI.....	69
29. Atajanova Sayyara Xudarganovna BOLADA MUSTAQIL DARS QILISH VA KITOB O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	71
30. Avezmurotova Zumrad Shamurotovna, Yusupova Shahnoza Shonazarovna O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH	73
31. Begimova Nodira Xolmurotovna, Shabbazova Nargiza Xamrayevna, To'laganova Muyassar Rustamovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR.....	75
32. Bobojonova Shoxista Ortiqovna, Qalandarov Bohram Xojinazarovich YANGI INTERFAOL METODLAR - CHET TILI FANLARINI O'QITISHDA MA'NAVIY VA INTELLEKTUAL SALOHİYATINI KENGAYTIRADI	78
33. Saidqulov Sodiqjon Botirovich, Madraimova Nasiba Farxadovna BOSHQARUVDA MENEJMENTNING USULLARI	79

34. Davlatova Umida Kalandarovna, Ro'zmetova Gulrux Qodir qizi BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	81
35. Djumaniyazova Umida Erkabayevna, Bobojanova Manzura Ruzibayevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI VA SHAKLLARI.....	83
36. Djumayeva Dildor Baxtiyorovna, Jumayeva Iroda Nizomiddinovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY VA MA'NAVIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA TA'LIM VA TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	85
37. Farxodova Dilnoza BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TOVUSH VA HARFLARNI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.	88
38. Nurova Rayxan Beknazarovna, Ganiyeva Ayjamal Turemuratovna, Buranbayeva Liza Yergeshbayevna SIFATLI TA'LIMNI TASHKIL ETUVCHI ZAMONAVIY USULLAR.....	90
39. Sohiba Jabborova Axmataliyevna UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	92
40. Karimova Habiba G'affar qizi, Matyaqubova Nazakat Rashidovna BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	94
41. Karimova Mashhura Abdulhamidovna SONNING ENG ILGARIGI MASHHUR XOSSASI.....	96
42. Zamira Masharipova Masharipovna, Babajanova Sayyora Raximboyevna BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH.....	98
43. Matyaqubova Zaynab Ruzmatovna, Matyaqubova Nilufar Qadam qizi, Moxmudov Sarvar INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	100
44. Matyokubova Iroda Zaripboyevna, Raximov Yashnarbek Ruzimatovich XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA UNI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	102
45. Maxmudova Nafisa Quronboyevna, Abdullayeva Yayraxon Ollaberganovna BIOLOGIYANI FANINI O'QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASIDAN FAOYDALANISH.....	104
46. Maxmuda Mustafaqulova Abdulotib qizi BOSHLANG'ICH SINFLARDA TOVUSH VA FONEMANI O'RGATISH.....	105
47. Nazarova Xolidaxon Olimjon qizi UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA FANINI O'QITISH.....	106
48. Кальжанова Назира Максетбаевна, Марзия Насруллаевна Шарипова ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	108
49. Nematova Dilorom Oybekjon qizi INFORMATIKA DARSLARIDA GRAFIKA QISMINI SHAKLLANTIRISH METOD USULLARI.....	110
50. Nurimbetova Sayyora Bazarboyevna, Qoraboyeva Dilnoz Ibodullayevna ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O'QUVCHILARNI FANLARGA QIZIQTIRISHDAGI SAMARASI.....	112

51. Nurmetova Shirinay Ruzimbayevna, Yusupova Yangiljon Xajibayevna BIOLOGIYA DARSLARIDA “BILIMDONLAR BELLASHUVI“ O‘YININI TASHKIL ETISH	114
52. Ollaberganova Muqaddas, Yo‘ldasheva Nazira MAKTABDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA “CHARXPALAK” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR	116
53. O‘lmasova Shahnoza Ilhomjonovna, Mamadaliyeva Sadoqat Abduraxim qizi MUSIQA ILMINING TA‘SIRCHANLIK XUSUSIYATLARI	117
54. Ozodova Iroda Ozodovna, Raxmonova Shahnoza Yuldash qizi BIOLOGIYA DARSLARIDA KEYS-STADI METODIDAN FOYDALANISH	119
55. Palvanova Nazokat TA‘LIM JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	120
56. Meredova Navruza Shoxratovna, Meretova Ilmira Shoxrat qizi, Ollashkurova Dilnura Salovat qizi TA‘LIM PRINSIP (TAMOYIL)LARI TIZIMI NIMADAN IBORAT?	122
57. Qarriyeva Gulshan, Madaminova Hurjon MAKTABDA FIZIKA VA GEOGRAFIYA FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI KO‘NIKMA HAMDA MALAKALAR DARAJASINI BAHOLASHDA - YUKSAK PEDAGOGIK MAHORAT	124
58. Qodirova Nilufarxon MAKTABDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH USULLARI	126
59. Rahmatova Dilnoza Adhamjonovna, Qayumova Maftuna Mirzaxmad qizi BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH: ANALIZ VA SINTEZ MASHQLARI	128
60. Raxmanova Dilxumor Ismoilovna MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH	130
61. Razzakova Dilfuza Kurambayevna, Sabirova Nargiza Maxmudovna BIOLOGIYA DARSLARIDA NOAN‘ANAVIY TA‘LIM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH USULLARI	131
62. Ro‘zmetova Nargiza Shuhrat qizi O‘QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISH-DAVR TALABI	133
63. Salayev Farhod Karimberganovich TA‘LIM JARAYONIDA WEB – DIZAYN VA MASHUP TEXNOLOGIYASI QO‘LLASH	135
64. Sapaev Shixnazar, Raxmanova Gulshod Yusubboy qizi MAKTABDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA -MAQSAD SARI BIR QADAM	136
65. Seytmatova Matluba, Jumamurotova Umida MATEMATIKA VA INFORMATIKA FANLARIDA TA‘LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI KAFOLATLOVCHI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH	137
66. Sharipova Manzura Matyazovna, Sapayeva Iroda Kushnazarovna TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA ALLOMALARIMIZNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI	138
67. Sharipova Shohista Islomovna SINF DAN TASHQARI ISHLARDA O‘QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH VA ULARNI QIZIQTIRISH	140
68. Shomuratova Olmajon Atajanovna, Raximova Intizor Aminovna BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QISH DARSLARIDA ASARNI O‘RGANISH JARAYONI VA MAZMUNI	142



69. Shomurotov Murodjon Sharipboyevich, Maxmudova Shohnoza Ikromovna O'RTA MAKTABLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDOSHUV	144
70. Khajiev Akmal Erkabayevich, Xajiyev Marimboy Sattarovich FIZIKA FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	146
71. Xalliyeva Lobar, Yusupova Oqila GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI KAFOLATLOVCHI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	148
72. Xolmirzayeva Gulsora Begmirza qizi, Marimov Muminjon Aminovich RUS TILI FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARINING MA'NAVIY VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI KENGAYTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	149
73. Xolmirzayeva Odina Soliqulovna, Rahimova Muqaddam Jamoliddinovna TARIX FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI	151
74. Xolmuratov Alisher Kodirberganovich, Nurjanova Erkinoy Muqanovna MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	152
75. Sharipova Zamira Bozarbayevna, Abdusharipova Manzura BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALAR YECHISHNING AHAMIYATI VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR	154
76. Zaripova Zebiniso, Jumaboyeva Zuxra Komiljanovna GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING ROLI	156
77. Zaynutdinova Laylo Faxritdinovna, Sharipova Ziyoda Safarovna, Elova Dilorom Rabbimovna BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISI-BOLALAR QALBINING ME'MORI	158
78. Begmurodova Zumrad Abdullayevna, Abdullayeva Maftuna Narzullayevna BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATUVCHI USULLAR	160
79. Мамурова Феруза Исломовна ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАН КАСБИЙ КОМ- ПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШ	162
80. Тўраева Сайёра Жуманиёзовна ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ СЛОВОУПОТРЕБЛЕНИЯ	164
81. Курбонова Садоқат Жумабоевна ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИГА ТАРҚАЛИШИ	166
82. Babajonova Muqaddas Qurbanbayevna, Qalandarova Qunduz Baxtiyorovna, Yoqubova Yulduz Quvondiqovna FIZIKA VA BIOLOGIYA FANLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI. YANGI TABIIY FANDA MUJASSAMLIGI	168
83. Djanabergenova Saltanat Quanishovna, Mirashimova Nadejda Abdullayevna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO BOG'LIQLIKNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI	170
84. Raximova Dilobar Quronboy qizi, Qutlimuratova Muhabbat Otabek qizi, Otajonova Ilmira Samandar qizi O'QUVCHILARNI HUSNIXATGA O'RGATISHNING METODIK SHARTLARI	172
85. Аймбетова Асем Муратовна, Елеусинова Нурсипат Калдарбековна, Умирбаева Зульфия Умаровна НАСТАВНИЧЕСТВО КАК ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ МОЛОДОГО СПЕЦИАЛИСТА	174



86. Исмоилова Нилуфар Матмурот кизи ЎСМИРЛАР ТАРБИЯСИ ВА ПСИХОЛОГИЯСИ УЛАРНИ БОШҚАРИШ УСУЛЛАРИ	177
87. Умарова Мухайё Ахмадовна, Хушийева Қизларгул Қаршийевна, Очилдийева Дилдора Хуррамовна КОЛМОГОРОВ-ФИШЕР ТУРИДАГИ ТЕНГЛАМАЛАРНИ САҚЛАНИШ ҚОНУНИ АСОСИДА КЕЛТИРИБ ЧИҚАРИШ.....	179
88. Bayjanova Mardona Qadamovna, Sapayeva Dilfuza Rajabovna QIZIQARLI VA MANTIQIY MASALALAR USTIDA ISHLASH USULLARI	183
89. Babajanova Shahlo Shavkat qizi, Abdiyozova Muborak Hakim qizi BOTANIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH USULLARI.....	185
90. Avezova Aziza Jumanazarovna TARIX DARSLARIDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	187
91. Safarova Gulbahor Rahmatovna ZAMONAVIY TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI-NUTQIY SAVODXONLIK OMILI.....	189
92. Акрамова Муаззам Турдикул кизи ЎЗБЕКИСТОН ССР ХУДУДИДА ЖИНОЙ ЖАВОБГАРЛИКДАН ОЗОД ҚИЛИШ АСОСЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	191
93. Abdurahmonova Shohida INTERFAOL METODLARNING O‘QUVCHILAR O‘QUV FAOLLIGINI OSHIRISHIDAGI ROLI	193
94. Babajanova Dildora, Ro‘ziyeva Muqaddas TASVIRIY SAN‘AT FANINI O‘RGATISHDA «SKARABEY» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH.....	195
95. Bekchanova Gulbahor, Ikromova Karomat BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA “SO‘ZLI TASAVVURLAR” DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH	196
96. Hajiyeva Gulora Erkabayevna KIMYO FANI DARSLARIDA - "ZAKOVAT" O‘YINI KO‘RINISHIDAGI DARSLAR.....	197
97. Hayitova Gulhayo , Ro‘zmetova Matluba MAKTABDA KIMYO FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH.....	198
98. Jumamurotova Sanobar, Palvanova Dildora TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA “SVETOFOR” METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH.....	199
99. Matyoqubova Feruza, Tohirova Umida BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN EXPRESS-TESTLAR METODIDAN FOYDALANISH.	200
100. Otajanova Gulora Otaxanovna BIOLOGIYA DARSLARIDA “KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI.....	201
101. Sharipova Laylo, Ro‘zmetova Shahnoza Ulug‘bekovna MAKTABDA MATEMATIKA VA INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA “BALIQ SKELETI” METODIDAN FOYDALANISH.	202
102. Sultonova Mohinur Yuldashovna, Atamurotova Fazilat Adambayevna MAKTABDA RUS TILI FANIDAN O‘QUVCHILARNI O‘QITISHDA “MUZYORAR” INTERFAOL O‘QITISH METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH	204
103. Tavbasarova Venera, Babajanova Shoxista MAKTABDA CHET TILLARINI O‘QITISHDA «BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» BIRGALIKDA O‘QISH TEXNIKASINING AHAMIYATI.....	206



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

КИТОВХОНЛИК - МА'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

Durdiyeva Azzatjon,

Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ro'zmetova O'g'iljon,

Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasbhunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik



madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma‘naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash‘ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a‘zolari ko‘magi va ta‘sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a‘zolarining kitobga, o‘qishga munosabati katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o‘qishda ham bolalariga o‘rnak bo‘lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o‘qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so‘rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o‘rganish (aniqrog‘i o‘rganish) muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish

2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Matyoqubova Fazilat

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani
24-maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998942367035

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘lumotlarini oshirish, darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko‘maklashishi hamda sinftashqari mashg‘ulotlarning afzalliklarida xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: sinfdan tashqarimashg‘ulotlar, o‘quvchilar jamoalari, o‘z-o‘zini boshqarish, g‘amxo‘r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma‘lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma‘lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi: 1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Ziyraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o‘rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari:

-Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘shimcha ma‘lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta‘limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

-Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil



fikrlashiga zamin hozirlash.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko‘mak beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf ona tili va matematika darslarida va o‘qish darslarida, sinfdan tashqari o‘qish tartibida tashkillanadi. Bu jarayon o‘qituvchii ixtiyorida bo‘lib mavzu tanlash erkin hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni turli konkurs tadbir va to‘garaklarga jalb etish tabiat qo‘yniga sayohatlarni tashkillash kabilardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.



**KASBIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
JORIY ETISH**

**Nizomova Gulnoza Oybekovna,
Zakirova Nargiza Yo'ldashboyevna**

Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi
45-sonli maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari
99-517-45-80; 99-442-59-88

Anatatsiya: Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangidan – yangi innovatsiyalarning tatbig'i kuzatilmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: «Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak».

Kalit so'zlar: Ta'lim, qarorlar, innovatsiya, raqamli texnologiya, virtual stendlar

Yurtimizning mustaqillik yillarida ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston hukumati ta'limga islohotlarning barcha bosqichlari uchun ham ustuvor soha deb qarab kelmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4963-son Qarori va Xalq ta'limi vazirligining 2021- yil 23-martdagi “Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatini takomillashtirish, kurslardagi ta'lim sifatini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 80-sonli buyrug'i ta'lim tizimini uzviylik va uzluksizlikni taminlashga, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratish hamda pedagog kadrlarni malakasini oshirishga qaratilgan. Mazkur muammoni yechish uchun so'nggi yillarda xalq ta'limi va oliy o'quv yurtlarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim jarayoniga yangidan – yangi innovatsiyalarning tatbig'i kuzatilmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: «Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak».

Ma'lumki, pedagoglarning an'anaviy o'qitish usullarida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o'quvchi-talabning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya jihozlari yetarli darajada emasligi hamda ko'pgina laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida qo'shimcha sarf-xarajatlar evaziga takomillashtirish talab etiladi. Bundan tashqari muhim omillardan yana biri shundan iboratki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma'lum bir sohada yetarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun



muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi. Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o'tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog'liq vaqtdan yo'qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi

Ta'lim jarayoniga virtual stendlarning joriy qilinishi natijasida, an'anaviy ta'limga qiyoslaganda, mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim jarayonining yanada yuqori sifati ta'minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan pedagog va test o'tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirish uchun savollarni o'z ichiga olgan ixtisoslashgan o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanish, o'quv jarayonining uslubiy negizini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Biz o'qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli ta'lim maskanlarining o'quv imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa ma'lum darajada turli muassasalar mutaxassislari diplomlarining qadri teng bo'lishini ta'minlaydi

Demak, ta'lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlar joriy etilishi ta'lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi. Virtual o'qitish stendlarini, ayniqsa, qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o'qitishga, ta'lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo'lib jo'nashining oldini olishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi: - ta'lim jarayonini, o'quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko'proq individual ravishda yordam berish; - o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'z-o'zini takomillashtirish, ta'lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish; - ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rganish; - ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash; - barcha ta'lim muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish; - ta'lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. - «Xalq so'zi» 23 dekabr 2017 yil.
2. В.Г.Маняхина Южнокорейский подход к обучению информатике в младшей и средней школе. Проблемы современного образования №6, 2015г.
3. К.В. Демушкина Электронные учебники – анализ внедрения электронных учебников в зарубежных странах (на примере США и Южной Кореи)
4. М.А.Жирнова Исследование средств геймификации в изучении программирования // Образование и наука в современных реалиях: материалы IV Междунар. науч.–практ. конф. / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2018. – С. 191-192



TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA MATN BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Arofat Maxkamovna Isakova

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Хурсанова Шахноза

Qo`qon davlat pedagogika instituti talabasi

AHHOTATSIYA: *Mazkur maqolada matn, matn turlari, matn bilan ishlash texnologiyasining tamoyillari yoritilgan. Matnning o'ziga xos jihatlari hamda matn bilan ishlash, matn tuzish va yozishda qo'llaniladigan adabiy til me'yorlari, matnda qo'llaniladigan leksik va sintaktik birliklar bilan bog'liq bo'lgan asosiy o'rinlar tahlil qilingan, taklif-tavsiyalar berilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *matn, matn turlari, tamoyil. savodxonlik, matn ustida ishlash*

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini asosiy shakli bu ularning mustaqil ishidir. Mustaqil ishlar o`quv dasturida belgilangan mavzular ustida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi bo`lib, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchlarni amaliy faoliyatga yo`llaydi. Shu bois pedagogikada bu jarayonni ikki tomonlama jarayon deb qaraladi. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o`rtasida o`rnatilgan o`zaro aloqalar bir tomondan ta'limdagi o`quv jarayonining samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan esa, ta'lim oluvchilarni kelajakdagi mutaxassisliklari bo'yicha ish sifatini ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim sohasini zamonaviylashishi – ta'limining asosiy figurallari bo'lgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning fan asoslarini mukammal o`zlashtirish, o`z fikrlarini bildirish va mustaqil fikrlarini erkin bayon etishlari uchun katta imkoniyatlar eishigini ochadi. Bugungi kun ta'lim tizimida ta'limning an'anaviy modeli o`z-o`zini oqlamay qolgani, bu ta'lim o`rnini zamonaviy raqamli, mobillikka, amaliyotga va interfaollikka yo'naltirilgan innovatsion ruxga asoslangan ta'lim modellari egallamoqda. Ayniqsa ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda matn bilan ishlash usuli katta ahamiyatga ega.

Matn so'zi lotincha “textus” so`zidan olingan bo`lib — “mato”, “birikma” — degan ma`nolarni anglatib, ma'lum moddiy tashuvchiga bog'langan inson fikri, belgilarning umumiy izchil va to'liq ketma-ketligidir. Filologiya fanlari doktori, professor Ilya Romanovich Galperin fikrichai: „Matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog'lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatga ega bo'lgan yozma xabardir”. Tilshunoslik fani nuqtai nazaridan qarasa, “Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Masalan: muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya'ni mulohaza yuritish”. Demak, yuqoridagi ta'riflarga pedagogik nuqtai nazardan yondashib, matn - bu ta'lim oluvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiruvchi asosiy ta'limiy vosita.

Pedagogika fanlarini o`qitishda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda matnlarning quyidagi turlaridan:

1. Hikoya matni.
2. Tasviriy matn.
3. Muhokama matni” foydalanishni tavsiya etamiz.

Tajribalar shuni ko`rsatmoqdaki, mustaqil ta'lim jarayoniga matn bilan ishlash texnologiyasini kiritilishi quyidagi tamoyillariga ega bo'lishi kerak:

- interfaollik tamoyili. Bu tamoyil turli pedagogik, axborot, texnika vositalarini qo`llagan holda “sub`ekt-obyekt” (“ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi”), “obyekt-obyekt” (“ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchi”) muloqotlarini ta'minlaydi.

- individuallashtirish tamoyili. Bu tamoyil har bir ta'lim oluvchi o`z bilimlarining individual darajasiga muvofiq matnlarni taqdim qila olishlarini ta'minlaydi;

- moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim oluvchilar tomonidan tuzilgan turli mazmundagi matnlarni pedagogik yo`nalishda tahlil eta olish imkoniyatini yaratadi;

- ochiqlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim oluvchilar uchun pedagogika fanidan bilimlar manbai bo'lgan darsliklar va o`quv qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar bilan birga “Vikipediya”, ijtimoiy



tarmoqlar va mikrobloglardan iborat internetsaytlarning cheksiz imkoniyatlaridan foydalana olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarga asoslanib ta'lim oluvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishda matn bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirish maqsadida yangi ta'lim kontsepsiyasini yaratish zarur. Yangi kontsepsiyaning mazmun-mohiyati pedagogika fanidan mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar bilan birga ijtimoiy medianing integratsiyalashuvini ta'minlashdir. Demak, bu konsepsiya o'zining quyidagi:

- Ta'lim oluvchilar mant bilan ishlash jarayonida ta'lim beruvchi tomonidan beriladigan tayyor bilimlarni egallab qolmay, balki egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rganishlari;

- Ta'lim oluvchilar mant bilan ishlash jarayonida mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshirishga, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantirilishi;

- Ta'lim oluvchilar mant bilan ishlash jarayoniga qaratilgan elektron ta'lim resursini ishlab chiqilishi va raqamli ta'lim resursidan ta'lim oluvchining unumli foydalana olishi va yana bir qator afzalliklari bilan ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda matn bilan ishlash jarayoni takomillashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста». — Т. 1. — М., 1974. — С. 67.

2. Нишоналиев У. Н. Формировании личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы—Т.: ФАН, 1990, — 85 с.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FANLARINI O‘QITISHDA VIDEODARSLAR VA
TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Abdusharipova Mexriban Ibadullayevna

Xorazm viloyati Xiva tumani 7- sonli umumiy o‘rta ta‘lim
maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998914311091

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda videodarslar va taqdimotlardan foydalanishning afzalliklari va uning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘z va iboralar: *kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv, mutaxassis, elektron taqdimot, elektron qo‘llanmalar, videolavhalar.*

Hozirda ta‘lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu pedagoglarning o‘z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi o‘quv jarayonida ta‘lim vositalari asosida pedagog faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o‘zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

Endi pedagog:

- o‘quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi; - o‘qitish metodlari bo‘yicha maslahatchi;
- kompyuter-o‘quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo‘yicha mutaxassis;
- ta‘lim natijalarini nazorat qilish usullari bo‘yicha mutaxassis bo‘lishi talab etiladi.

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo‘llay olishi lozim:

- yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- internet, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;
- darsga metodik tayyorlanish, qo‘shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- kompyuter texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Elektron taqdimot - darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi.

Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘z munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin.

Bu orqali o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
- muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o‘zining o‘quv biluv faoliyatini rejalashtirish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni rivojlantirishda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin.

Ma‘lumki, axborot texnologiyalari axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usuli va vositalari majmuyidir.

Boshlang‘ich ta‘lim darslarida elektron qo‘llanmalar, videolavhalar animatsiyalar, matnlar, ovozli obrazlardan(yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

- ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish;
- ma‘ruza matnlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq topshiriqlarni tayyorlash; - metodik ko‘rsatmalar va nazorat savollarini tuzish;o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish; - ma‘ruza matnlarini tahrirlash;
- har bir mavzu bo‘yicha dinamik ko‘rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish.



O'qituvchilar uchun qo'shimcha Internet sayt va resurslar

Hozirgi vaqtda Internetning har xil saytlarida tillar bo'yicha ko'p ma'lumotlar topish mumkin. Quyida ayrim foydali ta'limiy saytlarning nomlari sanab o'tilgan. Ushbu saytlardan darslarga tayyorgarlik ko'rishda foydalanish mumkin.

- <http://www.uzedu.uz> - Xalq ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
- <http://www.edunet.uz/methodis/> [http //www.grammar.ru](http://www.grammar.ru)
- http://www.vikiru.vikusia.com/ru/Uzbekskiy_yazik.html
- <http://pedagog.zn.uz/> www.ziyonet.uz
- eduportal.uz uzlit.edunet.uz
- [postal. Uz](http://postal.uz) <http://ps.1september.ru/> - gazeta “Pervoe sentyabrya”.
- <http://www.ug.ru/> - “Uchitelskaya gazeta”. <http://www.philologos.narod.ru>

Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish va uzatish osonlashmoqda, shunday o'sish jarayonida o'qitishda kompyuter texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Kompetensiyaviy ta'lim zamon talab qilayotgan ta'limdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir pedagog dars jarayonida bola ongini rivojlantiruvchi, dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini oshirib, kengaytirib boruvchi ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, badiiy adabiyotlar hamda AKTdan foydalanib borishi talab etiladi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim”. Bir necha yillar boshlang'ich sinflarda ishlab, faoliyat olib borib men bu fikrlarga amin bo'ldim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva B. va boshq. “Matematika-4”, O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, Toshkent-2017.
2. Masharipova U. va boshq. “Ona tili-2”, O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent-2015.
3. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali sonlari.
4. Internet saytlari.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT MASHG’ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Alikulova Salima Ishboltayevna

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani

11- son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori.

Ravshanova Yulduz Ulug'berdiyevna

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani

11-son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi.

Eshmurodova Nodira Botir qizi

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani

11- son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish fikrlash qobiliyatini, ko‘rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyatga o‘rgatishda rasm, qurish materiallari bo‘yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san‘at asarlari.

Abstract: The article focuses on the development of thinking skills, visual memory, creative imagination, artistic taste, teaching preschool children to visual activity. Ideas about the successful acquisition of painting, knowledge of building materials, skills in teaching children visual activity in the preparation for school are presented.

Key words: Visual activity, artistic creativity, drawing, aesthetic intuition, works of art.

Ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim bosqichi eng muhim bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Afsuski, bizda yillar davomida ushbu ta’lim bosqichini isloh qilish, maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrovni oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini zamon talablariga moslashtirish masalasiga kam e’tibor qaratildi.

2017 yil “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” Prezident Qaroridan keyin ta’lim tizimining quyi bo‘g‘iniga e’tibor kuchaydi. Maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruxiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san‘at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Tasviriy san‘atning o‘ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo‘la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o‘rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo‘lishi, buning uchun muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi, o‘zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko‘tarishi, ilg‘or tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va etuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruxiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san‘at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Tasviriy san‘atning o‘ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo‘la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida



bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining oʻrni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega boʻlishi, buning uchun muntazzam ravishda oʻz ustida ishlashi, oʻzining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz koʻtarishi, ilgʻor tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha tarbiya muassalarida rasm chizishga oʻrgatish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri xisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushlash va qogʻoz ustida yuritishga oʻrganadi. Lekin bu prosessda rivojlanmaydi, bola qalamni toʻgʻri ushlashni bilmaydi, tarbiyachi asta sekin toʻgʻri ushlashga odatlantiradi, bolani bajarayotganligini emas balki, qalamning harakatini uning uchi bilan qogʻoz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan toʻgʻri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qogʻoz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqalar asta sekin murakkablashadi. Bu vaqtda bola qogʻoz ustiga tushirilgan turli xil izlarni koʻrib xursand boʻladi. Shuning uchun bu davr «Ala - buji» davr deyiladi. Bu davr bolada tasviriy faoliyatini vujudga keltirishga taʼsir koʻrsatadi. Bu guruxda maktabgacha taʼlim-tarbiya dasturi gurux mashgʻulotlarni talab qilmasada, agar bolalar xoxlashsa ularni stol atrofiga oʻtirib rasm chizdirishga imkon yaratish mumkin.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida tasviriy sanʼat mashgʻulotlarida bolalar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar. Tevarak atrofdagi borlikni oʻzlashtiradilar. Bu esa ularni gʻoyaviy aqliy-ahloqiy estetik jihatdan tarbiyalashda samarali taʼsir koʻrsatadi. Tasviriy sanʼat mashgʻulotlari bolalarda estetik dunyoqarashni gʻoyaviy eʼtiqodni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy sanʼatning asosiy vazifalaridan biri bolalarga estetik, xususan badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya bu bolalarning hayotdagi, tabiatidagi, sanʼatdagi fan va jamiyatdagi goʻzalliklarini idrok etish qobiliyatini tarbiyalashdir. Goʻzallik kishilarning aqliga, qalbiga idrokiga taʼsir etib maʼnaviy dunyoqarashni boyitadi. Hozirgi vaqtda Maktabgacha taʼlim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bolalarga borliqni faqat ijodiy oʻzlashtirishga boʻlgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishgagina emas, balki ularni goʻzallik qonunlari asosida borliqni qaytadan koʻrish hissini tarbiyalash hamdir.

Manzaraning daraxt shoxlarining, barglarining, gullarning oʻzlariga qarab rasm chizish ularni oʻziga xos xususiyatlarni urganish orqali mashgʻulotlar bolalarga dunyoni keng va atroflicha koʻra olishga shuningdek koʻrish orqali olgan taʼsurolari doirasini kengaytirishga narsalar haqida Aniq va toʻliq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, proporsiyalari fazojagi xolatlari, rangli va och-toʻqli nisbatlari diqqat bilan oʻrganadilar. Tasviriy sanʼat mashgʻulotlari bolalarning koʻrish orqali milliy gʻoyalarni idrokini oʻstiradi. Koʻz orqali milliy gʻoyalarni idrok etishni oʻstiradi. Koʻz orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofik kuzatish qobiliyatlarini tushunamiz, yaʼni narsa va xodisalarni solishtirish, ularning farki va umumiy tomonlarini Aniqlash, narsalarni shakli va tashki koʻrinishi klassifikatsiyalashni anglaymiz.

Shunday ekan biz sogʻlom muhit asosida yosh avlodga talim bilan birga tarbiyaning turli koʻrinishlarini berib borishimiz zarurdir. Shu sababli talim oluvchilarga milliy ruhda talim - tarbiya berish va uning uzluksizligini taminlash orqali hozirgi kunda talim tizimida toʻplanib qolgan muammolarni ijobiy hal etish bu- gungi kunning kechiktirib boʻlmaydigan vazifasidir.

Soʻnggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqda, odamlarning tashqaridan olayotga har qanday maʼlumotlarning xayotida koʻzning roli beqiyos katta ekanligini koʻrsatib turibdi va u koʻzning imkoniyatlar, qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy sanʼati predmeti ancha ustun turadi. SHu nukai nazardan qaraganda tasviriy sanʼatning kishilar hayotiga roli yanada oydinlashadi. Shunday qilib, maktabgacha taʼlim muassasalarida jumladan oʻrta, katta va tayyorlov guruhlarda tasviriy sanʼatni oʻqitish orqali qator-taʼlim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qoʻyib, oʻshani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, oʻrtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida tasviriy faoliyat mashgʻulotlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish taʼlim sohasidagi isloxtlardan birini tashkil etadi. Maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maʼnaviy sogʻlom, estetik jixatdan etuk boʻlishini taʼminlashda ularning goʻzallikka boʻlgan qiziqishini oshirishda tasviriy faoliyat mashgʻulotlarining imkoniyatlari juda kengdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Bolalarni oʻz ishini yana xam chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yokadigan, ular koʻrganda quvonadigan qilib yaratish - bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi xisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta



axamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo‘yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo‘ladi. Ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko‘rsatmalarini bajarishga o‘rgatadi.

Oldiga qo‘yilgan vazifani xal etishda, uning asosiy va muhim xal etish yo‘llarini izlab topish bu o‘quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda xam rol o‘ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan xam tayyorlanib boradi

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Yusupova P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. T.: O‘qituvchi, 1993.
2. Xasanboyeva O.U. va boshq. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. T.: Ilm ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013
4. Kayumova.N “Maktabgacha pedagogika” T.: TDPU ,2013.
5. Qodirova.F., va boshqalar. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”, 2013
6. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. “Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi”. “Cho‘lpon”, T.:2010y.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISHDA HUSNIXATGA O‘RGATISH
MUAMMOSI

Allaberganova Nilufar Baxromovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 7- sonli umumiy o‘rta ta‘lim
maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998990360702

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili fanining o‘qitilishi, o‘quvchilarning fanni chuqur egallashida nimalarga e‘tibor berish zarurligi, xat-savod ishlari hamda chiroyli yozuv, husnixatga o‘rgatish masalasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: bilish usullari, aniq tajriba, beixtiyor kuzatuv, husnixat, texnika asri, faol eksperiment.

Har bir xalq, millatning ertangi kuni o'sib kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta'lim-tarbiya olayotgani, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liq. O'quvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishi maktabdagi ta'lim va tarbiyani birga uzviy olib borishga bog'liq bo'lib, unda o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyati, erkin fikrlay olishi, o'zgalari fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topish, barcha fanlarni chuqur va izchil ravishda o'rganish vazifalari amalga oshiriladi. Shu o'rinda barcha fanlarni puxta, mukammal egallashlari, keng dunyoqarashga ega bo'lish bilan birga ularning chiroyli yozuvlari ustida ham ishlash kerak.

Odatda o'quvchilarning chiroyli yozuvi haqida gap ketganda, chiroyli yozish yaxshi, lekin, savodxonlik uchun zaruriy shart emas deb, yozuvning mazmunigagina e‘tibor bermaslik lozim. Ayniqsa, bu jarayonni, ya‘ni chiroyli yozuv, husnixatda yozish malakalari boshlang‘ich sinflarda katta e‘tibor bilan, yetarlicha ahamiyat berib o‘rgatib boriladi. Chunki, chiroyli yozuvga o‘rgatish bilan o‘quvchilarni go‘zallikka va puxtalikka o‘rgatgan bo‘lamiz. Yana bu masalaga biz o‘zbek millatining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda yondoshadigan bo‘lsak, tarixga bir nazar tashlaymiz. Haqiqatdan ham, tarixda ziyoli olimlar uchun hattotlik xuddi shoirlik kabi odatiy hol hisoblangan. Navoiy asarlarida zeru-zabari joyiga keltirib yozilgan husnixatlar, maqtalgan misralarni ko‘rishimiz mumkin. Shoirning ta‘kidlashicha, hattotlar sultoni bo‘lgan Sultonali Mashhadiy nasta‘liq xatini ajoyib san‘at darajasiga ko‘targan. Husnixatga e‘tibor millatimizga singib ketganini ko‘rsatadigan holatlar juda ko‘plab topiladi.

Masalan, tadbirkor odam biror bir mavqeyi baland kishiga xat yozsa, iloji boricha chiroyli yozishga va shu bilan o‘zi haqida yaxshiroq taassurot qoldirishga harakat qiladi. Hozir texnika asri, hamma joyda kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi, xat-xabarlar ham kompyuterlar orqali amalga oshiriladi, degan fikrlar ham bo‘lishi tabiiy. Lekin shunday texnika asrida ham, kompyuterlashgan davrda ham insonlarning insoniyligi, ularning qalb go‘zalligi texnologiyalashmagan. Kishining qandayligini bilib olish uchun uning chiroyli og‘zaki nutqi va husnixatiga qarab ham baho berish mumkin. O‘zimizdan kelib chiqib masalaga qaraydigan bo‘lsak, yozuv xatimizning xunukligidan o‘zimiz ham uyalamiz. Nima uchun shundayligini bilasizmi?

Gap shundaki, bizning millatimiz sharqona an‘analarga sodiq qolgan holda, go‘zallik orqali o‘zining muayyan qirralarini namoyon etishni va bunday qirralarni tushunishni biladi. Shuning uchun ham husnixat odamni komil inson bo‘lib yetishishida alohida o‘rin tutadi. Chiroyli yozishning ahamiyatini ta‘kidlovchi yana boshqa jihatlar ham bor. Masalan, insonlar xatining yotliqligi, burchagi, dona-donaligi, o‘rtadagi harflar oralig‘i, harflarning hajmining katta-kichikligi va hokazolarga qarab, ularning harakter xususiyatlarini bilib olish mumkinligini ko‘rsatuvchi manbalar bor.

Bundan ko‘rinib turibdiki, inson xarakteri shakllanishida go‘zal xatning alohida o‘rni bor. Bu o‘rinda faylasuflarning aytishicha, bolalikda har bir yaxshi ishni bajarishni tinmay mashq qildirib borilsa, u mashqning oxiri natijasi odatga aylanadi, odat esa xarakterni shakllantiradi, xarakter uning kelgusidagi taqdirini belgilaydi. Shunga e‘tiborni qaratib, bu naqadar to‘g‘ri gapligiga amin bo‘lamiz. Haqiqatdan ham, o‘quvchilarga chiroyli yozuvni tinmay mashq qildirsa olsak va odatiy holga aylantirsak, yuqoridagi maqsadga erishgan, yoshlarni komil inson bo‘lib yetishishida



muhim qirrani rivojlantirgan bo'lamiz.

Biz bolada ko'p qirralarni rivojlantirish uchun tinmay mehnat qilishimiz va o'z mehnat faoliyatimizda doimo mashqning odat, odatning esa xarakter bo'lib shakllanishini unutmagan holda, yuqorida aytilganidek husnixat shartmikan, degan savolga hech ikkilanmay, “ha” deb kavob berishimiz lozim. Madaniyatining oliy qirralaridan biri husnixat ekanini, husnixatga erishish esa, hayotiy zaruratligini yurakdan his etib turishimiz kerak.

Shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash davrimdagi tajribamdan kelib chiqib, o'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish bilan birga, tez-tez “Kimning xati chiroyli”, “Kimda qaysi harf chiroyli chiqadi”, “Chiroyli xat egasi”, “Xattot yozuvchi” kabi yozuv tanlovlarini o'tkazib turardim. Bunda chiroyli yozuvning hayotiy ahamiyati haqida bolalar ongiga yetib boradigan turli yozuvga oid bo'lgan latifalar, allomalar o'gitlari, xattotlik san'ati va unga erishishdagi usullar haqidagi fikrlardan tez-tez foydalanib turish yaxshi samara berishi aniqlandi. Shunday bolalardan bir nechtasining yozuvi chiroyli bo'lishi uchun to'rt yil kerak bo'ldi va natijada ana shu bolalar ham to'rtinchi sinfga borganida ularning yozuvi husnixat darajasiga ko'tarildi. Keyingi sinflarda ham o'quvchilar yozuvining chiroyli bo'lishini nazorat qilib borish va mashqni kamaytirmaslik har qanday sharoitda ham husnixatda yozishga odatlantiradi.

Xulosa sifatida aytmoqchimanki, husnixatni egallash hayotiy ehtiyoj bo'lib, unga erishish uchun takroriy mashqlar odat tusiga kirguniga qadar, ham amaliy ham ma'naviy saboq tinmay berib borilsagina, komillikka daxldor ilk nihollarning ko'kka bo'y cho'zishiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Bundaboshlang'ich sinflarda ona tili fani o'qitilishi bilan birga husnixat soatlarini tashkil etish, joriy qilish o'quvchilardagi bilim, malaka, ko'nikmaning yanada mustahkamlanishi, odatlarning xarakterga aylanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.G'ulomov M. “Husnixat metodikasi”, Toshkent - 2006.
- 2.Ikramova R. “Grammatika, imlo qoidalari va nutq o'stirish”, Toshkent
- 3.Mashrapova U, Umarova M, Boynazarova D. Ona tilini o'qitish metodikasi. O'qituvchilar qo'llanmasi. Toshkent - 2005.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHGA NISBTAN IJODKORLIK BILAN YONDASHISHLAR

Axmedova Raya Nazarovna

Xorazm viloyati Urganch tuman

46- son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Raximova Yulduz Maksudovna

Urganch tuman 18- sonli maktabning

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab boshlang'ich sinflar darslarida noan'anaviy metodlardan foydalanish va bir qancha interfaol metodlarining axamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, insert strategiyasi, "Zinama-zina".

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida talabalar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

Ta'lim mazmunining interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o'qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni, o'quv jarayonini rejalashtirish muolajalaridagi amaliyotida qo'llash bilan bog'liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsifladik. Pedagogikada an'anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig'i keltiriladi.

“Zinama-zina” texnologiyasidan foydalanish darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur usuldan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka yoki kichik guruhlariga bo'lingan holda

foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining qo'ygan vazifasiga qarab belgilanadi. Ahamiyatli jihati, sinfdagi har bir o'quvchining bilimini individual baholashda “Zinama-zina” usuli qo'l keladi. Qolaversa, vaqtni tejashga yordam beradi. Quyida ikki o'quvchini bir vaqtda baholashga misol keltirilgan.

1. Darsning biror bo'limida o'tilgan mavzularga doir savollar tanlanadi.
2. Doskaga ikki tomondan bir xil chiqib boriladigan pog'onasimon chizma chiziladi, har bir pog'onaga savollar yoziladi.

3. Har ikki tomondagi pog'onalar soni teng bo'lishi kerak.

4. Ikki o'quvchi doskaga chiqariladi va topshiriqni bir vaqtda bajarishga kirishadi.

5. Har ikki o'quvchiga berilgan topshiriqlar o'tilgan mavzu yuzasidan bir-biriga yaqin hamda o'xshash bo'lishi kerak.

6. Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan o'quvchi nisbatan yuqoriroq baholanadi.

7. Baholash tartibi pog'onalar soniga qarab quyida keltirilgan mezon asosida amalga oshiriladi.

Pog'onalar 10 ta bo'lsa: 9-10 ta to'g'ri javobga “a'lo”, 7-8 ta to'g'ri javobga

“yaxshi”, 5 ta to'g'ri javobga “qoniqarli” baho qo'yiladi.

Noan'anaviy darslar har doim bayram darslari bo'lib, hamma o'quvchilar faol ishtirok etadi, hamma o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, sinf ijodiy jamoaga aylanadi. Ammo o'quv jarayonini tashkil etishning noan'anaviy shakllariga tez-tez murojaat qilish maqsadga muvofiq emas, chunki bu fanga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga olib keladi.

Har bir mashg'ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ochilova M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. Nasaf. 2000

2. Tolipov O'. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent "Fan" 2005

3. Chugunova A.A. "Нетрадиционные методы преподавания математики".



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА СИФАТ ВА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ

Эргашова Умида Содиқжон кизи,
Орзиқулова Адиба Турғуналиевна

Наманган вилояти Мингбулоқ туманидаги
45-сонли мактабнинг бошланғич таълим ўқитувчилари
93-678-92-91; 93-147-38-11

Аннотация: Ушбу мақолада бошланғич таълимда сифат ва самарадорликни ошириш ва ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш усуллари, йўллари унинг натижаси ва методикасига оид ва бошланғич синфлар дарсликлари учун мултимедиа ишланмаларини босқичма-босқич ишлаб чиққан ҳолда ўқитишнинг ўйинли шакллари ва медиатеchnологиялардан фойдаланишни кенгайтириш тўғрисидаги маълумотлар ва масалалар хусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: ахборот коммуникация, сифат-самарадорлик, мултимедиа, медиатеchnология.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, «Агар болалар эркин фикрлашга ўрганмаса, берилган таълим самараси паст бўлиши муқаррар. Ўқитувчининг бош вазифаси ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларини ҳосил қилишдан иборат». Ўқитувчи ўқувчиларни фаоллаштириш, ўзи ва ўрганувчилар учун қулай бўлган йўللари, усул ва услубларни, ўқитиш шакллари, метод ва вазиятларни излайди, замонавий педагогик технологияларга суянган ҳолда ўқув жараёни самарадорлигини интеграциялаштирилган таълим орқали ривожлантиради. Ўқувчиларни фанлараро алоқадорликка, мустақил фикрлашга ўргатиб, ўқув жараёнининг юқори сифат ва самарадорлигига эришишга ҳаракат қилади. Умумтаълим мактабларида дарс жараёнида ўқувчиларни замон талабларига тўлиқ жавоб берадиган ҳар томонлама ривожланган шахслар этиб вояга етказиш мақсадида ўқув жараёнига ахборот-коммуникация ва интернет технологияларини кенг жорий қилиш бўйича амалий ишлар давлат дастурларида кўрсатиб қўйилган вазифалардан келиб чиққан ҳолда олиб борилмоқда. 1-4 синфлар учун шу ёшдаги болаларнинг психологик-физиологик ўзига хосликларини ҳисобга олган ҳолда ўқув дастурлари ва дарсликларни танқидий қайта кўриб чиқиш. Ўқитиш жараёнига илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларни кенг жорий этиш. Илғор ва ахборот коммуникация технологияларни бошланғич синфлар ўқитувчилари фаолиятига жорий этиш бўйича методик қўлланмаларни ишлаб чиқиш ва нашр этиш. Бошланғич синфлар дарсликлари учун мултимедиа ишланмаларини босқичма-босқич ишлаб чиққан ҳолда ўқитишнинг ўйинли шакллари ва медиатеchnологиялардан фойдаланишни кенгайтириш. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, ахборот-коммуникация технологиялари ва интернетнинг таълим соҳасига кенг кириб келиши таълим хизматларининг глобаллашуви учун ҳам катта йўл очиб бермоқда. Ривожланган давлатлар таълим соҳасида бўлаётган бундай ижобий жиҳатларини эътиборга олган ҳолда, таълим сифатини юксалтириш учун ахборот-коммуникация технологияларидан оммавий равишда фойдаланиш давр талабига айланмоқда. Умумтаълим мактаблари ўқувчилари ақлий салоҳиятининг ўсиб бориши, уларнинг таълим мазмунига чуқурроқ кириб боришга интилиши, ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиб дунё янгиликларидан бохабар бўлишга қизиқишлари ўз ўзидан маълумки ўқитувчилардан ўз устидарида тинимсиз изланишлари бугунги кун нафаси билан яшаши ҳамда таълим соҳасидаги энг сўнгги янгиликлардан бохабар бўлиб боришни талаб этади. Ахборот коммуникацион технологияларни ўқув жараёнида қўллаш жаҳон амалиётида кенг қиррали бўлиб, унга педагогик, психологик, дидактик, ташкилий, иқтисодий, ижтимоий, экологик ва бошқа нуқтаи назарларидан ёндашиш лозим. Дарс жараёни мураккаб ижодий машғулотдир. Унинг самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқувчиларнинг фаоллигига боғлиқ. Педагогик жараёнларга таълимнинг замонавий технологияларини киритиш, ёшларни мустақил ижодий ишлашга, эркин фикрлашга ўргатишни ҳозирги давр талаби экан, унинг таълим-тарбия билан узвийлигини таъминлаш бугунги кун вазифаси-



дир. Амалиётнинг кўрсатишича, дарс жараёнида ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш дарс мавзусининг муаммоли масалаларига диққатни қаратиш имконини беради. Ахборот-коммуникацион технологияларни ўқувчиларга улар мактабда таълим олишни бошланган вақтдан бошлаб оммавий равишда ўқитишни бошлаш керак. Замоनावий ўқитувчи дарс жараёнида «актёр» эмас, аксинча «режиссёр» бўлиши кераклигини англаши лозим. Бунинг учун эса у бир неча янги таълим усуллари яхши билиши керак, чунки бу бугунги куннинг замон талабидир.

Дунё давлатлари ўртасида рақобат кураши кучайган ҳозирги даврда инсон салоҳияти жаҳон ҳамжамиятида мамлакат рақобатбардошлигини белгиловчи омиллардан бири ҳисобланади. Чунки интеллектуал ресурсни сифатли бошқариш жараёнида инновациялар ва инновацион маҳсулотлар пайдо бўлиб, иқтисодиёт ва бутун мамлакатни янада ривожлантиришга кўмаклашади. Ўз навбатида, илмий салоҳият, қулай инвестиция муҳити, тегишли қонунчилик асоси, зарурий инфратузилма, ривожланган банк –молия тизими каби асосий таркибий қисмларсиз инновациялар ва инновацион фойлиятни босқичма-босқич такомиллаштириб бўлмайди. Инновацион таълим муассасасининг биринчи навбатдаги вазифаси –бу инновацияларни яратиш, ўзлаштириш, мустаҳкамлаш ва тарқатишга қаратилган инновацион дастурларни ишлаб чиқишдир. Бугунги кунда Республикада илмий изланишлар олиб бораётган 400 та атрофида ташкилотлар рўйхатга олинган. Охириги 10 йил ичида давлат илмий-техник дастурларини амалга оширишда 224 та илмий-тадқиқот муассасаси, олий ўқув юртлари, тажриба –конструкторлик ташкилотлари, илмий-ишлаб чиқариш корхоналари, кичик инновацион марказлар қатнашмоқда. Ўзбекистоннинг илмий салоҳияти 36 мингдан ортиқ мутахассисларни ташкил қилиб, улардан 2549 таси фан докторлари 9254 таси фан номзодлари ва 15,7 мингдан ортиқ тадқиқотчилардир. Илмий изланишлар Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг 45 та илмий-тадқиқот институтларида, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 34 та олий ўқув юртларида, Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 34 та илмий ташкилотларида, Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлигининг 30 та илмий ва олий ўқув юртларида, 79 та илмий ва инновация марказлари ҳамда юқорида келтирилган вазирликлар таркибига кирмайдиган лойиҳа, тажриба-конструкторлик ташкилотларида олиб борилмоқда. Олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш ва аттестацияси тизимининг сифати ва самарадорлигини тубдан ошириш, олий ўқув юридан кейинги таълим соҳасини янада такомиллаштириш, ёшларнинг илмий-тадқиқот фаолиятидаги интеллектуал салоҳиятини ҳар томонлама рўёбга чиқариш имкониятларини кенгайтириш мақсадида. Охириги йилларда фан тармоқлари бўйича катта илмий тадқиқотчиларнинг сони юқори суръатларда ўсмоқда. Илмий инновацион фаолиятнинг қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий асоси замоनावий тарзда мустаҳкамланди ва кенгайтирилди, академик ва олий ўқув юртлари фан тизими қайта ташкил қилинди, инновацион ишлаб чиқариш даражасини ошириш, ахборот ва инновацион инфратузилмани, кичик фан сиғимли корхоналарни, юқори технологиялар мажмуасини ривожлантириш тадбирлари кўрилди. Дунёнинг ривожланган мамлакатларида фан сиғимли маҳсулотлар ишлаб чиқариш йирик корпорациялар, фан сиғимли бизнес соҳасида ишлайдиган кичик ва ўрта корхоналар томонидан амалга оширилмоқда. Амалда бутун инновацион тизим давлат даражасида йирик, ўрта, кичик 636 10 корхоналарни бир томондан ва инвесторларни иккинчи томондан, бу фирмаларакциялари орқали амалга ошириладиган технологик рискларни суғурталаш ўзаро муносабатларининг яхши йўлга қўйилган механизмларига эга. Кичик ва ўрта корхоналар Европа минтақаси мамлакатларида устувор қўллаб-қувватлашдан фойдаланмоқдалар..

Хулоса қилиб айтганда, ахборот-коммуникацион технологиялари ўқувчиларнинг мустақил, ўзини бошқариш, ривожланишига ёрдам беради ва ўқувчининг ҳаётда фаол иштирок этиш имкониятини кенгайтиради. Асосийси, у ўқувчиларнинг коммуникатив кўникма ва малакаларини ривожлантиришга ва улар ўртасидаги ҳиссий мулоқотни ўрнатилишига ёрдам беради, компьютер билан ишлашга ўргатади. Дарсларни бундай ташкил қилиш, яъни дарс жараёнини ахборот-коммуникацион технологиялар орқали ташкил этиш ўзига хос сифат ва самарадорликни таъминлайди ва дарснинг сифат, самарадорлигига жавоб беради.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б. 2. Н.Абдурахмонова ва б.к
2. 2-синф Математика дарслиги Т-2018 йил 3. С.Бурхонов ва б.к
3. 3-синф Математика дарслиги Т-2019 йиллар.
4. 4. Бошланғич таълим журнали. Барча сонлари.
5. 5. www.pedagogk.uz
6. 6. www.ziynet.uz



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Islomova Feruza Shodmonovna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998 94 221 76 04

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonlig hamda matematika fanlarini o'qitishda o'quvchilarining o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish bo'yisha fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Psixologik fazilatlar, ikki bosqich, tushunchalar, yangi mavzu, mustahkamlash, takrorlash, taqqoslashga oid, she'riy topishmoq, misol, masala

Ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Maktab ta'limi fikrlaydigan, his qiladigan, intellektual rivojlangan shaxsni tayyorlashi kerak. Intellekt esa to'planagan bilimlar yig'indisi bilan emas, balki yuqori darajadagi mantiqiy fikrlash bilan belgilanadi.

Kichik maktab yoshi mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda eng qulay va samarali hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bolalar faoliyatning yangi turlari va shaxs-lararo munosabatlar tizimiga jalb qilinib, ulardan yangi psixologik fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Boshlang'ich maktab yoshida bolalarda sezilarli rivojlanish zaxiralari mavjud. Bola maktabga kelganida, o'rganish ta'siri ostida uning barcha kognitiv jarayonlarini qayta qurish boshlanadi. Demak, biz-o'qituvchilar ham boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarga aqliy harakatlarning asosiy usullarini o'rgatish uchun maqsadli ishlarni amalga oshirishimiz kerak

Fikrlash usullarini shakllantirish imkoniyatlari o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. O'qituvchi bu yo'nalishda faol va mohirona ishlashi, butun o'quv jarayonini bir tomondan bolalarni bilim bilan boyitishi, ikkinchidan esa, shakllantirilishi uchun imkoniyat tashkil qilishi lozim. Bolalarda og'zaki-mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ikki bosqichda o'tadi. Birinchi bosqichda bola predmet va harakatlar bilan bog'liq so'zlarning ma'nolarini, ikkinchi bosqichda esa munosabatlarni bildiruvchi tushunchalar tizimini o'rganadi.

Har bir inson foydalanadigan bilimlarning muhim qismini tushunchalar tashkil qiladi. Tushunchalar - bu ularning muhim belgilarining umumiyliigi bilan birlash- tirilgan hodisalar, narsalar, sifatlarning butun guruhi to'g'risidagi umumlashtirilgan bilimlar.

Shaxs aqliy fikr yuritishi, tahlil qilishi va zarur aloqalarni o'rnatishi, muayyan vazifa uchun unga ma'lum bo'lgan mos qoidalar, usullar va harakatlarni tanlashi va qo'llashi kerak. U solishtirishi va kerakli aloqalarni o'rnatishi, turli xil narsalarni guruhlashi va bir-biriga o'xshash narsalarni ajratishi va bularning barchasini faqat aqliy harakatlar orqali amalga oshirishi kerak.

Boshlang'ich sinf dars mashg'ulotlarida yangi mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash jarayonida mantiqiy savol-javoblar tashkil etish yaxshi samara beradi.. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan mantiqiy savol-javobli topshiriqlarga misollar keltiramiz.

I. Bolalarning borliqdagi narsalarni bilish darajasini aniqlashga, taqqoslashga doir quyidagicha savollar beriladi va bolaning javoblarining to'g'riligiga ko'ra, fikrlash xususiyatlari o'rgatiladi, xatolari tuzatiladi:

1. Qaysi hayvon yirikroq: otmi yoki itmi? (Javob: ot)
 2. Osmon ko'k va o'tlar? (Javob: osmon)
 3. Gilos, nok, olxo'ri va olma ... hisoblanadi? (Javob: mevalar)
 4. Hozir soat necha (Bolaga soat ko'rsatiladi va vaqtni nomlash so'raladi), (To'g'ri javob soat va daqiqalar ko'rsatilgan javobdir).
 5. Kim itga ko'proq o'xshaydi: mushukmi yoki tovuqmi? Javob bering va nima uchun shunday deb o'ylayotganingizni tushuntiring.
 6. Qanday transport turlarini bilasiz (to'g'ri javobda kamida 2 ta transport turi bor).
 7. Keksa odam yoshdan nimasi bilan farq qiladi? (to'g'ri javob kamida ikkita muhim xususiyatni o'z ichiga olishi kerak).
 8. Yosh qo'yning nomi nima?
- II. Bolalarning narsa, jism, voqea, hodisalar haqida mantiqiy fikrlashga o'rgatish maqsadida



bir nechta so'zlar ketma-ket yoziladi. Bir so'z qavs oldida, bir nechta so'z qavs ichida. Bola qavs ichidagi so'zlardan qavs tashqarisidagi so'zlar bilan eng yaqin bo'lgan ikkita so'zni tanlashi kerak.

- 1) Qishloq (daryo, / dala /, / uyda /, dorixonona, velosiped, yomg'ir, pochta, qayiq, it).
- 2) dengiz (qayiq, / baliq /, / suv /, sayyoh, qum, tosh, ko'cha, cho'kish, qush, quyosh).
- 3) maktab (/ o'qituvchi /, ko'cha, zavq, / talaba /, shim, soat, pichoq, mineral suv, stol, konki)
- 4) shahar (mashina, / ko'cha /, konki, / do'kon /, darslik, baliq, pul, sovg'a).
- 5) Uy (/ tom /, / devor /, bola, akvarium, qafas, divan, ko'cha, zinapoya, qadam, odam).
- 6) Qalam (/ qalam qutisi /, / chiziq /, kitob, soat, ball, raqam, harf).

Topshiriq bajarilgandan so'ng, to'g'ri javoblar soni hisoblanadi.

1-sinf o'quvchisida matematik tasavvur, tushunchalarni shakllantirish maqsadida qiziqarli mantiqiy she'riy topishmoqlardan foydalanish mumkin.

1. Ikki g'oz - bitta g'oz oldida. Ikki g'oz - bitta g'oz orqasida va o'rtada bitta g'oz Qancha g'oz bor? (uch)

2. Yetti aka-uka, bitta opa, hammasi qancha. (sakkiz)

2-sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undovchi ushbu misol va masalalardan foydalanish mumkin.

1. To'rtta 2 raqami hamda to'rtta arifmetik amal, qavslar yordamida 0; 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10 sonlarini hosil qilish mumkinmi? (Javob: 7 va 9 dan boshqasini mumkin)

2. Ikki xonali sonning raqamlar yig'indisi eng katta bir xonali songa teng. O'nlar xonasidagi raqam esa, bu yig'indidan 2 ga kam. Shu sonni toping. (Javob:72)

3. Ikki xonali sonning raqamlari yig'indisi eng kichik ikki xonali songa teng. O'nlar xonasidagi raqam birlar xonasidagi raqamdan to'rt marta kichik. Bu sonni toping.(Javob:28)

4. a) hamma raqamlari turlicha eng katta; b) hamma raqamlari turlicha va 4 ga bo'linuvchi eng katta sonni toping. (Javob: a) 9876543210; b) 9876543120)

5. Ikki xonali sonning raqamlar yig'indisi o'zidan 2, 3, ..., 10 barobar kichik bo'lishi mumkinmi? (Javob: 35)

6. Uch xonali sonning raqamlari yig'indisi sonning o'zidan 19 marta kichik bo'lishi mumkinmi? 38 marta-chi? (Javob: 432)

7. Ikki xonali sonning birinchi raqami o'chirilgandan keyin, uning qiymati 15 marta; 16 marta; 91 marta; 92 marta kamayishi mumkinmi? (Javob: 18)

Xulosa qilib aytganda, bunday mantiqiy tahlil usullari 1-sinf o'quvchilari uchun zarurdir, ularni o'zlashtirmasdan turib, o'quv materialini to'liq o'zlashtirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limning Matematika fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi.

2. 1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi 2021-yil.

3. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. P.f.dok diss. T.; 2001.

4. A. Qo'chqorov., Ismailov Sh. Mantiqiy masalalar/ Toshkent, 2008-y.



SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KOMIL INSON TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

Jalolova Yulduz Sa’dullayevna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
17-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Telefon:+998 93 435 35 94

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini yosh avlod ongiga singdirish ularning iste’dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo’naltirishda muhim o’rin tutishi bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Falsafiy, ijtimoiy, asarlarida, inson, bilish, ta’lim, tarbiya, mezon, baxt, bilim, ma’rifat, ilm-fan, xulqida, atrof, irsiyat, muhit, pand-nasihatlar.

Komillik insonning adolatli bo’lishi, haqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, iymon-e’tiqodli, aql-zakovatli bo’lish o’z xatolarini anglab, ulardan xalos bo’lishga harakat qilishi demakdir.

Sharqning buyuk mutafakkirlari o’zlarining komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlarini falsafiy, ijtimoiy fikrlari bilan bog’liq holda ifodalagan. Buyuk ajdodlar merosi o’zligimiz, ma’naviyatimiz, aslimizdir. Darhaqiqat, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlarimiz tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o’z asarlarida dasturilamal qilgan.

Buyuk mutafakkir Muhammad ibn Muso Xorazmiy o’z qarashlarida ta’limda talabaning shaxsiy kuzatishlariga katta e’tibor bergan. U sezgi orqali bilish – qisman bilish, mantiqiy bilishni esa haqiqiy bilish deb hisoblagan. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo’shgan. U insonni aqliy kamolga yetkazishda ilm-fan va ta’lim-tarbiya birlamchi deb hisoblagan.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan. Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o’rganish, kasb-hunar va ilmlarni o’zlashtirish-ma’rifatli bo’lish orqali erishadi deb qaraydi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, inson o’z-o’zidan baxtli bo’la olmaydi, u baxtli bo’lishi uchun jamiyat unga ma’naviy unsurlarni taqdim qilib berishi kerak. Buning uchun avvalo odamlarni axloqiy jihatdan fozillashtirish dardkor

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy insondagi barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda, deb bilgan. Beruniy inson kamolotida uch narsa: ma’rifat, ilm-fanni ham e’tirof qiluvchi – irsiyat, ijtimoiy muhit va to’g’ri tarbiya muhimligini ta’kidlaydi. Beruniy yoshlarni ilmga o’rgatish jarayonida aqlga va tajribadan o’tgan bilimga tayanish lozimligi to’g’risidagi g’oyani ilgari surgan holda, bolalar bilishi va o’rganishi lozim bo’lgan fanlarni haqiqiy fanlar (til, adabiyot, falsafa, tarix, etnografiya, she’riyat, psixologiya, matematika, fizika, jug’rofiya, geodeziya, falakiyot, minerologiya, tibbiyot)ga bo’ladi. Bu fanlarning har biriga o’z davrigacha bo’lgan bilimlarni umumlashtirib, o’zining yangi xulosalari bilan katta hissa qo’shgan. Beruniy umuman til, til ilmi haqida gapirib, til kishilar o’rtasidagi aloqa va fikr almashuvi vositasigina emas, balki til ilmi barcha fanlarning asosini o’rganishi kaliti deydi.

Markaziy Osiyoda uyg’onish davrining eng mashhur mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino falsafa, tabobat, tabiatshunoslik, falakiyot, tilshunoslik, mantiq, adabiyot, pedagogika, psixologiya, fizologiya, fiqh, musiqa kabi fan sohilariga bag’ishlab 450 dan ziyod yozgan asarlari bilan jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo’shgan va o’z davrida “Shayx-ar-raisi” (Olimlar raisi) unvoni bilan taqdirlandi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino inson kamolotga erishishining birinchi mezoni bilimlarni egallash kerakligini ta’kidlaydi. Buning sababi shundaki, ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson duch kelinadigan qiyinchiliklardan qo’rqmasligi zarur, deydi.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o’rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etishini uqtiradi. Shu bois ham mutafakkir bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo’lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarur deb



hisoblaydi.

Yetuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib ta'limotida ham inson komilligi, kamoloti masalalari keng o'rin olgan. Uning mashhur “Qutadg'u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asarida ta'lim-tarbiya masalasi atroficha tahlil etilgan. Asardagi shaxsni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan pand-nasihatlar yoshlarni chin ma'noda komillikka yetaklovchi yetuk ma'rifiy qo'llanmadir.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlod ong-u shuuriga buyuk allomalarimizning ma'naviy-axloqiy qarashlarini chuqur singdirish ularda kelajakka bo'lgan ishonch hissini shakllanishida, iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov K. Nishonova S Pedagogika tarixi. Darslik –T: O'qituvchi, 2005-yil.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T., O'qituvchi 2010-y.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y.
4. Komil inson haqida to'rt risola. T.: Ma'naviyat. 1997-y.
5. www.ziynet.uz



SUST O‘ZLASHTIRISHNING OLDINI OLISHGA YO‘NALTIRILGAN TADBIRLAR

Kuryazova Gulbahor Sapayevna

Ismoilova Nodira Ravshanovna

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi 42-son maktabning

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Telefon: +998997136266

Telefon: +998919149598

Annotatsiya: *ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari boshlang‘ich sinflarida o‘zlashtirishi past o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirilgan tadbirlar keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktab, ta‘lim, o‘qituvchi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, javobgarlik, tartib, intizom.*

Respublikamizda ta‘lim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, aqlan rivojlangan, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sog‘lom, axloqan pok, erkin, ijodkor, komil insonni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizni ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan shaxs sifatida voyaga yetkazish barchamizning ezgu vazifamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining shakllanishida o‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Muloqotga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo‘riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog‘cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab, shuningdek, o‘smirlik davrida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning ular haqidagi fikr va bergan bahosiga qarab, o‘zlariga o‘zlari baho beradilar.

Iqtidorli o‘quvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, o‘zlashtirishi past o‘quvchilarni solishtirish bo‘yicha umumlashtirish tadbirlaridan tashqari, dastlabki jamoalardan sinflararo guruhiy va individual profilaktik tadbirlar ham zarur. Boshlang‘ich sinflarda o‘zlashtirmaslikning oldini olishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar aqliy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Sinfda o‘tkaziladigan tarbiyaviy ta‘sir o‘qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari kuchini o‘quvchilarning o‘qish muvaffaqiyati yo‘lida birlashtirish bilan bog‘liq. O‘qishda qiynalayotgan bolalarga nisbatan qulay axloqiy iqlim yaratish muhimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning ustidan kulish, haqoratlashlariga yo‘l qo‘ymaslik, anti pedagogik usullarga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Bunday iqlimni yakdil tashkil etilgan jamoadagina yaratish mumkin. Shuning uchun ham o‘zlashtirmaslikning oldini olishning muhim tarbiyaviy ta‘sirilaridan biri o‘quvchilar jamoasida birdamlikni tarbiyalash, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda yoshlar tashkilotining rolini oshirish bo‘yicha tadbirlar tashkil etish muhim hisoblanadi. Jamoadagi barcha tarbiyaviy kuchlarning maqsadga yo‘naltirilgan ta‘siri va birlashishi natijasida bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi o‘zini-o‘zi tarbiyalashi mumkin bo‘ladi va o‘qishga nisbatan qiziqishi oshadi. O‘quvchilarning o‘zlashtirmaslik sabablari haqidagi psixologik pedagogik yig‘ilish xulosasi bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq, uy vazifalarini bajarishning oqilona yo‘llarini ko‘rsatish, uy vazifalarini bajarishga ketadigan vaqtni doimo tahlil qilish zarur.

O‘zlashtirmaslikning oldini olish uchun sinfda o‘tkaziladigan tadbirlar: Boshlang‘ich sinflarda o‘quv ishlarini tashkil etish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarga o‘z kun tartibini oqilona tashkil etishga o‘rgatish, uy va maktabdagi mustaqil o‘quv ishlarining asosiy bosqichlarini ajratish, kitob bilan to‘g‘ri ishlash, o‘quv va mehnat topshiriqlarini bajarishda doimiy o‘z-o‘zini tekshirishni amalga oshirishga qaratish lozim. Diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish yo‘llari bilan o‘quvchilar salohiyatini oshirib borish muhim.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan guruh ichidagi va individual tadbirlar: tarbiyaviy ishlar vositasida o‘zlashtirmaslikning oldini olish sinf jamoasi hayotini shunday tashkil etish bilan bog‘liqki, bunda har bir o‘quvchi, ayniqsa, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi o‘rtoqlari bilan doimiy aloqani his qiladi. Ular bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Bu esa sinfdan tashqari



ishlarning har xil shakllarini tashkil etish va turli o'quvchilarni maktabdagi o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimiga jalb etishni anglatadi. Bunday ishlarni tashkil etishda o'g'il va qiz bolalarning qiziqishlari hisobga olinishi, o'quvchilarda mustaqillikni rivojlantirish juda muhim sanaladi. Bunda o'quvchilarga ota-onalari yordam berishi mumkin. O'quv yili boshida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ota-onalari bilan yaqin aloqa o'rnatish uchun barcha chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularning uylariga borish, farzandlari o'zlashtirmasligini oldini olish bo'yicha hamkorlikda ishlar rejasini tuzib chiqish lozim.

Oilaning tarbiyaviy ta'siri mahsuldorligini oshirish maqsadida ota-onalar majlislarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasidagi ularning rolini oshirish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish zarur. O'qishda orqada qolishning oldini olish bo'yicha sinfdagi tadbirlar individual ishlar bilan olib borish lozim. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni oqilona rejalashtirish va tashkil etishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, o'z-o'zini nazorat qilish, uy vazifalarini bajarish, oraliq va mustaqil ishni shakllantirishga e'tibor berish lozim.

Maxsus to'garaklar mashg'ulotlaridan ma'lum bo'lishicha, boshlang'ich sinflarda uy vazifalarini bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga nisbatan ko'proq yordam ko'rsatish, ularga murakkablik qilgan savollarni albatta, nazorat qilish zarur. Dars qoldirgan o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirganini nazorat qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avlayev O., Juraeva S., Mirzaeva S. «Ta'lim metodlari» T.: «Navro'z». 2017
2. Yo'ldoshev J. Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish - T.: «Fan va texnika» 2008



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mamaraimova Zebo Tojimurodovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Irgasheva Gulmira Shuxratovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mardonova Shahnoza Karimjonovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar biologik ta'lim jarayonida ilmiylik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi sistemalilik, onglilik, mustaqillik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning metodologik prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, samaradorlik, tushunarlilik, individual va guruhli yondashishni uyg'unlashtirish, zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: suhbat metodi, hikoya metodi, ma'ruza metodi, ko'rgazmali metodlar, ko'rgazmali dasturlar, fundamentallik, izchillik.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnida samarali foydalanishni talab etadi. Boshlang'ich sinf darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi.

Boshlang'ich sinf darslarida o'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlariga haqida fikr yuritiladi. Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi. Quyida shu metodlarning tarkibiga kiruvchi metodik uslublar keltiriladi: Suhbat metodi suhbat savollarini ketma-ketlikda qo'yish, yordamchi va qo'shimcha savollarni o'z vaqtida berish, o'quvchilarni faollashtirish, o'quvchilar javobidagi xatolarni to'g'rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslubi. Hikoya metodi o'quv materialini jonli, obyektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarlilik, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi. Ma'ruza metodi o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, obyektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uslubi.

Boshlang'ich sinf darslarida Innovatsion texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish dolzarb masala bo'lib, darslarni qiziqarli o'tishi uchun juda qulay. Chunki ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o'quv jarayonini faollashtirish, talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil ikirlashga hamda o'z fikrini bayon etishga o'rgatishdir. Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Boshlang'ich sinf darslarida hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib



chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi hamda o'qituvchi tinmay o'z ustida mustaqil ishlashi fandagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi ilg'or metodikalarga ega bo'lgan tajribali metodist-o'qituvchilar bilan o'z tajribalari to'g'risida o'rtoqlasha olishi, samarali o'qitish metodikalarini namoyish eta olishi lozim.

Ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash geografiya o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Boshlang'ich sinf darslarida o'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfdagi auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining maktabdagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Shu sababli, darslarni shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida o'quvchilarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Pedagogik muloqat o'rnatish uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan foydalanish extiyoji tug'iladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish dolzarb masala bo'lib, darslarni qiziqarli o'tishi uchun juda qulay. Chunki ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o'quv jarayonini faollashtirish, talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil ikirlashga hamda o'z fikrini bayon etishga o'rgatishdir.

Xalq ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay olishi lozim. Shu maqsadda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

Boshlang'ich sinf darslarida ko'rgazmali metodlar guruhiga tabiiy va tirik obyektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, AKTning ko'rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlari kirib, muayyan holda quyidagi ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish, illyustratsiya, demonstratsiya, o'quv kinofilmlari, videofilmlar, AKTning ta'limiy, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish, ko'rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi. Amaliy metodlar guruhiga kuzatish, tajribani tashkil etish va o'tkazish, amaliy ishni bajarish metodlari kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat bo'ladi. Muammoli izlanish metodlari muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilish, o'quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o'quv-tadqiqot tajribalarini o'tkazish, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflash uslublarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf darslarida o'qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo'lib: a) induktiv metod xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o'quvchilar faoliyatini xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish uslubi; deduktiv metod umumiy



qonunlarni bayon qilish, o‘quvchilarning faoliyatini umumiydan xususiy xulosa chiqarishga yo‘naltirish uslubi; d) tahlil metodi axborotni anglab idrok etish, o‘rganilgan obyektlarning o‘xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o‘rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o‘rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi; e) bosh g‘oyani ajratish metodi — o‘quv materialidagi asosiy g‘oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g‘oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi; f) qiyoslash metodi qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslubi; g) umumlashtirish metodi o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarish uslublarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mustaqil ish metodlari guruhiga ko‘rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishlash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o‘quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A. G‘ofurov A. Abdulkarimov va b Biologiya 11-sinf uchun darslik “Sharq” Toshkent 2018
2. T. G‘ofurov va boshqalar „Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi“ O‘quv metodik qo‘llanma Toshkent 2005 yil
3. Abdieva Z.A. Geografiya fanida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy., 2003
4. Yo‘ldoshev J.G. «YAngi pedagogik texnologiyalar» (yo‘nalishlari, muammolari, echimlari) – «Boshl. ta’lim», 1999 yil, № 6, 2-5 betlar.



BOLADA MUSTAQIL DARS QILISH VA KITOB O‘QISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Niyazova Ozoda Atabekovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 7- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998977920420

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish ini oshirishda o‘qituvchining asosiy vazifalari va bu borada samarali natijalarga erishishning qulay usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ta’lim, mustaqil kitob o‘qish mutolaasi, tafakkur, o‘quvchi, o‘qituvchi mahorati, og‘zaki nutqni o‘stirish, talablar.

O‘qish o‘z mazmun-mohiyati jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular yordamida o‘quvchi ma’lum bilimlarni o‘zlashtiradi. “O‘qish” deganda bolada kerakli bilimlarni o‘zlashtirish nazarda tutiladi. O‘qish shaxsning ongliligi bilan bog‘liq hodisa. O‘qituvchi uchun o‘qish tezligini oshirish eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘qishdan so‘zlarni tez va tog‘ri o‘qigan bola boshqa fanlarni ham oson o‘zlashtiradi. O‘quvchilarni maktabga qadam qo‘ygan ilk kundan boshlab kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib borish zarur. 1- sinfga qadam qo‘ygan bola harflarni tezroq o‘rganishni, mustaqil o‘qishni xohlaydi.

Bolaning tafakkuri, xotirasi, iqtidori va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishi maktabga ilk qadam qo‘yishda muhim sanaladi. Bolaning psixologik rivojlanganligi idrokining o‘tkir, ravshan, aniqligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolliigi bilan belgilanadi.

Birinchi sinfga borgan o‘quvchilarning aksariyati o‘qishning dastlabki kunlarida o‘qishga juda qiziqadilar. Birinchi sinf o‘quvchisida, ayniqsa, o‘qish faoliyatining aynan o‘ziga qiziqish ko‘zga tashlanadi. O‘quvchining o‘qish davridagi birinchi mehnati natijasi shodlik va quvonch his-tuyg‘usini keitirib chiqaradi. Misol uchun, ayrim o‘quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga harakat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mustaqil ravishda dars tayyorlashi hamda kitob bilan do‘stlashishi uchun o‘qituvchi juda mahoratli bo‘lishi kerak. Har bir darsda, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarda kitob o‘qishga mehr uyg‘ota olish, mustaqil ravishda dars tayyorlashi uchun ma’lum bir bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish zarur. Bu o‘quvchining har tomonlama yetuk, barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishida katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kitobga mehr uyg‘otishda to‘garaklarning o‘rni katta deb o‘ylayman. Misol uchun, o‘quvchilar “Ertaklar - yaxshilikka yetaklar” to‘garagida biror bir ertakni sahnalashtirish uchun o‘quvchi o‘sha ertakni qayta-qayta o‘qib yod oladi. Ertakdagi rolni ijro etish uchun o‘ziga berilgan har bir so‘zni qoldirmasdan zavq bilan yod oladi. Shu tariqa o‘quvchida mustaqil dars tayyorlash hamda kitob oqish, badiiy kitoblarga qiziqish ortib boradi. Bola qiziqib, ertakdagi berilgan qahramonining so‘zlarini yod olgani sari so‘z boyligi ortadi, darslarni yaxshi o‘zlashtiradi. Kitob o‘qigan bola yomon illatlardan yiroqlashadi. Kitob bola ma’naviyatini boyitadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kitob bilan do‘stlashishida maktabda o‘tkaziladigan ma’naviy-marifiy tadbirlar ham juda katta ijobiy ta’sirga ega. Bunda, asosan, o‘quvchilar tadbirlarga tayyorlanish jarayonida izlanadi, kitoblardan qiziqarli ma’lumotlar oladi. Tadbirlar mavzusiga oid she’rlar, sahna ko‘rinishlari uchun ertaklar tanlaydilar. Ayniqsa, iqtidorli o‘quvchilar sinf ro‘znomalarini tayyorlashda mustaqil ijod qiladilar, izlanadilar.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi beshta muhim tashabbusning ham aynan to‘rtinchi yo‘nalishi kitobxonlikni targ‘ib qilishdir.

Boshlang‘ich sinflarda beshta muhim tashabbusning har bir yo‘nalishini darslarda singdirib borish ayni muddaodir. Misol uchun, birinchi tashabbus bo‘yicha turli tadbirlar, to‘garaklarda, dars jarayonlarida o‘quvchilarning musiqa, rassomchilik, adabiyot va teatrga qiziqishini oshirish va iste’dodini yuzaga chiqarish mumkin. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham kompyuter texnologiyalaridan foydalanmoqdalar. Demak, biz ularga uchinchi tashabbus - kompyuterdan samarali foydalanish haqidagi bilimlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bugungi kunda kitobni elektron dasturlar va kompyuter yordamida ham o‘qish mumkin. Ammo bosma shakldagisini o‘qishning



zavqi boshqacha. Uni o'qish jarayonida o'quvchilar ertaklardagi qahramonlar bilan bo'ladi, ulardagi yaxshi fazilatlarni o'rganadi. Bu aynan to'rtinchi tashabbus ijrosi sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarni kitob bilan do'stlashtirib, bilimini oshirishda, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, dars jarayonlarida xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladigan ta'limiy o'yinlarning ahamiyati katta, deb o'ylayman. Ushbu jarayonlar davomida o'quvchilarni mustaqil ravishda darslarni tayyorlashga, kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqi oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Uzluksiz ta'lim” jurnali - 2015y i 1 1, 2, 3- sonlar.
2. O'qish fanidan o'quv dasturi 1-4- sinf, Toshkent- 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 19- martdagi ma'ruzasi.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.****Nurullayeva Nilufar Xolmurat qizi**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

15-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish haqida fikrlar yuritilgan. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida interfaol ta‘limni mohiyati, darsda barcha o‘quvchilar bilim jarayoniga jalb qilinishi, o‘quvchining muayyan nazariy bilimlarini puxta egallashi, har bir o‘quvchining faoll ishtiroki, o‘quvchining erkin fikrlashi hamda layoqatini shakllanishi va mantiqiy tafakkurini rivojlanishi haqida tahlil qilingan.

Tayanch so‘z va iboralar: interfaol metodlar, ta‘lim jarayoni, tafakkur, qiziqish, interfaol texnologiyalar, rivojlantirish, kafolotlanganlik natijasi, faollik, samaradorlikka erishish, metodlar. Interfaol so‘zi o‘zi nimani anglatadi? Bu so‘z bizga “interact” ingliz so‘zidan kelgan bo‘lib inter – o‘zaro, ikki taraflama; act – ish (harakat) qilmoq degan ma‘nolarni beradi. Interfaol – kim (inson) yoki nima (kompyuter) bilandir o‘zaro harakat qilish, yoki muloqotda bo‘la olishni anglatadi. Bundan kelib chiqib, interfaol ta‘lim berish – bu avvalambor o‘quvchi va o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqa (harakat) vujudga keladigan muloqotli dars berish jarayonidir. Interfaol ta‘limni mohiyati shundaki, darsda barcha o‘quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadilar, ularda bilgan narsalari buyicha tushunish va harakat qilish imkoniyati bo‘ladi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonida birgalikdagi faoliyati, o‘quv materialini o‘zlashtirishi, har bir ishtirokchi o‘zini alohida xissasini qo‘shishini, bilim va ma‘lumotlar, g‘oyalar almashuvi ro‘y berayotganini anglatadi. Bularning barchasi hayrixohlik va o‘zaro yordam muhitida amalga oshadi. Bunda o‘quvchi nafaqat yangi bilimlar oladi, balkim idrok etishni rivojlantiradi, hamkorlik yuzaga keladi. Zamonaviy o‘qituvchi bilim va ma‘lumot uzatuvchisi emas, balki o‘quvchi bilan hamkorlik qiluvchi o‘quv jarayonining tashkilotchisi. U bolalar bilan hamkorlikda fanni o‘rganadi, shu bilan birga bolaga dunyo manzarasining yaxlitligini anglash yo‘llarini o‘rgatadi. Dars nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish vositasi hamdir. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o‘z aksini topgan. Bular: “Aqliy Hujum”, “Yalpi fikriy Hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Zig-zag”, “6x6x6”, “Qora quti”, “Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim”, “Klaster”, “Shlyapa”, “Panaroma” va xokozo. Ta‘lim jarayoniga bu metodlarni qo‘llash: - o‘quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o‘zlashtirish; - vaqtning tejalishi; - har bir o‘quvchining faollikka undalishi; - o‘quvchining erkin fikrlash layoqatini shakllanishi; - o‘quvchida o‘zgalarning fikrini tinglay olish ko‘nikmasining hosil bo‘lishi; - o‘quvchining o‘z fikrini himoya qila olishi; - o‘quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko‘nikmasini shakllanishiga olib kelashi. Ta‘limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, o‘quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta‘limning zamonaviy texnik vositalari va ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo‘lib, ikkinchi talqin, ta‘lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta‘minlaydi. O‘quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir: - boshlang‘ich ta‘lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shartsharoitlarni yaratish; - boshlang‘ich ta‘lim tabiiy fan darslari pedagog xodimlari o‘rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o‘quv seminarlarini tashkil etish; - pedagogik texnologiya asoslarini puxta o‘zlashtirilishiga erishish; - boshlang‘ich ta‘lim darslarida ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuv hissini tarbiyalash; - boshlang‘ich ta‘lim darslarida o‘qituvchilarning texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish; - boshlang‘ich ta‘lim darslari o‘qituvchilari tomonidan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish; - boshlang‘ich ta‘lim darslari o‘qituvchilarining texnologik asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish; - boshlang‘ich ta‘lim darslarining samaradorligini ta‘minlash



Boshlang‘ich ta‘lim darslari o‘qituvchilari o‘rtasida interfaol metodlar va ularning mohiyati xususidagi nazariy ma‘lumotlarni targ‘ib etish muvaffaqiyatini pedagogik jamoa, shuningdek, individual pedagog xodimlarda ularni o‘rganishga nisbatan ehtiyoj, qiziqishning yuzaga kelishini belgilaydi. Yuzaga kelgan ehtiyoj hamda qiziqish ularni qondirish imkonini beruvchi amaliy faoliyatni tashkil etishga nisbatan qaror toptiradi. Shunday qilib ta‘lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchi ta‘lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta‘limning ob‘ekti va sub‘ekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta‘lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi Innovasiyasi va integrasiyasi.
2. Shodmonova Sh.S., Mirsagatova N.S., Ibragimova G.N., Mirsolieva M.T. Pedagogik texnologiyalar (metodik qo‘llanma). –T.: “Fan va texnologiya”, 2011 y. 140 b. 24-33 betlar.
3. G‘oziev E. "Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta‘siri". Ma‘rifat gazetasi. 2000 yil. 14-bet.



TECHNIQUES AND METHODS FOR IMPROVING READING SKILLS

Gulmurodova Asiya Chorakulovna
Nurimbetova Gulzada Ilhom qizi
English language teachers of 4th school

Abstract: Many people who want to improve reading skills are already avid readers. One of the main objectives for these individuals is to have the ability to read faster who learning more information accurately. This is not a very easy task. Even the well-versed reader will admit taking in a lot of written information quickly does not usually result in comprehension call.

Keywords: visualaids, non-verbal, rephrase, practicing, Elicit, enrichment.

In this methodical recommendation I’ve tried to widen the knowledge of school-graduates about Distance learning. As we know, each medal has two sides: simply put good and bad. In other words, it sounds like Advantages and Disadvantages of Distance Learning. Here I gave some recommendations if one wants to have a distance learning and has some uncertainties, I hope my advice will help with choice.

Game “My Family Tree “

Objective: to develop pupils’ reading skill



Fill in the apples (either with photos or with names) to build a family tree. The child (and their siblings) go on the top of the tree. The next row is mom and dad and the bottom row is the two sets of grandparents.

The apples are a separate template that you glue on, so different family structures can be represented.

Materials: printer, paper, scissors, glue, marker

OPTIONAL: photos of the family members

Instructions: print out the tree template and the apples template
color the template pieces and cut out the apples

Miming game (8 min.) Teacher distribute different members of family cards each pupil and he/she shows them with gestures and the other pupils should find who he or she is.

How old are you? I'm _____ years old.

20	14	10	18	6	← 2
🐼		13	12		11
9		1	8		8
7		20	5		🐼
17		🎲	4		19
15		19	12		9
2		17	3		6
Start		11	7	16	Finish


“ Dress members of family” (5 min.)

Teacher **Game** sticks the naked members of family pictures on the one side of blackboard family .

Objectives: To practice and another side pictures of clothes and one by one pupils come to the blackboard and should dress them.

Activity 5. Make up their working in group


Materials: Coloured papers Interaction: group work,
Procedure : Teacher gives each group coloured papers of





different figure. Figures are circle, square, triangle. Teacher asks pupils making up their family from these different papers.

For example:



Father mother brother sister

“How old is your sister?” 5 min

Objectives: to recycle the family members; to consolidate the numbers.

STEP 1: Ask the pupils to work in pairs. Ask all the pupils to write about their real or imaginary family members' ages.

STEP 2: After writing family members' ages, Pupil 1 asks his/her partner and Pupil 2 answers as follows:

Pupil 1: ‘how old is your sister?’

Pupil 2: ‘she’s 20. how old is your brother?’

Play “More. Less.” 10 min

Objective: to consolidate the cardinal numbers from 11 to 20

Say that the pupils will play a game. Choose a leader. explain that the leader thinks of a number among 11 to 20. The rest of the class will guess the number. For example, the leader thinks of the number 15. if the pupils say ‘12’, the leader says ‘More’. if the pupils say ‘16’, the leader says ‘Less’. ‘More’ if the number s/he thought of is bigger than the guessed number or ‘Less’ if the number s/he thought of is lower than the guessed number.

For example:

The leader: thinks of the number 15. The class: ‘12.’

The leader: ‘More.’ The class: ‘14.’

The leader: ‘More.’ The class: ‘16.’

The leader: ‘Less.’ Class: ‘15.’

The leader: ‘Yes.’

The pupils can play the game several times. You can also play the DVD and do the activity similarly.

References

1. <https://infourok.ru/prezentaciya-distance-learning-pros-and-cons-1901837.html>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Distance_education
3. <https://www.educationcorner.com/distance-learning/distance-online-learning-guide.html>



**BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA
O'QUVCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Parmanova Dilnoza Choriyevna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf fani o'qituvchisi.

Xurramova Lola Ziyodullayevna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf fani o'qituvchisi.

Alibayeva Gavhar Djurayevna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida pedagogik texnologiya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijodkorligini oshirish masalasini klaster yondashuv asosida yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: klaster, klasterli yondashuv, aksiologik, psixologik, metodlar, maqsad

Аннотация: В статье рассматривается вопрос повышения творческих способностей учащихся начальных классов в сфере технологий на основе кластерного подхода.

Ключевые слова: кластер, кластерный подход, аксиологический, психологический, методы, цель.

Abstract: The article discusses the issue of increasing the creative abilities of primary school students in the field of technology based on the cluster approach.

Keywords: cluster, cluster approach, axiological, psychological, methods, aim.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab.

Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida ona tili va o'qishning o'rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ushbu fanlar orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tili va o'qish fanlarini o'qitilishiga alohida e'tibor qaratmoq joizdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijobiy tasavvur, nutq va tafakkurni o'stirish, qadim-qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr-muhabbatni tarbiyalash, uni e'zozlashga o'rgatish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatish.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi o'z o'zidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishi, psixologiyasini hisobga olish zarur. O'quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotidan beziradi. O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o'yinlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamagandek, o'qib charchaganini sezmaydi. Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan iborat:

Motivlar, O'quvchining o'quv-bilish jarayoni, boshqarish Didaktik jarayonning samarali o'tishida bu komponentlar muhim o'rin tutadi.



1-sinfda o'qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi:

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari, bilimlarini mukammal egallashlari, hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lmagan so'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qish. Bolalar hayoti bilan bog'liq bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli so'zlarni bir tekis o'qishlariga erishish. Buning uchun o'qituvchi o'qiladigan asar matnini o'rganish jarayonida o'qilishi qiyin o'rinlarni belgilashi va o'qishni differensial usulda tashkil etishi, ya'ni o'qilishi qiyinroq o'rinlarni yaxshiroq o'qiydigan o'quvchilarga, oson o'qiladigan o'rinlarni o'qish malakasi bo'sh o'quvchilarga o'qitishni mo'ljallashi lozim. Bog'in tuzilishi murakkab so'zlarni kartonga solib yoki xattaxtaga bo'g'inlarga bo'lib yozish, jo'r o'qitish usulidan foydalanish, so'z ma'nosini izohlash yo'li bilan to'g'ri o'qishni amalga oshirish kerak.

1-sinflarda o'qishning ovoz chiqarib, ba'zan shivirlab o'qish turidan foydalanish talab etiladi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarning to'g'ri o'qishini hisobga olish va to'g'irlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. O'qish darslarida turli janrdagi asarlarni o'rganishda ham o'quvchilarning badiiy asarni chuqur o'zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta'minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e'tibor qaratildi. O'qish darslarida izohli o'qish, ijodiy o'qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin. Izohli o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo'lgan, ularning asta-sekin o'sishini ta'minlaydiga metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi. Izohli o'qish ongli, tushunib o'ylab o'qishga o'rgatadi. Izohli o'qish tamoyillari:

Texnologiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijodiy o'qish asar o'qib berilgach, o'quvchilarda hosil bo'lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda reja tuzishda, asar ustida ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o'quvchilarni faollashtiradi.

Reproduktiv metodda asar matni qismlarga bo'linadi, yozuvchining aytmoqchi bo'lgan fikriga o'quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so'z, ibora ifodalarni aniqlab ko'rsatadi, ularga yuklatilgan ma'noni o'quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini bajaradi. O'qituvchining yo'llovchi savollari yordamida bu vazifani o'quvchilar o'zlari mustaqil bajaradilar.

Ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarini namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.

Texnologiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quvchilarni applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda turli metodlardan foydalanish, o'quvchini ijod qilishida o'qituvchini induvidial yondoshuvini ta'minlashda shart-sharoitlarini ishlab chiqish. Mehnat darslarida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, applikasiya ishlari orqali tarbiyalashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlashlari uchun qo'shimcha amaliy mashg'ulotlar va to'garaklar faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish ishlarida samarali natijalarni qo'lga kiritish mumkin. Muammoni hal etish jarayonida boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda, tarbiyalashning afzalliklari va istiqbollari ochib berildi; o'quvchilarni applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda turli metodlardan foydalanishning o'ziga xos ilmiy pedagogik-psixologik va metodik jihatlari yoritildi; metodlari va vositalari tajriba ishlarida qo'llanildi va samarali natijaga erishildi.

Pedagogik darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijodkorligini oshirishda applikasiya ishlaridan foydalanish yo'llari o'quvchilarda turli mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy va axloqiy, estetik jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh hususiyatlarini, shaxsiy, psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olindi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish. O'quvchilarni bilim, o'quv ko'nikmalarini turli usullar bilan davlat ta'lim standartlariga binoan nazorat qilib borildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorligini oshirishda applikasiya ishlaridan foydalanishda amaliy mashg'ulot davomida ko'zlangan maqsadga va natijaga erishildi.

Xulosa qilib aytganda, Pedagogik darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim makonini klasterlashtirish ta'limni zamonaviylashtirish va ta'lim tizimini kompleks model asosida qurishga imkon yaratadi: u o'z ichiga konseptual (maqsadlar, metodlar, shakllar, vositalar va b.), aksiologik (qadriyatlar), psixologik-pedagogik (ta'lim oluvchilarning qadriyatlarini o'zlashtirish



mexanizmlari), tashkiliy-boshqaruv (tarbiya tizimida boshqaruv elementlari) komponentlarini joylab olgan bo'ladi. So'nggi 4-5 yillar ichida klaster tizimini shakllantirish davlat siyosatining muhim qismiga aylandi hamda klasterli rivojlanishning yutuqlari bizning nazarimizda quyidagilarda ko'rinadi: - klaster rivojining barcha bosqichlarida tashkiliy nazorat ta'minlanadi; - investitsion loyihalarni amalga oshirish muddatlari ta'minlanadi hamda klaster ishtirokchilarining dastlabki sarflamalari iqtisod qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Saloxitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.
2. J. Yo‘ldoshev, F. Yo‘ldosheva, G'. Yo‘ldoshev “Interfaol ta’lim sifat kafolati” T. 2008.
3. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019.
4. E. Shodmonov, G.Eshturdiyeva 1-sinfi uchun darslik Toshkent — 2017yil.
- 5 . <https://www.pv.uz>



PEDAGOGIKADA MUOLAMA VA MAHORATNING AHAMIYATI

Qirg'izova Sayyora Abdullayevna

Fargona viloyati Farg'ona tumani

62 – maktab biologiya fani o'qituvchisi

Nurmatova Zirolat Ergashboyevna

Fargona viloyati Farg'ona tumani

62 – maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogic mahorat va pedagogik muomala metodining fanlar tizimidagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, pedagogik muomala, pedagogik faoliyat.

Muallim ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan o'quvchilar, kasb-doshlari, ota-onalar muallimning har bir harakati, barcha ishlarini inson sifatida kuzatib boradi, his etadi, axloqiy jihatdan baholaydi, qabul qiladi yoki rad etadi. Xullas, ta'lim-tarbiya ishlari-ning natijasi, o'qituvchi faoliyatining ta'sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muo-mala odobiga, pedagogik jarayon ishtirokchilarining axloqiy-ruhiy holati, kayfiyatiga bog'liqdir.

Pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala munosabatlar katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plagan bilimlarni, axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatleri, xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini (mezonlarini) o'zlashtiradi. O'quvchi muomala metodini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi ham mumkin.

Respublikamiz o'qituvchilari orasida o'z ishining ustasi, Xalq o'qituvchisi, Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi deb tan olingan, ota – onalar, yoshlar e'zozlab Ustoz deb ataydigan mo'tabar insonlar ko'plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik ko'rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib o'lar qalbiga halolik, guzallik, metod axloq nurini singdira loganliklari, xushmomila bo'lganlari uchun ham bunday obro' va hurmatga erishganlar.

O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida nizolar kupincha bolaga nisbatan adolatsizlik qilish, unga qo'yilayotgan talablar mavhumligidan kelib chiqadi. Bunday o'qituvchi bolani asosiz ayblayotganini, talabchanlik, pedagogik jamoa rahbarlarining unga qo'ygan to'g'ri talabni esa adolatsizlik deb qaraydi. Bolaning mustaqil harakatlarini – uning obro'sini to'kishga intilish, itoatkorligini esa eng yaxshi xislat deb biladi. Muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi nizomlar haqida gap borganda shuni esda tutish lozimki, ta'lim – tarbiya juda murakkab, qarama- qarshiliklarga to'la jarayondir. Ularni bartaraf etish muqarrar ravishda nizolar chiqishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bu nizollarni oqillona hal etish uchun muallim ularning mohiyati va sabablarini aniqlashi, bilishi kerak.

Ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy har bir bolaning tarbiyasi uchun yuksak mas'uliyatni bolaga nisbatan bir xil talablar qo'yib, birgalikda tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni taqazo etadi. O'qituvchi metodida muallimlar o'zaro muomala munosabatlarida amal qilishlari zarur bo'lgan axloqiy talablar ishlab chiqarilgan.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash

Har bir bolaning tarbiyasi uchun mas'uliyatning birligi pedagoglar jamoasining o'quvchiga nisbatan talablari ham bir xil bo'lishini taqazo etadi. Bu o'qituvchi metodining qonuniyatlaridan biridir. Maktab pedagoglar jamoasining maqsadi, intilishlari, talablari yagona bo'lmasa, tarbiyaviy ishlarning ta'siri samarasi bo'lmaydi. Buning uchun pedagogik talablarning xarakteri, mazmuni, shakli va usullari hamma muallimlarning fikr-mulohazalariga mos kelishi lozim. Ma'lumki, pedagogik talabning mazmuni maktab jamoasining maqsadi, vazifalaridan kelib chiqadi. Lekin bu talablarning xarakteri, shakl va usullari har bir muallimning muomala metodiga, shaxsiy fazilatleri, o'quvi, pedagogik mahoratiga bog'liq.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -T.: 2005.
3. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.



BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QITISH USULLARI

Raximova Janonxon Mirzayevna

Marg‘ilon 20-maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998(91)130 23 26

Annotatsiya: boshlang‘ich sinf darslarida interaktiv o‘qitish usullari bayon etilgan. Interaktiv usullar, ularning ahamiyati, zamonaviy ta‘limning taraqqiyot tendensiyalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol o‘qitish, tendensiyalar, interaktiv metodlar, jamoaviy ishlash.

Zamonaviy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinflarida ta‘lim jarayoni bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Boshlang‘ich ta‘lim umumiy ta‘limning eng muhim ustuvor yo‘nalishi, universal ta‘lim faoliyatini shakllantirish bo‘lib, uning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan ta‘limning keyingi bosqichlarining muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bois ta‘lim dasturidagi o‘tkir muammolardan biri ta‘limni insonparvarlashtirishdir.

Ba‘zilar, ayniqsa, boshlang‘ich maktabda o‘qish umuman qiyin emas deb hisoblashadi. Boshqalar, aksincha, o‘qish - bu og‘ir ish, deb hisoblashadi, bu albatta ortiqcha ish bilan birga keladi. Hech kimga sir emaski, o‘qituvchilar ota-onalarga bolaning e‘tiborsizligi sababli uni eslay olmadi, yozishni unutdi kabi shikoyatlarni aytadilar. Ammo boshlang‘ich maktabda bolani nafaqat o‘rganishga, balki qiziqish bilan o‘rganishga o‘rgatish juda muhimdir. Albatta, bola uchun o‘qish oson ish emas, lekin charchoq va undan ham ko‘proq ortiqcha ishdan qochishga moyillik bor. Ammo buni faqat o‘quvchilar darsning faol ishtirokchisi bo‘lgan o‘quv jarayonini shunday tashkil etish bilan jonlantirish mumkin. Darsda faol ishtirok etish intizomni yaxshilaydi, faollik va qoniqish hissini oshiradi. Ta‘limni bolaning ijodiy faoliyati va mustaqilligini tizimli rivojlantirishga, uning bilish qiziqishini shakllantirishga yo‘naltirish boshlang‘ich ta‘lim darslarini loyihalashda turli xil yondashuvlar uchun sharoit yaratadi.

O‘qituvchining ijodkorligi o‘quvchilarning ijodidir. Bolalar - darsning barometridir. Biz hammamiz tushunamizki, har bir bola darsda nafaqat mehnat qilishi, balki o‘z qobiliyati va qiziqishi bilan ishlashi kerak. Buning uchun metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kardiogramma usuli. Tuyg‘ularni uyg‘otadigan material tezroq, kuchliroq va osonroq eslab qolinishi uzoq vaqtdan beri isbotlangan. Bu usul o‘qish darslarida qo‘llaniladi. Matn ustida ishlashni boshlashdan oldin o‘quvchilarga pulsning "surish", yurakning qisqarishi, qon tomirlarining davriy kengayishi, ko‘zga ko‘rinadigan va teginish bilan aniqlanishini tushuntirish kerak. Barmoqlaringizni arteriyalarga qo‘ysangiz, yurak urish tezligini, ritmini to‘xtatishingiz mumkin. Biror kishi xotirjam bo‘lsa, puls tinch bo‘ladi, agar odam dahshatli xursand bo‘lsa, yurak urishi tezlashadi. tibbiyotda yurak urishini ko‘rish mumkin bo‘lgan qurilma mavjud. Keling, o‘zimizning "matn pulsini" "his qilish" ga harakat qilaylik.

1 va 2-sinflarda matni semantik qismlarga ajratish shart emas, siz paragraflar bilan ishlashni tekshirishingiz mumkin. O‘quvchilar paragraflarni o‘qib chiqqach, diagrammada o‘zida qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otganini ko‘rishi mumkin.

Butun matnni o‘qib chiqqandan so‘ng, bolaning qahramonlar bilan boshdan kechirgan his-tuyg‘ulariga mos keladigan singan chiziqni olamiz. Har bir bolaning kardiogrammasi biroz boshqacha bo‘lishi mumkin emas. Har kim ishni o‘ziga xos tarzda qabul qiladi. Keyingi bosqich - bu juftlik (guruh)larda ishlash. Bolalar o‘zlarining kardiogrammalarini solishtirishlari va umumiy ijobiy va salbiy tomonlarini topib, tushuntirishlari kerak. Ushbu bosqichda siz ilg‘or ta‘lim elementidan foydalanishingiz mumkin. Bolalarga kulminatsiya tushunchasini bering. "Kardiogramma" ni qayta aytish qiyin bo‘lgan o‘quvchilar uchun "shpargalka" bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Dorskada qayta gapirganda, ular buni o‘zlari bilan olishlari mumkin.

"Kologramma" usuli. Emosional darajada diqqat bilan, ongli o‘qishni rivojlantirish uchun ranglar sxemasidan foydalanish. Matnlar rangga qarab baholanadi. Siz bitta qahramon yoki hodisaning "rang" xususiyatini berishingiz, ikki yoki undan ortiq qahramonlarni, voqealarni solishtirishingiz mumkin. Siz tabiatning holatini juda aniq tasvirlay olasiz.

Har bir o‘quvchining partasida bittasi bo‘lishi mumkin. Matnni o‘qishdan oldin kirish suhbatini o‘tkaziladi, qahramonning barcha harakatlari (tabiatni tasvirlash yoki qismlar bilan ishlash) rang orqali "baholanadi". O‘qituvchi diqqatini matnni diqqat bilan o‘qishga qaratishi kerak. O‘qishdan



keyin ish og'zaki va yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bolalar rang va hissiyotni nomlaydilar va matndagi qahramonning ichki holatiga mos keladigan joyni topadilar. Siz “kolorogramma” bilan juftlikda, guruhlarda ishlashingiz yoki uni uy vazifasi sifatida berishingiz mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, o‘quvchi o‘zining rangi va hissiyotini isbotlashi kerak.

Ish natijalari maqsad va vazifalarga mos keladi. Har bir bola o‘zining haqiqiy rivojlanish zonasida o‘quvchi shaxsiga psixologik bosim o‘tkazmasdan o‘rganadi. Maktabdagi barcha narsa inson o‘rganishni xohlasagina, o‘qitishda - maktabga borganda, o‘qishda, yozishda, o‘rganishda - u quvonchni his qiladi va insoniy g'ururga ega bo‘lganda haqiqatga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии [Текст]: учебник / С.А. Смирнов, И.Б. Котова, Е.Н. Шиянов и др. / Под ред. С.А. Смирнова. – М.: Академия, 2001. – С. 176 – 197.
2. Подласый, И.П. Педагогика начальной школы [Текст]: учебное пособие / И.П. Подласый. – М.: ВЛАДОС, 2005. – С. 186 – 208.
3. Агафонова, А.С. Практикум по общей педагогике [Текст]: учебное пособие / А.С. Агафонова. – СПб: Питер, 2003. – С. 146 – 152.



DIDAKTIK O‘YINLARNING O‘QUVCHILARNI BILIMGA QIZIQTIRISHDAGI O‘RNI

Sadiqova Anajon Kamilovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 7- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998991544353

Annotatsiya: o‘yin - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul. O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid psixoemotsional xususiyatlar shakllanadi. Bu maqolada sodda, samarali o‘yin turlari keltirilgan. O‘yinlardan boshlang‘ich sinf darslarida unumli foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, aqliy faoliyat, boshlang‘ich sinf, ta’lim, tafakkur, o‘quvchi, o‘qituvchi mahorati, og‘zaki nutqni o‘stirish, talablar.

O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi

Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgisi - uning tarkibi qat’iyidir. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o‘yin mantig‘i, o‘yinning harakati, o‘yin qoidasi.

O‘yin mantig‘i asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma- malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

Bolalarga tarbiya beruvchi didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalishda: barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi. O‘yin - muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi. Uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. O‘yin o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga, estetik bilimlarni kengaytirishga, o‘qish va yozish malakalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu sababli ham o‘qituvchilardan o‘qitishning turli- tuman tashkiliy shakllarida tabiiy sharoitga yaqin holatlarni keltirgan holda ish ko‘rishlari talab etiladi. Ta’limiy, tarbiyaviy maqsadi aniq belgilangan, o‘tkazilish jarayoni puxta ishlab chiqilgan o‘yin -mashqlar nafaqat bilimlarning mustahkamligi, balki ularning ko‘nikma va malakalar tomoniga siljishini ham ta’minlaydi. Shu sababli ham biz ta’lim jarayoniga barcha tarbiyalanuvchilarning o‘z va o‘zaro faollashuvini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi o‘yinlarni kiritib borish lozimligini ta’kidlaymiz.

Biz quyida keltirayotgan o‘yin usullari o‘quvchilarning imkoniyatiga moslashtirilgan bo‘lib, ularning faolligini oshirib, nutqi va ijodiy fikrlashini to‘laqonli rivojlantirish, hamkorlikda ishlash va ijod qilishni o‘rganish, mustaqil fikr bildirish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Shuni aytib o‘tish lozimki, o‘yin elementlariga ega bo‘lgan mashqlar imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, ba’zan o‘quvchilarning erishgan yutuqlariga qarab, biroz soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilgan ko‘rinishda qo‘llash mumkin.

1- o‘yin. “Bo‘g‘indan so‘z tuz”

Sinf guruhlariga bo‘linadi va har bir guruhga ikkinchi bo‘g‘ini yozilgan, avvalgi bo‘g‘in o‘rniga esa nuqtalar qo‘yilgan kartochkalar beriladi. Guruhlar qancha ko‘p so‘z tuzsa, shuncha ball to‘plab boradi. Quyidagicha bo‘g‘inlar berish mumkin: ...na(ona), ...na(nina), ...na (mana).

2- o‘yin. “Nuqtalarni to‘ldir”

Guruhlariga so‘zning birinchi va ohirgi harflari berilgan kartochkalar tarqatiladi. Berilgan vaqt ichida o‘quvchilar shu tuzilmaga mos so‘zlarni topishlari lozim: r...a (randa), r...a (ruchka), r...a (ramka).

3- o‘yin. “Aralash harflar”

Guruhlariga so‘zlari teskari yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ulardan so‘zlarni to‘g‘rilab yozish talab etiladi. Topshiriqni tez bajargan guruh g‘olib hisoblanadi. Qorich, mor, lo (chiroq, rom, ol).

4- o‘yin. “O‘rnini to‘ldir”

Guruhlariga tarkibida harflari tushirib qoldirilgan so‘zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ular belgilangan vaqt ichida so‘zlarni yozib chiqishlari lozim. n.n, ol.a, o.a, .ok.



5- o'yin. “Sehrli so'z”

O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Ularga biror so'z beriladi. Berilgan vaqtda shu so'zdagi harflar bilan boshlanadigan so'zlar tuziladi. Qaysi guruh ko'p so'z tuzsa, g'olib hisoblanadi.

Varrak, vaqt,

Anor, asal, atirgul. Tuproq, toychoq, tosh.

Ayyor, ayiq, axmoq.

Nok, ninachi, no'xat.

O'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadi, va shundagina o'quvchilar o'yinning samarali yechimlarini topa biladilar, o'zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar. Hamma o'quv materiallari ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishining birdan-bir yo'li didaktik o'yinlardan foydalanish va tashkil etishdir. Dars va mashg'ulotlar davomida mazkur usullardan foydalanish orqali bolalarning nafaqat nutqiy, balki aqliy fikrlash qobiliyati rivojlanishiga imkon yaratiladi. Bularning barchasi esa ta'lim sifatining oshishiga olib keluvchi omillar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulomov A. “Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari”.-T.: «O'qituvchi», 1992.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari”, «O'qituvchi», 2004.
3. G'afforova T. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar” (o'quv qo'llanma) -T.: Tafakkur, 2011.



HUJAYRADA KECHADIGAN FAOL TRANSPORT JARAYONINI IJODIY FIKRLASH YORDAMIDA O'RGANISH.

Sanayeva M.I

TFI akademik litseyi Biologiya o'qituvchisi

G'ayratova D

TFI akademik litseyi 1-3T guruh o'quvchisi

Kalit so'zlar: Faol transport: molekular yoki ionlarning hujayra membranasi bo'ylab past konsentratsiyali qismdan yuqori konsentratsiyali qismga (ya'ni konsentratsiya gradientiga qarshi) tashilishi. Bu jarayon nafas olishda hosil bo'lgan energiya sarflanishi orqali sodir bo'ladi

Ko'p hollarda hujayralar o'zidan tashqarida uchraydigan moddalarni hujayra ichiga qabul qilishiga to'g'ri keladi. Agar moddaning hujayradan tashqaridagi konsentratsiyasi shu moddaning hujayra ichidagi konsentratsiyasidan past bo'lsa, u holda moddaning hujayradan tashqariga chiqishini kuzatish mumkin.

Hujayraga qaysidir modda zarur bo'lsa, bu modda hujayradan tashqariga emas balki, hujayra ichiga o'tishi kerak bo'ladi. Bu holatda hujayra moddalari konsentratsiya gradienti bo'yicha membranalar orqali harakatlanadi va bu jarayon uchun energiya sarflanadi. Ushbu holatga **faol transport** deyiladi. Hujayra mitoxondriyalaridagi aerob nafas olish jarayonlarida energiya hosil bo'ladi. Moddalarning hujayra membranasi orqali konsentratsiyasi gradeienti boyicha harakati uchun zarur bo'lgan energiya nafas olish orqali ta'minlanadi.

Masalan, o'simliklar ildizidagi tukchasi hujayralari tuproqdan nitrat ionlarini so'rib oladi. Odatda ildiz tukchasi hujayrasida nitrat ionlarining konsentratsiyasi tuproqdagi konsentratsiyasidan yuqori bo'ladi. Nitrat ionlarining diffuziya gradienti ionlarni ildiz tukklaridan tuproqqa yo'naltiradi. Ammo ildiz tukchasi hujayralari faol transport yordamida nitrat ionlarini hujayra ichiga o'tishini ta'minlaydi.

Ildiz tukchasi hujayralarining membranasi maxsus tashuvchi oqsillar mavjud. Bu oqsillar nitrat ionlarini hujayra tashqarisidan qabul qilib, o'z shaklini o'zgartiradi va nitrat ionlarini hujayra membranasi orqali sitoplazmaga kirishini ta'minlaydi. Tashuvchi oqsillarning shakli o'zgarishi uchun energiya kerak bo'ladi. Ushbu energiya manbai mitoxondriyalarda boradigan aerob nafas olish jarayonlari hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Diffuziya- molekular yoki ionlarning tasodifiy harakati va kinetik energiyasi natijasida yuqori konsentratsiyali joydan past konsentratsiyali joyga o'tishidir.
Kislorod va karbonat angidrid hujayra membranalar orqali diffuziya yo'li bilan hujayralar ichigaga kiradi va konsentratsiya gradienti bo'yicha chiqib ketadi.
Harorat, konsentratsiya gradienti yoki sirt maydonining oshishi hujayra ichiga moddalarning diffuziya yo'li bilan o'tishini tezlashtiradi. Ushbu holatni agar-agar moddasi jeli bo'lakchalari yordamida tekshirib ko'rilishi mumkin.
Suv organizmlarda erituvchi sifatida muhim ahamiyatga ega. Masalan: ovqat hazm qilish, ayirish va moddalarning transportida.
Suv qisman o'tkazuvchan membranalar, shu jumladan hujayra membranalar orqali osmos hodisasi orqali tarqaladi.
Dializ naychasi qisman o'tkazuvchan bo'lib, osmos hodisasini o'rganish uchun ishlatiladi.
Hayvon hujayralari toza suvda yorilib, konsentrlangan eritma ichiga solinganida bujmayib qoladi. O'simlik hujayralari toza suvda yorilib ketmaydi, chunki ularning hujayra polisaxaridli devori bunga yo'l qo'ymaydi.
Tarkibida suv miqdorining ko'p bo'lishi eritmaning yuqori suv potensialiga ega ekanligini ko'rsatadi. Suv osmos jarayoni paytida suv potensial gradienti bo'ylab harakatlanadi.



Toza suvdagi o‘simlik hujayrasi osmos hodisasi orqali suvni o‘zlashtiradi va uning tarkibi hujayra devoriga tashqi bosim o‘tkazganligi sababli xiralashadishishib ketadi. Konsentrlangan eritmadagi o‘simlik xujayrasi osmos hodisasi orqali suvni yo‘qotadi, xiralashadi va plazmolizga uchraydi.

Faol transport - nafas olish energiyasidan foydalangan holda zarrachalarning hujayra membranasi orqali konsentratsiya gradienti bo‘ylab harakatlanishi

Hujayra membranalaridagi tashuvchi oqsillar faol transport jarayonida moddalarni hujayra membranasi bo‘ylab harakatlantirish uchun shaklini o‘zgartiradi.

Hujayrada kechadigan faol transport jarayoni asosida choy tayyorlash

Quruq choy bu kamelliya o‘simligi barglarining quritilgan ko‘rinishidir (Camellia sinensis - choy o‘simligi). Quruq choy barglariga issiq suv qo‘shilsa, suvga barglardan rangli va xushbo‘y ta‘m molekullar tarqala boshlaydi.

Siz haqiqatan ham yaxshi choy tayyorlashni o‘rganib olasiz. Bu yerda tadqiqot bo‘yicha ba‘zi savollar mavjud. Bundan tashqari, ba‘zi savollarni o‘zingiz ko‘rib chiqishingiz ham mumkin

- Suvning harorati choy qopchasidan molekullarning suvga tarqalish tezligiga ta‘sir qiladimi?
- Suvning harorati choyni ta‘miga ta‘sir qiladimi?
- Turli xil choy qopchalari choy barglaridan moddalarning suvga tarqalishiga ta‘sir qiladimi?
- Choyga suv quyishdan oldin sut quyilishi, choy barglaridan molekullarning tarqalishiga ta‘sir qiladimi?

Uch yoki to‘rt kishidan iborat guruhda ishleng. Tadqiqot savolini tanlab oling. Keyin tajribangiz qanday o‘tishini rejalashtiring. Faqat o‘zgaruvchini - mustaqil o‘zgaruvchini o‘zgartirishni unutmang. O‘z nomustaqil o‘zgaruvchingizni qanday o‘lchashingiz va boshqa o‘zgaruvchi larni qanday standartlashtirishga harakat qilishingiz haqida yaxshilab o‘ylab ko‘ring. Siz kutgan natijalarni oldindan aytib berishga harakat qilib ko‘ring.

Ularni qanday yozishingiz va o‘zingiz izlayotgan savolga javob berish uchun ulardan qanday foydalanish haqida o‘ylab ko‘ring.

Tadqiqotni o‘tkazib bo‘lgach quyidagi savollarga javob bering.

1. Diffuziya zarrachalar harakatining natijasidir. Har bir zarracha qanday harakatlanadi?
 - A yuqori konsentratsiya gradient down a concentration gradient
 - B faqat bitta yo‘nalishda
 - C tasodifan
 - D up a concentration gradient
2. Diffuziya uchun zarur energiya qanday(qayerdan) hosil bo‘ladi?
 - A glyukoza
 - B molekula va ionlarning kinetik energiyasi
 - C mitoxondriyadagi nafas olish orqali
 - D yorug‘lik
3. Qanday o‘zgarish moddaning membrana orqali tarqalish tezligini oshiradi?
 - A konsentratsiya gradientining pasayishi
 - B membrana yuzasining kamayishi
 - C membrana bo‘ylab masofaning oshishi
 - D haroratning oshishi

Jadvalda diffuziya, osmos va faol transport haqida ma‘lumotlar ko‘rsatilgan. Qaysi qatordagilar to‘g‘riligini aniqlang?

	Diffuziya	Osmos	Faol transport
A	nafas olish energiyasidan foydalanadi	har doim qisman o‘tkazuvchan membranani o‘z ichiga oladi	membranalaridagi oqsil tashuvchilardan foydalanadi
B	molekulalar va ionlarning kinetik energiyasidan foydalanadi	Suv molekula-larining kinetik energiyasidan foydalanadi	konsentratsiya gradienti bo‘ylab harakatlanishni o‘z ichiga oladi



C	membranalardagi oqsil tashuvchilardan foydalanadi	konsentratsiya gradienti bo'ylab harakatlanishni o'z ichiga oladi	har doim qisman o'tkazuvchan membranani o'z ichiga oladi
D	har doim qisman o'tkazuvchan membranani o'z ichiga oladi	membranalardagi oqsil tashuvchilardan foydalanadi	nafas olish energiyasidan foydalanadi

5 Quyidagi qaysi jarayon faol transportga misol bo'ladi?

A o'simlik barg hujayra tomonidan karbonat angidridning o'zlashtirilishi

B ildiz tuk hujayrasi orqali magniy ionlarining o'zlashtirilishi

C hayvon hujayrasi tomonidan kislorodni qabul qilinishi

D ildiz tuk hujayrasi tomonidan suvning o'zlashtirilishi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqulov O.E., Nishonboyev K.N., Hujayra va rivojlanish biologiyasi. T.: “Sharq” nashriyoti. 2011

2. Sadriddinov N., Rahimov A., A.Mamadaliyev, Z.Jamolova. Biologiya o'qitish uslubi asoslari. T.: O'zbekiston-2005.

3. A.Yusupov. Biologiya: qiziqarli savol javoblar. T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 1997.

4, www.wikipedia.org.ru.

5, <http://www.remedium.ru/>



ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TEXNIK VA TEXNOLOGIK YECHIMLARI

Sapayeva Nuquljon Karimovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 7- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel:+998990356441

Annotatsiya: *boshlang'ich ta'limda elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning texnik va texnologik yechimlari mavzusidagi ushbu ma'ruzada boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi, AKTdan dars jarayonida o'z o'rnida va samarali foydalanish kerakligi, zamonaviy, yangicha interfaol metodlar orqali darslarni tashkil qilishda e'tibor berish zarur bo'lgan jihatlar haqida fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *AKT, kompyuter, sayt, multimedia, slayd, animatsiya, emotsiya.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusdan uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgani, albatta, bejiz emas. Chunki biz shiddat bilan o'zgarib borayotgan, fan-texnika rivojlanayotgan zamonda yashayapmiz. Biz ustozlar, ayniqsa, AKTdan samarali foydalanishni, dars o'tish jarayonlarida multimedia vositalari imkoniyatlarini o'z o'rnida ishga solishni chuqur bilishimiz kerak. Ko'pgina hollarda o'qituvchilar faqat ochiq darslardagina zamonaviy AKT dan foydalanayotganlariga guvohi bo'lamiz. Biz kimgadir dars ko'rsatish uchun emas, har doim sifatli dars o'tishimiz, turli metodlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali qurollar bilan kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ilm berishimiz joiz. Ayrim darslar kuzatilganda o'qituvchi multimediali dasturni bolalarga boshidan oxirigacha namoyish qilib beradi- da, keyin yana eski usulda darsni davom ettiradi. Ayrim o'qituvchilar esa multimediani mavzuga moslab qo'yadilar-u, dars tugaguncha elektrni tejashni esdan chiqarib qo'yadi. Ta'lim berishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati nihoyatda beqiyos bo'lib, albatta ta'lim va tarbiyaning sifat-samaradorligini yuqori ko'rsatkichlarga olib chiqishi hammamizga ma'lum. Bu yo'nalishda o'qituvchilarni qiynayotgan muammo va to'siqlar nimalardan iborat?

Quyida o'quvchi va o'qituvchilar uchun Internetda ishlash tartibi va kerakli saytlar ro'yxati berilgan. Internet orqali har bir inson o'ziga kerakli ma'lumotni topishi mumkin. Veb-texnologiyasining hozirgi kunda brauzerlar deb nomlanuvchi axborotni ko'rishga mo'ljallangan o'ndan ortiq turli vositalari mavjud. Brauzerlarning eng mashhurlari: Internet Explorer, Opera, FireFox.

Kerakli saytlar ro'yxati:

<http://uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. <http://eduportal.uz> - O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining Axborot ta'lim portali. <http://multimedia.uz> - Respublika multimedia markazi sayti. <http://edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. <http://dtm.uz> - Davlat test markazi sayti. www.bt-jurnal.uz - Boshlang'ich ta'lim jurnali sayti. <http://rtm.uz> - Respublika ta'lim markazi sayti. <http://tashxis.uz> - Respublika Tashxis markazi sayti. ksbt.uz - Kompyuter savodxonligini baholash tizimi. <http://ziyonet.uz> - O'zbekiston Respublikasi Axborot ta'lim portali. <http://kitob.uz> - Respublika bolalar kutubxonasi sayti. <http://natlib.uz> - O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti. <http://marifat.uz> - Ma'rifat gazetasi sayti. <http://referat.uz> - Referat va kitoblar to'plami.

• Shuningdek, internetda boshlang'ich ta'lim bo'yicha interaktiv o'rgatuvchi animatsiyali dasturlar;

- tabiiy fanlardan virtual laboratoriya ishlari;
- fanlardan videodarslar;
- darsliklarning elektron versiyalari;
- qobiliyat va iqtidorni aniqlash uchun onlayn testlar va boshqalar ham o'rin olgan.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi: bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati, bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash,



ta’limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko’nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang’ich ta’lim metodikasini bilishi boshlang’ich ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida zarur ko’nikmalarni shakllantirish, boshlang’ich ta’lim sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko’tarish, o’qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang’ich sinflarda zamonaviy AKTdan foydalanish quyidagi maqsadlarni o’z ichiga oladi:

- o’quvchining intellektual va ma’naviy jihatdan yuksak darajada rivojlantirishni ta’minlaydi;
- ularning bilimlarni egallashi va shunga mos tarzda fikrlashini rivojlantiradi;
- o’quvchilarning kompyuter savodxonligini oshiradi;
- darslarni yuqori estetik va emotsional darajada o’tishni ta’minlaydi.

Darsning samaradorligi oshadi. O’quvchi faoliyatida izlanish, ijod qilish ko’nikmasi shakllanadi. Bilimni nazorat qilishni takomillashtiradi.

Ulug’ bobokalonimiz Ibn Sino aytganidek, «O’qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo’y, va bolalarni tarbiyalash usullari, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo’lmog’i lozim. Uztoz shogirdining butun ichki va tashqi dunyosini o’rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog’i darkor»

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda boshlang’ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda, barkamol avlodni voyaga yetkazishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarining oshirishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang’ich ta’limni modernizatsiyalash orqali o’quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish mavzusida boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari forumi materiallari to’plami. T.: -2016
2. «Umumta’lim fanlari metodikasi»№ :1. 2012. 11—12- bet

**ТА’ЛИМНИ TASHKIL ETISHGA NISBATAN INNOVATSION YONDASHUVLAR MAZMUNI**

Turayeva Gulsanam Turgun qizi
Toshkent shahar Uchtepa tumani
283- maktab Geografiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limni tashkil etishga nisbatan innovatsion yondashuvlar mazmuni va muammoli o’qitish texnologiyasidan foydalanish afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, innovatsion yondashuv, muammoli o’qitish texnologiyasi, o’quv mashg’ulotlarini.

Mustaqil O’zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqloq g’oyasi Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko’tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o’rin egallashga yo’naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo’lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o’rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko’lamini hosil qilish, ma’naviy- axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog’liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug’ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O’zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog’liqdir. Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g’oyasi o’tgan asrning boshlarida G’arbiy Yevropa hamda AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o’rtaga tashlandi. Mazkur g’oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi o’quv mashg’ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko’maklashuvchi usul va vositalar yig’indisi” tarzida talqin etildi hamda o’quv jarayoniga o’quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko’rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholandi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uniasoslagan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bugungi kunda, muammoli o’qitish deganda mashg’ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan tinglovchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida tinglovchilar kasbiy bilimlarga, ko’nikmalarga, malakalarga ega bo’ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli o’qitish, o’qitishning shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub’ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o’ziga xos qiziqish uyg’otishdir. Muammoli o’qitish, o’qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantig’i o’zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o’quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, tinglovchini uni yechishga yo’naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o’qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo’lishi individual holat bo’lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Muammoli o’qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy - o’quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi.

Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O’quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda ma’ruzachi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, tinglovchilar oldiga muammoli masalalar



qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi. Shuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – tinglovchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarni takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv, psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi. Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi.

Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'raev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T. O' qituvchi. 1994.
2. Hasanbaeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.1996.



МАКТАБ BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Yuldosheva Zilola Otaqulovna

Toshkent viloyat Ohangaron shahar

XTB tasarrufidagi 8 – umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

E-mail. yuldashevazilola37@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars berish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, qizig‘uchanlik, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: innovatsion texnologiya, interaktiv metod, pedagogik tizim, ijodiy fikrlash, aqliy fikrlash, muammoli o‘qitish.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish orqali aqliy jihatdan yuqori darajaga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim darajasini oshirish va dars jarayonida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ko‘tarishga ko‘maklashish uchun, o‘quvchilarining sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarurdir.

Umuman olganda boshlang‘ich sinfdan – sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, ularda bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Shu bilan birgalikda sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim bo‘ladi. Y‘ani:

– dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar;

– matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar.

Ma‘lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda deyarli barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi o‘quv jarayonida o‘quvchini izlanishga undaydi. Bunda shaxs fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘quvchilar faol izlanadilar hamda evristik xarakterdagi yechimlarni topishga harakat qiladilar. Buning uchun o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga nisbatan qiziqishlarini orttirishda ularning mustaqilligi va faolligini ta‘minlash, ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda o‘quvchilarning bilim salohiyatini oshirishga erishish, ularning erkin mushohada yuritishlariga ko‘maklashish ehtiyoji, avvalambor, o‘qituvchilar tomonidan qondirilishi kerak.

O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o‘qitish metodi ham samarali natijalarni beradi, chunki ta‘limda muammoli yondashish o‘quv dasturlarida, o‘qituvchi bilimlarini bayon qilishda, o‘quvchilarning mustaqil ishlarida ham o‘z ifodasini topadi. Muammoli ta‘limda o‘qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunini tushuntira borib o‘rganilayotgan mavzu materialini bilan o‘quvchilar orasida muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiradi, o‘quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o‘quvchilar bu faktlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar, tushuncha, qoida va teoremlarni o‘qituvchi yordamida aniqlab ifoda qilinishi yoki ma‘lum bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llanishini o‘rganadilar, natijada o‘quvchilarda aqliy fikrlash va bilimlarni amaliyotda qo‘llanish malakalari shakllanadi. Boshlang‘ich sinf matematika



kursida o'rganiladigan nazariy mavzu materiallari, masala va misollarni ularning mazmuniga ko'ra muammoli va muammoli bo'lmagan turlarga ajratish mumkin.

O'qitishning muammoli topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyati oshirish bilan birga tashabbuskorlik tuyg'ulari ortib, o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi amalga oshadi, yaratuvchanlikka undaydi, yaratuvchanlikni o'rgangan bola boshqa har qanday sohaga hech qiyinchiliklarsiz erishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'z kasbini sevib, mas'uliyat bilan yondashadigan talabchan o'qituvchi pedagogik jarayonda faol bo'ladi. Uning ijodkorligi bolalarni fikrlashga undaydi. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda o'tkir zehnlilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Ta'limning sifatini belgilab beradigan omillardan eng muhimi bolada ta'limga nisbatan qiziqish uyg'ota olishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika. Psixologiya. T.: “IJODPRINT” 2019-y.
2. Ishmuhammedov R, Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.,2020 2. Boshlang'ich sinflar uchun metodik qo'llanmalar.
3. “Pedagogik mahorat” jurnali, 3-son 2021 y
4. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali 2-son 2022y.
5. www. Ziyonet va boshqa internet manbalari.



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA PEDAGOGLAR MAHORATIGA SAMARALI TA‘SIR
ETUVCHI USUL VA O‘YINLAR**

Abdiraimova Dinora Abdumannon qizi
Olimova Baxtigul Norberdiyevna
Xusanova Gulchehra Bekniyozovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
2-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich ta‘limda pedagoglarning mahoratiga samarali ta‘sir ko‘rsatuvchi usullar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: samara, usul va o‘yinlar, strategiya, o‘qitish, pedagogik mahorat, ...

Ta‘limni tashkil etishning bosh omili dars hisoblanadi. Dars va uning amalga oshirish texnologiyasini buyuk chex pedagogi Ya.Komenskiy yaratgan. Bugungi kunda dars-shaxsga yo‘naltirilgan dars bo‘lishi lozim. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘qitish bilan chegaralanmaydi, balki o‘quvchini darsga qiziqish ehtiyojini tug‘diradi. Dars jarayonida o‘qituvchi passiv, o‘quvchi esa faol ishtirokchiga aylanadi.

Bugungi kunda kim uchundir noan‘anaviy sanalgan dars kimlar uchundir an‘anaviy dars bo‘lishi mumkin. Darslarimni noan‘anaviy shaklda tashkil etish uchun har bir darsga yangilik olib kirishga harakat qilaman. Darslarimni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun hamkasblarim bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish ham yaxshi samara beradi.

Samarali ta‘lim strategiyasi qanday?

1. Dars maqsadlari
2. Ko‘rsatish va tushuntirish
3. Tushunganini aniqlash uchun so‘rash
4. Yangi o‘rganganini grafik tarzda umumlashtirish
5. Ko‘p amaliyot
6. O‘quvchilaringizga fikr-mulohazalaringizni bildiring....

Samarali ta‘lim strategiyasi va o‘qitish metodlari.

«Mashhur insonlar» usuli.

Maqsad: Darslarni faollashtirish **Vaqt:** 10-15 daqiqa

Guruh kattaligi: Xohlagancha **Ishlatiladigan materiallar:** Doska va bo‘r

Amalga oshirilishi: 1. Qatnashchilarga mashhur insonlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va xohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar;

2. Keyin o‘quvchilar ichidan birortasini chaqirib, mashhur insonlardan birining kimligi, faoliyati haqida so‘raladi va u bu haqdagi ma‘lumotlarni barchaga aytib beradi;

3. Agar bu chaqirilgan o‘quvchi hech nima bilmasa, yoki kamroq bilsa sinfdagi boshqa xohlovchilarga bu haqdagi ma‘lumotlarni to‘ldirish taklif qilinadi;

3. Shunday qilib, birin-ketin o‘quvchilarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib olinadi.

“Mozaika” o‘yin texnologiyasi

• Chin do‘st topishingiz uchun haqiqiy do‘st bo‘lishingiz kerak. Chin do‘stlikning “oltin qoidalari”:

- O‘zaro, ular birbirini aytadilar.
- haqorat kamsitmaydilar, xafa hurmat bo‘ladi kayfiyatini
- qilmaydilar bir-birining tushunadilar, qiyin damlarda qilmaydilar, yordamga keladilar bo‘ladilar; do‘stining ko‘ngliga ozor yetkazmay ishonchli kamchiliklarini



O‘zaro ta’lim

- Debat Kichik guruhlarda ishlash
- Muammoni birgalikda hal qilish usullarini izlash
- Jamoaviy taqdimot qilish, bahs-munozara
- **Bevosita ta’lim berish**
- Tizimli tahlil Mavzuni bayon qilish
- So‘rovlar (ogzaki, yozma va b.)
- Namoyish va ko‘rgazmalar



“**Begona so‘z**” usuli. Bunda o‘tilgan mavzuga oid so‘zlar va mavzuga oid bo‘lmagan so‘zlar ham bor. O‘quvchilar faqat o‘tilgan mavzuga oid sabzavotlarga oid so‘zlarni topadilar va ular ishtirokida gap tuzadilar. Sabzavotlarga oid bo‘lmagan rasm yoki so‘zlarni ajratib qo‘yadilar.

Qovun, olma, tarvuz, sabzi, banan
Sholg‘om, qovoq, nok, bodiring, uzum




“Quvnoq qutilar” usuli.

Bu usul takrorlash va mustahkamlash darslarida qo‘llaniladi.


O‘quvchilarga 2 ta quti beriladi.

O‘quvchilar A qutiga ismlarini yozadi. Masalan: Aziza, Zarina, Alisher....




B qutiga esa, mavzu bo‘yicha savollarni yozadi.

Bu usulda A qutidan ism tanlanadi hamda B qutidan bir savol olib, o‘quvchiga beriladi. Shu tarzda usuldan foydalaniladi.



“**Ovozga qo‘yish**” usuli. Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; yuzaga kelgan bahs munozarani boshqarish maqsadida, bahs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini sinf bo‘yicha ovozga qo‘yish; har bir fikr bo‘yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash; tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash; so‘ng yana ovozga qo‘yish; xulosalash uchun tashkil etiladi.

“**Geometrik shakllar**” o‘yini. Bunda geometrik shakllar matematik diktant tarzida bajariladi. O‘quvchilarga shakllar ko‘rsatiladi va shakllar nomini yozadilar.



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda O‘zbekistonning jahon miqyosida munosib o‘rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda g‘oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Axliddinov, Maktabni boshqarish san’ati. “Fan” nashriyoti .2006-yil.
2. Ma’rifat . “O‘rgan-o‘rgat” tadbirlar majmuasi. 2012-yil, 20-oktabr



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA
MASHG'ULOTLAR O'TKAZISHNING SAMARASI.**

**Abdrimova Dilrabo Ko'palovna
Xolmurotova Rayxon Kadirberganovna**

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi
18-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faolikka olib kelishiga bog'liqligi hamda ichki siyosiy muhitda ham farovon va barqaror jamiyat qurish uchun kuchli va malakali, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega kadrlar kerakligi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'z: interfaol, ta'lim, kasbiy, pedagog, texnologiya, o'quvchi, til.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovasiya (inglizcha-“innovation”) yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoluyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter” – bu o'zaro. “act” – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

“Tushunchalar tahlili” uslubi

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o'tilgan (chorak, semester yoki o'quv yilida tugagan) o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Uslubning maqsadi. O'quvchilarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

Uslubning qo'llanishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, takrorlash, yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka,) slayd.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh o'quvchilari soniga qarab, tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov.I.A “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida”: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T – "O'zbekiston."1997-326 b.
2. Abduqodirov I.R, .Pardoev.A.A “Ta'limda innovatsion texnologiyalar” T-. iste'dod 2008-180.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI MATEMATIKA DARSLARIDA QO`LLASH DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Abduraxmanov Yashin Tulqinovich
Urganch shahar 28-son maktab o`qituvchisi
Telefon: +998 (97) 221 01 66
yashin.tulqinovich_28@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli texnologiyalarni matematika darslarida qo`llash dars samaradorligini oshirishning muhim omili haqida.

Kalit so`zlar: Raqamli texnologiya, axborotlashtirish, matematika o`qitish metodikasi, reproduktiv metod.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng 1993-yilda ilk bor “Axborotlashtirish to`g`risida”gi qonun qabul qilindi va shu asosida barcha sohalarida, shu jumladan umumiy o`rta ta`limda ham kompyuterlashtirish jarayonlariga keng yo`l ochildi va imkoniyatlar yaratildi. Umumiy o`rta ta`limning maqsadi hozirgi zamon talablariga javob beradigan, ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta`minlaydigan va yuksak ma`naviy, axloqiy sifatlarga ega bo`lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar bilan ta`minlashdan iboratdir. Bugungi kunda jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir Davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o`rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi.

Prezidentimizning oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o`tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. shuningdek, joriy yilning ilm, ma`rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e`lon qilangani bejiz emas.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta`minlash borasida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o`ta muhim va dolzarb vazifalar qo`yilgan.

Hozirgi zamon didaktikasida, jumladan, matematika o`qitish metodikasi fanida ta`lim metodining muammolari umumiy holda hal qilingan bo`lib, u o`zining quyidagi ikki tomoni bilan xarakterlanadi:

1) O`qitish (o`qituvchi faoliyati)

2) O`rganish (o`quvchilarning ongli bilish faoliyati) o`qituvchi ta`lim jarayonini tashkil qilar ekan, uning samarali bo`lishi, o`quvchilarning mavzuni to`liq o`zlashtirishini o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. shu sababli matematika fanini o`qitishda zamonaviy darslarni tashkil qilishning turli xil noan`anaviy usullaridan foydalaniladi. Matematika fanini o`qitishda kompyuter va axborot texnologiyalarga asoslangan darslar ma`lum bir tizim asosida tashkil qilinadi. darslarni tizimli tashkil qilishda texnologik xaritadan foydalanish muhim o`rin egallaydi. Texnologik xarita dars mashg`ulotini bir tizimga solib, uni amalga oshirish bosqichlarini aniqlab beradi. Texnologik xarita 4 bosqichdan iborat bo`lib, unga tayyorlov, kirish, asosiy hamda yakuniy bosqichlar kiradi. o`qituvchi mashg`ulotning tayyorlov bosqichida darsga tayyorgarlik ko`radi, ya`ni dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta`lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi. Matematika fanini o`qitishda

zamonaviy darsning texnologik xaritasini quyidagicha tuzish mumkin:

Tayyorgarlik bosqichi:

Mavzu bo`yicha o`quv materiallarini ya`ni taqdimot materiallarini tayyorlash; O`quvchilarni faollashtirish uchun mavzuga oid savollarni tuzish, slaydlar yaratish; O`quvchilarni o`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

Mavzuga kirish: Mavzuning nomi ekranga chiqariladi va mazkur mavzuni yoritilishidan kutilayotgan asosiy natijalar to`g`risida axborot beriladi;

Mavzuni yoritish bo`yicha tuzilgan reja savollari ekran orqali namoyish qilinadi;

Reproduktiv metod orqali o`quvchilar faollashtiriladi;

Asosiy bosqich:

Mavzu mazmuni slaydlar orqali batafsil tushuntirilib, dars davomida o`quvchilarning yozib borishlari ta`kidlab o`tiladi;

Mavzuning mazmuni, undan ko`zlangan maqsad slaydlar orqali tushuntiriladi; Mavzuning



amaliy ahamiyati slaydlar orqali izohlab beriladi;

Yakuniy bosqich:

Mavzu umumlashtiriladi, mavzuga oid umumiy xulosalar chiqariladi; o'quvchilar diqqati mavzuning asosiy tomonlariga qaratiladi;

o'quvchilar mavzu yuzasidan kompyuter vositasida test topshiradilar va har bir o'quvchining olgan bali o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollariga javoblar tayyorlab kelish o'quvchilarga mustaqil ish sifatida beriladi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Kudryavtsev V.A., Demidovich B.P. Oliy matematikaning qisqa kursi.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T. : TDPU, 2003.
3. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. "Matematika o'qitish metodikasi" -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. -127b.



BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Adamova Shaxnoza Davronovna

Shovot tumani 43-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 437 43 87

adamovashaxnoza_43@inbox.uz

Axmedova Sevara Komiljon qizi

Urganch tumani 35-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 289 17 07

axmedova.sevara_35@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanish usullari haqida.

Kalit so'zlar: biologiya, zamonaviy dars, innovatsiya, video ma'ruza.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu

bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Video ma'ruzalar shaklida o'qituvchi ma'ruzasi videotasmaga yoziladi, chiziqsiz montaj usulida u multimedia, ilovalar, ma'ruzani bayon qilishning ko'rgazmali vositalari bilan to'ldiradi.

Bunday to'ldirishlar ma'ruza mazmunini nafaqat boyitadi, balki uni bayon qilishning jonliroq va tinglovchilar uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Elektron entsiklopediya - bunga misol qilib «katta entsiklopediya»ni olish mumkin. Bu elektron entsiklopediyadan dars uchun zarur bo'lgan jadvallar, sxemalar, o'simlik va hayvonlar sistematikasi, multimediyali panorama (“Hayot evolyutsiyasi”, “Yer ekosistemalari”) videolavhalar (“Yovvoyi hayvonlar hayoti”) audio yozuvlar (“Hayvonlarning tovushlari”) foto-albomlar (“Yirtqich hayvonlar”) kabi juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin.

Har kim – har kimga o'rgatadi texnologiyasidan biologiya darslarida foydalanish yaxshi natijani beradi. Bu uslub o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish uslubidir. Bu uslubning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborotlarni yetkazib berish, ayni paytda o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishidir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi.

Axborot texnologiyalari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilib, o'tkaziladigan o'quv jarayonini samaradorligini oshirish uchun yangi turdagi, ya'ni electron o'quv adabiyotlarni va laboratoriya mashg'ulotlariga doir virtual laboratoriyalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Virtual laboratoriyalarning yaratilishi natijasida laboratoriya sharoitida o'tkazilishi mumkin bo'lmagan (zaharli moddalar, kamyob moddalar, ko'zga ko'rinmaydigan ob'ektlar ustida olib borilayotgan tajribalar) ishlarni bajarib ko'rsatish va ular yordamida o'tkazilayotgan ishlarni ekologik toza muhitda bajarish imkoniyatini beradi.

Laboratoriya ishlarini virtual laboratoriyalar ko'rinishida kompyuter imitatsion modelini yaratish quyidagi:

- virtual laboratoriyalar uchun maxsus jihozlangan xonalar talab qilinmasligi;
- laboratoriya mashg'ulotlarida ro'y berayotgan jarayonlarni kompyuter imitatsion modeli orqali ob'ektning ichki va tashqi xossalarini kuzatish hamda namoyish qilinishi;



- laboratoriya sharoitida o‘tkazish mumkin bo‘lmagan jarayonlarni virtual namoyish qilish;
- masofadan o‘qitish ta‘lim turi uchun o‘quvmateriallari bazasi sifatida foydalanish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 2004.



BOLADA MUSTAQIL DARS QILISH VA KITOB O‘QISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Atajanova Sayyara Xudarganovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 7- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998996897340

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil kitob o‘qish ga bo‘lgan qiziqish ini oshirishda o‘qituvchining asosiy vazifalari va bu borada samarali natijalarga erishishning qulay usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ta’lim, mustaqil kitob o‘qish mutolaasi, tafakkur, o‘quvchi, o‘qituvchi mahorati, og‘zaki nutqni o‘stirish, talablar.

O‘qish o‘z mazmun-mohiyati jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular yordamida o‘quvchi ma’lum bilimlarni o‘zlashtiradi. “O‘qish” deganda bolada kerakli bilimlarni o‘zlashtirish nazarda tutiladi. O‘qish shaxsning ongliligi bilan bog‘liq hodisa. O‘qituvchi uchun o‘qish tezligini oshirish eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘qishdan so‘zlarni tez va tog‘ri o‘qigan bola boshqa fanlarni ham oson o‘zlashtiradi. O‘quvchilarni maktabga qadam qo‘ygan ilk kundan boshlab kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib borish zarur. 1- sinfga qadam qo‘ygan bola harflarni tezroq o‘rganishni, mustaqil o‘qishni xohlaydi.

Bolaning tafakkuri, xotirasi, iqtidori va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishi maktabga ilk qadam qo‘yishda muhim sanaladi. Bolaning psixologik rivojlanganligi idrokining o‘tkir, ravshan, aniqligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolliigi bilan belgilanadi.

Birinchi sinfga borgan o‘quvchilarning aksariyati o‘qishning dastlabki kunlarida o‘qishga juda qiziqadilar. Birinchi sinf o‘quvchisida, ayniqsa, o‘qish faoliyatining aynan o‘ziga qiziqish ko‘zga tashlanadi. O‘quvchining o‘qish davridagi birinchi mehnati natijasi shodlik va quvonch his-tuyg‘usini keitirib chiqaradi. Misol uchun, ayrim o‘quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga harakat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mustaqil ravishda dars tayyorlashi hamda kitob bilan do‘stlashishi uchun o‘qituvchi juda mahoratli bo‘lishi kerak. Har bir darsda, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarda kitob o‘qishga mehr uyg‘ota olish, mustaqil ravishda dars tayyorlashi uchun ma’lum bir bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish zarur. Bu o‘quvchining har tomonlama yetuk, barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishida katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kitobga mehr uyg‘otishda to‘garaklarning o‘rni katta deb o‘ylayman. Misol uchun, o‘quvchilar “Ertaklar - yaxshilikka yetaklar” to‘garagida biror bir ertakni sahnalashtirish uchun o‘quvchi o‘sha ertakni qayta-qayta o‘qib yod oladi. Ertakdagi rolni ijro etish uchun o‘ziga berilgan har bir so‘zni qoldirmasdan zavq bilan yod oladi. Shu tariqa o‘quvchida mustaqil dars tayyorlash hamda kitob oqish, badiiy kitoblarga qiziqish ortib boradi. Bola qiziqib, ertakdagi berilgan qahramonining so‘zlarini yod olgani sari so‘z boyligi ortadi, darslarni yaxshi o‘zlashtiradi. Kitob o‘qigan bola yomon illatlardan yiroqlashadi. Kitob bola ma’naviyatini boyitadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kitob bilan do‘stlashishida maktabda o‘tkaziladigan ma’naviy-marifiy tadbirlar ham juda katta ijobiy ta’sirga ega. Bunda, asosan, o‘quvchilar tadbirlarga tayyorlanish jarayonida izlanadi, kitoblardan qiziqarli ma’lumotlar oladi. Tadbirlar mavzusiga oid she’rlar, sahna ko‘rinishlari uchun ertaklar tanlaydilar. Ayniqsa, iqtidorli o‘quvchilar sinf ro‘znomalarini tayyorlashda mustaqil ijod qiladilar, izlanadilar.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi beshta muhim tashabbusning ham aynan to‘rtinchi yo‘nalishi kitobxonlikni targ‘ib qilishdir.

Boshlang‘ich sinflarda beshta muhim tashabbusning har bir yo‘nalishini darslarda singdirib borish ayni muddaodir. Misol uchun, birinchi tashabbus bo‘yicha turli tadbirlar, to‘garaklarda, dars jarayonlarida o‘quvchilarning musiqa, rassomchilik, adabiyot va teatrga qiziqishini oshirish va iste’dodini yuzaga chiqarish mumkin. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham kompyuter texnologiyalaridan foydalanmoqdalar. Demak, biz ularga uchinchi tashabbus - kompyuterdan samarali foydalanish haqidagi bilimlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bugungi kunda kitobni elektron dasturlar va kompyuter yordamida ham o‘qish mumkin. Ammo bosma shakldagisini o‘qishning



zavqi boshqacha. Uni o'qish jarayonida o'quvchilar ertaklardagi qahramonlar bilan bo'ladi, ulardagi yaxshi fazilatlarini o'rganadi. Bu aynan to'rtinchi tashabbus ijrosi sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarni kitob bilan do'stlashtirib, bilimini oshirishda, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, dars jarayonlarida xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladigan ta'limiy o'yinlarning ahamiyati katta, deb o'ylayman. Ushbu jarayonlar davomida o'quvchilarni mustaqil ravishda darslarni tayyorlashga, kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqi oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Uzluksiz ta'lim” jurnali - 2015y i 1 1, 2, 3- sonlar.
2. O'qish fanidan o'quv dasturi 1-4- sinf, Toshkent- 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 19- martdagi ma'ruzasi.



O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Avezmuratova Zumrad Shamurotovna,
Yusupova Shahnoza Shonazarovna
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-son maktabning o'qituvchilari
@gmailzumradavezmuratova/91-987-81-88

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kreativ fikrlash nimaligi va o'quvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: stereotip qoliplar va shablonlar, qutbli tafakkur, ijodkorlik.

O'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create”dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiyida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Qoliplardan voz kechamiz. Inson miyasi o'z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rintutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, “oqim bo'ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga “so'rov” berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, “yangi yil” deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo'lida hasa tutgan, ko'zoynakli cholni ko'rish qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi. Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Eynshteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleevning kimyo fanidan “uch” olgani bunga misol bo'ladi. Harf o'rganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqalar bo'ylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, adabiyot darslarida asarni qanday tushunish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarni yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliplar doirasida fikrlay boshlaydi. Oqibatda ko'plab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb so'raydigan holga kelgan. Bu oldin mavjud bo'lgan modellar asosida ishlashga o'rganib qolish natijasi. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun o'quv jarayonida ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'quvchilarga “Siz hokim yoki millioner bo'lib qolsangiz, qanday ishlarni amalga oshirgan bo'lardingiz?” kabi noodatiy savollar berilishi mumkin. Bu savol o'quvchining topqirlik, bilag'onlik, ijodkorlik, masalaga turli nuqtayi nazardan qaray olish, yashirin jihatlarni ochish kabi xislatlarini rivojlantiradi. Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko'rinishlari bor. Masalan, qutbli tafakkur — hamma narsani ikki shaklda — yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda ko'rishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning o'zi mavjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi. Har bir



holat va jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari bor. Bir tomonlama yondashuv, asoslanmagan xulosalar ham stereotiplar asosida fikrlashning ko'rinishlaridir. Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funktsiya, shablonlardagi to'siqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur.

Kreativ tafakkurga ega bo'lgan o'quvchilar:

masala: Uch aka-uka Ali, Vali va G'ani. Ali Validan katta. Vali G'anidan katta. Kim katta: G'animi yoki Ali?

masala: Uchta qiz shaharga ketayotib, 5 ta qizni uchratdi. Shaharga nechta qiz ketayapti?

Mantiqiy masala odatda qo'shimcha tahlilsiz yechiladi. Ya'ni o'quvchiga fikrlash, o'ylab olish imkoniyati beriladi. “Kim topqirroq?” degan musobaqa ketadi. Lekin masalaning javobini topish qiyinlik qilsa, o'qituvchi yordamchi savollar beradi va masala javobini topishga o'quvchi fikrini yo'naltiradi. Aslida yordamchi savollar berish maqsadga muvofiq emas.

Faraz qiling, siz kema kapitanisiz. Kemada 25 ta 25 yoshli matros bor. Kapitanning yoshi nechada? (Sizning yoshingizda, chunki siz kema kapitanisiz).

Daraxt tepasida 7 ta qush bor edi. Olim roqatka bilan bittasini yiqitdi. Daraxt tepasida nechta qush qoladi? (Qolgani yo'q, hammasi uchib ketdi.)

Boshqotirma.

1) beshta bir, 2) beshta 3, 3) beshta 5 raqamlari va amal belgilari yordamida qiymati 100 ga teng bo'lgan ifodalar tuzing. $11111 - 11 = 100$

$$33 \times 3 + 3 : 3 = 100 \quad 5 \times 5 \times 5 - 5 \times 5 = 100$$

Bir xil raqamdan 6 tasi yordamida 100 sonini yoza olasizmi?

$$\text{Masalan: } (111 - 11) : 1 = 100 \quad (222 - 22) : 2 = 100 \quad (333 -$$

$$33) : 3 = 100 \quad (999 - 99) : 9 = 100$$

Qiziqarli masalalar.

Yangi yil archa bayramida Qorbobodan necha yoshga kirdingiz, deb so'rganlarida, u shunday deb javob berdi: agar eng kichik to'rt xonali songa 99 ta o'nlik qo'shib, natijadan birni ayirsangiz, savolingizga javob topasiz. $(1000 + 990) - 1 = 1990 - 1 = 1989$.

Odil Qodir bilan Qobilga “Sanamay sakkiz dema” kitobini quyidagi joyini o'qib berdi: “Qosim uchinchi qavatga ko'tarilishi uchun o'n ikkita zinani bosib o'tdi. U oltinchi qavatga chiqquncha nechta zinani bosib o'tishi kerak?”

Qobil bu savolga darhol:

- Yigirma to'rtta! - deb javob berdi. Qodir bir muddat o'ylab:

- Yo'q, oltinchi qavatga chiqquncha 30 ta zinani bosib o'tishi kerak, - dedi. Shunda Odil ularga qavatlarining zinalarini chizib, sonini sanattirdi.

qavatga chiqish uchun 30 ta zinani bosib o'tish kerak, 5- qavatga esa 24 ta

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J., “Ilg'or pedagogik texnologiya” – Toshkent, “Fan” nashriyoti.
2. Ziyonet.uz, eduportal.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Begimova Nodira Xolmurotovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf fani o'qituvchisi.

Shabbazova Nargiza Xamrayevna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf fani o'qituvchisi.

To'laganova Muyassar Rustamovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining vazifalari, o'quvchilarning o'qish malakasini takomillashtirish va o'qish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan metod va usullari haqida yoritilib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Motivlar, metod, reproduktiv, voqea, so'z, ibora, o'qish, didaktika, tasavvur, nutq va tafakkur.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos



xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Shuning uchun insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida ona tili va o'qishning o'rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ushbu fanlar orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tili va o'qish fanlarini o'qitilishiga alohida e'tibor qaratmoq joizdir.

O'quvchilarda ijobiy tasavvur, nutq va tafakkurni o'stirish. Qadim-qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr-muhabbatni tarbiyalash, uni e'zozlashga o'rgatish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatish.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi

o'qiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishi, psixologiyasini hisobga olish zarur. O'quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotidan beziradi. O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o'yinlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamagandek, o'qib charchaganini sezmaydi. Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan iborat:

Motivlar, O'quvchining o'quv-bilish jarayoni, boshqarish Didaktik jarayonning samarali o'tishida bu komponentlar muhim o'rin tutadi. 1-sinfda o'qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi:

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari, bilimlarini mukammal egallashlari, hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lmagan so'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qish. Bolalar hayoti bilan bog'liq bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli so'zlarni bir tekis o'qishlariga erishish. Buning uchun o'qituvchi o'qiladigan asar matnini o'rganish jarayonida o'qilishi qiyin o'rinlarni belgilashi va o'qishni differensial usulda tashkil etishi, ya'ni o'qilishi qiyinroq o'rinlarni yaxshiroq o'qiydigan o'quvchilarga, oson o'qiladigan o'rinlarni o'qish malakasi bo'sh o'quvchilarga o'qitishni mo'ljallashi lozim. Bog'in tuzilishi murakkab so'zlarni kartonga solib yoki xattaxtaga bo'g'inlarga bo'lib yozish, jo'r o'qitish usulidan foydalanish, so'z ma'nosini izohlash yo'li bilan to'g'ri o'qishni amalga oshirish kerak. 1-sinflarda o'qishning ovoz chiqarib, ba'zan shivirlab o'qish turidan foydalanish talab etiladi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarning to'g'ri o'qishini hisobga olish va to'g'irlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. O'qish darslarida turli janrdagi asarlarni o'rganishda ham o'quvchilarning badiiy asarni chuqur o'zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta'minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e'tibor qaratildi. O'qish darslarida izohli o'qish, ijodiy o'qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin. Izohli o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga mos



bo‘lgan, ularning asta-sekin o‘shini ta’minlaydiga metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi. Izohli o‘qish ongli, tushunib o‘ylab o‘qishga o‘rgatadi. Izohli o‘qish tamoyillari:

Ijodiy o‘qish asar o‘qib berilgach, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda reja tuzishda, asar ustida ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o‘quvchilarni faollashtiradi.

Reproduktiv metodda asar matni qismlarga bo‘linadi, yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan fikriga o‘quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so‘z, ibora ifodalarni aniqlab ko‘rsatadi, ularga yuklatilgan ma’noni o‘quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini bajaradi. O‘qituvchining yo‘lovchi savollari yordamida bu vazifani o‘quvchilar o‘zlari mustaqil bajaradilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish fanida bu metod va usullardan foydalanish o‘quvchining o‘qish malakasini takomillashtirib, mustaqil fikrlash va og‘zaki bayon eta olish malakalarini shakllantirib rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G’. Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.

2. J. G’. Yo‘ldosheva, F. Yo‘ldosheva, G’. Yo‘ldoshev “Interfaol ta’lim sifat kafolati” T. 2008.

3. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019.

4. E. Shodmonov, G.Esh turdiyeva 1-sinfi uchun darslik Toshkent — 2017yil.

5. <https://www.pv.uz>



YANGI INTERFAOL METODLAR - CHET TILI FANLARINI O'QITISHDA MA'NAVIY VA INTELLEKTUAL SALOHİYATINI KENGAYTIRADI.

Bobojonova Shoxista Ortiqovna
Qalandarov Bohram Xojinazarovich
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi
18- maktabning chet tili o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanilish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: ta'lim, tarbiya, tizim, spiker, bosqich, so'z turkumi, topshiriq.


Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

“Sirli sandiqcha”

O'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalarini va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilarni maksimum diqqat-e'tibor talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulot o'tkazish tartib-qoidalarini va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi.

Bu usuldan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishi darslarida foydalaniladi. Bu usul o'quvchilarni kimyoviy asboblarni va idishlarni nomlarini eslab qolishlariga yordam beradi. Ushbu usulni qo'llashda quyidagicha ko'rgazma yasalanadi. Kattaroq qilib hamma tomoni qora rangli kub shaklida quticha yasalanadi. Quticha usti ochiladigan va ichiga kimyoviy asbob yoki idish sig'adigan o'lchamda bo'lishi kerak. O'qituvchi bu usulni ochiq darslarda, kimyoviy kechalarda guruh sardorlari o'rtasida o'tkazsa, dars yanada qiziqarli o'tadi. O'qituvchi har bir guruhga alohida topishmoq tayyorlab keladi. Topishmoqning ma'nosi kimyoviy asboblarni, idishlarni yoki kimyoviy moddalarga tegishli bo'lishi kerak. Topishmoqning javobi esa quticha ichida bo'lishi kerak.



1-Rasm. Sirli sandiqcha.

Bunday texnologiya bilan o'tkazilgan mashg'ulot natijasida o'quvchilar qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011
2. Jo'rayev R.H., Raximov B.X., Xolmatov Sh.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2005. -49 b.



BOSHQARUVDA MENEJMENTNING USULLARI

Saidqulov Sodiqjon Botirovich

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti

Ilmiy-pedagogik xizmatlar markazi direktor o‘rinbosari

Madraimova Nasiba Farxadovna

Oriental universiteti “Ta’lim menejmenti”

yo‘nalishi magistranti

+998 97 275 23 03

saidqulovsodiqjon@gmail.com

Annotatsiya: Menejment usullari bu menejment sub’ektining menejment ob’ektiga maqsadli yo‘naltirilgan ta’sir o‘tkazishning usullari, ya’ni menejning u boshqarayotgan ishlab chiqarish jamoasiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uning faoliyati muvofiqlashuvini ta’minlashdir.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv, menejment, usul, iqtisodiy, tashkiliy-ma’muriy, ijtimoiy-psixologik

Menejment usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkoni boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta’sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p jihatdan menejment usullari mukammalligi va to‘g‘ri shakllanligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Menejment usullari menejment fanida muhim o‘rinni egallab, menejment qonun va tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Mehnat jamoasiga ta’sir etish usullari orasida menejment mexanizmi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment ob’ektiv qonunlari talablariga muvofiq keluvchilarigina eng maqbul va maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, menejment usullari bozor iqtisodiyotiga mansub qonunlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Menejment usullari tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zgaradi. Tashqi omillarga: tashqi va ichki sharoit o‘zgarishi, iqtisodiyotni boshqarishda tub islohotlarni amalga oshirish, xalq xo‘jaligining texnikaviy qurollanganlik darajasini boshqarish tizimida o‘zgarishlar (iqtisodiy islohotlar, iqtisodiyotni boshqarishning tarmoq tizimidan hududiy tizimiga o‘tish va h.k.) kiradi. Ichki omillar jumlasiga: yirik ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish asosida ishlab chiqarish konsentratsiyasini amalga oshirish; korxonalar kattaligi o‘zgarishi natijasida uning bir guruhdan ikkinchisiga o‘tkazilishi; ishlab chiqarish ixtisoslashish darajasi o‘zgarishi; mehnatning texnika bilan ta’minlanish darajasi yaxshilanishi; ishlab chiqarishni rejalashtirish va jadal tartibga solishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish (tarmoqli rejalashtirish va boshqarish; ishlab chiqarishni uzluksiz tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimini qo‘llash va x.k.) kiritish mumkin.

Menejment usullari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta’sir etuvchi ishlab chiqarish usuli rivojlanishi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlari o‘sishi bilan o‘zgarib boradi. Iqtisodiyot muvaffaqiyatli rivojlanishda menejment usullarini to‘g‘ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

Menejment usullarini iqtisodiyotning ma’lum aniq sohalarida amal qilishning turli yo‘llari orasidagi umumiy hodisa sifatida ajratish mumkin. Masalan, menejment darajalari bo‘yicha menejment usullari (davlat sektorini boshqarish usullari, sex, korxonalar, birlashmalar, mintaqani boshqarish usullari), yoki tarmoqlarni boshqarish usullari (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligini boshqarish usullari) haqida so‘z yuritish mumkin. Shuningdek, turli sub’ektlari tomonidan qo‘llaniladigan menejment usullarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Davlat menejmenti usullari jamoat tashkilotlarini boshqarish usullari, yoki iqtisodiyotning ayrim sohalarida qo‘llaniladigan menejment usullarini (ishlab chiqarishni, moliyaviy sohani, fan va maorifni boshqarish usullari)ni ham ko‘zda tutish lozim.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotini menejmentning iqtisodiy usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Menejmentning iqtisodiy usullari kishilarga iqtisodiy manfaatlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy usullarning mohiyati xodimlar va ishlab chiqarish jamoasiga ular manfaatli bo‘lishini ta’minlovchi iqtisodiy sharoit yaratishdan iboratdir. Menejment usullari tizimida iqtisodiy usullar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Iqtisodiy usullar iqtisodiy ta’sir vositalari yig‘indisidan (narx, kredit, biznes-reja, foyda, soliqlar, ish haqi, iqtisodiy rag‘batlantirish va h.k.), yani xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etishning har bir jamoa



mos xo‘jalik bo‘g‘ini bilan uzviy aloqada amal qilishini ta‘minlovchi tadbirlaridan iboratdir.

Bozor mexanizmining muhim vazifalaridan biri biznes-reja va bozorning uzviy bog‘liq bo‘lishiga imkon yaratuvchi pul va tovar resurslari to‘g‘ri nisbatini ta‘minlashdir.

Boshqarishning iqtisodiy usullari - iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har qanday jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo manfaatlarda namoyon bo‘ladi. Manfaatlarni uch xil bo‘ladi:

- a. umumjamiyat manfaatlari;
- b. jamoa manfaatlari;
- c. shaxsiy manfaatlarni.

Bu manfaatlarni uyg‘un sur‘atda bog‘lab olib borish muammosi bir qator muammolarni hal qilishga, har bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlarni o‘rnatishni talab qiladi.

Menejmentning tashkiliy farmoyish (ma‘muriy) usullari. Xo‘jalik tashkilotlarining ishlab chiqarishni menejment bo‘yicha faoliyati boshqaruvning turli tashkiliy-farmoyish usullarini qo‘llash bilan bog‘liqdir. Boshqaruvning tashkiliy-farmoyish usullari boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi ta‘sir etish tizimidan iboratdir. Menejmentning tashkiliy-farmoyish usullari iqtisodiy usullarni to‘ldirib, bozor iqtisodiyoti qonunlarining huquqiy aktlarini hisobga olish va bajarishga asoslanadi.

Ijtimoiy-psixologik usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usullar ijtimoiy-ma‘naviy vaziyatga ta‘sir etish yo‘li bilan kishilarning fe‘l-atvori, ruhiyatini hisobga olib, ularning ijtimoiy (sotsial) talablarini qondirish orqali boshqarishni bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy-psixologik usullar bu ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagi “psixologik vaziyatni”, har bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishga asoslangan usullardir.

O‘z mohiyatiga ko‘ra boshqarish uslublarining bu guruhi jamoaning shakllanish va yuksalish jarayoniga, kishilarning ongiga, ma‘naviy manfaatlariga jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ta‘sir qiluvchi vositalarning majmuidir.

Ijtimoiy-psixologik usullar “boshqarish sotsiologiya”si va “boshqarish psixologiyasi”ga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.X.Djurayev, S.T.Turg‘unov. “Ta‘lim menejmenti”. Toshkent-2006 yil.
2. D.S. Qosimova. “Menejment nazariyasi”. Toshkent-2011 yil.
3. E.D.Yusupov, Z.K.Kusharov. “Menejment nazariyasi”. Toshkent-2019 yil.
4. N.Q.Yo‘ldoshev, M.M.Azlarova, G.Y.Xo‘djamuratova. “Menejment va marketing asoslari”. Toshkent-2009 yil.
5. R.Valijonov, O.Qobulov, A.Ergashev. “Menejment asoslari”. Darslik. Toshkent-2008 yil



BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Davlatova Umida Kalandarovna

Hazorasp tumani 23-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 515 79 10

umida.kalandarovna_23@inbox.uz

Ro'zmetova Gulrux Qodir qizi

Urganch shahar 26-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (93) 866 05 01

rozmetova/gulrux_26@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya darslarini o'tishda interfaol metodlardan samarali foydalanish usullari haqida.

Kalit so'zlar: metod, savol javob, Guruhlarda ishlash, “Biologik diktant”, “Zinama-zina”, “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “Klaster”, “Auktsion”, “BBB”, “Davra suhbat”, “Zanjir”, “Ha - yo'q”, “Rolli o'yinlar”, “Bingo”, “Test sinovi”

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarimizning biologiya faniga qiziqishi boshqa fanlarga nisbatan yuqoriroqdir. O'quvchilar tabiat ne'matlarini, jonli mavjudotlarni, insonning ichki a'zolarini tuzilishini o'rganishga ishtiyoqi balanddir Biz ularning qiziqishlarini yanada yuksaltirish maqsadida dars jarayonlarida turli metodlardan unumli foydalanishimiz kerak deb o'ylayman.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

5-9 sinflarda biologiya darslarida “Biologik diktant”, “Zinama-zina” “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “To'g'ri top”, “Klaster”, “BBB”, Guruhlarda ishlash, “Davra suhbat”, “Zanjir”, “Ha - yo'q”, “Rolli o'yinlar,” “Bingo”, “Topgan topaloq”, “Intervyu”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Test sinovi” kabi interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara beradi

1. “Biologik diktant”. Bunda o'quvchilarga mavzu yuzasidan Biologik atamalar yozdiriladi Masalan: Tukan, Nektarxo'r, arteriya, skelet, lansetnik, chugalchang, nerv. Bu usul orqali o'quvchilar savodxonligi sinalib ona tili fani bilan fanlar aro integratsiya o'ranatiladi

2. “Atamalar janggi”. Bu metodda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi Har bir guruhdan navbat bilan bittadan vakil chiqadilar. Chiqqan vakillar fan doirasida atamalarni navbatma-navbat aytishadi. To'xtab qolgan o'quvchining guruhi yutqazgan hisoblanadi

3. “Sirli quti”. Bu metod orqali o'quvchilarning tezligi va topqirligi sinovdan o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan atamalar yozilgan kartochkalar qutichaga solinadi. O'quvchilar guruhlarga bo'linib har bir guruhdan vakil chiqadi. Ular qutidan galma-gal atama tanlaydi Bunda o'quvchida ikki imkoniyat bo'ladi. Yo atamaga izoh berishi yoki atamaning oxirgi harfiga boshqa bir atama aytishi lozim bo'ladi

4. “Venn diagrammasi” o'quvchilarga diagramma ko'rinishi chizilgan qog'oz tarqatiladi yoki doskaga chiziladi. Diagrammaga ikki o'simlikning, yoki ikki hayvonning nomi yoziladi yoki oila, turkumlarni ham yozish mumkin. O'quvchilar diagrammaning alohida qismiga farqli jihatlarni, kesishgan qismiga esa umumiy jihatlarni qayd etishadi. Masalan, diagrammaning bir



tomonga delfin, bir tomonga esa kit deb yoziladi. O‘quvchilar har ikki tomonga farqli jihatlarni kesishgan nuqtaga esa umumiy jihatlarni yozishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. J.O.Tolipova, A.T.G‘ofurov Biologiya ta’limi texnologiyalari - Toshkent: “O‘qituvchi” 2002
2. G‘ofurov.A.T, Tolipova.J.O va boshqalar Biologiya o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2013 yil.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI VA SHAKLLARI

Djumaniyazova Umida Erkabayevna
Gurlan tumani 24-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (93) 619 98 91
umida.erkabayevna_24@inbox.uz
Bobojanova Manzura Ruzibayevna
Xonqa tumani 33-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: + 998 (91) 913 02 49
bobojanovamanzura_33@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari va shakllari haqida.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, savodxonlik, zamonaviy usullar.

Boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishning samaradorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Shubhasiz, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta’limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikning o‘rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta’minlash bilan aloqadordir. Ana shu omillar ichida ona tili ta’limning mazmuni muhim va etakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o‘quvchilarga “Nimani o‘qitish?” masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Ona tili ta’limidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi to‘g‘ri belgilansagina “Qanday o‘qitishi kerak?” degan savolga javob topish mumkin. Demak samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir. “Nimani o‘qitish?” va “Qanday o‘qitish kerak?” bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog‘langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko‘rsatmaydi. Ona tili ta’limning samaradorligi, birinchidan, ta’lim mazmuni, ya’ni shu fandan o‘quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarning ona tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan chambarchas bog‘langan. Ona tili ta’limning samaradorligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlanishidir. Ona tili darslarida o‘qituvchi ko‘proq o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o‘quv materialini tushuntirib berish yoki o‘quvchi duch keladigan tushuncha, ta’rif va qoidalar atrofida suhbat o‘tkazish bilan o‘rgatib bo‘lmaydi tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o‘qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o‘qituvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi. O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlarning eng serunumi muammoli o‘qitishdir. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh hamda umumiy bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanishni maslahat beramiz:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o‘rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish. Chunonchi o‘rganiladigan har bir mavzu o‘quvchilardan tovushlar, so‘zlar va gaplarni qiyoslashni, shu asosda umumlashmalar hosil qilishini talab etadi. Bu hol o‘z-o‘zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarda “Nima uchun” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug‘iladi. Masalan, “Unli va undosh tovushlar” mavzusi o‘rganilayotganda o‘quvchi avval unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so‘zlar, so‘zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi. O‘quvchilar bu topshiriqlarni bajarish asosida umumlashma hosil qiladilar.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish. O‘quvchi dars mashg‘ulotini muammoli savolni o‘rtaga tashlash bilan boshlaydi. Masalan, 1) unli va undosh tovushlarni alohida - alohida aytib ko‘ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz? 2) Oltita unli harf ishtirok etgan so‘z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko‘ring. Qanday o‘zgarishlarni sezayapsiz? 3) undosh tovushlarni talaffuz etib ko‘ring. Shovqin va ovozdan hosil bol‘gan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida yozing. Agar



topshiriqlarni bajarish muayan qiyinchilik to‘g‘dirsagina, namuna ko‘rsatiladi. Matn yaratishham o‘quvchi uchun muammo sanaladi. Buning ehg samarali yo‘llaridan biri o‘quvchilarga so‘roqlar berib, ularga javob topishni talab qilishdir.

3. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish. Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, O‘zbekiston qovunlari rasmi va nomini berib, shunday mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:

1. G‘ulomov A, Ne‘matov H. Ona tili ta‘limi mazmuni T, 2011, 124 b.
2. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. T, 2009, 130 bet.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING AQLIY VA MA’NAVIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA TA’LIM VA TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Djumayeva Dildor Baxtiyorovna
Jumayeva Iroda Nizomiddinovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy va ma’naviy salohiyatini oshirishda ta’lim va texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, o‘zliging namoyon et, qo‘sh sharlar, begona..

Respublikamizda yoshlarning aqliy va ma’naviy salohiyatini oshirishda ta’lim va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini e’tiborga olgan holda hozirgi vaqtda o‘rta ta’lim muassasalarida kelajakda jamiyatimizga yetuk, raqobatbardosh malakali o‘quvchilarni tayyorlab berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa o‘quvchilardan o‘quv fanlarini mukammal o‘zlashtirishi talab etiladi. Shu ma’noda aytib o‘tish joizki, o‘quvchilarga nazariy olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish ko‘nikmasi to‘liq shakllangan bo‘lishi, ya’ni o‘zlashtirgan bilimlari asosida mazkur fanning asl mazmun va mohiyatini mukammal anglab etgan bo‘lishlari lozim.

“O‘zliging namoyon et” metodida o‘quvchilarning so‘zlarni talaffuz qilish qobiliyati, nutq madaniyati, o‘zini sahnada tutish odobi, aktyorlik qobiliyati sinaladi. Bunda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan o‘quvchilar uchun kichik sahna ko‘rinishlarini obrazga kirib ijro etish maqsadga muvofiq. Masalan, darslikdagi “Fanlar bahsi” she‘rini rollarga bo‘lib ijro etadilar.

Sahna ko‘rinishi.

“Fanlar bahsi”

Bir kuni barcha fanlar,

Yig‘ilishib o‘zaro

“Qay birimiz kuchli?” deya

Qildilar bahs mojaro.....

“O‘quvchi dunyoqarashi” test-anketasi. O‘quvchilar o‘rtasida darslarni yaxshi o‘zlashtirishi, hayotini yanada yaxshilashga qaratilgan test-anketa o‘tkaziladi. O‘qituvchi tuzgan savollarga o‘quvchilar javob yozishadi. Olingan natijalarni tahlil qilgan o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida qanday mavzuda tadbirlar o‘tkazish kerakligi, ularning iqtidorini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlaydi.

O‘qituvchi individual yondashuvga asoslangan trening mashqlar asosida o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hurmat, hamkorlik muhitini qaror toptirishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Topshiriq:
Ikkita kesma chizib, kvadratni 8 ta bir xil uchburchakka ajratamiz



TOPSHIRIQNI BAJARING VA SIRLI SANDIQ SOVRINIGA EGA GO‘LING





“BEGONASINI TOP” usuli. Bunda o‘quvchilar maqollarning ma’nosiga e’tibor qaratadilar. Aynan boshqa mavzudagi maqol, ya’ni begonasini topadilar va izohlaydilar.



“Qo‘sh sharlar” metodi texnologiyasi.

Turli rangdagi sharlarga jarangli va jarangsiz undoshlar yoziladi. Ishtirokchilar sharlarning rangiga e’tibor berib yozilgan harfning jufti qaysi sharda ekanligini topadilar.

Masalan: Jarangli undoshlar

b, v, g, d, z, j, g‘

Jarangsiz undoshlar

p, f, k, t, s, ch, x



“She’rni tikla” mashqi. Bu mashq uchun “O‘qish kitobi”da berilgan biror bir she’r asos qilib olinadi. O‘quvchilar berilgan vaqt ichida she’rni qayta tiklash orqali o‘z ziyrakliklarini namoyish etishlari kerak bo‘ladi.

Buning uchun sinf 3 guruhga bo‘linadi. Guruhlarga bir xil she’r matni ichidan har bir satri ajratib kesib olingan holda taqdim etiladi. O‘quvchilar misralarning o‘rnini to‘g‘ri tanlashi kerak bo‘ladi.

NAMUNA	
MISRALAR	SHE’RDAGI O’RNI
<i>Terib keldik gul-lola</i>	4
<i>Ko‘m-ko‘k bo‘ldi bog‘, dala</i>	2
<i>Bahor keldi elimizga</i>	1
<i>Sevinch to‘lib dilimizga</i>	3



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005-y. №5. 90-93-b..
2. X.Teshaboyev. "Interfaol usullari". T.2009-yil



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TOVUSH VA HARFLARNI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Farxodova Dilnoza

Urdu Magistratura bo'limi

Ta'lim va tarbiya metodikasi va nazariyasi
(boshlang'ich ta'lim) 212-guruh talabasi

Annatotsiya: Bu maqolada o'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan.

Kalit so'z: ta'lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik, texnologiya.

Tovush- Nutq jaroyonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eg kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasidir. Biz tovushlarni aytamiz va eshitamiz. Og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi fonetika (yunoncha-phone “tovush” degani) deyiladi.

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm - fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilmfanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin, o'z farzandlarining savodli bo'lishini orzu qilganlar, ularni yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Savod o'rgatish kelajak avlod hayotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. O'quvchilarning savodi asosan “Alifbe” darsligi asosida amalga oshiriladi. Maktabda o'qish va yozish «Alifbe» ga asoslangan holda 2- sentabrdan 1- yanvargacha davom etadi. Bu davrda o'qish va yozuv o'rgatiladi. So'ngra o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi. Ana shunday muhim jarayon uchun “Alifbe” darsligi asos bo'ladi.

Nutq tovushlari 2 xil bo'ladi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Tovushlarni aytamiz, eshitamiz. d tovushi bilan tanishtirish, mantiqiy mashq.

Xattaxta tagligiga hayvonlari rasmi terib qo'yiladi (jo'ja, delfin, sher, chumchuq, zebra) va quyidagicha suhbat orqali delfin so'zi ajratib olinadi.

— Bu yerdagi hayvonlari nomini ayting, — sigir, delfin, yo'lbars, tovus, maymun.

— Shu hayvonlarning qaysi biri nomida d tovushi bor? Aytib ko'rib aniqlang-chi? (O'qituvchi o'zi aytib yordam beradi: del-fin.)

— Delfin so'zida d tovushi bor.

— d tovushini talaffuz qilib, uning qanday tovush ekanini aniqlang.

— d undosh tovush ekan.

— Qayerdan bildingiz?

— d tovushi to'siqqa uchrayapti, qisqa aytiyapti.

— To'g'ri: d tovushi qisqa aytiyapti, undosh tovush.

Delfin so'zida so'zning boshida kelyapti d tovushi so'z o'rtasida ham, oxirida ham keladi. Masalan: farzand, band, poyezd.

“So'z top” o'yini. O'qituvchi o'quvchilarni uch guruhga boladi: birinchi quruhga d tovushi bilan boshlanadigan so'zlar topish, 2- guruhga d tovushi bilan tugaydigan so'zlar, 3- guruhga d tovushi so'z o'rtasida kelgan so'zlar topish aytiladi. Qaysi guruh o'ylanib, belgilangan muddatda so'z topa olmasa o'yindan chiqadi. O'yinni oxirigacha davom ettirgan guruh g'olib sanaladi.

1- guruh	2- guruh	3-guruh
Durdona	<i>Farzand</i>	Undosh
Duradgor	<i>Poyezd</i>	Paydo
Delfin	<i>Band</i>	Adabiy
Dinazavir	Gepard	Abadiy
Do'lana	Qand	Brundiq
Dono	Obod	Qunduz
Dunyo	Savod	O'rdak
Davra	Sud	Nandu

Faol o'quvchilarni rag'batlantirish



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi // Boshlang‘ich ta‘lim, 1998, 6-son
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.



SIFATLI TA'LIMNI TASHKIL ETUVCHI ZAMONAVIY USULLAR

Nurova Rayxan Beknazarovna
Ganiyeva Ayjamal Turemuratovna
 Navoiy viloyati Zarafshon shahar
 4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari
Buranbayeva Liza Yergeshbayevna
 Navoiy viloyati Zarafshon shahar
 6-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang'ich sinflarda sifatli ta'limni tashkil etuvchi zamonaviy usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bosh qotir, zig-zag, to'g'ri, mantiqiy, pinbord, boshqotirma, tafakkur

Barchamizga ma'lumki, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadida o'zi tayyorlagan yoki to'plagan hamda tizimga keltirgan metodik materiallari, ilg'or ish tajribalar, metodik tavsiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Darslarni qiziqarli va samarali tashkil etish bilan birgalikda, o'z hamkasblarining ilg'or ish tajribalaridan xabardor bo'lish hamda o'z tajribasini ommalashtirish ham sifatli ta'limni rivojlantirish imkonini beradi.

Quyida shunday qiziqarli usul va mantiqiy savollarni tavsiya etmoqchimiz:

“Bo'sh o'tirma, bosh qotir” usuli.

7	2	6
3	4	8
5	9	1

		6
	4	
5		

1. Bo'sh kataklarga mos sonlarni qo'ying. Har bir qator va ustundagi sonlar yig'indisi 15 ga teng bo'lsin.

Javob:

2. 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarning har biridan faqat bir marta foydalanib, qo'shishga oid uchta ifoda tuza olasizmi? Ulardan biri quyidagicha: $3 + 5 = 8$

Javob: $7 + 2 = 9$; $4 + 6 = 10$.

3. Ota 45 yoshda. O'g'illari 7, 11 va 15 yoshda. Necha yildan keyin o'g'illari yoshining yig'indisi otaning yoshiga teng bo'ladi?

Javob: 6 yil.

4. Rustam Alisherga: “Menga yong'oqlaringdan ikkitasini bersang, mendagi yong'oqlar senikidan ikki marta ortiq bo'ladi”, - dedi. Alisher Rustamga: “Yo'q, sen menga ikkita yong'og'ingni bersang, ikkalamizdagi yong'oqlar soni teng bo'ladi”, - dedi. Bolalarning har birida nechtdan yong'oq bor edi?

Javob: Rustamda 14 ta, Alisherda 10 ta yong'oq bor.

5. Soat millari 8 dan 35 minut o'tganini ko'rsatmoqda. Soat mili bilan minut milining o'rinlari almashtirib qo'yilsa, soat nechani ko'rsatadi?

Javob: Soat 7 dan 40 minut o'tganini ko'rsatadi.

6. Stol ustida 3 ta cho'p bor. O'rtadagi cho'pga tegmasdan uni chetga oling.

Javob: O'ng chetdagi cho'pni chap chetga yoki chap chetdagi cho'pni o'ng chetga olib qo'yish kerak.

7. 4 ta bir xil raqamdan foydalanib 100 sonini hosil qiling.

Javob: $(5 + 5) \cdot (5 + 5) = 100$.

“Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri” usuli. Ta'rifi: Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

Foydalanish doiralari: Uy ishini tekshirish vaqtida, barcha fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Afzalliklari: Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Qiyinchiliklari: Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari



xavfi bor. O‘qituvchiga fikrlar aniqligi va to‘g‘riligini kuzatish, mashqni o‘tkazish uchun vaqtni mo‘ljallab olish qiyin, chunki o‘quvchilarda ko‘pincha fikrlarni aniq ifodalash ko‘nikmasi mavjud bo‘lmaydi.

“Pinbord” usuli. (inglizchadan “pin” mustahkamlash, “boord”- taxta)

O‘tkazish tartibi. Doskaga jadval osiladi. O‘qituvchi stoli ustiga so‘zlar yozilgan qog‘ozchalar teskari holatda qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir guruhdan bittadan tinglovchi chiqib shu qog‘ozchalardan birini tanlaydi. Tanlagan so‘zi mos kelsa, jadvaldagi yozuvga mos kelgan katakka yopishtirib qo‘yiladi va shu so‘zni o‘qib ma‘nosini izohlab beradi.

Afzalliklari: O‘quvchilarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim orttirish harakatlarini rag‘batlantiradi.

Qiyinchiliklari: O‘quv mavzusi bo‘yicha mazkur mashqdan foydalanishda kuchsiz o‘quvchilarga yordam kerak bo‘lishi mumkin.

So‘zlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: divan, stol, stul, orom kursi va hokazo.

„Zig-zag ” texnologiyasi. Ushbu texnologiya asosida o‘qitishda tarqatma materiallar ta’lim oluvchilar tomonidan yakka tartibda va guruh-guruh bo‘lib o‘zlashtiradi. Ular dars jarayonida va darsdan tashqari mashg‘lotlarda o‘quv adabiotlari, matnlar bilan ishlashni o‘rganadilar. O‘zaro suhbat, bahs-munozara, turli savollar orqali ularning matn mazmunini qay darajada o‘zlashtirgani nazorat qilinadi, kichik guruhlarning faolligi va o‘zlashtirish darajasi tez baholanadi.

Metodning afzalligi:

- hajm jihatidan katta materialni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyati mavjud;
- kichik guruhda ishlash jarayonida guruh a‘zolari hamjihatligi mustahkamlanadi.

Boshqotirma:

8sm		8sm		4sm
	6 sm		3sm	
3sm				
P=?	P=?	$(8+3)*2=22$		$(4+3)*2=14$ P=?
$(8+6)*2=28$		Javob: 28sm		

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kun o‘qituvchisi ta’lim berayotgan bosqichdagi bitiruvchilarga DTS fan yuzasidan qo‘yiladigan talablarni yaxshi bilishi va ta’lim jarayonini shunga yo‘naltirishi, ya’ni mavzular, modullarni shu talablardan kelib chiqib loyihalashtirishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
2. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2012-yil №3- soni



UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sohiba Jabborova Axmataliyevna
Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani
58-umumiy o'rta ta'lim maktabining
II-toifali Kimyo fani o'qituvchisi
muhammadsultonyarashev@gmail.com
+998996688183

Annotatsiya : Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan usullar , innovatsion ta'limni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish.

Kalit so'zlar: Innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, pedagog, o'qitish usuli.

Respublikamizda bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Innovatsiya muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangicha yondashuvdir. Ta'limiy innovatsiyalar faqatgina ta'lim samaradorligiga ta'sir etmasdan, balki o'quvchilarni innovatsion jarayonlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beradi. Oldingizga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun 2017-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon va o'qituvchi-o'quvchi faoliyatiga yangiliklar o'zgarishlar kiritish bo'lib , uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan foydalaniladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari o'qituvchisi tinimsiz innovatsion izlanishda bo'lishi, o'quvchilarda ham shu kabi g'oyalarni shakllantirish yuzasidan faoliyat olib borishi zarur. O'qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rishi zarur. O'qituvchilar kasbiy qiziqishlari ko'lamini kengaytirishsa , bu ularning darsni tashkil etishlarida ko'plab imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajribalar o'quvchilarni yuksak bilimli va intellektual salohiyatga yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi, o'quvchilarning egallayotgan bilimlari barqaror bo'ladi, ongli ravishda shaxs sifatida mustaqil xulosa chiqara oladilar.

O'qituvchi fanni o'qitish jarayonida vazifalarni aniq belgilashi, innovatsion va interfaol texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini yaxshi bilishi lozim. Zamonaviy shart-sharoitlarda pedagogik jarayonlarni tashkil etishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning professionalligi dars samaradorligini ta'minlashda kompetentli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik innovatsiyani tashkil etish, ta'lim tarbiyaga oid innovatsion jarayonning mazmun mohiyati, belgilari va imkoniyatlariga tegishli bo'lgan materiallarga bog'liq bo'ladi. O'qituvchilar o'qitish jarayonini tashkil etishda quyidagi vositalardan foydalansalar kerakli samaradorlikka erishadilar: multimediya, ineraaktiv doska, virtual laboratoriyadan foydalanish, kompyuter, electron darsliklar , electron variantdagi testlardan foydalanish shular jumlasidandir.

Bugungi kunda iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash O'zbekistondagi ilm-fan va madaniyat rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Shunday ekan turli sohalarda iqtidorli va istedadli o'quvchilarni aniqlash, ularning iqtidorini va istedadini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dolzarb masaladir.

O'quvchilarning iqtidori, qobiliyati , qiziqishlari, tashabbuskorliklari, intellectual salohiyatlari va kelajakka ishonch bilan qadam tashlashlari uchun ularga har tomonlama shart-sharoitlar yaratish muhim vazifadir.

Prezidentimizning 2018-yil 21-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasini 2019-2021-yillarda “Innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash tog'risida” gi qarori qabul qilindi. Strategiyada ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologilarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi deb belgilandi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan zamonaviy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar bevosita ta'lim tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda



interaktiv metodlardan foydalangan holda dars o'tish ularning tasavvurini kengaytirishga, aqliy salohiyatini oshirishga, yaratuvchanlik g'oyalari shakllantirishda va darsni oson va qiziqarli tarzda eslab qolishga bevosita zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligining ilmiy metodik jurnali 3-son 2015-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 21-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasini 2019-2021-yillarda “Innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Karimova Habiba G'affar qizi

Urganch tumani 2-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 856 38 28

karimovahabiba_3828@inbox.uz

Matyaqubova Nazakat Rashidovna

Xiva tumani 16-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (90) 438 48 89

nazakat.rashidovna_16@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiya fanini o'qitishda zamonaviy hamda innovatsion texnologiyadan foydalanish haqida.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, interfaol o'yinlar, innovatsion texnologiyalar, amaliyot va nazariyalar.

Biologiya asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Sababi bilamizki tabiat va borliqdagi barcha jon biologik elementlardan tuzilgan. Va barcha jonning organizmida yoki tana a'zolarida turli kasallik yoki lat yeyish kuzatiladi. Bularning davosini topish uchun ham albatta biologiyani bilish talab etiladi. Olimlar biologik bilimlarni ilmiy metod jarayoni orqali egalladilar. Ilmiy uslubning bosqichlari biologik dunyo haqida ma'lumot olishning tartibli usulini tashkil etadi.

Ba'zan olingan bilimlar muayyan muammolarni hal qilishda foydalidir; boshqa paytlarda, bu o'sha paytda amaliy qo'llanilmasdan shunchaki qiziqish uyg'otadi. Ilmiy metod kuzatuv va tajribalar yordamida ma'lumotni muntazam izlashni talab qiladi. Ilmiy uslubning asosiy bosqichlari kuzatuvlar asosida muammoni bayon qilish, tadqiqot uchun savol yoki savollarni ishlab chiqish, gipotezani shakllantirish, gipotezani sinash uchun tajribalar o'tkazish, ma'lumot to'plash, ma'lumotlarni yozib olish va tahlil qilish va xulosani shakllantirishdir.

Ilmiy metodlar orqali shuni ko'rishimiz mumkinki, maktab yoshidagi bolalar biologiya fanini o'rganishda ba'zi muammolarga duch kelishadi. Bu muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida darslarni qiziqarli hamda interfaol usulda o'tish talab etiladi. Noan'anaviy o'tilgan darslar an'anaviy o'tilgan darslardan tubdan farq qiladi. Sababi o'quvchilar doimgi darslarga o'rganib qolgan bo'ladi va ular uchun yangilik ularni fanga yanada qiziqishlariga sababchi bo'ladi.

Biologiya ilmiy bilimlarning markaziy tarmoqlaridan biri bo'lib, tibbiyot, genetika, zoologiya, ekologiya kabi fanlar bilan bog'liq. Biologiyani o'qitishda muvaffaqiyat qozonish uchun ushbu qiziqarli fanni qanday qilib boshqalarga ta'sirli va qiziqarli tarzda o'tishni bilish kerak. Buning uchun o'quvchilarga biologik tushunchalar to'g'risida hech bo'lmaganda fundamental bilimlarga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yish kerak. Biologiyani kundalik hayot bilan bog'lash. Ba'zi o'quvchilar tabiiy ravishda biologiyaga qiziqishadi, boshqalari esa nega bu fanni o'rganishlari kerakligini so'rashadi. Agar biologik tushunchalar va savollar kundalik hayotga qanday bog'liqligini ko'rsatilsa, barcha o'quvchilar foyda ko'rishadi. Bu ularning ilmga bo'lgan bahosini yanada chuqurlashtiradi. Tibbiyot, DNK, atrof muhit, aholi sonining ko'payishi va boshqa biologiya mavzularidagi yangiliklar bilan doim sinfdan muhokamalar qilib turish kerak deb o'ylayman. Sababi, bilamizki ushbu mavzular ham qiziqarli ham yangilik.

Televizion ko'rsatuvlarda, filmlarda va hokazolarda duch kelgan biologik kontseptsiya haqida qisqacha hisobot beradigan va xulosalarini o'rtoqlashuvchi o'quvchilarga qo'shimcha rag'bat berish zarur, ulardan ma'lumotnomani, qaysi biologik tushuncha bilan shug'ullanganligini va nima uchun tushuntirishlarini so'rash ular o'rganganlarini mustahkamlashga yordam beradi.

- Tibbiyot, farmatsevtika, tabiatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va boshqalar kabi biologiyaga asoslangan kariyeralar haqida suhbat. Hatto ushbu sohalarida shug'ullanadigan shaxslarni sinfga tashrif buyurishga, ularning ishlari haqida suhbatlashishga va o'quvchilarning savollariga javob berishga taklif qilish mumkin.

- Fotosintez haqida bilish uchun bog' barpo etish (zamonaviy, kitobdan olingan nazariy bilimning amaliyoti).

- Hayotiy tsikl haqida bilish uchun kapalaklar yoki boshqa hayvonlarni ko'rsatish.

- Anatomiya haqida bilish uchun namunalarni ajratib olish.



- Do'konda sotib olingan xamirturush namunalarini tirik yoki yo'qligini tekshirish uchun sinov qilish (laboratoriya ishlari tashkil qilish).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak zamonaviy ta'limni zamon hamnafasligida tashkil qilish mumkin. Hamda zamonaviy darslar samaradorligi albatta an'anaviy darslarga qaraganda kattaroq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. va b. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent 2013'yil.



SONNING ENG ILGARIGI MASHHUR XOSSASI

Karimova Mashhura Abdulhamidovna

Namangan viloyati

Norin tuman 19-maktab

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

98982778 . karimovamashhuragmail@.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanida boshlang'ich sinflarda sonning eng ilgarigi mashhur xossasi haqida misollar bilan ko'rsatilgan bo'lib, u umumta'lim maktablarida metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi

Kalit so'zlar: yig'indi, ko'paytma, sonlar, teng, sanog'i juft, ikki xonali son, bo'linuvchisi, o'z-o'ziga

1. Har bir son yonidagi kichigi bilan kattasi yig'indisining yarmiga teng hamda o'zidan shunday teng uzoqlikdagi sonlar yig'indisining yarmiga teng.

Masalan, 5 ni tanlasak, yonidagi kichigi 4, kattasi 6. Ko'ramizki, $5=(4+6):2$, bu 5 dan 3 va 7, 2 va 8 dan teng uzoqlikda, shuning uchun $5=(3+7):2$ va $5=(2+8):2$.

2. Har bir son o'z-o'ziga ko'paytmasining 2 martasiga 2 qo'shilgani bilan ikki yondagi qo'shni sonning o'z-o'ziga ko'paytmasi yig'indisiga teng bo'ladi.

Berilgan son 6 bo'lsin, yonidagi sonlar 5 va 7.

$6 \cdot 6 \cdot 2 + 2 = 74$, $5 \cdot 5 + 7 \cdot 7 = 74$.

Demak, $6 \cdot 6 \cdot 2 + 2 = 5 \cdot 5 + 7 \cdot 7$.

3. Har qanday sonning o'z-o'ziga ko'paytmasi unga qo'shni bo'lgan sonlar ko'paytmasiga bir qo'shilganiga teng:

Masalan, $5 \cdot 5 = 4 \cdot 6 + 1$ yoki $8 \cdot 8 = 7 \cdot 9 + 1$.

4. Sonlar sanog'i toq bo'lsin: $1+2+3+4+5+6+7$ - sanog'i 7ta

Buni $7 + 6 + 5 + 4 + 3 + 2 + 1$ ko'rinishda yozamiz. Tushunish osonki, $7(7+1):2=28$.

5. Sonlar sanog'i juft bo'lsin: $1+2+3+4$, sanog'i 4 ta. $4+3+2+1$ ko'rinishda yozamiz, bundan $4(4+1):2=10$. *Qo'shishga tegishli xossalar*

1. Sonlar ketma-ket ortib boruvchi bo'libgina qolmay, 2 tadan, 3 tadan, 4 tadan... ortib boruvchi bo'lsin. Birov aytsaki, qatordagi sonlarning birinchisi 4, ikkinchisi 7, uchinchisi 10, ya'ni keyingi har biri oldingisidan 3 tadan ortiq bo'lsa, unday qatordagi 7 ta son yig'indisi qancha desa, shunday 2 ta qator

yozamlz:

$4 + 7 + 10 + 13 + 16 + 19 + 22 = 91$

$22 + 19 + 16 + 13 + 10 + 7 + 4 = 91$.

Natijadan shu narsa ma'iumki, bitta qator yig'indisi: $7 \cdot (4 + 22) : 2 = 7 \cdot 13 = 91$. Demak, qatordagi sonlar yig'indisi birinchi son bilan oxirgi son yig'indisining yanni bilan, qatordagi sonlar sanog'i ko'paytmasiga teng bo'ladi. Qatordagi sonlar bittadan ortib boruvchi bo'lsin: $1 + 2 + 3 + 4 + 5$.

Qatorda 5 ta son bor. Bularning yig'indisi:

$5 \cdot (1 + 5) : 2 = 5 \cdot 3 = 15$ yoki $1 + 2 + 3 + 4 + 5 = 15$.

2. Sonlar qatoridagi toq sonlar yig'indisi sonlar sanog'ining o'zo'ziga ko'paytmasiga teng. Masalan, qatordagi sonlar:

$1 + 3 + 5 + 7 + 9$ bo'lsin. Sanog'i 5 ta. Yig'indisi $5 \cdot 5 = 25$ bo'ladi.

Shuningdek, $1 + 3 = 2 \cdot 2 = 4$; $1 + 3 + 5 = 3 \cdot 3 = 9$; 72

$1 + 3 + 5 + 7 = 4 \cdot 4 = 16$; $1 + 3 + 5 + 7 + \dots + 33 + 37 + 39 = 20 \cdot 20 = 400$. Chunki, bu qatordagi sonlar sanog'i 20 ta, qonuniyatni chiqarish uchun $1 + 3 + 5 + 7$ qatomi

$+ (2 + 1) + (3 + 2) + (4 + 3)$ ko'rinishda yoki

$1 + 2 + 3 + 4 + 1 + 2 + 3$, yoki $1 + 2 + 3 + 4 + 3 + 2 + 1$,

yoki $1 + 2 + 3 + 3 + 2 + 1 + 4$ ko'rinishda,

yoki $(1 + 3) \cdot 3 + 4$, yoki $4 \cdot 3 + 4$, yoki $4 \cdot 4 = 16$ ko'rinishda yozamiz.

3. Opa-singil Mohigul va Maqsuda, aka-uka Jasur va Jahongir barcha bir va ikki xonali sonlami



bo'linishiga ko'ra tekshirib chiqishib, quyidagi xulosaga kelishdi.

2, 3, 5, 7, 9, 11, 13, 15, 19, 21, 23, 25, 27, 29, 31, 33, 35, 37, 39, 41, 43, 45, 47, 49, 51, 61, 67, 71, 73, 79, 83, 89, 97 lar "xudbin" sonlar ekan. Ya'ni ular o'ziaridan

tashqari faqat 1 soniga bo'linadi, boshqa hech bir songa bo'linmaydigan sonlar toifasiga kirar ekan. Buni tekshirib ko'ring. 4, 9, 25, 49 sonlari esa "xasis" - atigi birgina bo'luvchisi bor sonlar guruhini tashkil etishar ekan. Ikki va undan ortiq bo'luvchisi bor sonlar ko'pchilikni - tekshirilgan soniarning uchdan ikki qismini tashkil etisharkan. Ammo, to'rtta son: 60, 72, 90, 96 laming bag'rlari juda keng ekan. Negaki, ularning har biri o'zlari va 1 ni istisno etganda oz emas, ko'p emas, roppa-rosa o'ttiztadan songa bo'linishar ekan!!!

$$60 = 2 \cdot 30, 3 \cdot 20, 4 \cdot 15, 5 \cdot 12, 6 \cdot 10 \text{ va h.k.}$$

$$72 = 2 \cdot 36, 3 \cdot 24, 4 \cdot 18, 6 \cdot 12, 8 \cdot 9 \text{ va h.k.}$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O'qitvchi-1994”
3. www.ziyouz.com kutubxonasi



BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

**Zamira Masharipova Masharipovna
Babajanova Sayyora Raximboyevna**

Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi
42- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
telefon:+998905589720
telefon:+ 998907265382
elektron pochta:zamiramasharipova5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanib o‘quvchilarning faolligini oshirish, bu metodlarni o‘quvchilarning yoshi, psixologik holatlaridan kelib chiqqan holda tanlash va dars jarayonlarida keng qo‘llash haqida so‘z yuritimiz.*

Kalit so‘zlar: *Interfaol metod tushunchasi, taqqoslash, tahlil qilish, qo‘llash.*

Avvalo, interfaol metod tushunchasining mohiyatini ko‘rib chiqaylik. Interfaol metod - ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o‘quvchilarning tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiya ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

“Bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi talab qilmoqda”.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu texnika asrida ta’lim jarayoni zamon bilan hamnafas olib borish biz pedagoglarga ulkan mas‘uliyat yuklaydi. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashning muhim omillardan biri - ta’lim va tarbiya jarayonini davr talablari asosida olib borish pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Interfaol dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi o‘quvchilar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchining bilimni sinashi, ko‘nikma va malakalarini aniqlashi, uning shaxsiy fikrini bilishi uchun albatta to‘g‘ri savol qo‘ya olishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchiga savol berishda quyidagilarni inobatga olishi lozim:

- Berilgan savollarning qisqa va lo‘nda bo‘lishi;
- Bitta savol bilan faqat bir narsani so‘rash;
- Berilgan savollar aynan mavzuga oid bo‘lishi;

Sinfga yoki o‘quvchiga savol berilganda albatta javobni ma’lum bir muddat kutish kerak. Ba’zida yordam berish maqsadida savolni boshqacharoq tarzda takrorlash mumkin. Lekin imkon qadar javobni aytmaslik kerak.

Interfaol metodlar xilma-xil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq.

Men o‘zimning 23 yillik ish tajribamdan kelib chiqib, o‘qish darsiga o‘quvchilarni qiziqtirish uchun qo‘llangan metodlarimdan ayrimlarini tavsiya qilmoqchiman. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan o‘tilgan darslar yuzasidan mulohaza yurita olish, o‘z fikrlarini erkin bayon eta olish, ifodali va ravon o‘qishni, bog‘lanishli og‘zaki nutqni rivojlantirishni o‘rgatib boramiz.



- “Klaster” nomli metodda guruhlariga o‘rganilgan mavzu yuzasidan bitta so‘z beriladi va ma’lum vaqt o‘tgandan keyin natijalarni o‘quvchilarning o‘zlari taqdimot qilishadi. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylayman:

- Berilgan so‘zlarning imkon qadar mazmunini ochib beradigan fikrlarni bildirish kerak. Shu metod orqali ularning xotirasi, ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyati ortadi. Bu usullar hammasi o‘quvchilarda mas’uliyatni va qiziqishni, erkin fikrlashni, o‘rganilgan metodlarni yodda saqlab uni so‘zlab bera olish ko‘nikmalarini, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday usullar nihoyatda ko‘p. O‘qituvchi o‘tayotgan mavzuga mos metodlarni tanlay bilishi va uni darslarda qo‘llay olishi lozimdir. O‘qituvchi o‘zining tajribasiga tayangan holda, og‘zaki va yozma ravishda, oddiy sinfxonada darslarda qo‘llab kelayotgan ilg‘or usullar, o‘yin musobaqalardan tortib, ko‘rgazmali, tarqatmali materillargacha, o‘z o‘rnida qo‘llay bilsa, bu uning eng katta yutug‘i hisoblanadi va har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Men yuqorida faqat o‘qish darslarida qo‘llaniladigan ilg‘or interfaol usullarni tavsiya etdim. Aynan o‘qish darslarida ifodali va ravon o‘qish ko‘nikmalari rivojlantirib boriladi. Shuning uchun sinfda tez-tez “Kim ko‘p so‘z o‘qiydi?” tanlovlarini o‘tkazib turish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bolalarda bilishga, mustaqil fikrlashga, ifodali va ravon o‘qishga bo‘lgan ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Shuning uchun bunday metodlarni har bir fan, har bir darsda qo‘llash kerak. “Samarali mehnat bor joyda yaxshi natija bor” deyishadi donolar.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod — kelajak poydevori”. - T.: “O‘zbekiston”,
2. G‘offorova T., G‘ulomova X. O‘qish darslari. 1 -sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. -T.: “Tafakkur”, 2011.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” - T.: “O‘qituvchi”, 2016.
4. www.arxiv.uz



**INNOVATION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SIFAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Matyaqubova Zaynab Ruzmatovna

Xorazm viloyati Urganch tumani
43-son maktabning biologiya fani o'qituvchisi
Tel: +998937570450

Matyaqubova Nilufar Qadam qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani
43-son maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi
Tel: +998974575666

Moxmudov Sarvar

Xorazm viloyati Urganch tumani
43-son maktabning tarbiya fani o'qituvchisi
Tel: +998881121819

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, jamiyatda innovatsion jarayonlarning ahamiyati, innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish kabi masalalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, ta'lim, ta'lim-tarbiya, maqsadi, mazmun, pedagogik innovatsiyalar, faoliyat, bilim.

Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lajak mutaxassislarining nazariy bilimlarini mukammal o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirishiga hamda ularni amaliyotda mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Turli modellar, modullar asosida o'qitishning noan'anaviy shakl, uslub va vositalaridan foydalanishga yordam beradi.

Hozirgi kundagi jamiyat taraqqiyoti eskirgan ta'lim uslublari va dasturlari asosidagi ta'lim jarayonini olib borishga to'g'ri kelmay qoldi, ya'ni an'anaviy ta'lim texnologiyalari jamiyat taraqqiyoti talablariga javob bera olmay qoldi. Zamonaviy ta'limning hozirgi saviyasi ta'limda yangicha sifat ko'rsatkichga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritishni talab etmoqda. Bu ta'lim jarayonini olib borish uchun innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish deganidir. Bunday innovatsion yondashuvlar qilish muammosining dolzarbligini keyingi yillarda qabul qilinayotgan ta'lim tizimiga oid davlat hujjatlaridan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da ta'lim-tarbiyaning maqsadini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xoli etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablar javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, deb belgilangan. Demak, ta'limda tubdan isloh qiluvchi innovatsion ta'lim texnologiyalari har qachongidan zarur bo'lmoqda, ya'ni ta'lim tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi. Bu esa zamonaviy ta'limning mazmuni va pedagogik jarayonning tubdan yangilanishi demakdir.

Innovatsion ta'lim- bu bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda (zamon talablariga xos va mos joylarda) ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirishga erishuvni va istiqbolli yangicha yondashuvni amalga oshirishning pedagogik shart –sharoitlarini ta'minlovchi jarayondir. Bunda ta'limda yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek ta'limda zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratiladi.

Innovatsion ta'limda, ta'limning maqsadi, mazmun- moxiyati, belgilari, tamoyillarining innovatsion usullarini tanlash, to'plash, qo'llash usullarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar tizimini yaratish tushuniladi. Bular orqali bo'lajak mutaxassislarda shakllanadigan xislatlarini hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu soxada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin. Demak, innovatsion ta'lim keng qamrovli, ko'p qirrali, murakkab va ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin. Bunda ta'limda sezilarli ijodiy samaralar beruvchi yangilik kiritish asosiy maqsad xisoblanadi. Qayd etilgan maqsadni amalga oshirish esa yangi konsepsiyalar, DTS, alternativ o'quv reja va dasturlari, o'qitishning axborotli texnologiyalarini joriy etishning davlat dasturlari, o'qitishning



axborotli texnologiyalarini joriy etishning davlat dasturlari, internet tarmog'iga chiqish va masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha davlat rejasi va dasturi shuningdek, hozirgi zamon talablari asosidagi yangi o'quv muassasalari va shu kabi yo'nalishlarni yanada jonlantirishlarga bog'liq.

Umuman olganda innovatsion ta'limni xayotga tadbiiq etishning tashkiliy asoslari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

- Innovatsion ta'lim texnologiyalarini yig'ish;
- Innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash;
- Pedagogik innovatsiyalarini joriy qilishga tayyorlash;
- Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish.

Bunda asosan pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish mexanizmlariga alohida e'tibor beriladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining umumiy tavsifidagi komponentlar va ularning funksional vazifalaridan ma'lumki ular samaradorligini oshirishga mustaxkam asos bo'la oladi. Shu sababli ham ularni amaliyotga joriy etish istiqbolli pedagogik samaralarini beradi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha “Innovatsion faoliyatning funksional komponentlari-bu shunday mantiqiy tartib bo'lib unda yangilikka ehtiyoj paydo bo'ladi; maqsadni aniqlash, qaror qabul qilish, konsepsiya qurish va uni ro'yobga chiqarish variantlari, yangilikni kiritish, natijalarni kuzatish amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat funksional komponentlarning har biri yangilikni amalga oshirish bosqichlaridan iborat bo'lgan pedagogik vazifalarni hal etish algoritmidan iborat.

Funksional komponentlarni ro'yobga chiqarish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda axborot taxlil qilinadi va qayta ishlanadi. Bu bosqichning muhim vazifasi innovatsion muxitni yaratishdir. Ikkinchi bosqichda muammoni shakllantirish, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish, sharoitlarini aniqlash va muammoning mumkin bo'lgan yechimlari, yechimlardan kelib chiqqan oqibatlarni baxolash, vazifalarni hal etish tartibi va metodlarini ishlab chiqish natijalarini baxolash yuzasidan qaror qabul qilinadi. Keyingi bosqichlarda mualliflik konsepsiyasini tadbiiq etish imkoniyatlarning taxlili, ta'lim tarbiya natijalari va oqibatlari loyihalaniadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.
2. Yunusova D. Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Toshkent “Fan” 2009.
3. Xasanboyev J, Xaydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T., 2009.



XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA UNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Matyokubova Iroda Zaripboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
9-son IDUM ning matematika fani o'qituvchisi

Raximov Yashnarbek Ruzimatovich

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
9-son IDUM ning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim tarbiyada o'qituvchining pedagogik mahorati yetakchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ham ana shu pedagogik mahorat va uni rivojlantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, xalq ta'limi, o'quvchi, o'qituvchi, tajriba, metod.

«Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir» - deyiladi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Ana shunday barkamol insonni tarbiyalash masalasi o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu ali Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida shunday fikr bayon qiladi: «O'qituvchining barcha hatti - harakatlari ezgulikdan iborat bo'lmog'i lozim».

Ezgulik avvalo bola qalbiga yo'l topishdan boshlanadi. U bilan g'amxo'r, hamnafas bo'lish, beg'ubor qalb egasini hurmat qilish, hohish - istaklariga befarq bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda bolajon bo'lish zarur. Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlarni keng ko'lamlilik olib borilishi kerak. Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchilarning, tarbiyachilarning vazifasidir.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma - xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqdoli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogning o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarishi, ota - onalar va bolalarning izzat - hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham unda qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z - ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borishi lozim.

Pedagogik texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv - tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurish o'qitishning axborot vositalaridan va didaktik materiallardan, ta'limning faol metodlaridan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi, o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar hamda kabinetlarning xizmati katta. Metod birlashmalarda o'qituvchilar fikr almashadilar: o'zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o'qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg'or tajribalarni keng ommalashtiriladi.

Pedagogik ijodkorlik manbai — bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish vaqti va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv — tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish



o'quv tarbiya jarayoniga sifatli o'zgarishlar kiritadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Fan — texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. SHuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarini egallaydi.

Pedagogik mahoratni ilmiy - asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo'lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy - joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim - tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati ular o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqillik ko'rsatish uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisoli o'zlari olayotgandek tuyulsa, mazkur metod samarali bo'ladi.

Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik - pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu omillar ta'lim metodlarini samaradorligini belgilaydi. Muayyan metod yaxshi tayyorgarligi bo'lgan o'qituvchida o'z afzalliklarini namoyon qilsa, tayyorgarligi zaif bo'lgan o'qituvchida shu metodning o'zi salbiy jihatlarini namoyon qiladi. Shu sababli ta'lim metodlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi prinsipial ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y.A.Komenskiy. Buyuk didaktika. T., 1975.
2. <https://elib.buxdu.uz>



**BIOLOGIYANI FANINI O‘QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASIDAN
FAOYDALANISH**

Maxmudova Nafisa Quronboyevna

Xiva tumani 24-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (91) 430 03 62

maxmudovanafisa_24@inbox.uz

Abdullayeva Yayraxon Ollaberganovna

Qo'shko'pir tumani 19-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (93) 708 68 87

abdullayeva.yayraxon_19@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiyani o‘qitishda loyihalash texnologiyasining qo‘llanilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida.

Kalit so‘zlar: Biologiya, loyihalash texnologiyasi, tadqiqot, botanika.

O‘quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o‘qituvchi ularga tegishli ko‘rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o‘qitishdan ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o‘quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo‘lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo‘lsa, amalyotga qo‘llash masalasi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma‘lum bit muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Biologiyani o‘qitishda o‘qituvchi loyihalash texnologiyasidan o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o‘quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanish zarur.

Botanika o‘quv kursida o‘simlik organlarini o‘rganib bo‘lgandan so‘ng, “O‘simlik-yaxlit organizm” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga quyidagi loyihalar tavsiya etiladi:

- Loyiha mavzusi: o‘simlik yaxlit organizm;
- Loyihaning maqsadi: o‘simlik organlarining tuzilishi va funksiyasini hisobga olgan holda uning yaxlit organizm ekanligini isbotlash;
- Loyihaning mazmuni: o‘simliklarning vegetativ va generativ organlarining tuzilishi va funksiyasini qayd etgan holda o‘simlik yaxlit organizm ekanligini isbotlang. O‘simlik organlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar aks etgan jadval tuzish va shu asosda fikrlarni qayd etish;

Biologiya o‘qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin. Misol uchun, Odam va uning salomatligi o‘quv kursida “ Odamning sutkalik ovqat ratsionida oqsil, yog‘, uglevodlar miqdori va ulardan ajralib chiqadigan energiya miqdorini aniqlash” laboratoriya mashg‘ulotini kichik guruhlardan tashkil etib, topshiriqlar orqali olib borish maqsadga muvofiq. Loyihalar predmeti va mazmuniga ko‘ra, bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar, fanlararo izlanishini talab etadigan loyihalarga ajratiladi. Bu loyihalarni shallantirishda o‘qituvchi biologiya sohasidagi muammoli, qiyin mavzularni olishi mumkin. Mazkur loyihalar biologiyani o‘qitishda tabiiy fanlar, adabiyot, ma‘naviyat, madaniyat, san‘at va gumanitar fanlar bilan fanlararo bog‘lanishnu amalga oshirishga imkon beradi. Loyihalar o‘quvchilarda aqliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, loyihalar texnologiyasu o‘quvchilarda ijodiy faoliyatning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Tolipova A.T. G‘ofurov A.T. Biologiya ta‘limi texnologiyalari.- T.: O‘qituvchi. 2002.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TOVUSH VA FONEMANI O'RGATISH

Maxmuda Mustafaqulova Abdulotib qizi

Namangan viloyati

Norin tuman 19-maktab

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili fanida tovush va fonemani o'rgatish haqida misollar bilan ko'rsatilgan va ushbu maqola ona tili darslarida metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili, tovush, tarkibi, fonema, ma'no, kichik birligi, so'zlar, fonetik, akustikasi (eshitilishi), artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi).

Tovush bilan fonemani o'zaro farqlash zarur. **Tovush** nutqning fonetik jihatdan bo'linmaydigan eng kichik birligidir, u ma'no ifodalamaydi, lekin har qanday so'z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, *a, d, m, o* tovushlarini ma'lum bir tartibda talaffuz qilish orqali *odam, omad, moda* singari boshqaboshqa ma'nodagi so'zlar hosil qilinadi. So'zlar tovush tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlar: *ot – ol, ol – oq, oq – osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – og', og' – ox; oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, ko'za – g'o'za* kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko'ra farq qiladigan so'zlar. Masalan: *qo'y – yo'q* (birinchi so'z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so'zning oxirida qo'llanadi.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan so'zlar: *o'lka – yo'lka, etbet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxta, o'roq – so'roq* kabi. Demak, so'zlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, to'rt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil bo'ladi.

Fonema so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir.

Masalan: *bal – bel – bil – bol – bo'l* so'zlari tarkibidagi *a, e, i, o, o'* tovushlari so'z ma'nolarini belgilash (ajratish)ga xizmat qiluvchi fonemalardir: *bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, chor, qor* so'zlari tarkibidagi birinchi tovushlar (*b, d, z, k, n, t, x, ch, q*) ham shunday vazifa bajargan. Fonemalarning uch belgisi bor:

1. Akustikasi (eshitilishi).

2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi).

3. Ma'no farqlashi (ba'zi darsliklarda “lingvistik tomoni” deyiladi)

Bular ichida fonemaning ma'no ajratish belgisi muhim hisoblanadi. Aks holda tovush fonema sanalmaydi.

Fonetik akustika **Fonetik akustika** nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa o'pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo'ladigan ovoz va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqinning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari akustikasida ko'yidagilar farqlanadi:

- **Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi** ma'lum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga ko'ra har xil chiqishidir: un paychalari ko'p tebransa, tovush baland bo'ladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

- **Nutq tovushlarining kuchi** ma'lum kenglikdagi maydondan ma'lum vaqtda o'tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: “Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdoridir”⁴ Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bog'liq: tebranish kengligi katta bo'lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo'lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

- **Nutq tovushlarining tembri (sifati)** – asosiy ton bilan hosil bo'ladi.

Tovushlarning tembri og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishiga bog'liq.

- **Tovushning cho'ziqlik darajasi** un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho'ziq; tebranish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili. M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova,

2. X. G'ulomova, SH. Yo'ldasheva, Toshkent -2008

3. Ona tili va adabiyoti (o'quv qo'llanma) A.R.Rafiyev, N.G'ulomov. Toshkent-2014.

4. www.ziyouz.com kutubxonasi



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA FANINI O'QITISH

Nazarova Xolidaxon Olimjon qizi

Oltiariq tumani 2-maktab

musiqa fani o'qituvchisi

e-mail:olimjonqizi@mail.ru

Annotatsiya: maqolada musiqa fani va fan orqali o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, musiqa orqali o'quvchilar madaniyatini oshirish kabi masalalar to'g'risida fikrlar keltirilgan

Kalit so'zlar: umumta'lim maktabi, musiqa, musiqa fani, ta'lim-tarbiya

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bolalarga beriladigan musiqa tarbiyasi faqat musiqa madaniyati darslari bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ishini yaxshi yo'lga qo'yib, ayniqsa xor jamoalarini to'g'ri tashkil etish juda muhimdir. Maktab xor jamoasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun birinchi eng muhim obektiv shart–maqsadni ko'zlab muntazam rejali ravishda ishlashdir. Yaxshi xor jamoasi–maktab ma'muriyati, yoshlar tashkiloti bolalarni mustaqillik, milliy istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalash ishiga, ularni har taraflama kamol toptira borish ishiga to'g'ri munosabatdabo'lishlarisamarasidir. Ikkinchi obektiv shart–o'quvchilarni yoshlariga qarab xorga to'g'ri qabul qilishdir. Masalan, 8-9 yashar bolalarning ovoz diapazoni oktavaga yaqin. 12-13 yashar bolalarning ovoz diapazoni esa bir yarim oktavaga yaqin bo'ladi. Yoshiga qarab bolalarning ish qobilyati va ovoz apparatlarining chidamlilik darajasi ham turlichadir. Kichik yoshdagi bolalarning ish qobilyati o'rta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda zaifroq bo'ladi, ovoz apparatlari esa charchab qoladi. Bundan tashqari, bolalarning qiziqishlari ham xilma–xildir. Chunonchi, kichik yoshdagi bolalar quyonchala, qushchalar haqidagi qo'shiqlarni jon–dildan aytishsa, o'rta yoshdagi bolalarni endi kengroq mavzular qiziqtiradi. Maktab bolalar xorining muayyan tiplari mavjud, ular bolalarning yosh xususiyatlariga qarab belgilanadi. 1. Kichik yoshdagi o'quvchi bolalar xori. Bu xor III-IV sinflardagi o'g'il va qiz bolalardan tashkil topadi. Bunga qisman II sinflardagi musiqa va ashula qobilyatli bo'lgan bolalarni kiritish mumkin.

2. O'rta yoshdagi o'quvchi bolalar xori. Bu xor V, VI va VII sinf o'quvchilarini birlashtiradi hamda o'g'il va qiz bolalardan iborat bo'ladi.

3. O'g'il bolalar xori. Bu xor III, IV, V, VI va qisman VII sinflardan tashkil topadi. Xor tiplarini tanlash maktabda mavjud sharoitiga bog'liqdir. Bir maktabda o'g'il bolalar xori tuzish mumkin bo'lsa, yana birida o'g'il va qiz bolalarning qo'shma xorini tuzish mumkin.

Maktab xor jamoasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun uchinchi obektiv shart–bolalarni musiqa va ovoz qobilyatlariga qarab tanlashdan iborat. Musiqaga qobilyatli va sog'lom ohangdor ovoz apparatiga ega bo'lgan bolalargina xor jamoasiga qabul qilinmog'i mumkin. Har bir bolaning ovozi yakka tartibda tinglanadi. Har bir o'quvchiga bironta tanish qo'shiqni aytish taklif etiladi. So'ngra xor rahbari har bir bolaning musiqa uquvi, musiqa xotirasi va ritm tuyg'usini izchillik bilan aytib takrorlaydilar. Bunday tovushlar albatta kuylashga qulay registrda bo'lmog'i lozim. Agar bola shu tovushlarni musiqa asbobidan keyin takrorlay olmasa, ularni o'qituvchining o'zi aytib ko'rsatishi mumkin. Agar bola qo'shiqni cholg'u asbobi yordamida tekis va tiniq aytib bersa, shubhasiz, uning qobilyati yaxshi ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu holda darhol musiqa xotirasi, garmonik eshitish va kuylash qobilyatini sinab ko'rishga kirishiladi. Maktab xor jamoasi ishida muvaffaqiyat qozonish uchun to'rtinchi obektiv shart–xorning son miqdorini aniqlashdir. Xor jamoasiga qo'shiq aytuvchilar soniga qarab emas, balki musiqaning yangrashiga qarab baho beriladi. 80-100 kishidan iborat xorning ovozi ravshan va baralla eshitiladi. Xor qatnashchilarini sonini haddan tashqari oshirib yuborish esa tovush sifatini yomonlashuviga olib keladi. Xor jamoasini tashkil etish va uning dastlabki ishi davrida xor qatnashchilarining sonini ko'paytirish payiga tushish kerak emas. Garchi ular 35-40 kishidan iborat bo'lishsa ham, "oz-bo'lsinu soz bo'lsin" deganday, qobilyati, ashula ishqiboz va xor san'atining tashabbuskorlari bo'lsalar bas. Xorning birinchi konserti muvaffaqiyatli o'tib, tinglovchilarga yoqib qolsa, shundan keyin xorda kuylashi xohlovchi bolalar ko'payib boradi. Beshinchi obektiv shart 1- sinfdan boshlab qo'shiq o'rgatishni yaxshi yo'lga qo'yishdir. Agar musiqa madaniyati darslari 1- sinfdan boshlab o'qitilib, bu ustalik bilan olib boriladigan bo'lsa, maktab xor jamoalarining samarali ishlashi uchun zamin tayyorlanadi. Oltinchi obektiv shart–uning ish tartibini to'g'ri uyushtirishdan iborat. Mashg'ulotlarni haftaning muayyan kunlarida



muntazam o‘tkazish zarur. Tajribaning ko‘rsatishicha ,mashg‘ulotlarni haftada ikki marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Xor bilan ishlash jarayonida har bir mashg‘ulotda ovoz mashqlaridan foydalaniladi. Odatda kichik yoshdagi o‘quvchilar xorida qo‘shiq aytishni mashq qilish uchun 5-10 minut, o‘rta va katta yoshdagi o‘quvchilar xorida 10-15 minut ajratiladi. Maktab xoridagi vokal ishi faqat maxsus mashqlar bilan cheklanib qolmaydi. Bunda eng muhimi repertuar ustida ishlashdir. Diapazon, talaffuz qulayligi, nafas olish va shtrixlar (legato, stakkato, non legato) bilan bog‘liq bo‘lgan xonandalik mashqlarini nazarda tutgan holda repertuar tanlanadi. Xorda dirijorlik ishorasiga diqqatni tarbiyalashga mo‘ljallangan maxsus mashqlarni kuylash kerak. Tempning o‘zgarishiga doir mashqlar ham o‘tkazilishi mumkin. Xorning ish rejasiga maktabdan tashqari muassalarda va boshqa joylarda beriladigan konsertlar ham kiritiladi. Bu esa ijodiy jamoaning hayoytini yanada ham jonlantiradi va ishga havasini oshiradi. O‘quv yili davomida xor konsertlarining soni sakkiz-o‘ntadan iborat bo‘lishi mumkin. Xorning har bir konserti oldidan tarbiyaviy ish olib borish, tashqi xulq-atvor, uyushqoqlik va intizomning muayyan normalariga rioya qilishni talab etadigan sahna qonun-qoidalari to‘g‘risida bolalarga gapirib berish kerak. Ayniqsa xor jamoasi birinchi marta konsert maydoniga chiqayotgan vaqtlarda ana shu ishni bajarish zarur. Sahnada gaplashish, kulish, zaldagi o‘tirganlarga razm solish kabilarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini bolalarga tushuntirib beriladi.

Shuni ta’kidlash zarurki, xor to‘garagining jamoatchilik o‘rtasidagi obro‘yi xor ishining sifatiga, ommaviyligiga, ongli intizomga hamda butun maktab jamoasi va ota-onalarning bu to‘garak ishining muhimligini, foydali va ahamiyatli ekanligini e’tirof etib ,uni qo‘llab quvvatlashiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmatov N va N. Norxujaev 1 - sinf uchun «Musiqqa alifbosi» darsligi. - T.: «G‘ofur G‘ulom» nashriyoti, 1998 yil.
2. Fayzieva O boshqalar. «O‘zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish buyicha metodik qo‘llanma». - T.: «Navoiy azot» nashriyoti, 1992 y.



ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Кальжанова Назира Максетбаевна

Томдинский район Навоийской области

Учитель русского языка в школе-интернате №2

Марзия Насруллаевна Шарипова

г. Зарафшан, Навоийская область

учитель русского языка в 4 школе

Аннотация: В данной рекомендации подчеркивается важность использования педагогических технологий на уроках русского языка.

Ключевые слова: Педагогическая технология, творческое упражнение, лингвист, обучение, методы...

К концу 20 века научно-технический прогресс не только привел к технологизации многих производственных сфер, но и проник в сферу культуры и гуманитарных областей знаний. Сегодня мы говорим об информационных и медицинских технологиях, в том числе в сфере образования. Термин «педагогическая технология» является неточным переводом английской фразы «образовательная технология». Понятие «педагогическая технология» в последнее время все более широко используется в теории обучения. В педагогической литературе дано более 300 определений термина «технология» и таких его форм, как «технология обучения», «технология обучения», «технология в образовании».

Термин «педагогическая технология» впервые упоминается в работах по педагогике в 20-х годах 20 века. В настоящее время существуют различные выражения в понятии педагогической технологии.

1. Технология – совокупность приемов, применяемых в работе, мастерстве, искусстве (толковый словарь).

2. Педагогическая технология - это совокупность психолого-педагогических указаний, определяющих особый набор и структуру обучения, воспитательных средств, форм, приемов, приемов, приемов, то есть организационно-методический инструмент педагогического процесса.

3. Технология – это искусство, умение, навык, совокупность методов развития, смены состояния.

4. Технология обучения – это комплексно продуманная модель совместной педагогической деятельности по проектированию, организации и проведению учебного процесса для создания абсолютно комфортных условий для учащихся и преподавателей. К концу 20 века научно-технический прогресс не только привел к технологизации производства, но и резко проник в сферу культуры и гуманитарных областей знаний.

В 20-х годах 20 века термин «педагогическая технология» впервые упоминается в работах по педагогике. В то же время получил распространение и другой термин — «педагогическая техника». Она выразилась в педагогической энциклопедии 1930-х годов как методы и средства, направленные на четкую и эффективную организацию учебной деятельности. К педагогическим технологиям относятся также навыки работы с учебным и лабораторным оборудованием, с использованием наглядных пособий. Ниже я хотел бы представить некоторые из методов, рекомендуемых для использования на занятиях по русскому языку.

Метод «творческого упражнения». Этот метод имеет свои особенности, а его уникальность характеризуется такими случаями, как глубокое понимание сути проблемы, подход к ее реализации, сортировка доказательств, применение и расширение знаний в процессе творческого завершения работы. заданное учителем задание

В этом случае преподаватель осуществляет поиск новых знаний с помощью различных инструментов, часть знаний сообщает слушателям, а остальные усваиваются учащимися на основе нахождения ответов на вопросы в процессе решения задач. , и получает знания самостоятельно. При его использовании учителем и учеником выполняются следующие действия.

Преподаватель вовлекает учащихся в изучение сути дела; Направляет рассмотрение при



определении плана решения проблемы; например делится на этапы; эвристический разговор разделяет.

«Лингвистический» метод. Методика обучения, направленная на развитие мыслительных способностей учащихся, формирование эстетических вкусов и творческих способностей. Стулья в комнате расставлены спиной к спине. Учащиеся также рисуют, повернувшись спиной друг к другу. В этом методе в своей форме первый ученик описывает сцену, а его друг ее фотографирует. Во время диктанта учащиеся по очереди, а когда рисунок нарисован, его описывают.

Игра “Найди неопределённую форму глагола”

Цель. Закрепление понятия о неопределённой форме глагола.

Содержание. Игра проводится в форме выборочного диктанта, который пишет весь класс. Детям предлагается записать только глаголы в неопределённой форме из стихотворения, которое читает учитель. Побеждает ученик, который правильно записал все глаголы в неопределённой форме.

Хорошо ночевать нам в палатке,

Через лес проходить напрямик.

Знать до тонкостей птичьей повадки,

Понимать их весёлый язык.

Нас приветствуют звонкие птицы,

Шум листвы и журчанье ручья.... (М. Матусовский).

Так как завтрашний день требует самостоятельно мыслящих кадров, сегодняшние преподаватели и студенты должны применять передовые педагогические технологии в методах своей работы в соответствии с потребностями времени и регулярно контролировать свою работу, чтобы продолжать работу в этом направлении.

Список литературы

1. Губанова О.В. Использование игровых приёмов на уроках// 1997 г
2. Лысова О. Игры со словами//Начальная школа. 2007. № 18.



INFORMATIKA DARSLARIDA GRAFIKA QISMINI SHAKLLANTIRISH METOD USULLARI

Nematova Dilorom Oybekjon qizi

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
62 – maktab informatika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIIYA: ushbu maqolada informatika darslarida grafika qismini shakllantirish metod va usullarini organib chiqish, ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: grafika, robotexnologiya, dasturlash, texnik mexanizmlar.

Jamiyat taraqqiyotining olg'a siljishi eng avvalo inson omiliga bog'liqdir. SHuning uchun ham inson o'z tafakkuri aql-zakovatini ko'proq ijodiy ishlariga jalb qilish shartligi e'tirof etilmoqda. Yangidan yangi texnik qurilma va vositalarni kashf qilish insonni o'z yashash sharoitiga, qilayotgan ishiga, ilmiy-texnik izlanishlariga ijodiy yondashish samarasidir. XX asrga kelib insoniyat qo'l mehnatinigina emas, balki aqliy mehnatini ham yengillatish ustida anchagina izlanish olib bordi. Bu yo'lda ko'plab texnik qurilmalar yaratildi va amaliyotga tadbiq etildi. Xuddi shunday texnik qurilmalardan biri kompyuter – elektr hisoblash mashinalari (EHM) dir.

Beysik tilining yana bir imkoniyatlaridan biri grafik imkoniyatidir. Grafiklarni kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalanib tasvirlash uchun kompyuterning grafik ekranlaridan foydalaniladi. Kompyuterning grafik va matnli ekranlaridan bir paytda foydalanish mumkin emas. Qaysi ekrandan foydalanish dasturchining tanlashiga bog'liq. Har bir ekran o'zining o'lchamiga ega bo'lib, u ekrandagi nuqtalar soniga qarab aniqlanadi va har bir ekrandagi nuqtalar ham o'zining o'lchamiga ega. Bu o'lcham piksel deb ataladi.

Ekran tanlash

<N> SCREEN K

buyrug'i yordamida aniqlanadi. Bu yerda K quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

K=0- 40×24 o'lchamli matnli ekran

K=1- 32×24 o'lchamli matnli ekran

K=2- 256×192 o'lchamli yuqori holatli grafik ekran

K=3- 64×48 o'lchamli quyi holatli grafik ekran

K=4- 256×192 o'lchamli yuqori holatli grafik ekran

K=5- 256×212 o'lchamli yuqori holatli grafik ekran

K=6- 512×212 o'lchamli yuqori holatli grafik ekran

K=7- 512×212 o'lchamli yuqori holatli grafik ekran

K=8- 256×212 o'lchamli yuqori holatli grafik ekran

Rang tanlash. Biror bir nuqtani yoki shaklni ekranda hosil qilish uchun uning rangi tanlanadi.

Shaklning rangini tanlashda

<N> COLOR <P>, <L>, <K>


buyrug'idan foydalaniladi. Bunda <N>-buyruq joylashgan satrning nomeri; <P>-tasvirning rangi; <L>-ekraning rangi; <K>-ekran chegarasining rangi (hoshiya). <P>, <L>, <K> lar 0 dan 15 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

Ekran biror rangdagi nuqtani hosil qilish uchun

<N> PSET(x,y), <P> buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruq koordinatasi (x,y) bo'lgan nuqtani <P> rangda ekranda hosil qiladi.

Misol,

PSET(20,20),6



1-rasm



PSET buyrug`i kabi ishlovchi yana bir buyruq PRESET buyrug`idir.

<N> PRESET (x,y), <P>

Bu buyruqning PSET buyrug`idan farqi shundaki, agar unda rang ko`rsatilmasa, ekranda hosil bo`layotgan nuqta ekran rangida hosil bo`ladi, go`yoki nuqta ekrandan yo`qotiladi.

Quyidagi dastur ekranda nuqtalarni turli rangda hosil qiladi. Rang va nuqtalar RND funksiyasi yordamida hosil qilinadi.

```
10 REM KALEYDOSKOP
```

```
20 SCREEN 2
```

```
30 FOR I=1 TO 50
```

```
40 X=INT(RND(1)*256)+1:Y=INT(RND(1)*191)+1
```

```
50 P=INT(RND(1)*15)+1
```

```
60 PSET(X,Y),P
```

```
70 NEXT I
```

```
80 K$=INKEY$: IF K$="" THEN 80
```

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. /Gulomov S.S. va boshqalar. Iqtisodiy informatika: A. Sattorov, B. Kurbonboev "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari". T.: "Ukituvchi" 1996.
2. S.A. Aripov, SH.R. YUsupov, I.R. Kamalov "Beysik dasturlash tili". T.: "Navruz" 1994.
3. S.I. Raxmonkulova "IBM PC shaxsiy kompyuterlarida ishlash". T.: NMK, "SHark-Instar" 1996.
4. A. Daliev, B. Boltaev "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari". T.: 1994



ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O`QUVCHILARNI FANLARGA QIZIQTIRISHDAGI SAMARASI.

Nurimbetova Sayyora Bazarboyevna
Qoraboyeva Dilnoz Ibodullayevna
Urganch tumanidagi 18- maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchilari


Annotatsiya: Bu maqolada shiddatli axboratlashuv jarayoni amalga oshib borayotgan hozirgi davrda har bir soha kishisi zamon bilan hamnafas ravishda innovatsion texnologiyalarga, innovatsion vositalarga murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda shu jumladan biologiya fani ham bunday oqimdan chetda qolayotgani yo'qligi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'z: innovatsiya, masofaviy ta'lim, internet, online video, tarbiya.

Uzluksiz ta'lim chuqur, har taraflama asosli ta'lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita va yo'nalishlarining mukammal uyg'unligidan iboratdir. Uzluksiz ta'lim sifatini turli komponentlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, muayyan usullar va uslublarning ta'lim jarayoniga oqilona tatbiq etilishi ta'minlaydi. Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o'quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalgam oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyashdan iboratdir.

“Bilimlar xovuzchasi”

Bu usuldan umumlashtiruvchi darslarda yoki o'tilgan 2-3 ta mavzuni mustahkamlash maqsadida qo'llash mumkin. Ushbu usulni qo'llash uchun quyidagi ko'rgazmadan foydalanamiz (1-rasm), yani katta plakatni teng bo'lib (eni 30 sm, bo'yi 50 sm) 5 ta cho'ntakcha joylab chiqamiz, chontaklar 1 tasi o'rtada qolgan 4 tasi 4 tomonga teng taqsimlanadi. O'rtadagi chontakni konvert shaklida yasab ichiga 20 ta kartochka joylashtiriladi. Agar ko'rgazmani “Mustaqil so'z turkumlari” mavzusini mustahkamlashda qo'llasangiz, 4 ta cho'ntakcha ustiga 1 tasiga ot, 2-ga sifat, 3-ga son, 4-ga fe'l deb yoziladi va o'rtadagi konvertga shu mavzularga doir qoidalar aralash holda joylashtiriladi va ustiga “Bilimlar xovuzchasi” deb yoziladi. (Bu usulni guruhlar ichida qo'llash yanada qiziqarli o'tadi.) Keyin guruhdagi o'quvchilarga konvertdagi kartochkalarini olib har birini mavzusiga qarab joylashtirishlari kerakligi aytiladi. Har bir cho'ntak ichida 5 tadan kartochka to'g'ri solinganligiga qarab baholanadi. Korgazmani bunday nomlanishiga sabab, o'rtadagi konvert ramziy ma'noda “xovuzcha” hisoblanib, o'quvchilar bu “xovuzdan baliqlarni turlariga qarab chelaklarga joylashtirishi kerak”-degan ma'noda tushuntiriladi. Bunda o'quvchilar darsga yanada qiziqish bilan qaraydilar. Bu usuldan bir bobni tugatganda, chorak oxirida, yil oxirida mavzularni takrorlash maqsadida foydalanish mumkin.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korostyleva L.A. "Psixologik to'siqlar va innovatsiyalarga tayyorlik" Sankt-Peterburg, 1996 yil, 66 bet.
2. Myasoed T.A. "Interfaol ta'lim texnologiyalari. Mutaxassis. o'qituvchilar uchun seminar" M., 2004.



BIOLOGIYA DARSLARIDA “BILIMDONLAR BELLASHUVI“ O’YININI TASHKIL ETISH

Nurmetova Shirinay Ruzimbayevna

Gurlan tumani 42-son AFCHO’IM o’qituvchisi

Telefon: +998 (97) 360 91 04

shirinay.ruzimbayevna_42@inbox.uz

Yusupova Yangiljon Xajibayevna

Yangibozor tumani 6-son maktab o’qituvchisi

Telefon: +998 (95) 776 89 88

yusupova.yangiljon_8988@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Didaktik ta’lim texnologiyasining Bilimdonlar bellashuvi oyini metodini tashkil etish haqida.

Kalit so’zlar: “Bilimdonlar bellashuvi”, “O’yla, izla, top”, “Kim tez tuzadi”, “Top topishmoq”.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etilishi o’rta maktab o’qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni ko’ndalang qilib qo’ymoqda. Shu bilan birga, 2017-2018 o’quv yilida maktablarda 11 yillik o’rta ta’limning joriy etilishi ham o’z navbatida o’qituvchilarning malaka oshirishga bo’lgan yangi ehtiyojlarini keltirib chiqardi.

Bugungi kunning vazifasi biologiya fani o’qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlari haqidagi bilim ko’nikma va malakalarini rivojlantirish, darsda samarali metodlarni qo’llashni taqazo etadi.

Biologiya ta’limida faqat dars davomida emas balki sinfdan tashqari vaqtlarda ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taqazo etadi.

“Bilimdonlar bellashuvi” tadbiri 8-9 sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan bo’lib, bu o’yin o’tilgan mavzular yuzasidan jamoaviy bellashuvga asoslangan. Bu o’yindan maqsad shuki o’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish mantiqiy fikrlash, mavjud g’oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog’liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun imkoniyat yaratadi.

Tadbir quyidagi shartlar asosida olib boriladi:

1-shart. O’yla, izla, top. Ishtirokchilar o’z guruhlariga qisqacha ta’rif beradilar. Bunda guruhlarga 5 daqiqa vaqt beriladi.

2-shart. Tezkor savollarga tezkor javob. Bunda guruhlarga o’tilgan mavzu yuzasidan savollar beriladi va ular savollarga tezkorlik bilan javob beradilar. Qaysi guruhdan javoblar soni ko’p bo’lishiga qarab ball qo’yiladi.

3-shart. “Kim tez tuzadi”. O’zbekistonning bir necha nusxadagi hayvonlar guruhi yozuvsiz xaritalarini maxsus qog’ozga yopishtirib, ular teng kattalikdagi bo’laklarga bo’linadi. Belgilangan vaqt ichida ishtirokchilarning qaysi biri xaritani tez tuza olsa o’sha guruh g’olib hisoblanadi. (5 min)

4-shart. Foydali qazilmalarning shartli belgilari; O’zbekistonda eng ko’p qazib olinadigan foydali qazilma boyliklari aks etgan belgilar ko’rsatiladi. O’quvchilar, ular qanday shartli belgi ekanini va qayerda qazib olinishini aytishlari lozim.

5-shart. Top topishmoq. Bunda guruhlarga topishmoq aytiladi, guruhlar topishmoq javobini topadilar. Eng ko’p topgan guruh, g’olib hisoblanadi.

Xulosa o’rnida shuni ayta olamizki, tanlovda muayyan mavzular bo’yicha o’quvchi o’qituvchining tayyorgarlik darajasi egallagan bilimi, ko’nikma va malakalarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iboratdir.

O’qitish jarayonida “Eshitdim”, “ko’rdim”, “o’zlashtirdim”, hamkorlikda o’qidim, bildim, fikrladim, esda saqladim, o’zlashtirdim va mustahkamladim tarzida tashkil etiladi.

Musobaqa-tanlov quyidagi shakllarda o’tkazilishi mumkin.

1. Muammoli.



2. Kompyuterda ishlab, chizma va jadvallarni o'qish.
3. Boshqotirmalar, viktorina, rebus, krossvordlar yechish.
4. Quvnoqlar va zukkolar tanlovi.
5. Tezkor turnir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ne'matova G. Ashurbayeva R. Yo'ldosheva D. Maktabda ona tili darslarini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog'lab o'qitish. - T.: Muharrir. 2019.



МАКТАБДА ФИЗИКА ФАНИНИ О`QITISHDA “CHARXPALAK”
TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR

Ollaberganova Muqaddas, Yo`ldasheva Nazira
Xonqa tumani 32-maktabning fizika fani o`qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada charxpalak texnologiyasi o`quvchilarni o`tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to`g`ri javob berishga va o`z-o`zini baholashga o`rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o`qituvchi tomonidan barcha o`quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Kalit so`z: pedagog, o`qish, o`quvchi, dars, bilim, malaka, ko`nikma, fikr.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to`g`risida»gi Qonunda o`quv jarayoniga ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy ko`rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan xoli etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya o`z mohiyatiga ko`ra subyektiv xususiyatiga ega, ya`ni, har bir pedagogo ta'lim va tarbiya jarayonini o`z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqib holda ijodiy tashkil etishi lozim.

“Charxpalak” texnologiyadan o`quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o`z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o`zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko`p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o`rgatish.

Texnologiyaning qo`llanilishi: texnologiya o`quv mashg`ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o`quv predmetining biron bir bo`limi tugallanganda, o`tilgan mavzularni talab(yoki o`quvchi) lar tomonidan o`zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o`tkazish uchun mo`ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg`ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg`ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam(yoki flomaster) lar.

- o`quvchilarni (sharoitga qarab) guruhlarga ajratish;
- o`quvchi mashg`ulotni o`tkazishga qo`yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a`zolariga tarqatish;
- guruh a`zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a`zosi o`zi ishlagan tarqatma materialining o`ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o`zining biron-bir belgisini chizib qo`yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “charxpalak aylanmasi” yo`nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a`zolari tomonidan o`rganilgan va o`zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo`nalish bo`yicha guruhlarga almashtiriladi(ushbu jarayon guruhlari soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so`ng har bir guruh va har bir guruh a`zosi o`zlari ilk bor to`ldirilgan materiallarni (guruh raqami va o`zlari qo`ygan belgilari asosida)tanlab oladilar;
- har bir guruh a`zosining o`zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a`zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- o`qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o`qiydi va jamoa bilan birgalikda to`g`ri javoblarni belgilaydi;
- har bir o`quvchi to`g`ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to`playdilar va o`z-o`zini baholaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to`g`risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1998.
2. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.



MUSIQA ILMINING TA’SIRCHANLIK XUSUSIYATLARI

O’lmasova Shahnoza Ilhomjonovna
Beshariq tumani 32-umumiy o’rta ta’lim
maktabi musiqa madaniyati fani o’qituvchisi
Mamadaliyeva Sadoqat Abduraxim qizi
O’zbekiston tumani 51 -umumiy o’rta ta’lim
maktabi musiqa madaniyati fani o’qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqaning ajralmas qismi bo’lmish ruhiyat va sezgining mushtarakligi va ustozlar ijodini targ’ib qilish hamda, kelajak avlodga musiqaning ta’sirchanlik xususiyatlarini sodda yo’llarda izohlash to’g’risida fikrlar bildirilgan.*

***Kalit so’zlari:** milliy musiqa, madaniyat, maqom, g’ijjak, bastakor, honanda, sozanda.*

Ilm-fan, ma’rifat, madaniyat asrlar davomida insoniyat olamini so’nmas mash’al bo’lib yoritib kelgan. Bizga ma’lum bo’lmagan tarix zarvaraqlari qatorida pinxon yotgan qadriyatlarimiz, noyob qo’lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz istiqloq sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o’rganilmoqda. Tarix insonning barkamollik, taraqqiyot yo’li. Moziyni bilmaslik o’zni anglamaslikdir. «O’zini anglagan xalqgina buyuk kishilarining nomlarini e’zozlab, ruhi poklarini doimo yod etadi». Madaniy merosimizni, o’tmish qadriyatlarimizni keng va xar tomonlama o’rganish oldimizga qo’ygan eng yuksak vazifamizdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek Kelajak avlodni kamolot sari yetaklashda ko’plab omillar qatorida musiqiy nazariy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon barcha boshqaruvchi tashkiliy qismlar va ularning bog’liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo’li bilan bilim darajasini samaradorligini yuqori darajaga ko’tarish hamda bu borada tizimli yondashuvini joriy etishni ifodalaydi. Davlatimizda ta’lim sohasida XXI asrda tub burilishlar yuz beradi, o’quvchilar hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr muhabbat, insonparvarlik tuyg’ulari tizimli ravishda shakllanadi. Ya’ni, komil shaxsni tarbiyalashda musiqiy nazariy bilim darajasini o’stirishda katta mahorat, ijodiy tashabbus, chidam bilan muntazam ishlash talab etiladi.

Inson yaratilibdiki tug’ilishi bilanoq go’daklik chog’idan boshlab ona allasi bilan ruhiy taskin olib orom oladi, bor vujudi bilan allaning ohanglaridan tebranadi. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki ona allasi onaning farzandga bo’lgan misli ko’rinmas darajadagi mehri sarchashmasi musiqiy sadolarda taralib go’dak qalbiga kirib borishi bilan, tinchlantiruvchi ozuqa vazifasini berishi o’z isbotini topgan.

Musiqa insonga ruhiy kuch va madad berishi olimlar tomonidan aniqlangan lekin, uning ta’sirchanlik xususiyatiga keladigan bo’lsak, milliy musiqalarimiz bilan sug’orilgan asarlarimiz insonga ta’sir kuchi va ruhiy madad vazifasini berishi mumkin.

Bugungi jahon mamlakatlari bilan yelkama yelka rivojlanib kelayotgan har bir sohamiz singari musiqa san’ati ham taqlid usullari bilan inson ongiga salbiy ta’sir ko’rsatib kelmoqda desak mubolag’a qilmagan bo’lamiz.

O’zbekiston davlat konservatoriyasida an’anaviy ijrochilik yo’nalishida ta’lim beruvchi ustozimiz Rifatilla Qosimov ham quyidagi so’zlarni keltirib o’tgan. *O’zbek xalqining boy musiqa merosini o’rganish va uni keng ommaichida targ’ib qilish ishlari san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo’lmog’i zarur.*

Darhaqiqat ilmiy ijodiy yondashar ekanmiz maqom iborasigi bir nazar tashlab o’tsak, maqom so’zi **o’rin, joy, makon** kabi ma’nolarida qo’llaniladi. Shu so’zlarning o’ziyoq mustahkamlik ma’nolarini bildirishini anglatib turibdi, maqomshunos olimlarimizdan ustozimiz Oqilxon Ibrohimov dars berish chog’larida o’quvchilarga hamisha insonga ruhiy ozuqa va barkamollik beruvchi musiqalarni tingash kerakligini aytib o’tishining o’ziyoq bu tajribalarda sinalgan ekanligidan dalolatdir.

Musiqa so’zi yunoncha bo’lib, uning ma’nosi **kuylarni tuzish** demakdir.

Shu o’rinda ta’kidlab o’tish joizki, musiqaning ta’sirchanligi nafaqat ovoz yoki cholg’u ijrosida aks ettirish mumkin, bu jarayonni kino, teatrlarda ham mushtarak bog’liqligini ko’rishimiz mumkin.

Ayniqsa bu borada ustozdan – shogirdga o’tib kelgan xalq an’anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o’tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlariga murojaat qilish bilan birga bobokalon san’atkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o’rganib bormog’imiz lozim.



Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik sanatining rivojlanishi qadim zamonlarga bogʻlanib ketadi. Buyuk sharq allomalari, *Abu ali ibn Sino, Muhammad Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Paxlavon Mahmud, Umar Xayyom, mirzo Ulubek, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy* kabi ulug' bobokalonlarimiz oʻzlarining risolalarida ijrochilik sanoati, musiqa ilmi va tarixi cholgʻu sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, sanʼatkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli maʼlumotlarni oʻzlarining fikr va muloxazalarini bayon etib ketganlar.

Agar barchamiz bir boʻlib milliy musiqamiz boʻlmish maqomni tinglab eshitish madaniyatini yosh avlodga singdirara olsak, oldimizda turgan eng katta vazifalardan birini bajargan boʻlamiz.

Xulosa soʻngida shuni aytish joyizki, oʻzbek milliy musiqamizni qancha targʻib qilsak ham ozdir. Mamlakatimizda ijrochi ustozlarimiz yaratgan asarlar hamda, ular ijro egan munavvar kuy qoʻshiqlar taʼsinchanligi, inson qalbidan ruhiy kuch va madad boʻlib xizmat qilib barchaga birdek xuzur bagʻishlab kelmoqda desak xato qilmagan boʻlamiz

Shunday ekan ustozlar ijodini oʻrganish ularning asarlarini xalqqa yetkazish, taʼlim berishda ustozlar yoʻllarini oʻrganib, amal qilib ish olib borish barchamizning oldimizda turgan vazifalardan biri desak mubolagʻa boʻlmasa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Qosimov «Anʼanaviy ijrochilikdan dars berish uslubiyati» Musiqa nashriyoti Toshkent 2007.
- 2.Zokirjon Oripov —SHarq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008



БIOLOGIYA DARSLARIDA KEYS-STADI METODIDAN FOYDALANISH

Ozodova Iroda Ozodovna

Yangiariq tumani 1-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 504 62 80

ozodovairoda_scool1@inbox.uz

Raxmonova Shahnoza Yuldash qizi

Urganch shahar 18-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 502 71 71

raxmonovashahnoza_7171@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola Keys-stadi metodining maqsadi, ahamiyati va qo'llash texnologiyasi haqida.

Kalit so'zlar: Keys-stadi metodi, amaliy tadqiqotlar, hodisa usuli, vaziyat, tahlil, munozara, muammoli vaziyat.

«Biologiya» faniga nafaqat biologik bilimlarning o'zi, balki falsafiy, ijtimoiy tabiat, emotsional va axloqiy kategoriyalar, texnika muammolari, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligi va boshqa ko'plab asosiy masalalar doirasidan tashqariga chiqadigan ma'lumotlar kiradi. Biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlari maktab tarbiyasining zaruriy tarkibiy qismi o'quvchining shaxsiyatining tizimli predmetli bilimlari, shaxsning insonparvarlik qadriyat yo'nalishlari, hozirgi kelajakdagi xulq-atvorning asosi sifatida o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi targ'ib qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muhit sifatida qaralishi kerak.

Hayotda har bir insonga biologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shu jumladan tadqiqot xarakteridagi bilim va ko'nikmalar kerak. So'nggi paytlarda fikrlash, ijodkorlik va muloqot mantig'ini rivojlantirish uchun turli texnologiyalardan faol foydalanmoqdalar.

Keys metodi - bu real vaziyatlarga asoslangan faol ta'lim usuli, vaziyatni tahlil qilish usuli. Keys metodining mohiyati - o'quv jarayonida muayyan o'quv vaziyatlaridan foydalanish, o'quvchilarni muammoni shakllantirishga yo'naltirish va uni hal qilish variantlarini izlash, so'ngra sinflarda tahlil qilish.

Texnologiyalarning maqsadi har bir o'quvchiga eng kerakli bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usulini aniqlashga yordam berishdir. Shunday qilib, o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashida bugungi kunda talablarga javob beradigan chiqish mavjud. Ishlar quyidagicha tasniflanadi:

- amaliy holatlar: vaziyatni tahlil qilish usuli yoki ishbilarmonlik yozishmalar usuli. Ushbu holatlar kiritilgan vaziyatni yoki ishni iloji boricha haqqoniy aks ettirishi kerak;

-o'quvchini tadqiqot faoliyatiga qo'shishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yoki voqealar usuli.

Voqealar usuli: Ushbu usulning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'zi qaror qabul qilish uchun ma'lumot topadi.

Vaziyatli tahlil usuli: eng keng tarqalgan usul, chunki bu murakkab vaziyatni chuqur va batafsil o'rganishga imkon beradi. Keys usuli biologiya darslarida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin, chunki bu usul murakkab va barcha turdagi tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi.

Keys metodining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining metodik mahoratiga, uning mazmunini aniqlay olish va unga mos materialni tanlash qobiliyatiga bog'liq. Natijada o'quvchilar mustaqil ravishda o'qituvchi nazorati ostida taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, baholash va tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va nostandart vazifalarni hal qilish, murakkab sharoitlarda amaliy harakatlarni bajarish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'anieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi Literature pedagogika texnologiyalari to'plami.. - T.: TDIU, 2013.-B.95.

2. Tolipov O'.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya - tatbiqiy asoslari. Toshkent., 2006.

3. <http://www.ziyonet.uz>



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA ИНТЕРАКТИВ МЕТОДЛАРДАН FOYDALANISH

Palvanova Nazokat

Xorazm viloyati Urganch shahri

5-umumiy o’rta ta’lim maktabi

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf matematika darslarida interaktiv usullardan foydalanish. Ta’limni yo’lga qo’yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo’lib, integratsion darsning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etiladi.

Kalit so’zlar: interaktiv ta’lim samaradorligi, boshlang’ich ta’lim, integratsion darslar.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o’quv soatlari keskin qisqartirildi, o’quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Turli o’quv predmetlarini o’qitishda soatlarning qisqarishi, o’quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o’quvchilarga qo’yilayotgan talablar kuchaydi, ta’lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmoqda. O’quvchilar o’quv materiallarini o’zlashtirishida sodir bo’layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta’sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o’qituvchilardan o’quvchilarga bir fan doirasida bog’liqliklar asosida turli hodisalarni o’rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o’rganish o’quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Milliy dastur modelida fanning tabiat va jamiyat to’g’risidagi yangi fundamental hamda amaliy tadqiqiga oid yo’nalishlarini rivojlantirish, yuqori malakali, ilmiy salohiyatga ega pedagogik kadrlar tayyorlash, ularni jahon fani interaktivsi darajasida ilmiy jihatdan savodxonligini va mahoratini oshirish shu asosda umumiy o’rta ta’lim maktablarida ta’lim va tarbiya mazmunini yangilash, sifat va samaradorligini ko’tarish, har bir fan bo’yicha o’quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko’nikma va malakalarini takomillashtirish ta’kidlangan. Erkin fikrlovchi, ijodkor, mamlakatimizning mustaqillik mafkurasiga sadoqatli bo’lgan barkamol shaxsni tarbiyalash boshlang’ich ta’lim samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarining yaratilishi, aloqadorlik tizimining tarkib topishi ta’limda istiqbolli vazifalar yechimini ta’minlaydi. Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda interaktiv, o’zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So’nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. Boshlang’ich maktabda interaktivni amalga oshiruvchi bo’g’in vazifasini o’qituvchining o’zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko’pgina boshlang’ich tushunchalarga va yana ko’pgina narsalarga o’rgatadi. O’z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang’ich sinflarda bir o’qituvchining dars berishini, interaktivning bir usuli deb hisoblasak ham bo’ladi. Interaktivni amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo’lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o’girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o’qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo’yilishi interaktivning turli ta’lim pog’onalalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko’rsatadi. Boshlang’ich maktabda interaktivni bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko’rish maqsadga muvofiq

Bugungi kunda interaktivlashgan ta’lim muammosiga boshlang’ich ta’limda ham jiddiy diqqat qaratilayotganligining sababini professorlar R.Mavlonova va N.Rahmonqulova. Boshlang’ich ta’limning interaktivlashgan pedagogikasi. Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va interaktivsi nomli o’quv qo’llanmalarida quyidagicha izohlaydilar: O’quv predmetlari orasidagi interaktiv predmetlar tizimini inkor etmaydi, balki predmetlar orasidagi aloqalar va bog’liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan yondashuv – differentsiya va interaktiv orasidagi munosabatni tushunishga tayanadi... turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo’naltirilgan interaktiv bir predmet bo’yicha bilimlarni ikkinchisiga ko’chirish yoki faoliyatning almashinishi emas, balki fanlar interaktivsi yo’nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir. Chet el ta’limi tajribasi shuni ko’rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo’luvchi interaktivlashgan fanlar ko’pgina



mamlakatlar o‘quv dasturlaridan allaqachon joy olgan. Ularda asosiy e‘tibor o‘quvchilarga boshlang‘ich ta‘lim orqali faqat o‘quv predmetlari asosida bilim berishni emas, balki ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ko‘pgina xorijiy mamlakatlar boshlang‘ich maktablarining o‘ziga xos xususiyati interaktivlangan kurslar bo‘yicha ta‘lim bo‘lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson, tabiat, jamiyat, fan, san‘at bilan suhbatlashadigan; faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o‘simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir[Olamning umumiy ko‘rinishini tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishdir; bola esa ham dunyoni, ham o‘zini o‘rganuvchi, tekshiruvchi o‘rniga qo‘yiladi.

Darhaqiqat, interaktivlashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o‘quvchining vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqlashlarning oldi olinadi, ta‘lim samaradorligi oshadi. O‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o‘quv predmetlari mazmunini uyg‘unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta‘limning interaktivlashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
2. Jurayev, J. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.
3. Abdinazarovna, S. G. (2020). THE REFLECTION FEATURES OF ABBREVIATIONS AND ACRONYMS OF THE ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Тил, таълим, таржима*” халқаро журнали, 2(1).



ТА’ЛИМ PRINSIP (TAMOYIL)LARI TIZIMI NIMADAN IBORAT?

Meredova Navruza Shoxratovna.
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 21-son
maktabning fizika fani o‘qituvchisi

Meretova Ilmira Shoxrat qizi.
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 21-son
maktabning informatika va matematika fani
o‘qituvchisi

Ollashkurova Dilmura Salovat qizi.
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 21-son
maktabning nemis tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim prinsip (tamoyil)lari tizimi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qitishning ilmiylik tamoyillari , ta’lim jarayonida ko‘rsatma materiallar , ta’limning ko‘rsatmalilik qoidasi, to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

O‘qitishning ilmiylik tamoyillari ta’lim jarayonida o‘quvchi - talabalarni hozirgi zamon texnika fan taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talaba yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirishga qaratilgan.

Ilmiylik ta’limning mazmuniga va usullariga aloqadordir. Shunday ekan bilim ilm -fan bilan o‘quv predmeti o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro bog‘liqlik bo‘lishiga erishish lozim. Ta’limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlashlardan foydalanmoq lozim.

Bilimlarni tizimli va izchil o‘zlashtirish qoidasi ta’limning ilmiyligi va tushunariligi qoidalari bilan uzviy bog‘liq. Tizimlilik (sistemalilik) didaktik kategoriya sifatida Ya.A.Komenskiyning asarlarida asoslab berilgan edi. U tabiatda bir narsa ikkinchi narsa bilan bog‘liq bo‘lganidek, ta’limda har bir narsa ikkinchisi bilan aloqada bo‘lmog‘i, har bir mashg‘ulotda o‘rganilgan bilim keyingi o‘rganiladigan bilimlarga yo‘l ochishi lozim, deb hisoblaydi.

Ta’limning tizimli buzilishi uning izchil bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Izchillikka asoslangan ta’limning xarakterli belgisi shundaki, u o‘quvchilarning oldindan o‘zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularning o‘zaro bog‘lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yanada chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta’minlashga qaratilgandir.

Ta’lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil suratda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday jarayonda o‘qituvchi o‘kuvchining mashg‘ulotlarga munosabati va bu jarayonda o‘zini qanday tutishga e’tibor bermog‘i lozim. Ta’lim jarayoni, uning mazmuni, unda ko‘tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim shaxsni shakllantirishning asosiy manbaidir.

O‘qitib tarbiya berish deganda ta’lim va tarbiyaning bir - biridan ajralmasligini tushunamiz. Xar bir o‘quv fani hatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham shubhasiz, tarbiyalovchilik xarakteriga ega.

Tabiiy fanlar- fizika, kimyo, biologiya, astronomiya va boshqalarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilarda ilmiy e’tiqod, dunyoqarash shakllana boradi. Ular dunyoni o‘rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar. Har bir narsa yuzasidan haqqoniy hukm chiqarishga o‘rganadilar.

Ta’limning ko‘rsatmalilik qoidasi- ta’lim jarayoni sifatini oshiradi, o‘quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Bu qoida o‘qitish jarayonida ko‘rish, eshitish, hid, ta’m, maza bilish, teri-muskul harakat kabi sezgi organlarining bir yo‘la ob’ekt ustida safarbar qilinishini talab etadi.

Ta’lim jarayonida ko‘rsatma materiallar o‘quv predmetlarining xarakteri va mazmuniga qarab turli - tuman bo‘lishi mumkin.

Jumladan:

- a) buyum va narsalarni aslini tabiiy holda ko‘rsatish;
- b) tasviriy ko‘rsatmali materiallarni namoyish qilish;



v) narsa va buyumlarni shartli belgilar orqali ko'rsatish;

g) ovozli ko'rsatmali materiallarni ko'rsatish.

Ta'limda ko'rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning quyidagi tomonlariga ham e'tibor berish kerak.

Birinchidan, ishlatiladigan ko'rsatmali qurollar u yoki bu sinf o'quvchilarining yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarligi- saviyasiga mos keladigan bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo'lishi lozim.

Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlarga faqat bilim berishda o'quvchi - talabanning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olganda erishish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarda bolalar psixologiyasiga oid bilimlar yetarli bo'lishi lozim. Sinf o'quvchilar jamoasiga xos umumiy xususiyatlar va har qaysi o'quvchiga tegishli xususiyatlar ta'limning har bir bosqichida e'tiborga olinishi kerak. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilarni kuzatishi va ularning ruhiy olamini o'rganishi lozim. Faqat shundagina o'quvchidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari aniqlanadi va ularni bartaraf qilish uchun izlanishlar olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim qoidalari umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va ko'nikmalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalari yig'indisi bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Roziqov O. R va boshqalar. Didaktika. Toshkent. “Fan”, 1997.
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.



**МАКТАБДА ФИЗИКА ВА ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРНИ О`QITISHDA О`QUVCHILARNI
KO`NIKMA HAMDA MALAKALAR DARAJASINI BAHOLASHDA - YUKSAK
PEDAGOGIK MAHORAT**

Qarriyeva Gulshan, Madaminova Hurjon

Xonqa tumani 32-maktabning
fizika va geografiya o`qituvchilari

Annatotsiya: Ushbu maqolada har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo`lgan ta`lim tizimining rivojlanishida muhim rol o`ynaydigan yangi interfaol metod haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`z: akvarium, pedagogik, axborot, ta`lim, fikr, jamoa, siyosati, metod.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga etkazib berish, ularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o`quvchilar foliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma hamda malakalar darajasini baholash o`qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to`plangan bo`lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta`lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so`z yuritamiz.

Interfaol metod – ta`lim jarayonida o`quvchilar hamda o`qituvchi o`rtasidagi faollikni oshirish orqali o`quvchilarning bilimlarni o`zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyida Akvarium metodidan foydalanish bosqichlari keltirilgan.

1. 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo`ylab o`tiradilar. Ular – «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o`tiradilar (yoki turadilar). Ular – «baliq ovchilari».

2. Ichki doira a`zolari («baliqlar») o`qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. «Baliq ovchilari» esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o`quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo`shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. SHunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak.

3. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so`ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo`ylab o`tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o`tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Afzalliklari.

Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo`yicha o`z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo`shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi. Tahliliy fikrlash, e`tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari.

Muammoni muhokama qilishda barcha o`quvchilar faol ishtirok etish jarayonida bahs-munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. SHu bois o`qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo`lishiga yo`l bermaydigan uslublarni bilishi lozim.

Aniq nazorat bo`lishini talab qiladi. Jarayon davomida ayrim o`quvchilar undan chiqib qolishlari (jarayonda ishtirok etmasliklari) mumkin. O`qituvchi muammoni muhokama qilishga barcha o`quvchilarni jalb qilish usullarini o`ylab chiqishi kerak.

Hozirda ta`lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo`nalishlardan biri interfaol ta`lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo`llash natijasida talabalarning



mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: “Moliya” nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. “Nasaf”, 2000 y.-80 b.



МАКТАБДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ О‘ҚИТИШ УСУЛЛАРИ

Qodirova Nilufarxon,

Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani
1-sonli maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada mehnat ta‘limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi ekanligi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: mehnat ta‘limi, ijodkorlik, texnologiya, ilmiy-texnik tafakkur.

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikaning jo‘shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta‘lim mazmunini emas, balki o‘qitish jarayoning usuli va tashkil etilishini, o‘qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg‘otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o‘rgatish vazifasini yuklaydi.

Mehnatga ta‘limiga o‘rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e‘tirof qilish kerak. Ko‘pgina ilmiy kengashlar, agarda ularda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyim yama, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvaffaqiyatga erishmagan bo‘lardilar. Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘qitishning turli metod va usullarini qo‘llab shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o‘zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini sindirmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar qo‘l mehnatini o‘rgatishda o‘quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o‘stirishga yordam bermoqdalar.

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda boshqa fanlarni o‘rgatishda bo‘lganidek, o‘qitishning xilma-xil usullarini qo‘llab, ular yordamida o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O‘quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o‘z so‘zlari bilan buyumni bajarilishini yod etishlari talab etiladi. Biroq asosiy o‘rinni hali ham namuna, tayyor ko‘rgazma bo‘yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsningzamonaviyligini oshirdi, takomillashtirishda va unga sayqal berdi. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo‘l mehnatiga o‘rganish ham zamonaviy pedagogika ishlarini to‘g‘ri tashkil etish va uning usullariga qo‘yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O‘qitish metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning usullari bo‘lib, bular yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining intilishi, hatti-harakati darsda o‘quvchilarning diqqat-e‘tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchasliklariga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shunga o‘rgatish kerak. Har bir o‘qituvchiga o‘z uslubi, o‘z usulining o‘ziga xosligigi ega bo‘lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo‘lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. O‘z faoliyatini o‘qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo‘lgan o‘qituvchilar mana shu hammaga ma‘lum haqiqatni o‘zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg‘ulotlar kabilardan foydalanib o‘zlashtirganini tekshirish, yangi temani tushuntirish vao‘tilganini mustahkamlashni eng boshidan o‘rganishlari lozim. Faqat barchaga ma‘lum haqiqatlar o‘zlashtirgandan keyingina va sinfnining imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo‘llash mumkin. O‘qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

Mehnat ta‘limining yangi dasturlari metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Mehnat dasturlarida mehnat madaniyatining malaka va ko‘nikmalari aks ettirilgan bo‘lib, unga qarab maktab o‘quvchisi, o‘qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O‘qituvchi



o‘quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, mehnat madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi.

Mehnat ta’lim yo‘nalishlaridan birinchisi o‘quvchida va o‘smirda inson mehnati haqida va uning mehnatining mahsuli yaratilgan buyumlar to‘g‘risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi. Mehnat ta’limining yo‘nalishining ikkinchisi, o‘quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish. Mehnat ta’limi yo‘nalishining uchinchisi esa hozirgi zamon o‘quvchisi tabiatga ekologik munosabatda bo‘lishni shakllantirish, uni qishloq xo‘jaligi sohasidagi malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish kerak.

Mehnat ta’limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Mehnat darsining maqsadi – shaxsning turmush tarziga, mehnat madaniyatiga qaratilgan barqaror yo‘l yo‘riqni qaror toptirish, ijodiy mehnat qilishga, amaliy, ahloqiy va ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o‘quvchilarni xalq xo‘jaligidagi muvoffaqiyatli mehnat faoliyatida zarur bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarni rivojlantirishdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziynet.uz.
2. <https://kitob.uz>



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH: ANALIZ VA SINTEZ MASHQLARI

Rahmatova Dilnoza Adhamjonovna
Qayumova Maftuna Mirzaxmad qizi
Namangan viloyati Norin tumani
27-son maktabning Boshlang‘ich
ta‘lim fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning ilk bosqichi sanalmish savod o‘rgatish, uning bosqichlari, analiz va sintez mashqlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: savod o‘rgatish, harf, so‘z, diksiya, analiz mashqlari, sintez mashqlari, nutq, muammoli vaziyat, tovush, ma‘no.

Boshlang‘ich sinfda ta‘lim berishning asosiy yo‘nalishi bu savod o‘rgatishdir. O‘z navbatida savod o‘rgatish tovush ustida ishlash jarayonidan boshlanadi. Zero, tovush savod o‘rgatishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Savod o‘rgatish davrida so‘z va bo‘g‘inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o‘tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi.

Tovush ustida ishlash harf ustida ishlash bilan, ayniqsa, kesma harflardan bo‘g‘in, so‘z tuzish kabi sintez qilish usullarida birlashib ketadi; tovush va harf o‘rtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o‘qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imloviy jihatdan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir. So‘zlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullari hozirgi kunda takomillashtirilib borilmoqda. Savod o‘rgatishda asosan, quyidagi usullar amalda qo‘llanil moqda:

I. Analiz mashqlari.

1. Nutq (gap)dan so‘zni ajratish; so‘zni aniq talaffuz qilish; bo‘g‘inlarga bo‘lish va bo‘g‘inlarni aniq talaffuz qilish, so‘zdan, bo‘g‘indan tovushni kuchli talaffuz qilib o‘qish, muayyan tovushni ajratgan holda so‘zni bo‘g‘inlab o‘qish (aaaa-na, nooon, iiii, sssa-na, ki-yyyik, iiii).

2. Darsda o‘rganiladigan yangi tovushni ajratish.

3. So‘zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo‘g‘inlarni sanash: Olma — ol-ma; o-l-m-a— to‘rtta tovush, to‘rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo‘g‘in Bu usuldan o‘quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalanish mumkin.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli so‘zlarni amaliy taqqoslash: dil-til, zira-sira kabi. Savod o‘rgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o‘qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko‘proq o‘qish malakasini shakllantiradi.

II. Sintez mashqlari.

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so‘zni yoki bo‘g‘inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so‘z yoki bo‘g‘inni o‘qish;

2. O‘rganilgan undosh yoki unli bilan bo‘g‘in jadvalini tuzish; bo‘g‘in jadvalini kitobdan yoki matndan o‘qish; kesma harflardan bo‘g‘in jadvalini tuzish;

3. So‘zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo‘shib, yangi so‘z hosil qilib o‘qish;

4. So‘z o‘rtasiga harf qo‘shib, yangi so‘z hosil qilib o‘qish;

5. Bo‘g‘inlarni almashtirib yangi so‘z hosil qilish va o‘qish;

6. Tovushlarning o‘rnini almashtirib yangi so‘zni hosil qilish va o‘qish;

7. Tovushni yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirib, yangi so‘z hosil qilish;

8. Bo‘g‘in qo‘shib yangi so‘z hosil qilish va o‘qish.

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo‘shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo‘lib, darsda yarim o‘yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi. Bu esa darsning yana ham samarali va qiziqarli o‘tishini ta‘minlab beradi.

Savod o‘rgatishda so‘z va bo‘g‘inlarni analiz-sintez qilishni interaktiv (faol o‘qitish usuli) texnologiya asosida tashkil etish o‘qituvchi faoliyatidagi ijodiy jarayon bo‘lib, o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda tashkil etiladi. Bunday paytda o‘qituvchi o‘zini birgina bilim beruvchi shaxs emas, balki o‘quvchilarning faolligini pedagogik va psixologik jihatdan tashkil etuvchi hamkor, murabbiy sifatida his qilmog‘i zarur bo‘ladi. Shundagina o‘quvchi o‘zini o‘qituvchiga yaqin



tutadi, barcha hadik va qimtinishlardan forig‘ bo‘lib, tez toliqmaydi, ayni damda, erkin fikrlaydi. Bolaning tovushlardan so‘z yasash, so‘zdan bo‘g‘in va tovushlarni ajratish malakasiga erishishi ancha osonlashadi. Tovush va harf o‘rganish ilmi bolalarni o‘ziga jalb etadi. Ular o‘rganish zarur bo‘lgan narsaga (yangi harf, yangi tovush, yangi matnga) diqqat bilan yondashdilar. Zotan, ilm o‘rganuvchilardan, Y.A.Komenskiyning fikricha, to‘rt narsa talab etiladi:

- sof aqlga ega bo‘lish;
- o‘rganish zarur bo‘lgan narsani ko‘rish;
- diqqatni to‘plab olish;
- kuzatilishi lozim bo‘lgan narsalarni ma‘lum tartibda ketma-ket ko‘rish.

Darsda faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo‘lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o‘rin tutadi. O‘quvchi so‘zni analiz qilish bilan uni leksik ma‘noga ega bo‘lgan bir butunlik sifatida anglaydi, bu — sintezdir; so‘z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir. Umuman, savod o‘rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta‘minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o‘quvchilarning bilish mustaqilligini ta‘minlaydi, „muammoli“ vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o‘stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo‘g‘inlar va harf terish taxtasi, shuningdek, abak (harakat qiladigan lentali ko‘rgazma), kadoskop, alifbo multimediyasi va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., «NOSIR» nashriyoti 2009.
2. S.Matchonov va boshq. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. T.: „Yangiyul poligraph service“, 2008.
3. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo‘ldoshev. Savod o‘rgatish metodikasi. T.,1996.



**МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О’ҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРИДАН
ФОЙДАЛАНИШ.**

Raxmanova Dilxumor Ismoilovna
Xiva tumanidagi 6-son maktabning
matematika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika o’qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik.

O’qituvchilarning matematika fanlarini o’qitishda yo’naltirilgan darslar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko’nikmalariga ega bo’lishi ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o’zlashtirilishi, ularda amaliy ko’nikma va malakalarning hosil bo’lishining kafolati bo’la oladi. Ta’lim jarayoni o’quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo’yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta’lim mazmunida, shuningdek, o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan tushuncha, ko’nikma hamda malakalarning hajmi ham o’z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta’lim mazmunining g’oyaviy jihatdan mukammalligi o’quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko’nikma va malakalarning o’zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o’quvchilar tomonidan ma’lum tushunchalarning o’zlashtirilishi, ko’nikma va malakalarning shakllanishini ta’minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo’ladi.

“Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o’zlashtirishda o’quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o’quvchilarda tezkor fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o’z bilimlarini sinab ko’rish istagida bo’lgan o’quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to’g’ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko’ra har bir savolga qaytarilgan to’g’ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o’quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo’llanilishi mumkin.

“Charxpalak” metodi. “Charxpalak” texnologiyasidan o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo’lim tugatilganidan keyin, o’tilgan mavzularni o’zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o’tkazishda foydalanish mumkin. Mashg’ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo’ladi. Qolaversa, o’z ichiga og’zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o’rganishda ham asqotadi.

“QORA QUTI” METODI

Ta’lim jarayonida mazkur metodni qo’llashdan maqsad o’quvchilar tomonidan mavzuni puxta o’zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma’lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o’quvchilar juftlikka birlashtiriladi;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar(tayanch so’zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . .)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o’qituvchi o’quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to’g’ri bajargan guruhning bir a’zosi o’qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sinf o’quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so’zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . . qanday ma’noni anglatishini aytadilar);
- to’g’ri javob bergan o’quvchi o’qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o’qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ochilov, N.Ochilova “Oliy maktab pedagogikasi” T.-2008
2. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” T.-2017.



БИОЛОГИЯ ДАРSLARIDA NOAN’ANAVIY TA’LIM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Razzakova Dilfuza Kurambayevna

Xonqa tumani 28-son maktab o’qituvchisi

Telefon: +998 (99) 899 12 02

dilfuza.kurambayevna_28@inbox.uz

Sabirova Nargiza Maxmudovna

Xonqa tumani 33-son maktab o’qituvchisi

Telefon: + 998 (91) 570 96 97

sabirovanargiza_9697@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiya darslarida noan’anaviy ta’lim yondashuvlaridan foydalanish usullari haqida.

Kalit so’zlar: Noan’anaviy ta’lim, texnologiya, video, podkast, ommaviy axborot vositalari, sayohat, minecraft.

O’quv materiallari formatida ozgina xilma-xillik yaratish biologiya darslarini yanada jonli qilishi mumkin. Biologiya fanidan mavzularni ma’ruzalar orqali tushuntirishdan va darsliklardan tashqari video, podkast va boshqa ommaviy axborot vositalarini qo’shish dars jarayonining qiziqarliligini ta’minlaydi.

Texnologiya va biologiyani qo’shish maqsadga muvofiq. Texnologiyalarga qiziquvchilar uchun biologiya bilan aloqalarini chuqurlashtirish uchun juda ko’p imkoniyatlar mavjud va aksincha. O’qitishning yangi va qiziqarli usullaridan foydalanish mumkin. Masalan: dars jarayonida, shu jumladan biologiya kurslarida mashhur Minecraft o’yinidan foydalanishga bag’ishlangan manbalar mavjud.

O’quvchilar biologiya fanidan berilgan topshiriqlar uchun texnologiyadan foydalanishga ruxsat berish lozim. Masalan, veb-dizaynga qiziqadigan o’quvchilar biologik tushunchani aks ettirish uchun veb-sayt ishlab chiqishlari mumkin.

Biologiyani o’qitish uchun ilmiy o’yinlardan foydalanish. O’quv o’yinlari ko’rinishidagi ozgina do’stona raqobat biologiya darsini mazza qilishning yaxshi usuli bo’lishi mumkin.

Biologiya markazida o’tkaziladigan ekskursiyalar. Darsdan tashqarida vaqti-vaqti bilan sayohat yaxshi sur’atlar bilan o’zgarishi va o’quvchilarning biologiya haqidagi tushunchalarini boyitish uchun yaxshi imkoniyat bo’lishi mumkin.

- Botanika bog’i
- Hayvonot bog’i
- Ferma
- Tadqiqot laboratoriyasi

Turli xil ta’lim va o’qitish uslublarini sinab ko’rish

O’qitishga turli xil yondashuvlarni sinab ko’rish mumkin. Ba’zi o’rganish passiv (o’quvchilar bilimlarni o’qituvchidan oladi), ba’zilar esa faol (o’quvchilar mavzularni o’rganish va tushunish uchun ko’proq mas’uliyatni o’z zimmlariga oladilar). Har qanday sinfda ikkala tur uchun ham joy mavjud. Eng muhimi, ikkalasining to’g’ri aralashmasi va muvozanatini topishdir. Turli xil o’qitish usullarini o’z ichiga olinadi, shu jumladan:

- Ma’ruza
- Kooperativ o’rganish (talabalar bir-birlariga mavzu haqida ma’lumot olishda yordam berishadi)
- Kontseptsiyani xaritalash
- Munozara
- O’qish
- Amaliy mashg’ulotlar

Ma’ruzalarni ishtirok etish. Ko’pincha ma’ruzalar o’quvchilarga ma’lumot taqdim etishning eng samarali usuli hisoblanadi. Biroq, o’quvchilar ham, o’qituvchilar ham ma’ruzalar ko’proq interaktiv bo’lishini xohlashadi. Vaqti-vaqti bilan o’quvchilarga savollar berish orqali sokratik usuldan foydalanish mumkin.

Talabalarni ma’ruzaga oldindan tayyorlangan savollar bilan kelishlarini so’rash. Keyin ularning



ba'zi savollariga murojaat qilish mumkin. Bu o'quvchilarga ularni tinglashlarini bilishlariga imkon beradi.

Talabalar dars paytida norasmiy viktorinalarga yoki so'rovlarga javob berishlari uchun iClickers yoki shunga o'xshash texnologiyalarni ma'ruza kurslariga qo'shishni o'ylab ko'rish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova J.O., Azimov I.T., Sultonova N.B. Biologiya darslari. (Oqituvchi kitobi). Metodik qo'llanma. (9-sinf) "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent, 2016



О’QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O’RGATISH-DAVR TALABI

Ro’zmetova Nargiza Shuhrat qizi

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi

23-son maktabning matematika-fizika fanlari o’qituvchisi

Tel:91-972-89-88//ruzmetovanargiza/@gmail.com

ANNOTATSIYA:Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash nimaligi va uni o’rgatish usul va vositalari haqida so’z boradi.

KALIT SO’ZLAR: critical thinking,metabilim,diskussiya,axborotlar dominosi.

Tanqidiy fikrlash –kishilarning o’z fikrlari va harakatlarini belgilovchi qarorlar qabul qilishni aks ettirish va e’tiborga olishni talab qiladigan fikrlash turi. Tanqidiy fikrlash odamlarga ko’proq mantiq bilan xulosa chiqarish, murakkab axborotni qayta ishlash va qat’iy xulosalar chiqara olishlari uchun muammoning turli tomonlariga qarash imkonini beradi.Tanqidiy fikrlashni turli yo’llar bilan belgilash mumkin bo’lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi – qoniqarli natijaga erishish istagi haqida umumiy kelishuv mavjud va bunga oqilona fikrlash va natijalarga yo’naltirilgan ish orqali erishish kerak.Tanqidiy fikrlash, avvalo, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimolliklarni muvaffaqiyatli qo’llash kabi o’zlashtirilgan qobiliyatlarni o’z ichiga oladi. Bunga tafakkur jarayoni bilan shug’ullanishga moyillik ham kiradi.Tanqidiy fikrlash – odamning kelib tushayotgan axborotni, jumladan, o’z mulohazalarini shubha ostiga olish qobiliyatidir. Muayyan jamiyatda tanqidiy fikrlash darajasiga o’tish ushbu jamiyatning fuqarolik rivojlanishining boshlanishi uchun zarur shartdir, degan fikr mavjud. Tor ma’noda tanqidiy fikrlash—mulohazalarni to’g’ri baholash, demakdir. Shuningdek, —fikrlash haqida fikrlash deb ham tavsiflanadi. Eng keng tarqalgan ta’riflardan biri – —nimaga ishonish va nima qilish haqida qaror qabul qilishga yo’naltirilgan oqilona refleksiv fikrlash.Batafsilroq ta’rif – kuzatuv, tajriba, fikrlash yoki muloqot natijasida, ishonch hosil qilish va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida olingan yoki yuzaga keltirilgan axborotni faol va mohirona tahlil qilish, konseptualizatsiya, qo’llash, sintez qilish va baholashning intellektual tartibga solingan jarayonidir.

Tanqidiy fikrlash (ingl. critical thinking) narsa va hodisalarni oqilona xulosalar chiqarish bilan tahlil qilishda foydalaniladigan va asoslangan baholar, talqinlar berishga, shuningdek, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarga qo’llash imkonini beradigan mulohazalar tizimi. Umuman,tanqidiy fikrlash deganda tanqiddan oldingi fikrlashdan ko’ra yuqoriroq darajada fikrlash ko’zda tutiladi. Tanqidiy fikrlash uchun zarur bo’lgan asosiy ko’nikmalar majmuasiga kuzatish, izohlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish qobiliyati va baho berish qobiliyati kiradi. Tanqidiy fikrlash mantiqni qo’llaydi, balki aniqlik, asoslilik, ahamiyatlilik, teranlik, ko’lam va adolatlilik kabi metabilim va ziyolilikning keng mezonlariga tayanadi. Ijodiy tasavvur, qadriyat munosabati va kam darajada aniq emotsionallik ham tanqidiy fikrlashning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash tadqiqotlarning fanlararo yo’nalishi bo’lib, falsafa, mantiq, pedagogik va psixologiyaning bir qismini o’z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlash jarayoni: 1.Samarali va muttasil o’rganish asosida o’quvchilar axborotlarni o’zlashtirish, sintezlash va ulami to’la egallash faolligi yotadi.

2. O’rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli- tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo’ladi. Bunday strategiya o’rganish jarayonini yanada onglilashtiradi.

3. O’rganish va tanqidiy fikrlash o’quvchilarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo’llash imkoniyatlariga ega bo’lgan taqdirda rivojlanadi

4. O’rganish o’quvchilarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular o’quvchilarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog’lash imkoniyatini beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va sedan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo’l ham yo’q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o’quv sharoitlari to’plami mavjud. Uning uchun:

- o’quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g’oya va fikrlarni qabul qilish;
- o’quvchilarning o’quv jarayonidagi faolligini ta’minlash;



- o'quvchilarni kulgiga qolmasliklariga ishontirish;
- har bir o'quvchining tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish; - tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar: • o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish; • o'quv jarayonida faol ishtirok etish;

- turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash.

Tanqidiy fikrlashning har bir bosqichida turli usullardan foydalanish lozim.

Chaqiriq bosqichida qo'llaniladigan usullar:

- Diskussiya orqali • —Qarang — fikrlang — o'ylaning
- Turli muammolarni yechish • Boshqotirma, krossvordlarni yechish
- Klaster tuzish • —Ingichka va —yo'g'on savollar ustida ishlash
- Jadval va chizmalar ustida ishlash • G'oyalar savati
- Teskari mantiqiy zanjir va boshqalar.

Anglash bosqichida qo'llaniladigan usullar:

- Axborotlar dominosi • Axborotlarni izlash
- Axborotlarni to'g'ri tanlash • Masalani yechish algoritmini ishlab chiqish
- Yangi axborotni topish va tahlil qilish • —Oltita shlyapa
- —Sinkveyn», «Limerik», «Diamant» tuzish va boshqalar.

Fikrlash bosqichida qo'llaniladigan usullar:

- Rolli o'yinlar • Loyihaviy ishlanmalarni ishlash
- Taqdimot yaratish • Matnni jadval, diagramma shakliga keltirish
- —Bilaman, bilishni istayman, bildim. • —Insert va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni. Tanqidiy fikrlash – bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqni egallashga, sinfdoshlari bilan birga harakatda bo'lishga qaratilgan pedagogik texnologiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J., “Ilg'or pedagogik texnologiyalar” – Toshkent, “Fan” nashriyoti.
2. Ziyonet.uz, eduportal.



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA WEB – DIZAYN VA MASHUP TEXNOLOGIYASI QO’LLASH

Salayev Farhod Karimberganovich
Urganch tumani 31-son maktab o’qituvchisi
Telefon: +998 (91) 919 73 77
farhod.karimberganovich_31@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola internetda web-sayt tuzish, web-dizayn, Mashup texnologiyasi va ularni ta’lim jarayonida qo’llash haqida.

Kalit so’zlar: Web-sayt, web-dizayn, Mashup, internet, portal, texnologiya.

Har bir web-sayt o’zining ma’lumotlar hajmi, tuzilish strukturasi va dizayniga egadir. Bunday saytlarni tuzishda turli usullar mavjud bo’lib ular o’zlarining imkoniyatlari va qulayliklari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Bugungi kunda web – saytlarni tuzish va kontentlarni boshqarishda ikki usulni alohida takidlab o’tish mumkin. Ulardan biri hozirda judayam ommalashgan Portal texnologiyasi, ikkinchi texnologiya bu web – dizayn sohasidagi yangi va ancha istiqbolli Mashup texnologiyadir.

Bugungi kunda web-saytlarni tuzishda ananaviy va keng tarqalgan texnologiya bu - Portal texnologiyasidir. Bu texnologiyaning rivojlanishi uchun juda ko’p izlanishlar amalga oshirilgan. Bu izlanishlar natijasida Portal texnologiyasining keng yoyilishiga erishildi. Shunga qaramay web – sayt yaratishning Portal modeli bir qancha kamchiliklarga ega.

Portal texnologiyasida web-sayt tuzish va uni Internetga joylashtirish uchun ko’p vaqt va mablag’ talab etiladi. Masalan, biror tashkilotning web – saytini tuzish uchun ushbu sohada yetarlicha bilimga ega bo’lgan mutaxassisga murojaat etish kerak. U web – saytni ma’lum muddatda tayyor holatga keltiradi, uni Internetga joylashtiradi, bu orada ancha vaqt, mehnat va mablag’ sarflanadi. Saytni Internetga joylashtirgandan keyin uni boshqaruvchi administrator kerak bo’ladi, buning uchun yangi ishchi kuchi kerak bo’ladi, agar sayt judayam murakkab bo’lsa bu ishlarni bir shaxs emas, balki guruh bo’lib amalga oshiriladi. Bu guruhning har bir a’zosini oylik maosh bilan ta’minlash kerak bo’ladi. Portal texnologiyada tuzilgan web – saytlarni o’zgartirish ham murakkab jarayon hisoblanadi, bundan tashqari ushbu saytdagi ma’lumotlarni yangilab turish zarur. Mana shu kamchiliklarni bartaraf etish uchun Mashup texnologiyasini qo’llash kerak bo’ladi. Xo’sh bu qanday texnologiya? Uning afzalliklari nimadan iborat? Eng avvalo Mashup haqida umumiy ma’lumotlarni bilib olish kerak. Mashup bir qancha manbaalardan ma’lumotlarni bir ilovaga joylashtirish va ularni boshqarishni ta’minlovchi texnologiyadir. Mashupda qo’llaniladigan kontentlar boshqa saytlar va internet xizmatlaridan ochiq interfeys yoki amaliy dasturlash interfeysi - ADI (ingliz tilidan API – Application Programming Interface) orqali olinadi. Shu o’rinda yopiq interfeysdan foydalanish Mashup bo’lmashligini eslatib o’tish joiz. Boshqa usullarda kontentlarni olish web-fidlar ya’ni RSS yoki HTML-sahifa parsing bo’lishi mumkin.

Mashupni tuzish uchun alohida administratorlar talab etilmaydi, uni web – texnologiyalaridan xabari bor oddiy foydalanuvchi ham tuzishi mumkin. Buning uchun mashup dasturiy ta’minoti (masalan, IBM Mashup Center) qo’llaniladi. Ushbu dasturiy ta’minot yordamida foydalanuvchilar o’zi uchun qulay bo’lgan ko’rinish va o’zi uchun kerakli bo’lgan ma’lumotlarni o’zida jamlagan web-sayt tuzishlari mumkin. Agar mashup texnologiyani biznes faoliyatiga joriy etilsa, katta natijalarga erishish mumkin. Mashup texnologiyaning yutuqlarini quyidagilarda ko’rish mumkin:

1. Mashup joriy ilovalardan ko’p marta foydalanish imkonini beradi.
2. Tezkor amaliy ishlov berishni ta’minlaydi.
3. Saytni yaratishga ketadigan vaqt va mehnatni tejaydi.
4. Mashupni hosil qilish axborot texnologiyalari sohasida xususan web -dizayn bo’yicha chuqur bilim va ko’nikma talab etmaydi.
5. Saytni tuzish jarayonida tuzuvchi hech qanday kodlar yozmaydi.
6. Saytni tuzish va unga ishlov berish jarayonida sarflanadigan mablag’ni tejaydi.
7. Mashup – saytlarida yangilash doimiy va qisqa muddatlar ichida amalga oshirib turadi.
8. Har bir saytning takrorlanmas o’ziga xos dizayn va kontentlarga ega bo’lishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. T.X.Xolmatov, N.I.Taylakov, U.A.Nazarov Informatika va xisoblash texnikasi
2. Internet malumotlari



МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ФАНИНИ О`QITISHDA -MAQSAD SARI BIR QADAM.

Sapaev Shixnazar, Raxmanova Gulshod Yusubboy qizi

Xonqa tuman 32-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim–tarbiya berishda kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faolikka olib kelishiga bog'liqligi haqida fikirlar keltirilgan.

Kalit so'z: interfaol, ta'lim, kasbiy, metod, tarbiya, chiziq, o'quvchi, til.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida halqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Yuksak darajadagi aqliy va ijodiy harakatni talab qiladigan “Maqsad sari bir qadam” metodini o'tkazishdan oldin metodni o'tkazuvchi qatnashchilar uchun yetarli darajadagi qulay tashqi muhitni yaratish lozim bo'ladi: ularni qulay joyga o'tqazadi, xonani shamollatadi, sokin musiqadan foydalanadi, g'oyalarning generatorlariga kofe yoki salqin ichimliklar ulashdi va hokazo. Qatnashchilarning aqliy va emotsional holatini ko'tarish uchun o'qituvchi yetarli darajada erkin va demokratik holda auditoriya bilan muomala qiladigan bo'lmog'i lozim. Aqliy toliqishni oladigan psixologik mashqlarni o'tkazish mumkin. Masalan, maxsus bo'limlar talab qilinmaydigan masala yoki vaziyatlarni yechish mumkin.

Ona tili fanidan bitta mashq qo'yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirish mumkin va lozim bo'lgan harakatlarni aniqlashtirishga qaratilgan. Ishtirokchilardan gorizontaal chiziq chizish va unda teng masofada 11 ta nuqta qo'yish va ularni 0 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar bilan belgilab chiqish iltimos qilinadi. Bu chiziq maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. CHap tomondagi nuqta (0) maqsadga umuman erishilmaganligini aks ettiradi, o'ng tomondagi chiziq esa (10) maqsadga butunlay va eng muvaffaqiyatli ravishda erishilganligi vaziyatidan darak beradi. Ishtirokchilardan ushbu har bir ikki nuqtaning oldida eng yomon va eng yaxshi vaziyatni ta'riflaydigan bir necha so'zlarni yozish iltimos qilinadi.

SHundan so'ng ishtirokchilardan hosil bo'lgan shkala yordamida o'zlarining ishdagi ahvollarini – ular maqsadga qanchalik yaqinlashib qolganlarini baholash iltimos qilinadi. Ishtirokchilar tegishli raqamni belgilaydilar va uning yonida ishlarning joriy ahvolini ifodalaydigan bir necha so'zlarni yozadilar. Keyin esa ulardan ularning hozirgi vaziyatini aks ettiradigan nuqtadan navbatdagi nuqtagacha strelka chizish iltimos qilinadi. «Bu maqsadingizga erishish uchun eng qisqa yo'l. Hozircha bu maqsadga to'liq erishib bo'lmas-da, biroq hech bo'lmas bu qadamni amalga oshirish mumkin va kerak. Bu qadamni amalga oshirish uchun siz qanday aniq harakatlarni qilishingiz mumkin va aynan qachon siz buni bajarishingizni o'ylab ko'ring va yozib oling».

Afzalliklari

Ushbu mashq masalalarni aniqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish va unga erishish yo'lidagi qadamlarni tushunishga hamda mulohazalar yuritishdan aniq harakatlarga o'tishga imkon beradi. Ko'pincha odam istayotgan maqsadiga kerakli xususiyatlar va sharoitlarga ega bo'lmaganligi uchun emas, balki maqsad uning uchun juda yirik bo'lib ko'ringanligi va odam unga erishish jarayonini hozirning o'zidayoq qilish mumkin va lozim bo'lgan aniq harakatlarga, bosqichlarga ajrata olmasligi uchun erisholmaydi. Mashq ushbu cheklovni hech bo'lmas qisman bartaraf etishga imkon beradi.

Qiyinchiliklari

Mashqni bajarish uchun kerak bo'lgan vaqtni hisoblab chiqish.

Bu metod yordamida bir vaqtning o'zida o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. G'ulomov, M. Qodirov “Ona tili o'qitish metodikasi”, Toshkent., 2001 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. –b. 57.



**МАТЕМАТИКА VA INFORMATIKA FANLARIDA TA'LIM JARAYONINING
SAMARADORLIGINI KAFOLATLOVCHI ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH**

Seymatova Matluba, Jumamurotova Umida
Xonqa tumani 32-maktabning
matematika va informatika fanlari o'qituvchilari

Annatsiya: Bu maqolada o'quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbir etar olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zi: o'quvchi, Sinkveyn, pedagogik, jamoa, guruh, bosqich, ta'lim.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

“Interaktiv” so'zi qo'shma so'z bo'lib, agar tarjima qilish zarur bo'lsa, unda har bir so'zni tarjima qilish kerak. “Interaktiv” inglizcha “Interactive” so'zidan olingan bo'lib, “o'zaro harakat va ta'sirlanish” degan ma'noni anglatadi.

Sinkveyn (5 qatorli she'r) metodi - o'quvchidan o'rganilgan mavzu yoki ma'lumot haqida o'z fikrini lo'nda va qisqa iboralar yordamida bayon qilishga o'rgatadi.

Sinkveyn (inglizcha cinquain) – 5 qatordan iborat she'rning nomi. SHu bois, “Sinkveyn” metodini o'zbek tilida “**5 qatorli she'r**” deb ham atash mumkin.

Albatta, matematika va informatika fanlaridan tuzilgan sinkveyn to'la qonli 5 qatorli she'r bo'lmaydi. SHunday bo'lsada, bunday she'rlarni yozish qoidasi bu fanlaridan turli tushunchalarni har tomonlama tavsiflashda qo'l keladi. Sinkveyn 5 qatordan iborat bo'lib, uning qatorlari quyidagi qoida asosida yoziladi.

- 1- Qator: she'r (ya'ni mavzu) mazmunini ifodalovchi bitta o'zak so'z (tushuncha).
- 2- Qator: bu tushunchani xarakterlovchi ikkita sifat (2 ta so'z).
- 3- Qator: bu tushunchaning harakati yoki ta'sirini ifodalovchi 3 ta fe'l.
- 4- Qator: sinkveyn tuzuvchining bu tushunchaga bo'lgan munosabatining bir nechta so'z bilan ifodasi.
- 5- Qator: shu tushuncha bilan bog'liq tasavvur, o'xshatish (bitta so'z bilan)

Misol.

O'quvchilar tomonidan yakuniy nazorat darslarida yozilgan sinkveyn (5 qatorli she'r)lardan namunalar keltiramiz.

A) Masala.

Murakkab, mantli.

Taqqoslaydi, tahlil qiladi, tasdiqlaydi.

Masalani yechish uchun uning matematik modelini qurish kerak.

Javob.

B) Funksiya.

Rasional, juft(toq).

O'sadi (kamayadi), aniqlanish sohasi bor, qiymatlar to'plami bor.

Aniqlanish sohasining har bir nuqtasida uzluksiz.

Grafik.

O'quvchilarning jamoasi vazifani bajarib bo'lishgach, guruhlar almalmashtiriladi, ya'ni boshqaruvchi guruhidagi o'quvchilarni ikkita va bitta qilib boshar guruhlarga tarqatadi.

Yangi tuzilgan jamoada har bir guruh vakili tartib bilan o'z bilganlarini boshqalarga tushuntirib beradi. Shundan so'ng o'rganilganlar yuzasidan taqdimot bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1998.

2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1998.

3. Safo O. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: O'qituvchi. 1997.



TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA ALLOMALARIMIZNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Sharipova Manzura Matyazovna

Xorazm viloyati Urganch tumani

2-son umumta'lim maktabning tarbiya fani o'qituvchisi

Sapayeva Iroda Kushnazarovna

Xorazm viloyati Urganch shahri

14-son umumta'lim maktabning tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya, tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati, tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati, allomalarning u haqidagi fikrlari, shaxsni kamol topishida tarbiyaning o'rnini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, alloma, tarbiya jarayoni, o'z-o'zini tarbiyalash, keng manodagi tarbiya, tor ma'nodagi tarbiya, tarbiya turlari, Abdulla Avloniy.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya jarayoni- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Demakki, insonning shaxs bo'lib rivojlanishi, uning odatlari, xulqi qay darajada bo'lishi, dunyoqarashi, ongi his-tuyg'ularini shakllantirish tarbiya jarayonida hosil bo'ladi. Shaxsning jamiyatdagi o'rnini topishi, his-tuyg'u, kechinmalarini yo'nalishi, o'sishi tarbiyaga bog'liq.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsni o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarini hosil qilish, takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarini bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat. Inson hayotidagi har xil illat va nojo'ya holatlar tarbiyadagi xato tufayli kelib chiqadi. Bolalikdan tarbiya to'g'ri yo'naltirilsa bunday “og'ishlar” bo'lmaydi.

Jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o'zgarar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish, ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridandir. Yana insonda e'tiqod, hayotga nisbatan qarashlar, o'zini-o'zi anglashi, keng fikr yuritishi o'zini va boshqalarni fikri, g'oyalari, qarashlarini baholashi ham tarbiyaning muhim unsurlaridan biridir.

Jamoa bilan ishlash, boshqalarga nisbatan hurmat hissini oshirish, insonda hamkorlik tuyg'usini shakllantirish ham tarbiya asosida vujudga keladi. Bizning olam, borliqqa nisbatan qarashlarimiz paydo bo'layotgan g'oyalarimiz negizida ham aynan shu tarbiya tamoyillari yotadi.

Tarbiya pedagogikaning ham asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Pedagogikada tarbiya ikki ma'noda farqlanadi: keng ma'nodagi tarbiya va tor ma'nodagi tarbiya.

Keng ma'noda tarbiya- shaxsning jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Ya'ni, shaxsning jamiyat talablariga javob berishiga va jamiyatning ta'siri natijasida shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiya.

Tor ma'nodagi tarbiya- pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati hisoblanadi. Bunda, tarbiya ma'lum bir ta'limni o'rganish maqsadida tashkil etiladi va pedagog va o'quvchining faoliyat jarayoni tushuniladi.

Bundan bilinadiki, jamiyat uchun komil, ilmiy, yetuk, barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir tarbiyaning maqsadi. Shaxsni kamol toptirishdagi asosiy tushuncha ham bu tarbiyadir.

Shaxsni jamiyat talabidan kelib chiqib shakllantirishni tarbiya desak, tarbiya ham sohasiga ko'ra turlarga bo'linadi. Aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya. Ta'lim muassasasidagi yo'nalishlarga asosan ekologik, iqtisodiy, huquqiy, fuqarolik, siyosiy, axloqiy tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

-jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanish hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

-jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson



kapitalini” tayyorlash;

-madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta`minlash;

-ma`lum jins yoshi va ijtimoiy kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a`zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya xalqimiz uchun abadiy yo`qolmaydigan qadimiy tushuncha hisoblanadi. Axloq, ta`lim, odob, tarbiya kabi tuyg`u-tushunchalar qonimizga singib ketgan qadriyatimizdir. Qadimdan tarbiya, maktab, ta`lim sohasiga jiddiy e`tibor qaratishgan. Buyuk adiblarimiz Alisher Navoiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurahmon Jomiy, Abu Ali ibn Sinolarning asarlarida ham bu qashlar o`z ifodasini topgan. Millatimizning madaniyati qanchalik boy ekanligini ham shundan bilib olsak bo`ladi. Ma`rifatparvarlardan biri, Abdulla Avloniy ta`lim va tarbiya, maktab ochish, yoshlarni bilimli ma`naviyatli qilib tarbiyalash haqida qator ishlarni olib boradi. Ko`plab asarlarini ta`lim olish, bilim va tarbiyaning mazmuni va mohiyatini yoritib bergan holda, insonlarni ta`lim, tarbiya olishga undash, pand-nasihath shaklida yozadi. Ayniqsa, tarbiya haqida bildirgan fikrlari hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmasdan, biz uchun kerakli bo`lgan ko`nikmalarni o`zida saqlab qolgan. Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kundagi maktablarning yaratilish asosiga beqiyos hissa qo`shgan. Ma`rifatparvar adibning milliy qadriyatlarimizni kuylagan asarlari o`zbek adabiyoting bebaho xazinasidir. Bu asarlarda milliy ruh, ilm-ma`rifat tushunchalari ilgari surilgan. O`z davrida bu asarlar yoshlarni fikr doirasini kengaytiribgina qolmay, ularni mehnatga, kitobga, maktabga, Vatanga bo`lgan muhabbatini oshirishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy bolalarning tarbiya topishida, ularning qalbida axloqiy, ma`naviy barkamollikni o`stirishda asosiy kuch maktab ekanligini ta`kidlab o`tadi.

“Tarbiyani tug`ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim”. Bundan kelib chiqadiki, tarbiya berish ishini bola tug`ilgandan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarbiya fani darsliklari.
2. www.tadqiqot.uz



SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH VA ULARNI QIZIQTIRISH

Sharipova Shohista Islomovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
5- umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning sinfdan tashqari jamoat ishlarida qatnashish, tadbir va fan bayramlarini to'g'ri tashkil etish va ularda o'quvchilarning faolligini oshirish haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy tadbirlar, Milliy bayramlar.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari o'qitishda bolalarning sinfdan tashqari ishlarini qatnashuvini tizimli tashkil etish va bolalarning qobiliyati bo'yicha yo'naltirish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldidagi vazifasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o'quvchi kundalik hayotining namoyon bo'lishidir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini ustirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilar hayoti bilan ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2-sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8-mart, Navro'z bayrami, gullar bayrami kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqodni tarbiyalash ishlari bilan bog'liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo'lib milliy qadriyatlar namunalari hisoblanadi.

O'qituvchi tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim:

- tarbiyaviy tadbir aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;
- tarbiyaviy tadbir o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- har bir tarbiyaviy tadbir darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi

axloqiy sifatlar tarbiyalanib borilishi darkor.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish;
2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish;
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchalarini ishtirok etishini ta'minlash;
4. O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash;
5. Tadbirni amalga oshirish;
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim.

Milliy bayramlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-vatanga, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini tarbiyalaydi. Bu kabi tarbiyaviy ishlarning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlarini mustahkamlanadi, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Milliy bayramlarni ham nisholash bolalarda o'zlarining fikr qobiliyati va dunyoqarashini oshirish, ularda milliy o'zligimizga bo'lgan hurmat, o'zlikni anglash, vatanni sevish kabi tushunchalar shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol insonlar etib tarbiyalashning muhim shakllaridan biri



– bu milliy xalq o‘yinlaridir. Maktab sharoitida o‘yinlarni tashkil qilish bolalarni yanada maktabga yaqinlashtiradi, ular o‘zlarining sevimli mashg‘uloti ya’ni o‘yinlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Shu bilan birga, o‘yin o‘ynash orqali o‘quvchilarda dars jarayonida hosil bo‘lgan zerikish va toliqish holatlarining oldi olinadi. Bizga ma’lumki, ushbu yoshdagi bolalarning diqqati bekaror bo‘ladi, tez-tez qaytariladigan o‘yinlar ham ularning zerikishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, boshlang‘ich sinflarda tadbirlar o‘tqazish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga olib keladi. Bu esa, o‘qituvchidan kata bilm, mahorat va ko‘nikma ta’lab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari.-T.: O‘qituvchi, 1995.-52 b.
2. Donishmandlar odob-axloq to‘g‘risida.- T.: O‘qituvchi, 1986.- 134 b.
3. Javliyev T. An‘analar hayot sabog‘i.- T.: O‘qituvchi, 1992.- 87 b.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti.- T.: O‘qituvchi, 1994.- 256 b.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QISH DARSLARIDA ASARNI O‘RGANISH JARAYONI VA MAZMUNI

Shomuratova Olmajon Atajanovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 24- sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Tel:+998990956002

Raximova Intizor Aminovna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi 22- sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Tel:+998995403173

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘qish darslarining maqsadi va o‘qish darslarida adabiy asarlarni tahlil qilish usullari, tahlil uyushtirish jarayonlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchining ma‘naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik did, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur, matn bilan ishlash, asar tahlili.

Pedagogik nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asarni o‘rganish jarayonining mazmuni va tuzilishi ko‘p jihatdan fanni o‘qitishning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. O‘qish darslarining maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalari o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma‘naviyati, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O‘quvchining estetik zavqi va didini shakllantirishda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi. Chunki badiiy asarni o‘qir ekanmiz, undagi voqealarga, personajlarga befarq qaray olmaymiz. Badiiy asarlar ta‘sirida tug‘ilgan mana shunday tuyg‘ular estetik tuyg‘u deyiladi. Estetik tuyg‘u bizda yaxshi fazilatlarni parvarish qilib, har qanday yomonlik va razolatga qarshi nafrat, chinakam go‘zallikka nisbatan muhabbat hissini uyg‘otadi. Shu asosga ko‘ra, yosh kitobxonlar nazarida ijodkor - sehgardir. Ko‘rinadiki, o‘qish jarayonida badiiy kitob bilan qanday ishlashni biladigan malakali o‘quvchini shakllantirish ham o‘qish darslarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘qish darslarida quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

1. To‘g‘ri va ongli o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;
2. Badiiy asarlar va matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. O‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
4. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

“O‘qish” darsligidagi asarlar o‘quvchining badiiy matnni idrok etish xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlangan. Psixolog olimlarning fikriga tayansak: “Asarni to‘la-to‘kis idrok etish faqatgina uni anglash bilan cheklanmaydi. Bu unda tasvirlangan voqelik asosida munosabatlarning paydo bo‘lishiga asoslangan aniq jarayonni o‘z ichiga oladi”. Demak, badiiy asarni o‘rganish jarayoni adabiy matnning badiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi kerak. Jumladan, adabiy asarning badiiy xususiyatlari: janr xususiyatlari, asar mavzusi, asar g‘oyasi, asarning majoziy tizimi, badiiy obrazlarni yaratish vositalari, matnning syujeti va tarkibi hamda uning til xususiyatlaridir.

Adabiy asarni o‘rganish jarayonining tuzilishi va tarkibiy xususiyatlari bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi.

- matnni idrok qilish(muallif, uning ijodi, asarning yaratilish tarixi, asosiy voqealar va boshqalar haqida);

- matnda keltirilgan asosiy tushunchalarning ma‘nosini izohlash;

- matnni idrok etish uchun hissiy tayyorgarlikni ta‘minlash, bolalarni tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, ifodali o‘qish hamda fikrni yozma bayon qilish, ijobiy motivatsion asosni yaratish;

- bolaning o‘qish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday paytlarda bolalarning hayotiy tajribasi asosida o‘qituvchining tasvirlagan



hikoyasi(muallif portreti bilan), fotosuratlar, illyustratsiyalar kabi vositalar asosida suhbatlar uyushtirish mumkin. Masalan, 2- sinflarda G‘ani Abdullayevning “Zilol suv” hikoyasi berilgan bo‘lib, asar tahlilida asarning tashqi belgilar bo‘yicha - sarlavhasi, muallifning ismi, familiyasi, kalit so‘zlari, rasmlar va boshqalar asosida suhbat uyushtiriladi. Matnni tahlil qilishda matn mavzusini syujet hamda kompozitsiyaga(fikrni aniqlashtirish uchun) asosan tushuntirish zarur. Suhbat matnga asoslangan bo‘lishi va tahlil matn orqali amalga oshirilishini talab qilish kerak. Matnlar tahlili jarayonida quyidagi savollarni berish mumkin:

- Matn uchun rasmni ko‘rib chiqing. U qaysi qismga mos keladi?
- Muallif qahramon portretini qanday tasvirlaydi? Toping va o‘qing ...
- Ta’rif berishda muallif qaysi so‘zni tanladi?
- Matnda nechta qismni ajratib ko‘rsatish mumkin? 1- qismini toping va o‘qing.

Bundan tashqari matnni tahlil qilishda turli savol va topshiriqlardan ham foydalaniladi.

Matnni tahlil qilish jarayonida quyidagi ish usullarini ham qo‘llash mumkin:

leksik mashqlar, matnni tasvirlash, reja tuzish(hikoya, savol, rasm va boshqalar).

“Zilol suv” hikoyasi tahlilida quyidagi savollarni berish mumkin:

Hikoya qahramonlarini nomma-nom ayting.

Siz Tohirning o‘rnida bo‘lsangiz, nima qilar edingiz.

Suvni asrash uchun nima qilish kerak?

Xulosa qilib aytganda, o‘qish darslarida asarni o‘rganish jarayoni va mazmuni o‘qituvchidan mahorat va mas’uliyat talab etadi. Darslarning bunday tashkil etilishi o‘quvchilarda badiiy asarlar va matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti.-T.: “O‘qituvchi”, 1994.
2. Matjon S. Kitob o‘qishni bilasizmi?-T.: “O‘qituvchi”, 1993.
3. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar(O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma).-T.: “O‘qituvchi”, 1996.
4. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.O‘qituvchi, 1996.



**O'RTA MAKTABLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDOSHUV**

Shomurotov Murodjon Sharipboyevich

Gurlan tumani 22-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (93) 469 15 15

shomurotov.murodjon_22@inbox.uz

Maxmudova Shohnoza Ikromovna

Qo'shko'pir tumani 29-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (91) 912 85 51

maxmudovashohnoza_29@inbox.uz

Annotatsiya-Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning erkin fikrlashi, nutqiy teranliklari, hozirjavobliklari, til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, darslarda faol qatnashishlari uchun o'qituvchi muallimlar tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar-Innovatsiya, grammatik struktura, leksik birlik, fonetik o'zgarishlar, boshlang'ich ta'lim.

Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lim maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli barcha sohalarida eng kerakli til sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davrlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq.

Kichik yoshli bolalarda til o'rganishga bo'lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko'rstikichlarni ko'rsatmoqda. Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan johzlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta'minlanganligi, maktab drslaridan tashqari mustaqil shug'illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordiz. 1 va 2- sinf o'quvchilari tildagi grammatik, leksik, fonetik, birliklarni tushunmasliklari mumkin ammo multfilmlar, o'yinlar, rasmlar orqali tilni a'lo darajada o'zlashtirishlari mumkin. Shunga ko'ra grammatikada asosan ikki xil usuldan unumli foydalaniladi

- Inductive
- Deductive

Induktiv usulda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi. Deduktiv usulda avval ma'lum o'yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so'ngra qoidaga bog'lab tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ega, kesim, fe'l va boshqa birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli ularga o'yinlar qo'shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq. Masalan Can –ingliz tilida “qila olmoq” modal fe'li bo'lib qo'shiqlar handout materiallar orqali o'rgatiladi.

- Can you play football
- Can you phone call
- It is very easy
- Can you do it Nansy?

Psixologlar fikriga ko'ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan. Kundalik hayotimizda ham bajara



ololmaydigan vazifalarni ham bolalar ogohlantirishlarga qaramasdan bajarib ko'rishga harakat qilishadi. Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan'anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o'rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to'liq yarata olish talab etiladi.

Shunday ekan ustoz-muallimlar interfaol, innovatsion va qiziqarli usullardan foydalanib darslarni tashkil etishlari lozim. O'quvchilar bilan individual tartibda, guruhlarda va juftliklarda ishlashlarini joriy etishi turli musobaqalar ko'rinishida o'yinlar tarzida, rang-barang ko'rgazmali qurollardan foydalanilgan holda dars o'tishlari va har bir darsga albatta alohida tayyorgarlik ko'rib kelishlari talab etiladi. Bunday tipdagi darslaro tilga bo'lgan mehri, ishtiyoqni oshiradi, nofaol o'quvchilarni faollashtiradi, o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakillantiradi. Raqobat esa yuksalishning poydevori.

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak. Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi

- Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish
- Auditory learning -eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish
- Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish

Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda, o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Iriskulov A. T. va boshqalar Kids' English pupil's book 2-sinf-Toshkent- O'zbekiston; 2014.
2. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi-Toshkent-2003-yil.



**FIZIKA FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANIB O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

Khajiev Akmal Erkabayevich

Xorazm viloyati Urganch tumani
24-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Fizika fani o'qituvchisi

Xajiyev Marimboy Sattarovich

10-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola o'quv jarayoni ishtirokchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan, fizikani o'qitish amaliyotida ularni hal qilishning mumkin bo'lgan usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: fizika ijodkorlik, qobilyat, maktab fizika kursi ilmiy tadqiqot

Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart sharoitlarni ta'minlash mumkin; o'quv jarayonida usullardan foydalanish, faollik va mustaqillik (bu muammoni hal qilishda muammoli ta'lim alohida rol o'ynaydi); tadqiqot elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarning o'quv faoliyatining turli turlari; sinfdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ixtiro bilan tanishish; ijodiy xarakterdagi individual o'quv vazifalarini tashkil etish. Ta'lim jarayoning bunday tashkil etilishi bilan o'quvchi ijodiy tamoyillarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan turli tadbirlarga jalb qilinadi:

1. Tadqiqot faoliyati. Ilmiy - tadqiqot faoliyati deganda o'quvchilarning yechimi no'malum bo'lgan ijodiy, tadqiqot muammosini oldindan ko'rib chiqish bilan bo'g'liq bo'lgan va asosiy bosqichlarning mavjudligini o'z ichiga olgan faoliyati tushuniladi: muammoni qo'yish, ushbu masalaga bag'ishlangan nazariyani o'rganish, tadqiqot usullarini tanlash va ularni amaliy o'zlashtirish, materialini to'plash, uni tahlil qilish va umumlash, o'z xulosalarini aytish. Bunday faoliyatning natijasi ijodiy loyihalar bo'lishi mumkin. Insholar, maruzalar va taqdimotlarni tayyorlash jarayonida talabalar qidiruv faoliyati orqali o'z- o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar, turli manbalar bilan ishlashning xususiyatlari, tahlil qilish, o'z ishlarini yaratish, shu jumladan maqsad va vazifalarni belgilash qobilyatiga ega bo'ladilar.

2. Ijodiy topshiriqlarni yechish va tuzatish. Fizika darslarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda masalalar yechish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, vazifalar uchun ijodkorlik talab qilinadigan masalalar tanlab olinadi. Muammolarni bir necha usulda hal qilish, ulardan ulardan eng oqilonasini tanlash juda samarali. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sifatli vazifalar tanlanadi.

3. “Folklor” faoliyati. Badiiy asarlardan parchalar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. O'qituvchi adabiy parchani o'qiydi va quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi. Ko'rib chiqayotgan jismoniy hodisalarni aniqlash; parchada tasvirlangan hodisalarning o'ziga xos belgilari va yuzaga kelish shartlarini ko'rsatish va ularni tushuntirish. Sharoit o'zgarsa, hodisalar qanday davom etadi: parchani qayta ishlang yoki davom ettiring... Vazifa turlaridan biri- bu obyekt yoki hodisa haqidagi asosiy jismoniy ma'lumotlarni “to'qish” kerak bo'lgan qisqa ertak yoki hikoya yozish. Ertak hikoyalar yozishda ijodiy tasavvurning rivojlanishi sodir bo'ladi. Topshiriqni olgach, o'quvchilar fizika bo'yicha ilgari to'plangan bilimlarni tahlil qiladilar va tizimlashtiradilar.

4. Dizayn faoliyati. Umumta'lim maktabi sharoitida turli to'garaklar va qiziqish to'garaklarining sinflarida loyihalash faoliyati ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning yana bir samarali usuli bo'lib, yosh shaxsni kelajak hayotiga tayyorlaydi. Shunday qilib, fizika- texnika to'garagi darslarida o'quvchilar nazariy jihatdan ishlab chiqish va o'quv jihozlarining yangi modellarini ishlab chiqarishda ishtirok etishlari mumkin. Bunday ish dizayn qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'z qo'llari bilan ishlash qobiliyatini yaxshilaydi, eng maqul yechimni topish, to'siqlarni ijodiy yengib o'tish uchun sharoit yaratadi.

Eng oddiy tadqiqotlar, tajribalar va kuztishlar o'z-o'zidan maqsad emas, ular fizik qonunlarni chuqurroq tahlil qilish, fizik hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Bunday ijodiy topshiriqlar fizika kursini sifatli o'zlashtirishga, nazariy bilimlarni amaliyotda



qo'llash ko'nikmasini shakillantirishga qaratilgan. Innovatsion ta'lim o'quvchidan ta'lim jarayonining emas, balki subyekti bo'lishini, o'zini qiziqtirgan har qanday savolini bera olishini va unga mustaqil javob topa olishini talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi, individual xususiyatlarini bilgan holda, har qanday oddiy savoldan ijodiy vazifalarni vazifalarni qurishda foydalanishga harakat qilshi kerak. Uni hal qilish jarayonida har bir o'quvchining istedodi va qobiliyatini kashf qilasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmatov I.I. Raxmatova N Haydarova M. O'rta maktabda fizika darslarini o'qitishda ekologik tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari“Fizikaning hozirgi zamon ta'limidagi o'rni”. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari.Samarqand. 2019. 13-14 dekabr.-B.124-126.

2. Рахматова Х.,Хайдарова М. Экологическое образование и воспитание на уроках физики в средней школе. International scientific conference «Global science and innovations 2019: Central Asia». Nur-Sultan. Kazakhstan. December 10-12th 2019. pp.72-741

3. Рахматов И.И. Каххоров С.К.,Мухаммедов Ш.М Особенности построения образовательного процесса на основе модульных технологий обучения в Узбекистане. Вестник науки и образования №18 (96) Москва 2020 год часть 2, стр 33-37



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI KAFOLATLOVCHI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.

Xalliyeva Lobar, Yusupova Oqila

Xonqa tumani 32-maktabning geografiya o'qituvchilari.

Annotatsiya: Bu maqolada shiddatli axboratlashuv jarayoni amalga oshib borayotgan hozirgi davrda har bir soha kishisi zamon bilan hamnafas ravishda geografiya fanida ham innovatsion texnologiyalarga, innovatsion vositalarga murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda.

Kalit so'z: geografiya, innovatsiya, masofaviy ta'lim, internet, online video.

O'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk ma'naviyatli, bilimli, malakali kadr etib tarbiyalash har bir pedagogning asosiy vazifasidir va bu ishlarni biz ham munosib ravishda amalga oshirilishiga o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

Impuls – plakat metodi. Har bir ishtirokchi uchun vatman varaqlari va markerlar kerak bo'ladi.

1. Stollarning ustiga oxirigacha yetkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo'yilgan: «Ushbu mavzuda meni hammasidan ko'proq qiziqtiradi», «Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki,», «Men orttirgan bilimlarimni qo'llayman», «Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida men.... erishdim», «Men to'g'risida ko'proq bilib olmoqchi edim», «Men uchun murakkab bo'ldi», «Mengayoqdi».

2. Iloji bo'lsa, mashq jarayonida xotirjam, past ovozda musiqa yangrab tursin.

3. Ishtirokchilarga barcha plakatlarni aylanib va ko'rib chiqib, boshlab qo'yilgan fikrlar ustida o'ylab ko'rish va shu plakatlarining o'zida davom ettirib oxirigacha yetkazish taklif etiladi.

4. Taxminan 15 daqiqadan so'ng plakatlar ilib ko'yiladi. Fikrlar eshittirib o'qiladi, kerak bo'lsa aniqlashtiruvchi savollar beriladi. Ishtirokchilar o'z fikrlarining ostiga ismlarini yozish yoki anonim bo'lib qolishni o'zlari hal qiladilar.

Afzalliklari - Anonimlik o'quvchilar boshqa vaziyatda sukut saqlashni afzal ko'rib aytmagan fikrlarini bayon etishga yordam beradi. Bu mashqda bayon etilgan umidlar va istaklar o'qituvchiga kelgusida mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'tkazish vaqtida o'z harakatlarini to'g'rilashga imkon beradi.

Qiyinchiliklari- Agar o'quvchilardan ularning qiziqishlari va qiyinchiliklari to'g'risida so'rab, lekin kelgusida bu ma'lumotlarni e'tiborga olmasangiz, ular o'zlarini qandaydir so'roq qilingan, biroq jiddiy qabul qilinmagan odamlardek sezishlari mumkin.

Ha-yo'q mashqi O'qituvchi bir nima (raqam, predmet, adabiy yoki tarixiy qahramon va sh.o'.) ni o'ylab qo'yadi.

O'quvchilar esa unga savol berib, u nimani o'ylab qo'yganligini topishga harakat qiladilar. O'qituvchi ularning savollariga faqat “Ha”, “Yo'q”, “Ham ha, ham yo'q” so'zlari bilan javob beradi.

Savol nojo'ya berilgan yoki o'qituvchi didaktika maqsadlaridan kelib chiqib, savolga javob berishni xohlamaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. SHunda u oldindan belgilangan ishora bilan javob berishdan voz kechadi.

Mashq yakunlanganidan so'ng albatta qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqa muhokama o'tkazish shart.

Mashqning maqsadi – bolalarni savollarni tartibsiz berishga urintirmasmasdan, ularni izlash strategiyasini ishlab chiqishga o'rgatishdan iboratdir.

Afzalliklari - O'quvchilarda faol bilim olish nuqtai nazarini mustahkamlaydi va quyidagilarga o'rgatadi:

- tarqoq holatdagi faktlarni yagona bir shaklga bog'lash;
- mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tizimlashtirish;
- o'quvchilarni tinglash va fikrlarini e'tiborga olish.

Qiyinchiliklari- barcha o'quvchilarni ham dars jarayoniga jalb qila olmaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. -T.: “Fan”. 2005.
2. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.:2001.
3. www. ziyonet.uz



RUS TILI FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARINING MA'NAVIY VA INTELLEKTUAL SALOHİYATINI KENGAYTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

Xolmirzayeva Gulsora Begmirza qizi
Marimov Muminjon Aminovich

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi
18- maktabning rus-tili fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Ush bu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalanilinish haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Kalit so'z: ta'lim, tarbiya, tizim, spiker, bosqich, topshiriq, fikr, maqsad.

Ma'lumki, rus tili ta'limi o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda rus tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Faoliyat yondashuvini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumiy ta'lim maqsadlari o'quvchilar o'rganish natijasida hal qila olishlari kerak bo'lgan asosiy vazifalar tizimi shaklida taqdim etiladi. Asosiy vazifalar shaxs xususiyatlarini shakllantirish yo'nalishlarini aks ettiradi (maqsadlarning bunday tuzilishi nafaqat ta'lim jarayonida shakllanishi kerak bo'lgan harakat usullarini, balki o'qitish mazmunini ham asoslash imkonini beradi). Ushbu yondashuv bilan o'quv predmeti ma'lum bir fan sohasiga xos bo'lgan muhim bilimlar, muhim xususiyatlar va munosabatlar tizimi sifatida quriladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar va harakat usullarida ifodalangan ta'lim va tarbiyaning asosiy natijalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim mazmunini tanlash va tizimlashtirish uchun asos bo'lishi kerak.

“Merganlar o'yini”- bu usuldan umumlashtiruvchi darslarda yoki yangi mavzularni o'rganishda, ahamiyati haqida so'rov o'tkazishda ishlatiladi. Ishbu usulni qo'llashda quyidagicha ko'rgazma yasaladi. Katta plakatga quyidagi rasm chiziladi (1-rasm) va bu rasmdagi so'z turkumlari o'tiladigan mavzuga qarab nishonga olinadi. M: otlar nishonga tushsa shu ot haqida ma'lumot beradi. Agar nishonga otadigan o'q bo'lmasa, raqamlangan kichkina qirqilgan qog'ozlarni yopiq holda qo'yib, nomer tanlab olinib shu so'z turkumining nomi aytiladi va qisqacha ma'lumot beradi.



1-rasm.

Binar ma'ruza. “Binar”so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “qo'sh”, “ikki” degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi

ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi o'quv ma'lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtai-nazarlarini



taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A “O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida”: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T – "O`zbekiston."
2. 1997-326 b.
3. Karimov.I.A "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent- " Sharq" 1997y
4. Yo'ldashev J. G, Usmonov S .A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy kilish." T., “Fan va texnologiya”. 2008 – 132 b.



TARIX FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USHLUBLARI

Xolmirzayeva Odina Soliqulovna

Beshariq tumani 32-umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi

Rahimova Muqaddam Jamoliddinovna

Beshariq tumani 35-umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi

***Annatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini o'qitish metodikasi, fanining mazmun-mohiyatini o'quvchi yoshlarga yetkazish, fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'quvchilar bilimini oshirish, fanning sir-asrorlarini o'quvchilar ongiga singdirish bo'yicha o'qitishning texnologiyalashtirish qoidalari, usul, vositalaridan foydalanishning ta'lim texnologiyasi keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tarix, ilmiy tafakkuri, ilmiy pedagogik, o'qitish uslubiyati, ma'naviy barkamol.*

O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchilarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O'zbekiston tarixi o'qituvchilarining milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir.

Maktablarda O'zbekiston tarixini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bog'liqdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'analariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat. Tarix fani ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix fanining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarix fani o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. O'rta ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish o'rta ta'lim tizimida tarix fanini o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir.

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix fanini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Usmonov. O'zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T.: — O'qituvchi. 2005.

2. J. Rahimov O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T. O'qituvchi. 1995

3. T. Rahmatullayev. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda arxeologiya materiallaridan foydalanish T. O'qituvchi. 1994.



**МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Xolmuratov Alisher Kodirberganovich

Urganch tumani 46-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (94) 344 88 87

alisher.kodirberganovich_46@inbox.uz

Nurjanova Erkinoy Muqanovna

Urganch tumani 46-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (94) 039 32 30

nurjanovaerkinoy_46@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Matematikaga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar va masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, pedagogik texnologiya, Didaktik o'yin, Auksion dars.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markazida, o'quvchi shaxsining mustaqil tafakkurlay olishga o'rgatish masalasi turadi. zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati va ilm olishga bo'lgan havasini oshiruvchi muhim turtki bo'ladi, desak xato bo'lmaydi. o'quvchi darsda faqat tinglovchi bo'lib qolmasdan, o'z shaxsiy fikrlari bilan ishtirok etadi, ma'lum mustaqil xulosalar chiqaradi. unda an'anaviy darsdagi kabi o'qituvchi emas, balki o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. chunki endilikda pedagoglarimiz juda yaxshi bilishadiki, ilmga chanqoq va qiziquvchan bu yoshlarning talabini shunchaki oddiy ma'lumotlar bilan qondirib bo'lmaydi.

Matematika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop oyinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. o'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarini atrof muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. o'quvchining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi.

Didaktik o'yin. Auksion

Ta'limiy maqsad: O'nli kasrni natural songa, o'nli kasrni o'nli kasrga ko'paytirish, o'nli kasrlarni 10 ga, 100 ga, ... ko'paytirish qoidalarini bilish

Jihoz : ko'rgazmali qurollar, ballar yozilgan kartochkalar, sovgalar uchun o'quv qurollari, bong uradigan bolg'acha

O'yinning mazmuni: o'qituvchi bong urib, auksion darsi boshlanganini e'lon qiladi, o'quvchilarga savol berib, uning boshlang'ich balini e'lon qiladi.

Masalan:

Savol: O'li kasr deb nimaga aytiladi?

1-bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi javob beradi.

O'nli kasr deb, maxrajini 10 ning darajalaridan iborat bo'lgan kasrga aytiladi. (100 ball)

Keyin qo'l ko'targan o'quvchilar berilgan savol yuzasidan ma'lumotlar bera boshlaydilar.

O'nli kasrlar vergul bilan ajratilib yoziladi (200 ball)

Surati maxrajidan kichik bo'lgan kasrlarning o'nli yozuvida butun qismiga nol yoziladi (300 ball)

Savol: o'nli kasrni o'nli kasrga ko'paytirish qoidasini ayting? kim ochdi 100 ball

Yana 1-qo'l ko'targan o'quvchi javob beradi.

O'nli kasrni o'nli kasrga ko'paytirish uchun ularni vergullariga e'tibor bermasdan ko'paytiriladi (100 ball)

Keyingi o'quvchi ko'paytuvchilarda verguldan keyin nechta raqam bo'lsa, ko'paytmadan ham shuncha raqam o'ngdan chapga qarab ajratilib vergul qo'yiladi. (200 ball)

O'nli kasrni 10 ga ko'paytirishda o'nli kasrni natural songa ko'paytirishda ham vergulga e'tibor bermay natural sonlarni ko'paytirgandek ko'paytiriladi. (200 ball)

Savol-javoblar shu tarzda davom etadi, so'ng doskaga bir tomoniga misollar va bir tomoniga misollarning qiyinlik darajasiga mos ballar yozilgan kartochkalar qo'yiladi. o'quvchilar



ballanlashadi va misollarni ishlashadi. o'yin ishtirokchilarining to'playotgan ballari hisoblab boriladi. Oyin shu tarzda davom etadi. dars oxirida o'quvchilarning to'plagan ballari e'lon qilinadi va ballga mos keluvchi sovg'alalar bilan rag'batlantiriladi. shu tariqa auksion darsiga yakun yasaladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarini yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi. o'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. zero, barkamol avlod tarbiyasi jamiyat madaniy- ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALAR YECHISHNING
AHAMIYATI VA ULARGA QO'YILAIGAN TALABLAR**

Sharipova Zamira Bozarbayevna
Abdusharipova Manzura
Urganchshahar 18-maktab o'qituvchisi
Telefon: +998912776535
zsharipova1985@umil.uz

Annotatsiya: *Bu maqolada o'quvchilarning matematik masalalar va ularning yechilishi haqida. Bunda biz ko'proq misol va masalalardan foydalanamiz.*

Kalit so'zlar: masallar yechish, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash.

Matematik masalalar echish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar echmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar echishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar echishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani echish bilan amalga oshadi.

Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni echish uchun zarur, bo'ladigan bilimlar malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Buning uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o'qishni so'ngra esa tovush chiqarib ifodali o'qishni taklif qilish kerak.

Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni echishdan murakkablarni echishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishga doir har xil sodda masalalar ya'ni bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga karrali va teng bo'laklarga bo'lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish va kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma'lum komponentlarni topishga doir sodda masalalar shuningdek turli murakkab masalalar shu jumladan keltirib echiladigan masalalar, ikki ko'paytuvchining yig'indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig'indisini so'ngra ko'paytirish bo'lishga keltiradigan va boshqa masalalarni ko'rib chiqamiz. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida masala shartini qisqa va yaqqol yozib olishlari, echish yo'llari topishni osonlashtirish maqsadida shartini chizma yoki rasm bilan" tasvirlay olishlari kerak. O'quvchilar echilayotgan masalada nima ma'lum nima noma'lumligini masala shartidan nima kelib chiqishini qanday arifmetik amallar yordamida qanday tartibda masala savoliga javob topish mumkinligini aniq va ravshan tushuntirishga o'rganishlari kerak. O'quvchilar har bir amalni nega tanlaganliklarini anglay olishlari masala bo'yicha ifoda yoki tenglama tuzib olishlari uni echa olishlari, savolga javob berib, echimning to'g'riligini tekshirib olishlari lozim. O'n ichida bajariladigan sodda masalalar echishini o'qitish metodikasi bo'yicha mashq qildirish sodda masalalarni echishda ko'rgazmali qo'llanmalarni qo'llashda ba'zi o'quv va malakalarini egalashadi. 2-sinfda masalalar ustida ishlash asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilar masalani echishiga zarur malakalarni egallashlari uchun turli hayotiy hollarda berilgan va izlanayotganlar orasidagi ma'lum bog'lanishlarni tushungan holda topishga o'rgatish kerak...

O'quvchilarda ikkinchi sinfda birinchi sinfdagi kabi yangi masalalar bilan tanishtirishda yoki murakkab masalarni echishda to'la pridmet ko'rsatmalikda sekin -asta to'liq bo'lmagan ko'rsatmalikka o'tiladi. Masala sharti murakkab berilganlar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish qiyin bo'lganda shuningdek yangi tipdagi masalalarni echishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sodda masalani echishda amal tanlash masalasiga to'xtalib o'tamiz. Bu malaka 1-sinfda shakllantirib boriladi, o'quvchilarning 2-yilda shakllantirish yana davom ettiriladi. Sodda masalalarni arifmetik, arifmetik ham algebrlik usul bilan echish mumkin. Sodda masala arifmetik usul bilan echilganda ifoda tuzib uning qiymati topiladi. Masalan: Ahmad bir kuni



kitobning 15 betini o`qidi, 2-kuni esa birinchi kuniga qaraganda ikki marta ko`p o`qidi. Ahmad ikkinchi kuni kitobning necha betini o`qidi. Masalani echilishini bunday yozish mumkin: $15 \cdot 2 = 30$ (bet).

Javob: Ahmad ikkinchi kuni 30 bet kitob o`qigan. Masala echimini tekshirish to`g`ri yoki notug`riligini aniqlashdan iboratdir. Boshlang`ich sinflarda tekshirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi. Masalalarning shartlari bilan topilgan javoblar orasida moslik o`rnatish. Bu usul bilan o`quvchilarni birinchi sinfdan boshlab tanishtiriladi, shu usul 2-sinfda davom ettiriladi. Masalan: Vali 12 ta baliq Ahmad esa unga qaraganda 2 marta kam baliq tutdi: ikkalasi birgalikda qancha baliq tutishgan. Echish: $12 + 12 : 2 = 12 + 6 = 18$ ta (baliq).

Tekshirish: masalaning shartiga ko`ra Vali Ahmadga qaraganda 2 marta ko`p baliq tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va faro`on demokratik O`zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz” –T.: “O`zbekiston” 2016-y -56-b.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”. –T.: “O`zbekiston” 2017 y. -104-b.
3. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo`llanma.)Toshkent. —SHarqirll 2005 yil.,



**GEOGRAFIYA FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARINING ROLI.**

Zaripova Zebiniso

Urganch tumani 48-son maktab

Jumaboyeva Zuxra Komiljanovna

Urganch tumani 19-son maktab

Geografiya fani o`qituvchilari

Annatsiya: Ushbu maqolada maktabda o`quvchilarning geografiya faniga bo`lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishda o`qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`z: pedagog, o`qish, bilim, malaka, ko`nikma, fikr, ta`lim, ijtimoiy.


Ta`limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o`quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko`nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o`quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg`ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o`quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta`lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko`rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatishdan iboratdir. Buning uchun uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

“Bilimlar uyi” Bu usuldan dars mavzusini mustahkamlashda va guruhlar nomini tez va shovqinsiz tanlashda foydalaniladi. Ushbu usulni qo`llashda quyidagicha ko`rgazma tayyorlanadi. (1-rasm) A-4 formatli qog`oz olinib orqasiga qattiqroq qog`oz yopishtiriladi va qog`ozning ustki tomoniga chiroyli qilib uyni rasmi chiziladi va yuqorisiga “Bilimlar uyi” deb yozib qo`yiladi, qog`ozning orqa tomoniga yani qattiq tarafiga konvert yopishtiriladi. Konvert ichiga o`zbek alifbosi bo`yicha harflar yozilgan kartochkalar solinadi(har bir harfdan beshtadan bo`lsin) va gul shaklida bitta qog`oz qirqilib, gul o`rtasiga mavzu nomi, yaproqchalariga shu mavzuga doir tayanch atama va iboralar yoziladi. Har bir guruh oldiga bittadan “Bilimlar uyi” ko`rgazmasidan beriladi. Keyin esa o`tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida o`quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi.

1. O`quvchilar harflardan foydalanib guruh nomini tuzishlari kerak. Guruh nomlari geografik qitalar nomi bilan atalishi mumkin.(bu nomni boshqa guruhlar ham ko`rishlari uchun ko`rgazmaning ustki tomoniga eniga cho`ntakcha yasab, shu cho`ntak ichiga gurux nomi yozilgan harflarni solish kerak).

2. Konvert ichidan mavzu va iboralar yozilgan gul shaklidagi qog`ozni olib, unga qarab ma`lum vaqt ichida(5 minut) harfchalardan foydalanib partasi ustiga so`zlarni yasashlari kerak. Qaysi gurux shu vaqt ichida ko`proq ibora yozib ulgurganligiga qarab baholanadi.





Yangi pedagogik texnologiyalar bilan o'tkazilgan darslar o'quvchini mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o'zaro bir-biri bilan muloqatga va xatto o'zi xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Ishmuhammedov “O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISI-BOLALAR QALBINING ME‘MORI

Zaynutdinova Laylo Faxritdinovna
 Sharipova Ziyoda Safarovna
 Elova Dilorom Rabbimovna
 Navoiy viloyati Zarafshon shahar
 2-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalar qalbining me‘mori ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: me‘mor, boshlang‘ich ta‘lim, maqsad va vazifa, interfaol usullar ...

Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas‘uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an‘analarimizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da‘vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish – bugungi kun o‘qituvchining asosiy vazifasidir.

“Juft-juft muloqot ” usuli orqali sinf o‘quvchilarini mavzu yuzasidan bilimlarini sinash, va xulosa qilish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarga mavzuga oid topshiriqlar berilib, yechimini birgalikda topishga undash lozim.

“Rasm asosida matn yaratamiz” usuli. Bunda o‘quvchilarga turli mavzularda rasmlar taqdim etiladi. Ular rasmlar asosida kichik matn yoki hikoyalarni yaratadilar.



“UCH POG‘ONALI INTERVYU” usuli. Uch pog‘onali intervyu bu – birgalikda o‘qitish usuli bo‘lib, mashg‘ulot yoki tadbir boshlanishida o‘quvchilar orasida rollarni taqsimlash, turli mahsulot va buyumlar bilan chuqur tanishish hamda muammo bilan tanishish maqsadida yoki “muzyorar” sifatida jamoa a‘zolari bir-birlari bilan tanishtirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu qanday bajariladi?

1-qadam. O‘quvchilararo rollar taqsimlanadi yoki o‘quvchilar o‘zlari rollarni tanlab olishlari mumkin.

2-qadam. O‘quvchi A, o‘quvchi B ga bir necha daqiqa vaqt ichida savollar beradi va diqqat bilan eshitib, intervyu oladi.

3-qadam. O‘qituvchi ishorasidan so‘ng o‘quvchilar rol almashishadi va o‘quvchi B A o‘quvchidan intervyu oladi.

4-qadam. Yana bir ishoradan so‘ng har bir juftlik boshqa juftlikka o‘giriladi, hamda 4 kishidan iborat kichik guruh shakllantiriladi.

5-qadam. Guruhning har bir a‘zosi o‘z partnyori to‘g‘risidagi eng qiziq lavhalarni ifodalab, tanishtiradi.

“Harflar adashib qoldi” o‘yini. Duskaga bosma harflardan iborat so‘z yoziladi. Undagi biror harfning o‘rni almashtirib qo‘yilgan bo‘ladi. Yozuv yoniga shu narsaning rasmini ilib qo‘yish mumkin. O‘quvchiga narsaning nomini bir necha marta talaffuz qilish, bo‘g‘inlab aytish tavsiya qilinadi. Shundan so‘ng doskadagi so‘zning adashib qolgan harflari o‘z o‘rniga qo‘yiladi va so‘z yozma harflarda yozdiriladi.



O‘qitishning „Insert“ texnologiyasi. Insert texnologiyasi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish va mustahkamlash, ta’lim oluvchilarning kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, berilgan vazifalarni mustaqil bajarishda qo‘l keladi. Ushbu texnologiya qo‘llanilganda o‘quvchilar matnlardan mustaqil foydalanish, olingan axborotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, ularni qisqa va aniq bayon qilish hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. O‘qitishning ushbu texnologiyasiga o‘qituvchi yangi mavzuni bayon etmaydi, balki uning nomini e’lon qiladi. Mavzu e’lon qilingach, ta’lim oluvchilar berilgan matnni mustaqil o‘qib o‘rganadi.

Metodning avzalligi:

- tahsil oluvchi matnlardan mustaqil foydalana oladi;
- olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi;
- axborotlar tizimlashtirib, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- kichik guruhlarda ishlash jarayonida hamjihatlik mustahkamlanadi;

“Qarmoq” o‘yini. Akvarium tasvirlanadi. Unda baliqlar suzib yuradilar. Baliqlarda so‘zlar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar berilgan kataklarga baliqlardan so‘zlarni olib terishlari kerak bo‘ladi.



“Bosh harfi bilan o‘qing” usuli. Bu usul o‘quvchilarni darsga jalb etishda, diqqatini jamlashda va yangi mavzuni mustaqil topishda qo‘llaniladi.



Xullas, bilim-dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Zeroki, bilim bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qiladi, Savobni gunohdan, halolni haromdan, pokni nopokdan ajratib beradi. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarib, yomon fe’llardan, bema’ni ishlardan qaytaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova.
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MANTIQUIY FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI USULLAR.

**Begmurodova Zumrad Abdullayevna
Abdullayeva Maftuna Narzullayevna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada ta’lim rus tilida olib boriladigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish usullari haqida yoritilgan bo‘lib, o‘qituvchilarga tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: So‘zli tasavvurlar, paravoz, mantiqiy, maqsad sari, topqir, chaqqon..

O‘qituvchi qo‘llaydigan yangilik turlicha masalan ta’lim yoki tarbiyaning yangi mazmuni, shakli, metodi, pedagogik mehnatning eng ta’sirchan takomillashtiruvchi yo‘llarini belgilashdan iborat bo‘lishi mumkin. Ilg‘or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijalarga erishishi uchun zamin hozirlashidir. Bunda o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. Qo‘yilgan bahoga, o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soni emas, ularning o‘quvchilarni inson sifatida shakllanishiga ta’sirining mezoni sifatida qarash lozim.

Quyida bir qancha usullarni tavsiya etishni joiz topdik:

So‘zli tasavvurlar: *Ta’rifi:* O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling. O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq. Birona so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi.

Mavzu o‘rganib bo‘lingandan so‘ng har bir o‘quvchidan ular ushbu mavzu bo‘yicha nima deb o‘ylashi yoki his qilishini bir so‘z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling.

Foydalanish doiralari: Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Afzalliklari: Bunday usul o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy rivojini ko‘rishga, sizga esa – siz berayotgan ta’lim sifatini baholashga yordam beradi. **Qiyinchiliklari:** Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat’iyan amal qilish lozim. Jarayonning cho‘zilishi mashq mohiyatini o‘zgartirishi mumkin.

“Kim topqir” ta’limiy o‘yini.

Bu o‘yinda sinfni guruhlarga bo‘lib tashkil etiladi. Har bir guruhga ikkitadan harf beriladi. O‘quvchilar berilgan harflar so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida keladigan o‘tgan zamon fe’liga so‘zlarni topishlari kerak. Bu vazifani qaysi guruh tez bajarsa va ko‘p o‘zak so‘zlar topsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi. Masalan:

1-guruh uchun :	2-guruh uchun:	3-guruh uchun :
1. O →	1. U →	1. A
2. K →	2. T →	2. Ch

Namuna:

1-guruh uchun : oldi, oqdi, keldi, kutdi.

“Paravoz” usuli. Bu usulni matematika darslarida qo‘llash tavsiya etiladi. Bunda 0 dan 10 gacha bo‘lgan raqamlarda mavzuga oid misol va masalalar yoziladi va o‘quvchilar ketma-ket turib paravozlarni tanlaydilar hamda misollarni bajaradilar.

“Maqsad sari bir qadam” usuli. *Ta’rifi:* Mashq qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirish mumkin va lozim bo‘lgan harakatlarni aniqlashtirishga qaratilgan. Ishtirokchilardan gorizontaal chiziq chizish va unda teng masofada 11 ta nuqta qo‘yish va ularni 0dan 10gacha bo‘lgan





raqamlar bilan belgilab chiqish iltimos qilinadi. Bu chiziq maqsadga erishish yoʻlini ifodalaydi. Chap tomondagi nuqta (0) maqsadga umuman erishilmaganligini aks ettiradi, oʻng tomondagi chiziq esa (10) maqsadga butunlay va eng muvaffaqiyatli ravishda erishilganligi vaziyatidan darak beradi. Ishtirokchilardan ushbu har bir ikki nuqtaning oldida eng yomon va eng yaxshi vaziyatni taʼriflaydigan bir necha soʻzlarni yozish iltimos qilinadi. Shundan soʻng ishtirokchilardan hosil boʻlgan shkala yordamida oʻzlarining ishdagi ahvollarini – ular maqsadga qanchalik yaqinlashib qolganlarini baholash iltimos qilinadi. Ishtirokchilar tegishli raqamni belgilaydilar va uning yonida ishlarning joriy ahvolini ifodalaydigan bir necha soʻzlarni yozadilar. Keyin esa ulardan ularning hozirgi vaziyatini aks ettiradigan nuqtadan navbatdagi nuqtagacha strelka chizish iltimos qilinadi. «Bu maqsadingizga erishish uchun eng qisqa yoʻl. Hozircha bu maqsadga toʻliq erishib boʻlmasa-da, biroq hech boʻlmasa bu qadamni amalga oshirish mumkin va kerak. Bu qadamni amalga oshirish uchun siz qanday aniq harakatlarni qilishingiz mumkin va aynan qachon siz buni bajarishingizni oʻylab koʻring va yozib oling».

Foydalanish doiralari: boshlangʻich sinflardagi fanlarni oʻqitishda, savollarni maʼlum oʻquv mavzusi va turli yoshdagi oʻquvchilar guruhiga moslashtirishda.

Afzalliklari: Ushbu mashq masalalarni aniqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish va unga erishish yoʻlidagi qadamlarni tushunishga hamda mulohazalar yuritishdan aniq harakatlarga oʻtishga imkon beradi. Koʻpincha odam istayotgan maqsadiga kerakli xususiyatlar va sharoitlarga ega boʻlmaganligi uchun emas, balki maqsad uning uchun juda yirik boʻlib koʻringanligi va odam unga erishish jarayonini hozirning oʻzidayoq qilish mumkin va lozim boʻlgan aniq harakatlarga, bosqichlarga ajrata olmasligi uchun erisholmaydi. Mashq ushbu cheklovni hech boʻlmasa qisman bartaraf etishga imkon beradi.

Qiyinchiliklari: Mashqni bajarish uchun kerak boʻlgan vaqtni hisoblash chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Yoʻldoshev M. Taʼlim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. 2016-y
2. Farberman B “Ilgʻor pedagogik texnologiyalar”. Toshkent .2000-yil, 26-bet



ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАН КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШ

Мамурова Феруза Исломовна

Тошкент давлат транспорт университети

Аннотация. Компьютер графикасининг ҳар бир ривожланган инсон ҳаётига фаол кириб бориши билан уни мамлакатимизнинг ўрта ва олий ўқув юртларида ўрганиш зарурати ҳақидаги масала кўндаланг турди. Компьютер-графика таълими мақсадига эришиш учун кўпгина ишлар ва қуйидаги имкониятларни яратади.

Калит сўзлар: муҳандислик, қурувчи, компетентлик, компьютер графика, касб, фазо, технология.

Жадал ривожланаётган ўқитишнинг технологиялаш жараёни таълим жараёнида янги замонавий ахборот технологияларининг кенг спектрдаги воситаларини қўллаш имконини беради. Компьютер графикаси эса, унинг асосий элементларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Бугунги кунда замонавий ахборот технологиялари ақл бовар қилмайдиган тезлик билан ривожланмоқда ва инсон фаолиятининг тобора кенгроқ фазоларини камраб олмоқда.

Компьютер графикаси – бу энг кенг тарқалган ва таассурот қолдирувчи замонавий компьютер технологияларидан биридир. Компьютер графикаси билан ишлаш – шахсий компьютерлардан фойдаланишнинг энг оммавий йўналишларидан бири бўлиб, бу иш билан дизайнерлар ва рассомлар, олимлар ва инженерлар, педагоглар ва инсон фаолиятининг ихтиёрий соҳасидаги ўз касбининг усталари шуғулланадилар.

Компьютер графикасининг ҳар бир ривожланган инсон ҳаётига фаол кириб бориши билан уни мамлакатимизнинг ўрта ва олий ўқув юртларида ўрганиш зарурати ҳақидаги масала кўндаланг турди. Компьютер-графика таълими мақсадига эришиш учун кўпгина ишлар ва қуйидаги имкониятларни яратади.

- замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитлар мутахассисларни касбий тайёрлашга қўйиладиган талабларни тубдан ўзгартиради. Ўзини-ўзи англашга қодир касб эгасига бўлган эҳтиёж талабаларнинг лойиҳалаштириш фаолиятига тайёрлигини оширишни кўзда тутаяди. Айниқса, касбий таълимнинг бу йўналиши касбий фаолиятнинг асосий турларидан бири бўлган лойиҳалаштириш билан шуғулланувчи муҳандислик-қурилиш ихтисосликлари учун аҳамиятга эга.

- ишлаб чиқариш муносабатларини ҳамда талабаларни уларни амалга оширишга таълимий тайёрлаш тузилмасини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, лойиҳалаш фаолиятининг босқичларини амалга ошириш малакаларини эгаллаш муҳандисни касбий ривожлантиришнинг устувор йўналиши бўлар экан.

Муҳандислик-қурилиш ихтисосликлари мутахассисларининг бўлажак объектнинг образини шакллантириш, бўлажак саноат объектнинг тузилмасини ва мазмунини башорат қилиш, бўлажак объектнинг яратиш жараёнини изчил амалга ошириш қобилияти каби касбий малакаларга олимларнинг қизиқиши бу ҳақда гувоҳлик беради.

Талабаларни лойиҳалаш фаолиятига компьютер технологиялари асосида ўргатиш, айниқса самарадорлидир, чунки улар (компьютер технологиялари) бўлажак объектнинг виртуал образини яратиш, уни ташкил этувчи компонентларининг комбинациясини амалга ошириш, лойиҳанинг ўлчамларини, йўналишини, функционал йўналишларини ўзгартириш имкониятини беради. Замонавий таълим жараёнида талабалар компьютер дастурлари билан ишлашларида лойиҳалаш фаолиятининг алоҳида элементлари бажарилади. Шу билан бирга, бу фаолият талабалар томонидан лавҳалар кўринишида, асосийси, муқобилсизлик асосида, объектнинг виртуал образини лойиҳалаш имкониятлари бажарилади.

Муҳандис-қурувчи ихтисослашган ОТМларида ўрганиладиган графиканлар мажмуасини ўқитиш жараёнининг ўзига хослиги фазовий тасаввурларни ривожлантиришнинг юқори даражасига эришиш зарурлиги ҳисобланади, чунки бўлажак мутахассислар предмет фазо муҳитини акс эттириш методларининг кенг спектри билан ишлашларини ва касбий компетентлигини оширишни кўзда тутаяди.

Касбий компетентлик негизида акс этувчи сифатлар қуйидагилардир:

- методик компетентлик - педагогик жараёни методик жихатдан оқилона ташкил этиш,



таълим ёки тарбиявий фаолият шакллари тўғри белгилаш, метод ва воситаларни мақсадга мувофиқ танлай олиш, методларни самарали қўлай олиш, воситаларни муваффақиятли қўллаш;

- **информацион компетентлик** - ахборот муҳтида зарур, муҳим, керакли, фойдали маълумотларни излаш, йиғиш, саралаш, қайта ишлаш ва улардан мақсадли, ўринли, самарали фойдаланиш;

- **инновацион компетентлик** - педагогик жараёни такомиллаштириш, таълим сифатини яхшилаш, тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишга доир янги ғояларни илгари суриш, уларни амалиётга самарали татбиқ этишдир.

Бўлажак кадрларнинг замонавий компьютер тизимларидан фойдаланиб компетентлигини шакллантиришга мўлжалланган босма ва электрон ресурслар яратишдир.

Фойдаланган адабиётлар.

1. Khodjayeva N. S., Mamurova D. I., Nafisa A. IMPORTANCE IN PEDAGOGICAL TECHNIQUES AND EDUCATIONAL ACTIVITY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. CONGRESS. – С. 5-5.

2. Мамурова Д. И., Мамурова Ф. И. Соотношения навыков черчения с опытом психологического исследования //Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири. – 2015. – №. 1.

3. MAMUROVA F. I. FACTORS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE CONTEXT OF INFORMATION EDUCATION //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2021. – №. 9. – С. 538-541.

4. Мамурова Ф. И., Мамурова Д. И. КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ҲОЛАТИ //TULAGANOV AA. – С. 145.



ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ СЛОВОУПОТРЕБЛЕНИЯ

Тўраева Сайёра Жуманиёзовна

Учитель Ханкайский район
средней школы No 33.

Телефон: +998 (91) 426 35 01
sayyora.jumaniyozovna_33@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматривается важность знания лексического значения и нюансы в употреблении слов. Особое внимание уделяется методике и методам формирования компетентного словоупотребления.

Ключевые слова: лексическое значение, единица языка, грамматические и синтаксические функции.

Слово представляет собой важнейшую единицу языка. При помощи слов называются все многообразные явления окружающего нас мира. Выполнять эту роль слово может потому, что оно имеет определенный смысл, значение, которое называется лексическим значением.

В лексическом значении слова получают отражение сложившиеся у людей представления о существенных сторонах предметов, действий, признаков (1, с.7). Большинство слов называют предметы, их признаки, количество, действия, процессы и выступают как полнозначные, самостоятельные слова, выполняя в языке номинативную функцию. Обладая едиными грамматическими и синтаксическими функциями, слова объединяются в разряды, части речи.

По нашему мнению, в учебном процессе прежде всего по каждой теме нужно указывать задачи и планируемые результаты ее изучения. Это поможет учителю сделать работу над темой более целенаправленной, уделяя на каждом уроке большое внимание именно тем вопросам, которые являются в ней главными.

Приступая к изучению той или иной темы, важно особенно внимательно отнестись к поставленным конкретным задачам работы над новым материалом, заранее уяснить себе, какие вопросы из ранее пройденного материала должны быть рассмотрены в связи с изучением нового, что должно получить дальнейшее развитие при изучении данной темы. Учитель должен сам осуществить подбор упражнений для устных вычислений. Важно продумать организацию каждого упражнения, чтобы была обеспечена дифференциация и индивидуализация заданий с учетом особенностей восприятия, памяти, мышления каждого ученика, уровня овладения им соответствующими знаниями, умениями и навыками.

Так, слово лиловый имеет лексическое значение «светло – фиолетовый», «цвета сирени или фиалки»; в этом значении отразились наши представления существенных признаках такого признака. Точность словоупотребления и состоит в соблюдении лексических норм русского литературного языка, в умении пользоваться словами в письменной и устной речи в полном соответствии с их сложившимися и закрепившимися в языке лексическими значениями. При выборе слова необходимо учитывать и его возможную, сложившуюся в языке сочетаемость с другими словами. Слова входят в словосочетания и предложения, из кото-рых образуется речь. Звуки, морфемы, слова, словосочетания, предложения изучаются в разделах науки о языке (3, с.5). Итак, можно резюмировать следующие моменты:

1. чтобы употреблять слова точно, надо хорошо знать их лексическое значение и при сомнении обращаться к справочникам, прежде всего к толковым словарям русского языка. Богатая и разнообразная лексика русского языка собрана в словарях.

2. чем правильнее и точнее речь, тем она доступнее для понимания; чем красивее и выразительнее, тем сильнее она воздействует на слушателя.

3. Необходимо развивать чувство прекрасного, формировать высокие эстетические вкусы, умение понимать и ценить произведения, обратить внимание на лексические значения слов.

4. Надо помочь ученику глубже осознавать свои мысли и чувства, яснее мыслить и глубже чувствовать; надо помочь ученику это познание самого себя сделать средством познания других, средством более тесного сближения с коллективом, средством через коллектив расти вместе с другими и идти сообща к совершенно новой, полной глубоким и значительных переживаний жизни.



Литература:

1. В.Ф.Греков, С.Е.Крючков, Л.А.чешко. Пособие для занятий по русскому языку. – М, 1990.
2. М.Т. Баранов, Т.А. Ладыженская, М.Р. Львов. Методика преподавания русского языка, - М., 1990.



ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИГА ТАРҚАЛИШИ

Қурбонова Садоқат Жумабоевна

Хоразм вилояти Урганч тумани 31 сон мактаб
2 тоифа тарих фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши сабалари ва Марказий Осиёга ёйилиши ёритилган.

Калит сузлар: Туркистон, Турон, Жадидлар, Таржимон, М.Бехбудий.

XIX аср охири- XX асрнинг бошларида сиёсий, маданий, иқтисодий жihatдан инқироз ҳолатига тушиб қолган мусламлака туфайли ривожланиш паст даражада бўлган ўлкада Туркистон зиёлилари чор Россиясининг мустамлакачилик зулмидан қутулиш, ўз миллий давлатчилигини тузиш, иқтисодий ва маданий тараққиётга йўл очиш, халққа зиё тарқатиш чораларини кўрди. Бу борада жадидчилик ҳаракати катта рол ўйнади.

Жадидчилик рус мустамлакачилигига қарши миллий демократик ҳаракат бўлиб, у ўша давр Туркистондаги қолоқ иқтисодий, ижтимоий ва маданий шароитда яшаётган халқларни маърифатлаштириш, жамият ҳаётида ижтимоий ва маданий ислохотлар ўтказиш, пировардида миллий мустақиллик ғояларини ҳаётга тадбиқ этиш мақсадини ўз олдига қўйган эди.

Туркистонда жадидчилик ғоялари XIX асрнинг 90-йилларидан ёйила бошлади. Бу ҳаракат XX асрнинг 30-йиллари охириларигача ўлка ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим рол ўйнади. Бугунги кунда республикамиз тарихчи олимлари жадидчилик ҳаракатида қуйидаги учта босқични фарқлашмоқда: 1) XIX аср охириларидан 1915 йилгача-маърифатчилик; 2) 1915 йилдан – 1918 йил февралигача-мухториятчилик; 3) 1918 йил февралидан - 20-йиллар охириларигача мустабид советлар давридаги фаолияти.

Жадидчилик дастлаб Қримда XIX асрнинг 80-йилларида пайдо бўлди. Унинг асосчиси диний-дунёвий илмларни чуқур эгаллаган Исмоилбек Гаспдали (1851-1914) бўлди. Исмоилбек 1884 йилда жадид мактаби ташкил этиб, 40 кунда 12 боланинг саводини чиқаради. Унинг ўқитиш усули «усули савтия», яъни «янги усул» номи билан шухрат қозонди. «Жадид» арабча сўз бўлиб, «янги» деган маънони билдиради. Исмоилбек ғояларини қабул қилган янгилик тарафдорлари «жадидлар», унинг ғоялари эса «жадидчилик» номини олди.

Исмоил Гаспдали 1893 йилда Тошкент, Самарқанд ва Бухорода бўлди. Бухорода амир Абдулахадни жадид мактаби очишга кўндиради. Бу мактабга «Музаффария» номи берилди. 1898 йилда Тўқмоқда (Қирғизистон) ҳам шундай мактаб очилди. 1899 йилда Андижонда Шамсуддин домла, 1901 йилда Қўқонда Салоҳиддин домла, Жадидларнинг халқ маърифати учун кураш дастури уч асосий йўналишдан иборат бўлган:

1. Янги усул мактаблари тармоғини кенгайтириш.

2. Умидли, иқтидорли ёшларни чет элга ўқишга юбориш.

3. Турли маърифий жамиятлар тузиш ҳамда зиёлиларнинг кучли фирқасини ташкил этишга қаратилган газеталарни чоп этиш.

Шу дастурни амалга ошириш борасида Махмудхўжа Бехбудий, Абдурауф Фитрат, Мунавварқори Абдурашидхонов, Убайдуллахўжа Асадуллахўжаев, Абдулла Авлоний, Абдулхамид Чўлпон ва бошқа зиёлилар жонбозлик кўрсатишди. Янгича ўқитиш мусулмон болаларига қисқа вақт ичида дунёвий, диний таълим бериш дастури асосида олиб борилди. Бу 1907-1908 йилларда Абдулла Авлоний муҳаррирлигида «Шухрат», Аҳмаджон Бектемиров муҳаррирлигида «Осиё» рўзномалари чоп этилди.

Лекин тез орада чор маъмурияти ашаддий шовинист Н.П. Остроумов билдиришномасига асосланиб, бу рўзномаларни ман этди.

Маърифатчиликнинг янги тўлқинида 1913-1915 йилларда «Самарқанд», «Садои Туркистон», «Садои Фарғона», «Бухорои шариф», «Турон», 1917 йилда эса «Эл байроғи», «Кенгаш», «Хуррият», «Улуғ Туркистон» газеталари, «Ойна» журнали каби оммавий ахборот воситалари ҳам пайдо бўлди.

Қўқондаги махфий гуруҳ 50 кишидан иборат бўлган. Андижондаги жадидларнинг яширин ташкилоти «Тараққийпарвар» деб аталиб, махфий ишлар бўйича полиция



бўлимнинг маълумотларига қараганда, унинг раҳбарларидан бири Убайдулла Хўжаев бўлган. Жаҳидларнинг айрим қисми мустабид тузумнинг сиёсатига кўникмай хорижга ўтиб кетдилар, муайян қисми эса истиқлолчилар ҳаракатига қўшилиб кетдилар.

Бухоро ва Хоразм Халқ Республикаларида жаҳидлар ҳукумат органларида раҳбар лавозимларида ишлаб мамлакатни тараққий қилдириш ва мустақилликни сақлаб қолишга интилдилар (1920-1924). Бироқ совет режими аввал Бухоро ва Хоразм давлатлари мавжудлигига чек қўйган бўлса, кейинчалик барча жаҳид намоёндаларини жисмонан маҳв қилди.

Умуман олганда, аср бошида юзага келган жаҳидчилик ҳаракати Туркистон халқларининг миллий озодлик, мустақиллик учун дастлаб чор Россияси, сўнгра совет мустақилчилигига қарши курашда муҳим ўрин тутди.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1 Садриддин Айний. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар М.,1926
- 2 Ўзбекистон тарихи: Жаҳидлар ҳаракатидан милли мустақилликка қадар. Т.,1998й
- 3 М.Бехбудий Танланган асарлар Т.,1999й
4. Чўлпон, асарлар, 1-2-жилдлар Тошкент 1994й.



FIZIKA VA BIOLOGIYA FANLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI. YANGI TABIIY FANDA MUJASSAMLIGI

Babajonova Muqaddas Qurbanbayevna
Qalandarova Qunduz Baxtiyorovna
Yoqubova Yulduz Quvondiqovna
 Xorazm viloyati Xiva tumanidagi
 17-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
 fizika va biologiya o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika va biologiya fanlarining bog‘liqligi, ularni birlashtirgan yangi tabiiy fanda mujassamlashganligi haqida mulohaza yuritilgan.


Kalit so‘zlar: magnitlar, dvigatel, magnit terapiya, kompyuter, telefon.

Biz bilamizki hayotimizda doim fizika, biologiya va geografiya fanlari mujassam bo‘lib keladi. Bu esa fanlarning bir –biriga bog‘liqligidan dalolat beradi. Shuningdek bu fanlarni bo‘g‘liqligi o‘quvchilarda ham yaxshi taassurot qoldiradi. Fanlarni tez o‘zlashtirib olishadi. Masalan tabiiy fan darsligida “Magnit bizning hayotimizda “ mavzusida fizika va biologiya fanlari o‘zoro uyg‘unlashtirilgan.

Magnitlar bizning kundalik hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Magnitlarni uy-ro‘zg‘or jihozlari – radio, televizor, ventilyator, kompyuter, muzlatkich, telefon hamda turli texnikalarda, jumladan, avtomobil, elektr poyezd, samolyotlarda uchratish mumkin. Magnit televizor, telefon va radio karnaylari ichida mavjud. Kichkina sim g‘altagi va karnay ichidagi magnit elektr signalni tovush tebranishlariga aylantiradi. Natijada biz turli ovozlarni eshitamiz. Shuningdek, ventilyator, elektr poyezdlarni harakatga keltirishda magnit qo‘llaniladi. Ulardagi elektr dvigatellarida elektr energiyasi mexanik energiyaga aylantiriladi. Elektr energiyasi ishlab chiqaradigan elektr stansiyalarining elektr generatorlarida ham magnitlar ishlatiladi.



Biz kundalik hayotimizda kompyuterlardan foydalanamiz. Ammo uning ichida magnit borligi haqida o‘ylab ko‘rmaganmiz. Ma‘lumotlarni to‘plovchi qattiq diskda mavjud bo‘lgan magnit ma‘lumotlarni saqlashda hamda uni ekranga chiqarishda yordam beradi. Biz sayohatga chiqayotganimizda yo‘nalishni bilish uchun ko‘pincha kompasdan foydalanamiz. Cho‘ntak kompas shimolga ishora qilish uchun magnit ignadan foydalaniladi.



Quyosh sistemasidagi barcha planetalar, shu jumladan Yer planetasi ham doimiy magnitdir!

Yer planetasi atrofini ulkan magnit maydon o‘rab olgan.

Quyosh – yorug‘lik va issiqlik energiyasi manbai, shu bilan birga, u Yer planetasining



magnit maydoniga ta'sir qiladi. Bu esa planetamiz atrofida magnit bo'ronlari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'chib yuruvchi qushlar migratsiya davrida magnit bo'ronlariga duch kelishsa, o'z yo'lini topa olmasligi mumkin. Bundan tashqari magnit bo'ronlar katta yoshli odamlar sog'lig'iga ham ta'sir qiladi. Zamonaviy tibbiyot qurilmalarida magnitlardan keng foydalaniladi. Magnit yordamida ba'zi kasalliklarni aniqlanadi va davolanadi

Magnit terapiya



Magnit-rezonans tomografiya (MRT) qurilmasi. Tibbiyotda kuchli magnitga ega MRT apparatlari keng qo'llaniladi. U insonlarning ichki organlari tasvirini oladi va kasallikni aniqlashga yordam beradi.



Bulardan shunday xulosaga kelamiz. Demak fizika va biologiya fanlarining o'zaro bog'liqligi o'quvchilarning bilim saviyasini ham oshiradi. Ularda yangi yangi g'oyalar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tabbiy fan. 6-sinf darslik kitobi.
2. uz.khanacademy.org
3. uz.m.wikipedia.org



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA FANLARARO BOG‘LIQLIKNI TA‘MINLASHNING AHAMIYATI

Djanabergenova Saltanat Quanishovna
Mirashimova Nadejda Abdullayevna
 Navoiy viloyati Tomdi tumani
 12-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich ta‘limda fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlashda qo‘llanadigan usul va o‘yinlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fanlararo bog‘liqlik, Quvnoq kubikchalar, Zehn matni, grafik test ...

Jahon ta‘lim tizimida o‘quvchi shaxsini san‘at asarlari vositasida shakllantirish va rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, go‘zallik va yaxshilikni qadrlashda estetik did va ijodiy faollikni rag‘batlantiruvchi pedagogik texnologiyalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida “O‘qitish usullarini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

Bu borada darslarni tashkil etishda usul va o‘yinlardan foydalanish lozim.

“Zehn matni” usuli. Bu usul darslikda berilgan matn bilan o‘quvchilar tanishib bo‘lgach zehni sinash uchun, yoki uyga vazifa sifatida berilgan matnni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning xotirasi mustahkamlanadi. Buning uchun o‘quvchilarga matn yozilgan qog‘oz tarqatiladi. Matn ichidagi ayrim so‘z va raqamlar o‘zgartirib qo‘yiladi. O‘quvchilar esa ana shu xatolikni topib, matn tagida berilgan jadvalga joylaydilar.

Natijaviyligi:

- Ziyraklik oshadi;
- Mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi;
- Qiyosiy o‘rganish rivojlanadi.
- So‘z ajratish malakasi rivojlanadi.

“Quvnoq kubikchalar” ta‘limiy o‘yini. Bu o‘yinda kubikning 6 tomoniga rasmi harflar joylashtiriladi. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar. Guruhga kubikni aylantirish orqali tushgan harfni aniqlab oladilar. Har bir guruhda bu faoliyat tashkil qilinadi va guruhlar tanlab olgan harflarga mos so‘zlarni matndan topib yozadilar. Bunda o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmasi, matn tarkibidagi tanlangan harfga oid so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmasi va so‘zlar jamlanmasi hosil bo‘ladi.

“Quvnoq kubiklar” ta‘limiy o‘yini



Vazifa

Boshlovchi biron bir ishtirokchiga kubikni tashlaydi, ilib olgan ishtirokchi kubikning tepa qismida ko‘rsatilgan songa mos tovushli so‘zni o‘rganilgan matndan aytadi va kubikni boshlovchiga qaytaradi. Agar bo‘sh tomoni tushsa, ishtirokchi navbatni boshqa ishtirokchiga beradi.

Jihoz

Tomonlariga 2,3,4,5,6 raqamlar yozilgan , bir tomoni bo‘sh qoldirilgan kubik

Namuna: 3-bir, 4-olma , 6- Qudrat





“Ishbilarmon” usuli. Quyida berilgan har bir shakl ichidagi soʻzlarni qaysi turkumga tegishli ekanligini toping, nima uchunligini tushuntiring.

Aytib berdi, olma, anor, qizil, bilim, shaftoli, bordi, katta



Ushbu usul asosan guruh sardorlariga beriladi. Bunda oʻquvchiga vaqt beriladi. Birinchi boʻlib toʻgʻri, aniq qilib soʻzlarni qaysi soʻz turkumiga mansubligini aniq dalillar bilan isbotlab bergan gʻolib boʻlgan guruh sardori eng ishbilarmon, faol oʻquvchisi deb sanaladi.

“Grafik test” usuli.

Ish tartibi: Har bir ishtirokchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatiladi.

Vazifa: Oʻqituvchi oldindan tayyorlangan savollarni oʻqiydi.

Ishirokchilar har bir savolga javob variantlardan mosini tanlab shu katakchani boʻyaydi. Jarayon yakunida hosil boʻlgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi.

Musoboqa: “Kimning bodom daraxti birinchi gullaydi”. (Mavzuga mos soʻzlar qoʻyiladi. Mavzudagi gaplar shu soʻzlardan tuziladi.)

Xullas, fanlararo bogʻliklikni taʼminlash – oʻzaro fikr almashishga, oʻzaro fikrlarni toʻldirishga, noverbal va verbal taʼsir oʻtkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar oʻzaro taʼsir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki taʼsir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yoʻnaltirish, nomaʼlum holatni ochishga, kashf etishga koʻmak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin. DARS rasmiy didaktika qonunlariga emas, balki bolalarga bagʻishlanishi kerak. Darsning markaziga oʻquvchini qoʻying, chunki dars oʻquvchi borligi uchun mavjuddir. Zamonaviy oʻqituvchi bilim va maʼlumot uzatuvchisi emas, balki oʻquvchi bilan hamkorlik qiluvchi oʻquv jarayonining tashkilotchisi. U bolalar bilan hamkorlikda ishlashni shu bilan birga bolaga dunyo manzarasining yaxlit ekanligini anglashni oʻrgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-y
2. www.eduportal.uz, www.ziyonet.uz, www.istedod.uz



О‘QUVCHILARNI HUSNIXATGA O‘RGATISHNING METODIK SHARTLARI

Raximova Dilobar Quronboy qizi
Qutlimuratova Muhabbat Otabek qizi
Otajonova Ilmira Samandar qizi
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
1-son maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini husnixatga o‘rgatishning metodik shartlari keltirilgan, shuningdek o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yozuv, husnixat, metodik shartlar, to‘g‘ri yozish, chiroyli yozish, xato va kamchiliklar.

O‘qituvchining namunaviy yozuvi - bolalarda to‘g‘ri yozuvni shakllantirishning asosiy usuli hisoblanadi. Yozishga o‘rgatish ko‘pincha taqlid qilish orqali amalga oshadi. O‘qituvchining birinchi o‘quv yilida sinf taxtasi yoki o‘quvchi daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko‘riladi, chunki o‘quvchilar undan o‘z daftariga ko‘chirib oladilar. Shuning uchun o‘qituvchining husnixati to‘g‘ri va chiroyli bo‘lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o‘quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos xolda bo‘lishi kerak. Amaliyotning ko‘rsatishicha, agar o‘qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa (to‘ldirmasa), bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog‘ozni bekorga sarf etishadi va so‘zlarni keyingi qatorga to‘g‘ri ko‘chirish yo‘llarini o‘rgana olmaydilar, shubhali hollarda qator oxirigacha ko‘chirmaydigan bo‘lishadi.

O‘qituvchi o‘z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo‘lishi uchun uzluksiz shug‘ullanib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi shart. Shunday fikrlar bor, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi. Lekin buning aksi ham bo‘lishi mumkin: inson qanchalik ko‘p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo‘lib borar ekan. O‘qituvchi to‘g‘ri husnixatda yozishni o‘rganib olishi lozim. O‘qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas, balki har bir harf uchun yo‘lga qo‘yilgan amaliy proporsional bog‘liqlikni ham bilishi darkor. Shu bilan bir vaqtda lozim bo‘lgan mashqlar orqali qo‘lning kaftini va barmoqlar harakatini yengillatish va rivojlantirish kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi sinf taxtasida yozish usullarini ham egallab olishi lozim. Sinf taxtasida yozish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Masalan, harflarni grafik yozish, uning uzoqdan qanday ko‘rinishini hisobga olmasdan yozish, barcha asosiy va birlashtiruvchi unsurlarni bir hil qolipda yozish kabi. Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo‘lgan holdagina o‘qituvchi bolalarga namuna bo‘la oladi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. O‘quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma ketligini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun o‘qituvchi bularning hammasini sinf taxtasida ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishi lozim.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘quvchi chiroyli va to‘g‘ri yozuvda sinftaxtasiga bo‘rda aniq va chiroyli yozadigan o‘qituvchining o‘quvchilari chiroyli va to‘g‘ri yozadilar. Sinf taxtasida yozish malakalariga quyidagilar kiradi:

1. Qo‘l harakatini rivojlantirish, simmetriyani xis qilish va taxtaning qaysi qismida yozilgan harf, so‘z va fraza yozilganini tezda topishni, bir qarashda topa bilishlikni o‘rgatish lozim. Bundan so‘ng bo‘r bilan yozishni u bilan ishlash texnikasini o‘rganib olish lozim. Bo‘r bilan yozishda ingichka va qalin shtrixlarni yozishni, shuningdek ingichka chiziqdan bosib yozishga o‘tish va hokazo malakalarni egallashi lozim. Yozuvda sinf taxtasi va bo‘rning sifati katta ahamiyatga ega.

2. Yozuvdagi kamchiliklarni tuzatish. O‘qituvchi bolalarning daftaridagi xato-kamchiliklarni o‘z o‘rnida aniq ko‘rsatmasligi natijasida bolaning yozishiga nisbatan e‘tiborsizlik yuzaga keladi.

3. Husnixatga doimiy e‘tibor. Aniq va to‘g‘ri husnixatda yozishga nafaqat husnixat darsida, balki barcha dars turlarida va sinfdan tashqari yozuv ishlarida, yozma ariza, ular tomonidan tayyorlanadigan ko‘rgazmalar (devoriy gazetalar, jadvallar, shiorlar va h.k.) amal qilish kerak. Orfografik - to‘g‘ri, aniq va tushunarli qilib yozishni talab etish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchining pala-partish yozuvini va ikki varaq qog‘ozga yozgan yozma ishini ham nazorat qilib borishi lozim. Har bir o‘quvchining daftari tartibli bo‘lishiga erishish kerak.

Harflarning yozilishi sodda va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Pedagogik amaliyotda, boshlang‘ich 1-2- sinflarda o‘rganiladigan shriftlarning namunasi ishlab chiqilgan. 3 va 4- sinflar amaliyotida qo‘llanadigan tez yozuv malakasining boshlang‘ich sinflardagi yozuvdan anchagina farq qiladi.



Xarakterli jihatlaridan biri shundaki, tez yoziladigan yozuvda ayrim soʻzlar qogʻozdan qoʻl uzmasdan yoziladi.

4. Husnixatga oʻrgatish izchil va ketma-ketlik xarakteriga ega boʻlishi lozim. Oʻrgatish jarayonida oʻqituvchining dastur materialini, oʻquvchini soddaroq shakliy koʻrinishga ega boʻlgan harflardan, murakkabroq koʻrinishga ega harflarga oʻtkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga oʻtkazishda eʼtibor beriladi. Husnixat mashqlari oʻzaro bogʻliqlikda muntazam uyushtiriladi.

Shuni yodda tutishi kerakki, bolani sekin yozuvda harfni toʻgʻri yozishni oʻrganib olmaguncha tez yozuvga oʻtkazish mumkin emas. Shuning uchun ham dasturda tez yozish koʻnikmalari 3-4-sinflarda shakllantiriladi.

5. Individual yordam. Ayrim oʻquvchilarning yozuvidagi individual farqlikni kuzatib boorish mumkin. Bu farq oʻta qiya yozilishda va h.k.larda kuzatiladi.

Dastlabki yozuvga oʻrgatish paytida individuallik koʻp koʻzga tashlanmaydi, bu hol koʻproq yuqori sinflarda tez yozuvga oʻtgan paytda kuzatiladi. Yozuvdagi individuallik oʻziga xoslikni 4-sinflarda oʻtkaziladigan mashgʻulotlar jarayonida aniqlash mumkin, chunki bu davrda oʻquvchilar mustaqil ravishda bir chiziqli daftarga yozishga oʻtgan boʻladi. Oʻquvchida aniq va ravon yozuv hosil boʻlishi uchun oʻqituvchi oʻquvchining butun diqqatini harfning grafik shakliga, boshqa harf bilan qoʻshilib ketmasligiga eʼtiborini qaratishi lozim.

6. Oʻquvchilarning husnixat bilan toʻgʻri yozish koʻnikmalarini rivojlantirib borish, husnixatga oʻrgatish ishlarini sistematik tarzda olib borish talab etiladi. Bunda yozuv materiallarini asta-sekin kopaytirish va murakkablashtirib borish nazarda tutiladi. Buning uchun ham oʻquvchilar toʻgʻri yozuvning har kungi koʻnikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat tekshiruv ishlarini yoki yozuvning sifatini koʻrish ishlarini olib borishlari zarur boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Gʻulomova va boshqalar. Husnixat va uni oʻqitish metodikasi.
2. www.uzedu.uz



НАСТАВНИЧЕСТВО КАК ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ МОЛОДОГО СПЕЦИАЛИСТА

Аймбетова Асем Муратовна

учитель математики и информатики

Общеобразовательной школы № 16

Канимехского района Навоийской области

Елеусинова Нурсипат Калдарбековна

учитель математики Общеобразовательной школы

№ 16 Канимехского района Навоийской области

Умирбаева Зульфия Умаровна

учитель математики и информатики

Общеобразовательной школы № 16

Канимехского Района Навоийской области

***Аннотация:** В данной статье раскрывается роль преподавателя-наставника в духовно-нравственном воспитании и определены и охарактеризованы требования, предъявляемые педагогу школы в подготовке будущих специалистов, обозначены дидактические принципы деятельности преподавателя в указанном выше направлении. Особо подчеркнута необходимость осуществления педагогического сотрудничества с наставниками, обучения их навыкам культуры общения.*

***Ключевые слова:** педагогическое воздействие, духовно-просвещенческое воспитание, педагог-наставник, требования, принципы, современные знания, нравственные качества, убеждения, культура общения.*

Наставничество – одна из наиболее эффективных форм профессиональной адаптации, способствующая повышению профессиональной компетентности и закреплению педагогических кадров. Задача наставника – помочь молодому учителю реализовать себя, развить личностные качества, коммуникативные и управленческие умения. Но при назначении наставника администрация образовательного учреждения должна помнить, что наставничество – это общественное поручение, основанное на принципе добровольности, и учитывать следующее: педагог-наставник должен обладать высокими профессиональными качествами, коммуникативными способностями, пользоваться авторитетом в коллективе среди коллег, учащихся (воспитанников), родителей.

Когда молодой учитель приступает к профессиональной деятельности, он, конечно же, нуждается в поддержке. Поэтому наставнику необходимо обратить внимание молодого специалиста:

на требования к организации учебного процесса;

требования к ведению школьной документации;

формы и методы организации внеурочной деятельности, досуга учащихся;

практического и теоретического освоения основ педагогической деятельности (подготовка, проведение и анализ урока;

формы, методы и приемы обучения; основы управления уроком и др.);

выбора приоритетной методической темы для самообразования;

подготовки к первичному повышению квалификации;

подготовки к предстоящей аттестации на подтверждение или повышение разряда.

Выбор формы работы с молодым специалистом должен начинаться с вводного анкетирования, тестирования или собеседования, где он расскажет о своих трудностях, проблемах, неудачах. Затем определяется совместная программа работы начинающего учителя с наставником. Наставничество – это постоянный диалог, межличностная коммуникация, следовательно, наставник, прежде всего, должен быть терпеливым и целеустремленным. В своей работе с молодым педагогом он должен применять наиболее эффективные формы взаимодействия: деловые и ролевые игры, работу в «малых группах», анализ ситуаций, самоактуализацию и пр., способности принимать решения, умение аргументировано формулировать мысли.

Организация наставничества – это одно из важных направлений деятельности любого



руководителя. Человек становится успешным наставником только в том случае, если он эффективно реализует навык наставничества. Руководителю образовательного учреждения следует стремиться к неформальному подходу в обучении педагогической молодежи: обучаюсь – делаю; делаю – обучаюсь; формировать общественную активность молодых учителей, обучать их объективному анализу и самоанализу. Не следует бояться таких форм работы с молодежью, когда они сами становятся экспертами: присутствуют друг у друга на уроках, посещают уроки своих старших коллег, рефлексиируют, обмениваются опытом, мнениями.

Администрация школы или учитель - наставник могут создать портфолио молодого специалиста, куда вносятся педагогические находки, достижения, анкеты с отзывами на проведенные уроки и т. д. Это дает возможность увидеть динамику в профессиональном становлении молодого учителя в процессе наставнической деятельности. Портфолио – своеобразный паспорт повышения профессионального уровня педагога, свидетельствующий о его способностях, самоорганизации, коммуникативных навыках, отвечающий его потребности в практической самореализации. Портфолио может вести и сам молодой учитель, отмечая в нем повышение своей профессиональной компетентности и достижения в личностном росте.

КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА-НАСТАВНИКА

1. Наставник обязан четко представлять цели своей деятельности, знать требования и потребности школы в этой сфере педагогической практики.

2. Наставник должен разрабатывать и предлагать оптимальную программу педагогической помощи каждому молодому педагогу, с учетом его индивидуальных особенностей, уровня профессионализма и коммуникативных навыков.

3. Наставник должен уметь наладить положительный межличностный контакт с каждым своим воспитанником, предложить конструктивные формы и методы взаимодействия.

4. Наставник осуществляет диагностирование, наблюдение, анализ и контроль за деятельностью своего подопечного.

5. Наставник несет моральную и административную ответственность перед самим собой и руководством образовательного учреждения за подготовку молодого специалиста.

6. Наставник обязан быть образцом для подражания и в плане межличностных отношений, и в плане личной самоорганизации и профессиональной компетентности.

ПРАВИЛА ОБЩЕНИЯ С МОЛОДЫМ ПЕДАГОГОМ

Чтобы взаимодействие с молодыми специалистами было конструктивным и приносило желаемый эффект, педагогу-наставнику необходимо помнить о правилах общения, которые необходимо соблюдать.

1. Не приказывать. Наставник должен помнить, что фраза, содержащая обязательство какого-либо рода, вызывает протест. В процессе общения с молодыми учителями следует отказаться от фраз типа «вы должны», «вам необходимо», «вам нужно» и т. п. Естественной их реакцией на эту фразу могут стать слова: «Ничего я вам не должен. Как хочу, так и работаю!»

2. Не угрожать. Любая угроза – это признак слабости. Угроза со стороны наставника – это еще и признак педагогической несостоятельности, некомпетентности. Угрозы или ультиматум со стороны учителя-наставника провоцируют конфликт. «Если Вы не будете выполнять мои требования, то...» – подобные замечания свидетельствуют о неумении наставника аргументировать свою педагогическую позицию, о непонимании ситуации, об отсутствии дипломатических навыков общения. Этот прием не способствует установлению отношений сотрудничества и взаимопонимания между наставником и подопечным.

3. Не проповедовать. «Ваш профессиональный долг обязывает...», «На Вас лежит ответственность...» – эти воззвания чаще всего являются пустой тратой времени. Они не воспринимаются и не осознаются молодыми специалистами как значимые, вследствие их абстрагированности от реальной педагогической ситуации.

4. Не поучать. Наставник должен помнить о том, что нет ничего хуже, чем навязывать свою собственную точку зрения собеседнику («если бы Вы послушали меня, то...», «если бы Вы последовали примеру...»).

5. Не подсказывать решения. Наставник не должен «учить жизни» молодого учителя. «На Вашем месте я бы...» – эта и подобные ей фразы не стимулируют процесс профессиональной



поддержки, поскольку произносятся чаще всего с оттенком превосходства и ущемляют, таким образом, самолюбие молодого педагога.

6. Не выносить суждений. Высказывания со стороны наставника типа «Вы должны сменить место работы», «Вы слишком мало внимания уделяете работе» чаще всего наталкиваются на сопротивление и протест молодых учителей, даже в тех случаях, когда они абсолютно справедливы.

7. Не оправдывать и не оправдываться. Наставник потеряет значительную долю своего влияния, если будет строить свое взаимодействие с подопечными на основе этих приемов общения. «Вы организовали и провели урок не так уж плохо, как кажется на первый взгляд» – данная форма оправдания, конечно, снимает некоторое напряжение в отношениях, но делает существующую профессиональную проблему менее значимой для молодого учителя.

8. Не ставить «диагноз». «Вам нельзя работать в школе, Вы слишком эмоциональны» – такая фраза опытного педагога непременно насторожит молодого учителя и настроит его против наставника.

Список литературы статьи

1. Абдулина О.А. Педагогический мониторинг качества подготовки учителя // Преподаватель, 2005. №3. - С.21-23
2. Абросимова З.Ф. Формирование педагогической культуры будущего учителя. Дисс.на соиск.уч.степ.канд.пед.наук. – Челябинск
3. Алексашина И.Ю. Основные направления формирования педагогического мастерства в процессе повышения квалификации учителей / Тезисы докладов научно-практической конференции. -Новгород, 1990.-С. 1-2.
4. П.Андрienко Е.В. Подготовка учителя к самоактуализации в педагогической деятельности: Народное образование. 2005, - №12. - С.31-37.
5. Вершловский С.Г. Школа молодого учителя: Методические рекомендации Л.,1994. - 96с.



ЎСМИРЛАР ТАРБИЯСИ ВА ПСИХОЛОГИЯСИ УЛАРНИ БОШҚАРИШ УСУЛЛАРИ

Исмоилова Нилуфар Матмурот қизи
Хоразм вилояти Урганч тумани 31 сон мактаб
Математика фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада ўсмирлар психологияси ва тарбиясидаги муаммолар ва зиддиятларни бартараф этиш ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: психология, мотивация, жисмоний ривожланиш.

Ўсмирлик йиллари – ота-оналар учун ҳам, болалар учун ҳам мураккаб давр. Бу ёшда фарзандлар ўз фикрини энг тўғри деб ҳисоблашади. Ота-оналар ҳам кичкинтой деб ҳисоблаб юрган боласининг энди ўз фикрини, ўз қарашларини аён қилишларини қабул қилишлари қийин бўлади. Айниқса, фақат боласининг ғамида яшайдиган оналарда бу жараён қийин кечади. Бунда улар ўзларини худди энди боласига кераксиз бўлиб қолгандай ҳис қилишлари мумкин. Болалар ҳам ўзларини ақлан катта бўлгандай ҳис қилишса-да, моддий ва жисмоний жиҳатдан ота-онага тобе бўлиб қолаверади. Барча тушунмовчиликлар шундан келиб чиқади. Ўсмир болалар учун ўзидан бошқа ҳамма ноҳақ. Агар ота-онаси томонидан унинг фикри рад этилса, бола бу фикрда янаям қатъийлашади. Бундай вазиятда ота-оналар унинг фикрини ҳурмат қилишларини сездиришлари ва шунинг баробарида ўйлаган қарорларининг натижаси ҳақида маслаҳатлашишлари керак бўлади. Бунда болага саволлар бериш орқали уни ўйлашга ундаб, тўғри қарор чиқариш имкониятини бериш лозим. Ҳар бир ота-она фарзандини турли муаммолардан ҳимоя қилишни истайди. Аммо ўсмир ёшда бола ўқиши, мактаби, баҳолари билан боғлиқ қарорлар қилиши ва шу қарорларининг натижасига жавоб беришни ўрганайди. Шу жойда уларга эркинлик берилмаса, катта ҳаётда ҳам доимо уларни кимдир бошқариши керак бўлади. Ўсмир ноқобил дўст танласа... Бола дўстга муҳтож. Болани уйга қамаш ёки ким биландир дўстлашишини тақиқлаш унда янада катта қаршилик уйғотади. Фарзанди ноқобил дўст танлаган ота-она унга шундай бошқа бир жамоани ёки дўстни таклиф қилиши мумкин. Масалан, боланинг бирга ўйнайдиган дўстларини ота-онаси ёқтирмайди. Уни ўша ноқобил боладан айириш учун, фарзандингиз у билан вақт ўтказадиган пайтни мўлжаллаб бошқа бир даврани – спорт тўғараги, кўшимча машғулот кабиларни таклиф қилиши керак. Бунда мажбурлаш ярамайди, танлаш имкониятини бериш керак – шунда бола ўзи танлов қилгандай ҳис қилишига эришиш мумкин. Ҳар доим тарбияда хотиржам иш тутиш керак, шошилмаслик керак. Чунки бола ҳали ўзини қидиряпти – унга ўзлигини топишига имкон берган маъқул. Агар мактабдаги дўсти ота-онага ёқмаса, дарсдан кейин мактабда кўп ҳам ушланиб қолмаслигига эришиш керак. Аммо ўсмир ёшда боланинг мактабини ўзгартириш яхши эмас, ўсмирлар янги муҳитга мослашгунча жуда қийналади.

Болага мотивация бериш учун... Ота-она ҳамма нарсани муҳайё қилиши болада ҳеч нарсага интилмастикни келтириб чиқаради. Барча муаммоларини ота-онаси ҳал қилиб бериши – келажакда унинг ҳаётини ҳам улар бошқаришига замин яратади. Оқибатда улар келгусида бошқаларнинг хоҳишлари билан яшашга ўрганиб қолиб, қачондир афсусланишади.

Шунинг учун ўсмирларда келажак ҳақида ўйлаш, тўғри қарор қабул қилиш учун имкон ва тушунча беришда ёрдам кўрсатиш керак. «Сен келажакда нима қилмоқчисан? Ким бўлмоқчисан?» каби саволлар болани ўйлашга мажбур қилади. Бирданига жавоб бермаслиги мумкин, аммо вақт ўтиб бу ҳақда ўйлаб кўради. Уларга ўзи ёқтирган бирор машхур шахсларни намуна қилиб кўрсатиш ҳам унга мотивация бериши мумкин. Аслида ота-она болага ҳамма нарсани яратиб бермаслиги, у нимагадир интилиши, орзу қилиши учун имкон қолдириши керак. Нимагадир ўз меҳнати билан эришса, у учун қадрли бўлади.

Жиноятга мойил ёки хато қилган болаларни тўғри йўлга солиш мумкин! Ёшлигида етарлича меҳр кўрмаган болалар ўсмирликда жиноят қилишга кўпроқ мойил бўлишади. Улар буни хоҳлашмаса ҳам, ўзлари сезмаган ҳолда ота-оналари, атрофдагилар ва умуман дунё билан ўчакишиб жиноят қилади. Бундай ҳолатларда психологлар билан ишлаш ёрдам бериши мумкин. Бундай вазиятда ота-оналар болага таъсир ўтказмоқчи бўлишлари тўғри бўлмайди, чунки боладаги бу яралар уларнинг хатоси туфайли юзага келган. Болангиз ўқитувчисидан шикоят қилганда... Ота-она фарзанди олдида унинг ўқитувчиси ҳақида



хурмат билан гапириши лозим. Бу билан болада устозига нисбатан хурмат пайдо бўлади. Ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида низоли вазият келиб чиққанда боланинг ҳис-туйғуларини ҳам эшитиш, уни доим тушунишларини англатиш яхши самара беради. Сўнгги пайтларда шундай вазият юзага келганда бориб ўқитувчини уриб келаётган ота-оналар кўпайди. Бунда улар ютқазди, бу ҳолат оқибатида синфдошларида болага нисбатан салбий муносабат пайдо бўлиши, бола бундан кейин ҳам ўз муносабатларини шундай ҳал қилишга ўрганиши мумкин. Бу билан улар фарзандига жуда ёмон намуна кўрсатишади. Шундай тушунмовчилик ҳолати содир бўлганда ўқитувчи билан вазмин гаплашиш ва фарзандининг руҳияти хақида тушунтириш, унинг синфдаги обрўсини тиклаш, ўзига ишончини орттириш учун маслаҳатлашиш керак бўлади. Ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатни яхшилаш учун болани ўша ўқитувчига кўшимча дарсларга бериш ҳам яхши натижа бериши мумкин. Бу билан бола ёқтирмаган одамлари билан ҳам муносабат куриш мумкинлиги, ҳамма нарсага имкон топиш мумкинлигини англайди.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1, Столяренко Л.Д // Основы психологии // Ростов. Изд Феникс 2003г
- 2, Миралиев А.М. Давлатов М.Т. педагогика ва психология – Душанбе “Ирфон”2007
3. Абдурахмонов Р.А. Возрастная психология//Ростов на Дону 2002г



КОЛМОГОРОВ-ФИШЕР ТУРИДАГИ ТЕНГЛАМАЛАРНИ САҚЛАНИШ ҚОНУНИ АСОСИДА КЕЛТИРИБ ЧИҚАРИШ

Умарова Муҳайё Ахмадовна

Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар 11-сонли умумий ўрта таълим мактабининг математика фани ўқитувчиси.

Хушийева Қизларгул Қаршийевна

Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар 11-сонли умумий ўрта таълим мактабининг математика фани ўқитувчиси.

Очилдийева Дилдора Хуррамовна

Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар 11-сонли умумий ўрта таълим мактабининг математика фани ўқитувчиси.

Аннотация. Мазкур мақолада тенгламани ўрганишдан асосий мақсад диффузия мавжуд бўлмаган шароитда кинематик равишда тарқалаётган тўлқинларга диффузия қандай таъсир кўрсатишини аниқлашдир. тенгламанинг тўлқин шаклидаги ечимлари кинематик ечимлар ҳақида маълумонлар таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: детерменик версияси, чизиксиз тенгламалар, инвариант-гурухли, фазовий текислик, табиий функциялар.

Аннотация. Основная цель изучения уравнения в этой статье - определить, как диффузия влияет на кинематические распространяющиеся волны в отсутствие диффузии. решения уравнения по форме волны анализируются с точки зрения кинематических решений.

Ключевые слова: детерминированная версия, нелинейные уравнения, инвариант-группа, пространственная плоскость, натуральные функции.

Annotation. The main goal of studying the equation in this article is to determine how diffusion affects propagating kinematic waves in the absence of diffusion. waveform solutions to the equation are analyzed in terms of kinematic solutions.

Key words: deterministic version, nonlinear equations, invariant group, space plane, natural functions.

Бу тенглама тарихий ва педагогик нуқтаи назардан муҳим аҳамиятга эга. Мазкур тенглама (квадратли ўнг томон ўрнига кубли нозизиқли тенглама каби) Фишер томонидан (1937) диплоид кўпайиш жараёнига мувофиқ геннинг стохастик тарқалишининг детерменик версияси сифатида таклиф этилган эди. У тенгламани батафсил ўрганиб чиқиб, қуйида татбиқ этилган қатор фойдали натижа ва хулосаларни олишга муваффақ бўлди. А. Н. Колмогоров, И. Г. Петровский ва Н.С. Пискуновлар томонидан (1937) генетикага асосланиб, эвристик йўл билан келтириб чиқарилган тенглама ҳам Фишер тенгламасига янада катъийроқ аналитик ёндошишга асос бўлди. Кейинроқ 1975 йилларда Вайнбергер, Маккин и Файф, Маклеод ва Ларсонлар тенгламаларнинг бирмунча кенгрок синфини ўрганиб чиқишди, унда $ku(1-u)$ ҳад маълум табиий функциялар синфига тааллуқли $F(u)$ скаляр функция билан алмаштирилди. Фишер тенгламаси диффузияли реакцияларга оид энг содда кўринишдаги чизиксиз тенгламалардан бўлиб, унда бизни кизиқтирувчи тўлқин турларидан ҳеч бўлмаганда биттаси, яъни яккаланган фронт ҳосил бўлади. тенглама популяция ўсиши логистик моделининг энг оддий диффузион моделидир. Мазкур тенгламани ўрганишдан асосий мақсад диффузия мавжуд бўлмаган шароитда кинематик равишда тарқалаётган тўлқинларга диффузия қандай таъсир кўрсатишини аниқлашдир. тенгламанинг тўлқин шаклидаги ечимлари кинематик ечимлар деб ҳам аталади.



Бу ерда c - тўлқин тезлиги. тенглама x ни $-x$ га алмаштиришга нисбатан инвариант бўлганлиги сабабли, c тезлик мусбат ёки манфий бўлиши мумкин; аниқлик учун c тезликни мусбат деб белгилайлик, у ҳолда x ўқининг манфий йўналиши бўйлаб тарқалаётган тўлқинни ифодалайди. x ни ga қўйсақ $f(z)$ қуйидаги тенгламани каноатлантирувчи функция бўлади.

$$Df'' - cf' + kf(1 - f) = 0$$

бу ерда штрих z бўйича дифференциаллашни ифодалайди.

тенглама *автомодель (инвариант-гурухли)* тенглама ҳам деб аталади. Модомики x ва t бўйлаб силжишга инвариант экан, z га ихтиёрий доимийни қўшиш мумкин, яъни $u(x,t) = f(z)$ бу ерда $z = x + ct + a$, доимий a эса тенгламанинг ечимидир. Энди биз c нинг хусусий қийматини, ёки тенгламанинг манфий бўлмаган ечимларини берадиган шундай қийматини топамизки, унда

$$\lim_{z \rightarrow -\infty} f(z) = 0, \quad \lim_{z \rightarrow \infty} f(z) = 1$$

бўлсин. Агар мазкур ечим мавжуд бўлса, ҳар қандай бошланғич профилда ҳам x нинг ҳар бир қиймати учун $0 \leq u(x,0) \leq 1$ бўлиб, тенгламанинг $u(-\infty, t) = 0, u(\infty, t) = 1$ чегаравий шартларини қаноатлантирувчи ечимлари t нинг ортиб бориши билан шартларни қаноатлантирувчи югурувчи тўлқин кўринишидаги тенгламанинг ечимларига ўтиши ёки ўтмаслиги муҳим қўшимча масала бўлиб қолади. Фишер 1937 йилда тенгламанинг $0 \leq u \leq 1$

$$c \geq c_{\min} = 2\sqrt{kD}$$

тўлқин тезлигидаги бўлган ҳолда югурувчи тўлқин туридаги ечимлари сони чексиз эканлигини аниқлади.

А. Н. Колмогоров, И. Г. Петровский и Н.С. Пискунов (1937) лар

$$u(x,0) = \begin{cases} 1, & x_1 < x, \\ h(x), & x_2 < x < x_1, \\ 0, & x_2 < x \end{cases}$$

шарт бажарилганда,

$$u(x,0) = \begin{cases} 0, & x < 0, \\ 1, & x > 0, \end{cases}$$

бўлишини исбот қилишди. Бу ерда x_1 ва x_2 охириги қиймат, $h(x)$ функция узлуксиз ва монотон. – биргина ечимга эга бўлиб, бу ечим $c = c_{\min}$ тезликка эга бўлган монотон югурувчи тўлқин кўринишида шартни қаноатлантирадиган ечимга интилади.

Умуман айтганда, $u(x,0)$ функциянинг $x \rightarrow \pm\infty$ да ўзини тутиши, югурувчи тўлқиннинг вақт бўйича эволюциясида ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу масала билан Маккин, Ларсон ва Файф и Маклеодлар махсус шуғулланганлар.

$c \geq c_{\min}$ ҳол учун формадаги тўлқин ечимларнинг мавжудлигини кўрсатиш мақсадида, тенгламанинг таҳлилига фазовий текислик услуби ишлатамиз (масалан, Минорский ёки Сансоне ва Конти китобларига қаралсин) ва ўз навбатида $0 \leq f \leq 1$ оралиқда чегаравий шартларни қаноатлантирувчи узлуксиз ечим мавжуд эканлиги



шартини қидирамиз. Натижада c учун чексиз соҳада хусусий ечимларни топиш масаласига келамиз. Тенгламани биринчи тартибли тенглама кўринишида ёзиб, унинг фазовий таҳлилига ўтамиз

$$f' = F, \quad DF' = cF - kf(1-f)$$

(f, F) фазо текислигидаги траекториялар қуйидаги тенгламанинг ечимлари бўлади.

$$\frac{DF}{df} = \frac{cF - kf(1-f)}{DF},$$

бу тенглама текисликда иккита махсус нуктага эга: $(0,0)$ ва $(1,0)$. Тенгламанинг тўлқин кўринишидаги ечими $0 \leq f \leq 1$ кесмадаги, F нинг ҳосиласи мусбат бўлганда, $(0,0)$ нуктадан $(1,0)$ нуктагача траекториясига мос келади.

$(0,0)$ нукта яқинида тенгламани чизиклаштириш мумкин. Натижада

$$\frac{dF}{df} \approx \frac{cF - kf}{DF}$$

га эга бўламиз. Бунда, фақат ва фақат $c \geq c_{\min} = 2\sqrt{kD}$, яъни бажарилган ҳолда $(0,0)$ нукта турғун бўлмаган тугун нукта бўлади.

Агар $0 < c < c_{\min}$ бўлса, $(0,0)$ махсус нукта турғун бўлмаган фокус бўлади, шу билан бир вақтда, $c=0$ бўлган ҳолда у марказ бўлади; бундай ҳолларда f нинг берилган шартларни қаноатлантирувчи ечимлари бўлиши мумкин эмас, чунки $(0,0)$ нукта яқинидаги ихтиёрий траекторияда $f < 0$ бўладиган нукталарни топиш мумкин. Иккинчи зарурий шарт шундан иборатки, $(1,0)$ махсус нукта “эгар” нуктаси бўлади. $(1,0)$ яқинида $f \approx 1$ ва бу ерда чизиклаштирилган форманинг кўриниши қуйидагича бўлади:

$$\frac{dF}{df} \approx \frac{cF + k(f-1)}{DF},$$

бу эса барча $c \geq 0$ учун эгар нуктасига тўғри келади, чунки k ва D – мусбат ўзгармаслар. Кўриниб турибдики, ҳар бир $c \geq c_{\min} = 2\sqrt{kD}$ учун $0 \leq f \leq 1$ кесмада $f = 0$ дан бошланиб $f = 1$ томон ҳаракатланувчи ягона $F > 0$ бўлган траектория мавжуд, бунда $F = 0$ бўладиган $f = 0$ ва $f = 1$ нукталар бундан мустасно.

$c = c_{\min}$ бўлганда $(0,0)$ нуктадаги тугун $\frac{c_{\min}}{2D} = \sqrt{\frac{k}{D}}$ да туташувчи иккита $\left[c + (c^2 - 4kD)^{\frac{1}{2}} \right] / 2D$ оғмага эга.

Агар бошланғич шартлар (7.6) кўринишида бўлса, c_{\min} – Фишер тенгламасининг ечими бўлган тўлқин тарқалиши тезлигининг ягона табиий қиймати бўлишини А.Н.Колмогоров, И.Г.Петровский ва Н. С. Пискуновлар исботладилар. “Табиийлик” деганда шуни тушуниш лозимки, мазкур бошланғич шартларга мос ечим $c = c_{\min} = 2\sqrt{kD}$ тезликка эга бўлган югурувчи тўлқин томон эволюцияланиб боради. Юқорида айтиб ўтганимиздек, ечимнинг катта вақт давомидаги хусусияти (ўзини тутиши) бошланғич шартларнинг чексизликда ўзини қандай тутиши билан чамбарчас боғлиқ бўлади.



Фойдаланилган адабиётлар.

1. Арипов М.М., Мухамедиева Д.К. К решению обобщенного уравнения в задаче биологической популяции конвективного переноса //Международный научно-технический журнал Химическая технология. Контроль и управление, -Ташкент, № 3, 2014, с. 71-76,
2. Арипов М.М., Мухамедиева Д.К. Подходы к численному моделированию задачи реакции с диффузией типа Колмогорова-Фишера в двумерном случае //Узбекский журнал проблемы информатики и энергетики, - Ташкент, №1-2, 2014, с. 21-26,



QIZIQARLI VA MANTIQUIY MASALALAR USTIDA ISHLASH USULLARI

Bayjanova Mardona Qadamovna, Sapayeva Dilfuza Rajabovna

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi 42-son umumiy o'rta

ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari

telefon:+ 998904311029

telefon:+998914210861

Annotatsiya: maqolada mantiqiy fikrlashga doir bir-biridan qiziqarli, maz- munga boy savol-javoblar, boshqotirmalardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashini rivojlantirish sirlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Mantiqiy masala va misollar, boshqotirma, metod, didaktik materiallar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallagan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dol- zarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi", degan fikrlari barchamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, har bir insonning taqdirida uning maktabda, akademik litseyda, kasb-hunar kollejida va oily o'quv yurtida olgan ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim dargohlarida ta'lim-tarbiyaning sifati esa birinchi nav- batda ,o'qituvchi- murabbiylarga bog'liq. Doimiy ravishda o'z ustida ishlay digan, yangi pedtexnologiyalar asosida dars berishga astoydil harakat qilayotgan o'qituv- chilar soni oramizda ancha.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rah- barligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respub-likasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiya- si taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu jarayonning amaliy natija- si o'quvchi - yoshlarning ongu tafakkuri, hayotiy intilish va harakatlari, tashabbus korligida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz", degan ezgu va hayotbaxsh shior ostida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli har bir kunimiz inson manfa- atlarini ta'minlash, fuqarolar haq-huquqlarini kafolatli himoya etish, odamlarni rozi, baxtli, saodatli qilishga qaratilgan, yangi qudratli o'zgarishlar ruhida kechmoqda. O'zbekiston jamiyati sifat jihatidan yangi davrga qadam qo'ymoqda.

Hozirgi davrda matematika fanining salohiyati - o'quvchilar aqliy qobiliyatini rivojlantirish bilan belgilanadi. Shu bois matematikani o'qitishning muhim vositasi masalalardir.

Masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika fani bo'yicha aqliy rivojlanishlarining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Mantiqiy masala ustida ishlash o'qituvchidan alohida e'tibor talab qiladi. Mantiqiy masalaning oddiy arifmetik masaladan farqi, butunlay yoki qisman arifmetik amallarsiz, fikr- mulohaza yuritish bilan yechilishi dastlab o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun mantiqiy masalani soddadan murakkabga qarab asta-sekinlik bilan darsga kiritib boriladi. Avval faqat mantiqiy savollar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan: "1 kg temir og'irimi yoki 1 kg paxta og'irimi?"

"Uchta ot qo'shilgan arava 30 km yurdi, har bir ot necha km yurgan?"

Bunday savollar bir qiymatli javob talab qilgani uchun o'quvchilar arifmetik amal bajarishga intilmaydi. Shundan keyin matnli mantiqiy masalalar kiritib boshlanadi.:

1- masala: Uch aka-uka Ali, Vali va G'ani. Ali Validan katta. Vali G'anidan katta. Kim katta: G'animi yoki Ali?

2- masala: Uchta qiz shaharga ketayotib, 5 ta qizni uchratdi. Shaharga nechta qiz ketayapti?

Mantiqiy masala odatda qo'shimcha tahlilsiz yechiladi. Ya"ni o'quvchiga fikrlash, o'ylab olish imkoniyati beriladi. "Kim topqirroq?" degan musobaqa ketadi. Lekin masalaning javobini topish qiyinlik qilsa, o'qituvchi yordamchi savollar beradi va masala javobini topishga o'quvchi fikrini yo'naltiradi. Aslida yordamchi savollar berish maqsadga muvofiq emas.

1. Faraz qiling, siz kema kapitanisiz. Kemada 25 ta 25 yoshli matros bor. Kapitanning yoshi nechada?(Sizning yoshingizda, chunki siz kema kapitanisiz).

2. Daraxt tepasida 7 ta qush bor edi. Olim roгатka bilan bittasini yiqitdi. Daraxt tepasida nechta qush qoladi? (Qolgani yo'q, hammasi uchib ketdi.)



Boshqotirma.

1. 1) beshta bir, 2) beshta 3, 3) beshta 5 raqamlari va amal belgilari yordamida qiymati 100 ga teng bo'lgan ifodalar tuzing. $11111 - 11 = 100$

$$33 \times 3 + 3 : 3 = 100 \quad 5 \times 5 \times 5 - 5 \times 5 = 100$$

2. Bir xil raqamdan 6 tasi yordamida 100 sonini yoza olasizmi?

$$\text{Masalan: } (111 - 11) : 1 = 100 \quad (222 - 22) : 2 = 100 \quad (333 -$$

$$33) : 3 = 100 \quad (999 - 99) : 9 = 100$$

Qiziqarli masalalar.

1. Yangi yil archa bayramida Qorbobodan necha yoshga kirdingiz, deb so'raganlarida, u shunday deb javob berdi: agar eng kichik to'rt xonali songa 99 ta o'nlik qo'shib, natijadan birni ayirsangiz, savolingizga javob topasiz. $(1000 + 990) - 1 = 1990 - 1 = 1989$.

2. Odil Qodir bilan Qobilga “Sanamay sakkiz dema” kitobini quyidagi joyini o'qib berdi: “Qosim uchinchi qavatga ko'tarilishi uchun o'n ikkita zinani bosib o'tdi. U oltinchi qavatga chiqquncha nechta zinani bosib o'tishi kerak?”

Qobil bu savolga darhol:

- Yigirma to'rtta! - deb javob berdi. Qodir bir muddat o'ylab:

- Yo'q, oltinchi qavatga chiqquncha 30 ta zinani bosib o'tishi kerak, - dedi. Shunda Odil ularga qavatlarning zinalarini chizib, sonini sanattirdi.

qavatga chiqish uchun 30 ta zinani bosib o'tish kerak, 5- qavatga esa 24 ta

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T.: Fan va texnologiya, 2005.

2. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. - T.: Ilm-Ziyo, 2005.

3. Qo'chqorov A., Ismailov Sh. Mantiqiy masalalar. - Toshkent, 2008.

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod- moliya, 2010.

5. Sultonova U.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalarni yechish. - T.: Fan va texnologiya, 2010.



BOTANIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Babajanova Shahlo Shavkat qizi

Gurlan tumani 7-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 418 09 96

babajanova.shahlo_0996@inbox.uz

Abdiyozova Muborak Hakim qizi

Qo‘shko‘pir tumani 29-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 660 93 58

abdiyozovamuborak_29@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola botanika fanidan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar samarali tashkil etish usullari haqida.

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari mashg‘ulot, botanika, o‘simlik, kolleksiya, gerbariy.

Botanika kursi bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, o‘simliklarni, tabiatni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, o‘quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, vaqtni tejash imkoniyatini beradi. Botanika fanidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki bu o‘quvchilarning xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va o‘simliklarga, tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Botanika bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o‘rganish va muhofaza qilish, o‘simliklarni o‘stirish, parvaish qilish, muhofaza qilish va ularni payhon qilmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan xilma-xil mashg‘ulotlar kiradi. Bu mashg‘ulotlar darslarni takrorlamasligini va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi lozim. Bizning kuzatishlarimizda botanika kursi bo‘yicha sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o‘ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo‘lish mumkin deb hisoblaymiz. Birinchi guruhga ko‘plab o‘quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar, ikkinchi guruhga cheklangan o‘quvchilar doirasida qiziqqan ayrim o‘quvchilar bilan olib borish maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ommaviy tarzda o‘tkazilganda sayohat va tematik kechalar tashkil qilish turlarini tanlagan yaxshiroq. 5-6-sinf o‘quvchilarini sinfdan

tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘simliklar bilan tanishtirish maqsadida har bir o‘qituvchi o‘zi yashaydigan hududning geografik, iqlimiy va yil fasllariga bog‘lagan holda sayohat darslari rejasi va qiziqarli kechalar tashkil qilish senariysini tuzishi kerak. Sayohatlarning kalendar rejasi o‘quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo‘yicha tuziladi, har bir sayohat jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Olib borgan kuzatishlarimizdan botanikada ko‘pgina dars mashg‘ulotlarini tabiatga sayohat uyushtirish bilan muvaffaqiyatli o‘tilishi mumkin. Agar tabiat qo‘ynidagi o‘simlikni ko‘rish lozim bo‘lsa, u vaqtda albatta sayohat tashkil qilish kerak. Sayohatlar avval qaror topgan tushunchalarni mustahkamlaydi, aniqlaydi, chuqurlashtiradi va umumlashtiradi. Sayohatlar darslar bilan chambarchas bog‘lanadi; sayohatda ko‘rilgan ob‘ektlar jarayon davomida ko‘p marta olinadi, to‘plangan gerbariyalar, o‘simlikning turli organlari bir qancha narsalar esa namoyish qilinadi. Yakunlovchi sayohatlarda o‘quvchilar avval olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydilar, topshiriqlar bo‘yicha mustaqil kuzatishlar o‘tkazadilar va material yig‘adilar. Sayohat tashkil qilishda fan o‘qituvchisi kuzatish ob‘ektlarini suhbatning shakli va mazmunini sinchiklab o‘ylab belgilash kerak, toki kuzatiladigan ob‘ekt o‘quvchilarda chuqur qiziqish, kattalarning mehnatida ularga yordam berishga intilishni vujudga keltirsin. Sayohat natijasi sifatida bajarilgan ishlar bo‘yich albomlar, gerbariyalar, yani kolleksiyalar, ko‘rgazmali qurollar tayyorlanadi.

Sayohat vaqtida to‘plangan material darsda, uyda yoki darsdan tashqari vaqtda maktabda ishlanadi (tartibga keltiriladi). Ulardan gerbariy va kolleksiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo‘lib xizmat qiladi. Sayohat darsidan so‘ng o‘simliklar dunyosi aks etgan turli vedoroliklar va vediatorlikning o‘quvchilarga taqdim etilishi nafaqat amaliy darsni mustahkamlashga qolaversa o‘quvchilarda AKT ga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi. Tabiatni, atrof-muhitni, umuman ekologiya sevishga o‘rgatadi. Ekologik madaniyating shakllanishiga asos bo‘ladi. Shu maqsadda shuningdek rasmlar, albomlar, har xil yasalgan narsalardan ham foydalaniladi. Xulosa o‘rnida



sayohat insonning tabiatga ta'sirini, o'simliklarni ko'rgazmali ko'rsatish imkonini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. R.J. Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004.
2. A. Bahromov va b. Tabiatshunoslik. 3-sinf. Toshkent – 2019.



**TARIX DARSLARIDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Avezova Aziza Jumanazarovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
10- umumiy o'rta ta'lim maktabi
Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy manbalarning turlari, ularning tarix fani uchun ahamiyati, tarix darslari jarayonida foydalanish lozim bo'lgan badiiy adabiyotlarning turlari, badiiy adabiyotlarning tasnifiy ta'rifi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy manbalar, badiiy adabiyotlar, dostonlar, metod, ta'lim tarbiya.

O'quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat ko'zatuvcisiga aylanmasligi, balki adib olg'a surgan ta'lim-tarbiyaviy g'oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o'rgangan taqdiridagina uning mohiyatini to'liq, chuqur anglab yetishi muqarrar. Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilish ham asar g'oyasini ta'lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uni tanlashda ma'lum mezonlarga asoslaniladi, ya'ni badiiy asarning yuksak g'oyaviy - badiiy qimmatini, adib ijodida asarning xarakterli o'rni (asosan yuqori sinflarda):

asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi);

badiiy asarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati;

badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi;

badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; o'quvchida qiziqish uyg'otishi;

o'quvchining ma'naviy qiziqishi;

talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir.

Proza yo'lida yozilgan asarlar hayotning keng va ob'ektiv manzarasini tasvirlashi, ma'naviy qadriyatlar mohiyatini atroflicha ochib berishi, poeziyada bunday tasvirga keng imkoniyat yo'qligi, dramatik asarlarda esa voqelik yozuvchi nutqi orqali emas, balki obrazlarning hatti-harakati, so'zlari orqali ifodalanishi bilan farq qiladi. Adabiy turlar o'rtasidagi bunday farqlanish ularning tarbiyaviy imkoniyatlari jihatidan ham farqlanishiga olib keladi. Mazkur janrlardagi asarlar o'quvchiga birinchidan, o'tmishning madaniy merosi. Bu merosning rang-barangligi, o'zbek xalqining takrorlanmas iste'dod egalari bo'lgan ajdodlari haqida aniq va qiziqarli ma'lumot beradi. Ikkinchidan o'quvchining o'zligini anglashi uchun boy ma'naviy oziq beradi.

o'zbek millati, sharq xalqlari tarixi, dini madaniyati, urf-odatlarini, an'analari; udumlari haqida badiiy ifoda vositalari asosida ilmiy, haqqoniy, tarixiy ma'lumotlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. To'rtinchidan, sharq xalqlari, o'zbek xalqi ruhiy holati, axloq-odob mezonlaridan qahramonlik, jasurlik, mehnatsevarlik insonparvarlik, mehmonavozlik, imone'tiqod, sevgida sadoqat kabi qadriyatlar haqida atroflicha ma'lumot olishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlik, jasurlik (— “Shiroq” , — “To'maris”), xalqparvarlik, sevgida sadoqat (— “Alpomish”, —”Tohir va Zuhra”, —”Yusuf va Zulayho”, — “Farxod va Shirin”), jangnoma xarakteridagi dostonlarda o'tmish qahramonlar, tarixiy va hayotiy haqiqatning kuylanishi (—”Shohnoma”, —”Jangnomai Jamshid”...), pandnoma xarakteridagi dostonlarda kishining kundalik hayotida amal qilishi lozim bo'lgan xulq-avor mezonlari diniy va dunyoviy ahloq qonun-qoidalari (— “Qutadg'u bilig”,— “Saddi Iskandariy”...), qissalarda (— “Badoe'-ul vaqoe”, — “Qissai Yusuf va Zulayho”, — “Qissasul anbiyo”, — “Qissai Rabg'uziy” va h.k.) sharq xalqlarining turmush tarzi, tarixiga xos voqealar tasviri ko'proq o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu janrlarda yaratilgan adabiyot namunalari o'quvchiga ma'naviy madaniyatimizning tarixiy boy qirralari haqida sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining o'tmishi, qadriyatlari, axloq-odob mezonlari haqida atroflicha ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Yuqori sinf o'quvchilarining badiiy adabiyot vositasida ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta'sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridan yondashishdir.

Klassik adabiyot namunalari mazmunida chuqur falsafiylik, farosatlilik o'quvchini o'zoq o'tmishga sayohat qildiradi. Mualliflar o'z davrlarining turmush tarzlarini, hayotiy muammolarini,



falsafiy ildizlarini badiiy ifodalashga, shu usuldan foydalangan holda xalqning moddiy va ma'naviy hayotini bir oz bo'lsa-da, tashvishli masalalardan, bezovta kechinmalardan yiroqlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Klassik adabiyot namunalari katta qismi poetik tarzda bunyod etilgan bo'lib, ular asosan g'azal, ruboiy, fard, tuyuq, to'rtlik, qissa, hikoyat, doston, qasida, muxammaslardan iborat, shuning uchun o'quvchidan nozik did, qunt, teran fikr asosida ularni o'rganish talab etiladi. Ahli zamon o'rtasidagi insonparvarlik, shirinsuxanlik, qadr-qimmat, do'stlik va birodarlik, Vatan ishq, xalq farovonligi va komil inson masalasi klassik adiblar ijodidagi bosh mavzu hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.
2. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi.-T.: 1996.
3. O'zbekiston tarixi fanidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi.-T.:2004.
4. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI-NUTQIY SAVODXONLIK OMILI

Safarova Gulbahor Raxmatovna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon:+998 94 220 40 09

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda “Ona tili va o'qish savodxonligi” fanini o'qitishda o'quvchilarining nutqiy savodxonligini boyitishda haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik xususiyatlar, adabiy ta'lim, savol-topshiriqlar, ertak, Zumrad, Qimmat, o'gay ona, sehrgar, boylik, siyladi, fojea, ajdar, hayot, maqollar

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarning “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligidagi mavzular mazmuniga didaktik materiallar singdirilgan bo'lib, o'tilayotgan mavzular o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, nutqiy savodxonligini oshirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, hozirda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash o'qituvchining o'quv jarayonidagi kundalik faoliyatiga aylanib bormoqda.

Bilamizki, kichik yoshdagi bolalar tabiatan qiziquvchan va faollikka intiluvchan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bugun darslarni har kuni bir xil qolipda, bir xil shaklda emas, balki bola ehtiyoji va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ijodiy yondashib tashkil etishi kerak. Bu yoshdagi bolalardagi qiziquvchanlikni va faollikni so'ndirmaslik uchun dars jarayonida interfaol didaktik o'yinlardan ko'proq va mazmunli foydalanish imkoniyati katta. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, “Klaster” “Ikki qismli kundalik”, “Zinama-zina”, “Aqliy hujum”, “Shoxchalar usuli”, “Fikriy hujum” kabi interfaol usullar hamda rolli didaktik o'yinlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq boyligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Masalan, “Klaster” - tarmoqlash ma'nosini anglatib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog'liqligini anglab yetishga o'rgatuvchi usul hisoblanadi. Bu usul asosan darsning yakuniy qismida olingan bilimlarni mustahkamlashda qo'llanilishi maqsadga muvofiq keladi.

“Aqliy hujum” usulida kichik guruhlar kuchidan foydalanib asosiy g'oyalar bazasini yaratiladi. Bu usulning muvaffaqiyati o'quvchilar ongiga yetkazish hamda usulning qoidalarini o'quvchilar bilib olishidir.

Didaktik o'yin faoliyati o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi hamda diqqatini, tasavvurini, fikrlashini, xotirasini va dunyoqarashini rivojlantiradi. O'qituvchi sinfda har bir bolaning alohida xususiyatlarini inobatga olib, darslarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etsagina o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishga erishish mumkin.

Ona tili darslarida didaktik o'yinlarning asosiy maqsadi bolalarni xayolan tasavvur qilishga, topqirlikka, nutqi ravon bo'lishiga, so'zlarni to'g'ri yozish va gapirishga, gap tuzishga o'rgatadi. Ko'rish, sezgi qobiliyatlari rivojlanadi. Bu usullarni qo'llashdan asosiy maqsad, zerikarli muhitni bartaraf etish, bolalarni qiziqtirib, ular o'rtasida samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish hamda o'yin orqali bilimlarni o'zlashtirishdan iborat.

Kichik yoshdagi bolalar rasm va o'yinchoqlarga, she'r va hikoyalarga juda qiziqadi. Ona tili darslarida o'qituvchi har bir darsda ko'rgazmali didaktik materiallardan foydalanib o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish ham bolaning nutqini o'stiradi.

Boshlang'ich sinflarda “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligidagi o'quv materiallari ustida ishlash o'qituvchidan ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etmoqda. O'qituvchi mazkur fanni o'qitishda darslikda berilgan materiallar, savol va topshiriqlar ustida olib boriladigan ta'limiy mashqlar bilan cheklanib qolmasdan, darslikdan tashqari badiiy matnlardan foydalanish ham ta'lim sifat-samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida mavzuga doir she'rlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida har bir so'z turkumi va gap bo'laklari o'ziga xos ma'no, belgi-xususiyatlarga ega. Ular mana shu belgi-xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Jumladan, 3-sinf ona tili darsida badiiy matnlardan so'z turkumi va gap bo'laklarining grammatik xususiyatlarini ifodalab ko'rsatib berilsa, o'quvchilar ularni yaxshi eslab qoladi. Bu esa ularning nutqiy savodxonligini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, Rauf Tolibning “Tabib ko'klam” she'ri



matnini videoprojektor orqali namoyish qilib, o‘quvchilar bilan she’rdan so‘z turkumlarini aniqlash, yasama so‘zlarni topish ustida ishlash mumkin. Bunda “Takrorlama” didaktik o‘yinidan foydalaniladi. Dastlab ot so‘z turkumiga, keyin sifatga oid so‘zar aniqlanadi. Bolalarning biri topgan so‘zni boshqa o‘quvchi takrorlamasligi lozim. She’rda ot so‘z turkumiga oid: ona daraxt, bolta, nihol, gulzor, gul, miltiq, qushlar, qo’shiq, olam va h.k. Sifat so‘z turkumiga oid: go‘zal, lol, hayron, begona, qora, sho‘x, sayroqi, yashil...

She’r mazmuni yuzasidan savollarga javoblar berish orqali o‘quvchilarda so‘zlash, mustaqil fikr yuritish malakalarini rivojlanadi. Bu metodda matnustida ishlash orqali o‘quvchilar o‘g‘zaki bosqichga kirib, ularning so‘z boyligi qaydarajada ekanli, atrof- muhitga qanchalik e‘tiborli ekanliklari namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda, mashg‘ulotlarni qiziqarli tashkil etishda, o‘quvchini faollashuvida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2020-yil 20-oktabr.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: darslik 3-sinf uchun . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
3. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari. (Metodik qo‘llanma) RTM. 2016-y.
4. www.yuz.uz



ЎЗБЕКИСТОН ССР ҲУДУДИДА ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИКДАН ОЗОД ҚИЛИШ АСОСЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Акрамова Муаззам Турдикул қизи,
Тошкент давлат юридик университети
Ихтисослаштирилган филиали
Жиноят ҳуқуқий фанлар
кафедраси ўқитувчиси
Телефон: +998977567618
muazzamxon93@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада 1925-1991 йилларда Соббиқ Иттифоқ таркибида бўлган Ўзбекистон ССР қонунчилигида жавобгарликдан озод қилишнинг айрим жиҳатлари тадқиқ этилган. Муаллиф ушбу мақолада Ўзбекистон ССР Жиноят Кодексида белгиланган жавобгарликдан озод қилиш асослари мазмунинининг таҳлил қилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: репрессия, разведка, давлатга қарши жиноятлар, хиёнат, декрет, ихтиёрий равишда бўйнига олиш, кафиллик, мулкни реквизиция қилиш, мусодара қилиш

Ўзбекистон ССР давлатида (1925-1991) жиноий жавобгарликдан озод қилиш институтини ривожланишининг асосий тенденцияси – жавобгарликдан озод қилиш турлари ва қўлланилиши мумкин бўлган шахслар тоифаларининг босқичма-босқич кўпайишида ифодаланди. Ўртоқлик судларининг мавжудлиги, социалистик жамият ва давлатга хос тушунча бўлиб, зарарни қоплаш билан боғлиқ жиноий жавобгарликдан озод қилиш (иқтисодий фаолият соҳасидаги жиноятлар тўғрисида) капиталистик пост-индустриал давлатларга хосдир¹.

Собиқ Совет Иттифоқи пайтида жавобгарликдан озод қилиш турли хил ҳужжатларда ифодаланган. Халқ Комиссарлари Кенгашининг 1918 йил 8 майдаги “Пора бериш тўғрисида” 3-сонли қарорининг 3-моддасига кўра, уч ой ичида суд органларига ўзлари пора берганлигини маълум қилган шахсларни жиноий жавобгарликдан озод қилиш имконияти кўзда тутилган эди².

Дезетирлик жиноятини содир этган шахсларни жиноий жавобгарликдан озод қилиш Совет давлатининг норматив ҳужжатларида, масалан, 1918 йил 25 декабрда ва 1919 йил 3 июнда қабул қилинган Ишчилар ва Дехқонлар Мудофааси Кенгашининг қарорларида ҳам тартибга солинган.

1922 йилги Жиноят кодексининг 114 ва 207-моддаларига кўра махсус жиноятлар учун жиноий жавобгарликдан озод қилиш тўғрисидаги махсус қоидалар дастлаб ҳарбий хизматчилар томонидан пора бериш ва мол-мулкни талон-тарож қилиш деб белгиланган³.

В.Д. Спасовичнинг таъкидлашича, жиноий жавобгарликдан озод қилиш институтини алоҳида институт эмас, бу атама фақат амнистия тушунчасини таҳлил қилишда қўлланилади. Бироқ, кейинчалик жавобгарликдан озод қилиш турларига айланган қоидаларни ўз ичига олган нормаларни кўриб чиқади.

Жиноий жавобгарлик тушунчаси жазо тушунчаси каби шаклланмаган, жавобгарликдан озод қилиш ва жазодан озод қилиш ўртасида фарқ йўқлиги сабабли, жавобгарликдан озод қилиш жазодан озод қилиш деб номланди.

Социалистик тузумда жиноий жавобгарликдан озод қилиш институтининг шаклланиши жамият ва давлат ривожланишининг объектив қонуни билан олдиндан белгилаб қўйилган социалистик жиноят қонуни асосида ривожланди. Ушбу институт, социалистик жиноий қонунчиликни ривожлантиришнинг асосий йўналишларига мос келади, жиноий репрессия соҳаси унчалик хавфли бўлмаган жиноятлар ва жазони қўлламасдан тузатиш мумкин бўлган шахсларга нисбатан босқичма-босқич қисқартириб борилган.

1 О.Н.Кузьмина. Институт освобождения от уголовной ответственности: генезис формирования, современное состояние, перспективы оптимизации. Дисс....кан. юр. Наук. Краснодар.:2020.-С.33

2 Джамалдаев М.У. Политические, криминологические, экономические факторы, обусловившие появление в праве института освобождения от уголовной ответственности. Уголовная политика: теория и практика. 169-171.с

3 А.В.Ендольцева. Институт освобождения от уголовной ответственности: теоретические, законодательные и правоприменительные проблемы. Авт. дисс.....кан.юр.наук. Москва .:2005.-С.18, 19



Жиноий жавобгарликдан озод қилиш Совет даври қонунчилиги ва доктринасининг маҳсулидир. Жиноий жавобгарликдан озод қилиш институти назарияси бир қатор ҳолларда қонун чиқарувчи ижтимоий ҳавфи катта бўлмаган жиноятларни содир этган шахсларни тузатиш ва қайта тарбиялаш мақсадига эришиш учун курашганлиги асосида қурилган, жамоат ёки фақат ижтимоий таъсир ҳисобланади¹.

1977 йил СССР Конституциясининг 121-моддаси ижтимоий ривожланиш, унинг асосини жамиятнинг барча қатламларини демократлаштиришни чуқурлаштириш, ошкораликни кенгайтириш ва бошқарув тизимларини қайта қуриш ташкил этди. 1959-йилда қабул қилинган Ўзбекистон ССР Жиноят Кодексида жиноий жавобгарликдан озод қилиш нормалари асосан “Жазони тайинлаш ва жазодан озод қилиш” деб номланган бобга киритилган эди. Мазкур Кодекснинг 46-модда жиноий жавобгарликка тортиш муҳлатлари (давность), 48¹-модда жиноий жавобгарликдан озод этиб, маъмурий жавобгарликка тортиш, 49-модда шахсни жамоат ташкилотларига бериб, жиноий жавобгарликдан озод қилиш, 49¹-модда ишни ўртоклик судига топшириб, жиноий жавобгарликдан озод қилиш масалалари баён қилинган. Жумладан, 48-моддаси “жиноий жавобгарликдан ва жазодан озод қилиш” деб номланиб, унга кўра, “Агар ишни тергов қилиш ёки судда кўриш пайтида шароит ўзгариши туфайли айбдор томонидан содир этилган ҳаракат жамоат учун хавфлилик характерини йўқотган бўлса ёки ўша жиноят қилган шахс жамоат учун хавфли эмас деб ҳисобланса, уни жиноий жавобгарликдан озод қилиш мумкин. Агар жиноят қилган шахсни кейинча ахлоқ тузалиш ва ҳалол меҳнат қилаётганлиги сабабли, ишни судда кўриш вақтида жамоат учун хавфли ҳисоблаш мумкин эмас деб топилса, шахсни жазодан озод қилиш мумкин².

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Ўзбекистон ССР ҳудудида жавобгарликдан озод қилиш институти маълум даражада ривожланди.. Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидагилар таклиф қиламан:

Биринчидан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 68¹-моддаси қуйидаги таҳрирда баён этилиши лозим: “Жамоат ташкилотларига қафилликка бериш”. Алоҳида ҳолларда ижтимоий ҳавфи катта бўлмаган жиноятни қилган шахсининг ишлаб турган жойидаги ташкилотнинг илтимосига мувофиқ, суд у шахсга жазо қўлланилмаслиги ва шу ташкилотга айбдорни қайта тарбиялаш ва тузатиш учун қафилликка бериб, буни ҳукмда кўрсатишга ҳақлидир”, -деб белгиланиши лозим.

Иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексига "маъмурий жавобгарликка тортилиши муносабати билан жавобгарликдан озод қилиш" деб номланувчи янги 68²-моддаси киритилиши лозим. Ушбу моддада, “Шахсни жиноий жавобгарликдан озод этиб, маъмурий жавобгарликка тортишнинг зарурий элементи қилиб жамият учун хавф туғдирмайдиган, содир қилган жинояти санкциясида кўпи билан бир йилгача озодликдан маҳрум этиш ва озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган бошқа таъсир чоралари белгиланганлиги, шунингдек айбдорга нисбатан жазо қўлламаздан туриб унинг ахлоқан тузалиши ва қайта тарбияланиши мумкин деган хулосага келинса, уни жиноий жавобгарликка тортмасдан, маъмурий жазо чораси қўлланилиши мумкин” - деб белгиланиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. О.Н.Кузьмина. Институт освобождения от уголовной ответственности: генезис формирования, современное состояние, перспективы оптимизации. Дисс...кан. юр. Наук. Краснодар.:2020,-С.33

2. Джамалдаев М.У. Политические, криминологические, экономические факторы, обусловившие появление в праве института освобождения от уголовной ответственности. Уголовная политика: теория и практика. 169-171.с

3. А.В.Ендольцева. Институт освобождения от уголовной ответственности: теоретические, законодательные и правоприменительные проблемы. Авт. дисс.....кан.юр.наук. Москва :2005.-С.18, 19

4. O‘zbekiston SSSR Jinoyat Kodeksi. “O‘z SSSR Oliy Sovetining Vedomostlari” 1959-yil, №6

5. SH.Berdiyev. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari. Diss... yur. fan. nomzodi-Toshkent. :2011.-B.82

1 O‘zbekiston SSSR Jinoyat Kodeksi. “O‘z SSSR Oliy Sovetining Vedomostlari” 1959-yil, №6

2 SH.Berdiyev. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari. Diss... yur. fan. nomzodi-Toshkent. :2011.-B.82



INTERFAOL METODLARNING O`QUVCHILAR O`QUV FAOLLIGINI OSHIRISHIDAGI ROLI.

Abdurahmonova Shohida

Raximova Oybika Xonqa tuman
32-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang'ich sinf darsliklarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biriligi ko'rsatilgan va ona tili o'qituvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: interfaol, pedagog, metod, ona tili, bilim, malaka, ko'nikma, fikr.

Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu bousdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning o'quvchilar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi.

BAHS

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish

Bahs ishtirokchisiga eslatma:

1. Bahs munosabatlarni hal etish usuli emas balki muammoni hal etish usulidir.
2. Boshqa ishtirokchilarga ham so'z berish uchun uzoq vaqt nutq so'zlama.
3. Har bir so'zni o'ylab, to'g'ri ifoda qil, hissiyotlaringni nazorat qil, chunki sening aqliy fikrlaring o'z maqsadiga yetishi kerak.
4. Opponent nuqtai nazarini tushunishga harakat qil, uni hurmat qil.
5. Opponent fikrini buzmasdan e'tirozlaringni aniq bildir.
6. Faqat bahs mavzusi bo'yicha fikr bildir, ko'p o'qiganliging va umumiy bilimdonligingni ro'kach qilma.
7. Kimgadir yoqishni ko'zlab hushomad qilishingga va o'z nutqing bilan ranjitishga qarshi kurashgin.

Anjuman-bahsning rollari

Olib boruvchi - o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarni foydalanishining aniqligini, muloqat xushmuomalaligini kuzatadi va boshqalar.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so'zlovchi va opponent fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlar borishini, va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi va boshqalar.

Psixolog – mahsulli muloqatni tashkil etish uchun javob beradi, birgalik harakatlar kelishishligiga erishadi, bahs mojaroga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert – butun bahs mahsuldorligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, bahsning aniq bir ishtirokchilarining xissasi to'g'risida fikr bildiradi va boshqalar.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. F. Yuldoshev, „Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari“. „Xalk ta'limi" jurnali, T., №4 1999 yil.
2. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o'zbek modeli. – Toshkent: “Lider Press”, 2009.



TASVIRIY SAN‘AT FANINI O‘RGATISHDA «SKARABEY» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Babajonova Dildora, Ro‘ziyeva Muqaddas

Xonqa tuman 32- son maktabning tasviriy san‘at o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarga ta‘lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste‘dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarni o‘zaro faollikka olib kelishiga bog‘liqligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘z: shaxs, texnologiyi ,o‘quvchi, til,ta‘lim, fikr, g‘oya, interaktiv.

Pedagogik texnologiyani yaxshi tushunib olgan tasviriy san‘at fani o‘qituvchisi har qanday holatda ham dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tasviriy san‘at mashg‘ulotlaridan kelib chiqadigan pirovard natija o‘quvchilarda ma‘lum bir ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu maqsadga va ko‘zlangan natijaga erishishning eng samarali usuli induksiya (tahlil) usulidir. Induksiya usuli xususiylikdan umumiylikka qarab borish usuli, ya‘ni mashqlar tahlilidan xulosalar, qoida va ta‘riflarga qarab borish usulidir.

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi:

-boshida – o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

-mavzuni o‘rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi jihatlarini ko‘rsatish;

-oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarida qo‘llanishi mumkin.

Ta‘limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

o‘zgalar fikriga hurmat;

jamo bilan ishlash mahorati;

faollik;

xushmuomalalik;

ishga ijodiy yondashish;

imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;

o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;

«men»ligini ifodalashga imkon beradi;

o‘z faoliyati natijalariga mas‘ullik va qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog‘liqlik bo‘lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g‘oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007

2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami / Metodik.qo‘llanma. O‘rtamaksus, kasb-hunar ta‘limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.–T.:TDIU, 2013.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA “SO'ZLI TASAVVURLAR” DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Bekchanova Gulbahor, Ikromova Karomat
Xonqa tuman 32- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annatsiya: Ushbu maqola maktabda boshlang'ich sinf fanlarini qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish kabi belgilarni o'z ichiga oladi va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: ta'lim, ong, tafakkur, o'quvchi, og'zaki, yozma, didaktik.

Pedagogik texnologiya — bu ta'lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo'yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog'liqligini hisobga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli. Ta'limni takomillashtirishda zamonaviy bilimlarga yo'l ochish pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish uni yangi davlat ta'lim standartlari asosida o'rnatishga qaratilgan. Hozirgi kunda o'qituvchining faoliyati, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'quv jarayonida ishlaydigan o'qituvchilarning pedagogik tafakkurida boshlangan pedagogik texnologiya darslari protsesslarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarurdir. Bu hamkorlik asosida O'quvchilarning faolligini oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan: o'quvchilarga boshqalarning fikrlarini eshitish, tushunish, hurmat qilish, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish, ularni o'rgatish, ularga ta'sir qila olish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatdosh kadrlar tayyorlaydigan o'qituvchiga zamonaviy talablar to'plamini belgilaydi. O'zaro bog'liq talablar to'plami tarbiyachining umumlashtirilgan modelini tavsiflaydi va unga asoslanib quyidagi asosiy talablar: o'qitish mahorati, tarbiya mahorati. Ta'lim jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlar — o'qituvchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash va nazorat qilish qobiliyati.

O'qitish jarayonida axborot ta'limi texnologiyalari va o'quv qo'llanmalarini qo'llash, Internet tarmog'ini tushunadigan va undan bilimlarini oshirish uchun foydalanishi.

- pedagogik mehnat samaradorligini tahlil qilish usullarini bilish va o'zini o'zi baholay bilish.
- oilaviy ta'lim va tarbiya muammolari to'g'risida tasavvurlarini rivojlantirish.
- O'rganilayotgan masala bilan bog'liq bo'lgan eng asosiy so'zni oling.
- O'quvchilardan ular bu so'zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so'zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.
- Bironta so'zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o'quvchilar dastlabki so'z bilan tasavvur qiladigan turli so'zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo'ladi.
- Mavzu o'rganib bo'lingandan so'ng har bir o'quvchidan ular ushbu mavzu bo'yicha nima deb o'ylashi yoki his qilishini bir so'z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo'lgan so'zni misol keltirishni so'rang. Sinf aylanib, bunday so'zlarni yig'ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o'quvchilardan ushbu so'zlarning ro'yxatini tuzishni iltimos qiling.

Ushbu usul mavzuni o'rganish jarayonining boshida o'quvchilar mavzu bo'yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o'quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo'llanilishi mumkin. Bunday usul o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy rivojini ko'rishga, sizga esa – siz berayotgan ta'lim sifatini baholashga yordam beradi.

Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilish lozim. Jarayonning cho'zilishi mashq mohiyatini o'zgartirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.R.H. Jo'raev, A. Zushunov “Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma”. Sharq., 2006 yil.



KIMYO FANI DARSLARIDA - "ZAKOVAT" O'YINI KO'RINISHIDAGI DARSLAR.

Hajiyeva Gulora Erkabayevna

ТТА Urganch filiali akademik litseyi kimyo fani o'qituvchisi

Annatotsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlaridan foydalanishda o'qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Pedagogik, axborot, ta'lim, fikr, jamoa, so'z, flomaster.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi. Shu bilan bir qatorda metodika pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo'lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, innovatsion, ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o'quv jarayonlariga yangi-yangi o'qitish metodlari, texnologiyalari va innovatsiyalarni tatbiq qilish asosiy burchimizdir.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metoddan birining mohiyati va undan foydalanish borasida so'z yuritimiz.

Bu mashg'ulotni bob yakunida takrorlash darsi sifatida tahlil qilish mumkin. Sinf 6ta guruhga bo'linadi va oldindan tayyorlab qo'ygan topshiriqli konvertlarni (yoki kartochkalarni) guruh a'zolari navbat bilan olishadi. Shundan so'ng guruhlar 10min davomida o'zlarigatushgan topshiriqlarni bajarishadi va guruh javoblarini e'lon qilish uchun bir o'quvchini tanlashadi (yoki guruh sardori javob beradi). Har bir guruhda bir nechta savoldan iborat topshiriq bariladi. O'qituvchi har bir to'g'ri javob uchun ball qo'yadi. Agar biror savol-topshiriqqa noto'g'ri javob bo'lsa, boshqa guruhlar to'g'ri javobni berishlari mumkin, bu holda, javob bergan guruhga ball qo'yiladi. Shu tariqa har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq bo'yicha taqdimotini o'tkazadi, boshqa guruhlar esa ularni to'ldirishlari va noto'g'ri javoblarni to'g'rilab ball olishlari mumkin. Natijada 1soatlik darsda katta bir bo'lim, bob bo'yicha o'tilgan o'quv materialini takrorlab, o'rgangan bilimlarini mustahkamlab olish va hamma o'quvchilarni mashg'ulotga jalb qilib ularning darsda faol bo'lishlariga erishish mumkin. O'quvchi soni oz bo'lgan sinflarda esa sinfni guruhlariga bo'lmasdan balki 3ta qator o'rtasida musobaqa tarzida ham o'tkazish mumkin. Bu holda qatorlarga 2 martadan topshiriqli kartochka berish mumkin (6ta kartochka tayyorlanadi va har bir qatorga navbat bilan 2 martadan beriladi). Bu mashg'ulotni boshqa fanlarga ham moslashtirib o'tkazish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishmuhamedov R.J., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: - Nihol nashriyoti, 2016.
2. Jakayeva K. Aymurzayeva G. O'quvchi mustaqil fikrlasin. “Ma'rifat” gazetasi, 26-sentabr 2012 yil.73-son.



**МАКТАБДА КИМYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

Hayitova Gulhayo

Xonqa tuman 32- son maktab

Ro'zmetova Matluba

Urganch tuman 28- son maktabning

kimyo fani o'qituvchilari

Annatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda maktabda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasidagi ma'lumotlar qamrab olingan va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berish.

Kalit so'zi: metodi, tajriba, fikr, o'quvchi, evristik, bilim, ijod, aqil, shaxs.

Yoshlarga ta'lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faollikka olib kelishiga bog'liqdir. Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e'tibor qaratiladi, birinchi navbatda bu amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha “Pedagogik texnologiya” bu o'quvchilarni o'qishi, o'rganish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun qoidalarini o'z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimida iboratdir deyiladi.

Yangilik kashf etish orqali o'rganish (evristik) usuli

Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

Metodning asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. O'rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.
2. O'rganish jarayoni ma'lum bir topshiriqqa yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
3. Topshiriq quyidagilarni ta'minlaydi:
 - Tayanch ma'lumot olish uchun asos
 - O'quvchi uchun notanish bo'lgan ma'lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so'rovga e'tibor berish
 - Oldindan aniqlangan va o'rganishga asoslangan natijalar.
4. Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivasiyasiga asoslangan.
5. Guruhdagi hamkorlik:
 - fikr va faoliyatni rag'batlantiradi
 - mushohadaga chorlaydi
 - guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlaydi.
6. Shaxs yoki guruhning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'qituvchining qo'shajak hissasiga ajratilgan vaqt chegaralangan.
7. O'qituvchi asosan o'qish jarayonini yengillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlovchi shaxs vazifasini o'taydi. Kamdan-kam hollarda o'qituvchi ma'lumot bilan ta'minlaydi.

Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri- Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O'qituvchiga fikrlar aniqligi va to'g'riligini kuzatish, mashqni o'tkazish uchun vaqtni mo'ljallab olish qiyin, chunki o'quvchilarda ko'pincha fikrlarni aniq ifodalash ko'nikmasi mavjud bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T., 2008
2. Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: RTM, 2004. - 104 b.
3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007.



TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA “SVETOFOR” METODIDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Jumamurotova Sanobar, Palvanova Dildora

Xonqa tuman 32- son maktabning
texnologiya fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada barcha fanlardagi kabi, texnologiya fanidan ham yangi avlod uchun yangi metodlar yaratilib, unda mazmunan o'zgartirishlarga yangicha yondoshildi va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: interfaol metod, tasviriy san'at, o'quv jarayoni, innovatsiya.

Texnologiya so'zi yunoncha bo'lib, texne – mahorat, san'at; logos – ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'llanadigan usul va metodlar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda ta'lim berish san'atini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish tushuniladi.

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilish faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurtlari) oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlarini faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan bu faslda hali pedagogik amaliyot uchun notanish bo'lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi.

Ma'lum mavzuni o'rganish vaqtida o'qituvchi u bo'yicha tezislarini tayyorlaydi (5-7ta, mavzuning murakkabligiga qarab). Tezislar navbatma-navbat doskaga yoziladi (tasviri tushiriladi yoki oldindan tayyorlangan plakatlar shaklida ilib qo'yiladi). O'quvchilarga o'ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So'ng tezis bilan rozi bo'lgan har bir o'quvchi yashil kartochkani ko'taradi; rozi bo'lmagan – qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraf bo'lishni xohlayotgan – sariq kartochkani yuqoriga ko'taradi. Agar ishtirokchilar fikri asosan bir-biriga mos keladigan bo'lsa, o'qituvchi navbatdagi tezisga o'tadi. Agar tezis muhokama qilinishni talab qilsa, ishtirokchilardan o'z qarorlarini asoslab berish iltimos qilinadi.

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, topshiriqlar ma'lum o'quv mavzusiga va ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga moslashtirilgandan keyin. Ushbu mashq barcha o'quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi: hech kim oddiygina tomoshabin bo'lib qolmaydi. Ishtirokchilarning ko'pchiligida mashq boshlanganidan keyin birozdan so'ng nuqtai nazardagi tafovutlar sabablarini bilish va o'z fikrini asoslash bo'yicha kuchli qiziqish paydo bo'ladi. O'quvchilarning nutqini, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

Agar vaqt cheklovlari sababli munozara o'tkazishga imkon bo'lmasa, ushbu uslubdan foydalanish kerak emas. Agar tezislarining ko'pchiligi bo'yicha ishtirokchilar fikri bir-biriga mos kelsa, mashqqa bo'lgan qiziqish tezda yo'qoladi. Mashq o'tkazish uchun resurslarni puxtalik bilan tayyorlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farberman. B.L. “Ilg'or pedagogik texnologiyalar”. T: 2001 y.

2. Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: RTM, 2004. - 104 b.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN EXPRESS-TESTLAR
METODIDAN FOYDALANISH.**

Matyoqubova Feruza, Tohirova Umida

Xonqa tuman 32- son maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annatsiya: Mazkur maqolada interaktiv vositalaridan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatli hamda faol shaxs qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, aqliy, axloqiy xislatlarini shakllantirishga ko'maklashishda foydalaniladigan ma'lumotlar keltirilgan va o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: Pedagogik, axborot, ta'lim, fikr, jamoa, siyosati, flomaster.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishping 2-bosqichi ta'lim mazmuniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng qamrovda olib kirish vazifasini qo'ymoqda. Bu esa barcha pedagoglar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Respublikamiz olimlari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda va turlicha izohlanmoqda.

Express-testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng (1-2 mavzu) shu mavzularda o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlash uchun o'tkazish maqsadga muvofiq. Express-testlar adatda shu mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlardan yoki testlardan iborat bo'ladi. Express-testlarni darsning ichida qisqa vaqtlarda (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchilar DTS minimal talablarini o'zlashtirganliklari tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

O'quvchilarning o'zlashtirganlik darajalarini nazorat qilish va baholash topshiriqlarining namunalari turli xil manbalardan yig'ilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash o'qituvchilar uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Topshiriqlar quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Bo'sh qoldirilgan joylarni zarur so'zlar bilan to'ldirish
2. Jumlaning ma'nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so'zlardan mosini tanlang va tagiga chizing
3. To'g'ri javobni toping
4. Ikki tasdiqdan to'g'risini ajrating
5. Ta'rifdagi (jumladagi) xatoni toping
6. Quyida keltirilgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib, mantiqiy juftliklarni tuzing
7. Matematik tushuncha va atamalar talqiniga ko'ra jumlani davom ettiring
8. Quyida keltirilgan formulalar qaysi matematik tushuncha xossalriga tegishli ekanligiga qarab, jufti-jufti bilan mos guruhlarga ajrating
9. A ustunda berilgan atamaga B ustundagi tegishli talqinni mos qo'ying
10. Andazaga ko'ra masala tuzing va uni yeching
11. Sonli yozma ish (diktant)

O'qituvchi o'quv taxtasiga bir nechta atamaning nomlarini yozib nomerlab chiqadi. So'ng esa, bu atamalarning (tushunchalarning) nomini aytmasdan ta'rifini ixtiyoriy tartibda o'qiydi. O'quvchilar esa bu atama (tushuncha) qaysi raqam ostida yozilganligini topishlari so'raladi. Natijada 5, 6, 10, 1, 7, 2, 3, 12, 4, 9, 8 ko'rinishdagi sonli satrdan iborat javob hosil bo'ladi. .

12. Biror mavzuga oid masala yoki savol tuzish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shodiyeva M., Ne'metova F. Muammoli o'qitish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 4-son, 6-7-betlar.
2. Xoliqova M. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 5-son, 20-21-betlar.
3. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o'zbek modeli. – Toshkent: “Lider Press”, 2009.



BIOLOGIYA DARSLARIDA “KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI

Otajanova Gulora Otaxanovna
TTA Urganch filiali akademik
litseyi biologiya fani o`qituvchisi

Annatsiya: Bu maqolada o`quvchilarning biologiya faniga bo`lgan qiziqishini oshirishda har bir bob doirasida “kichik guruhlarda ishlash” interfaol metodidan foydalanishda o`qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`z: kichik, tarbiya, ijodkor, pedagogik, shaxs manfaati, ta'lim.


Biologiya fanini ko`pchilik qiyin fanlar sarasiga kiritishadi. Qiyin fan yoq, faqat qiyin bayon qilish bor deb bejizga aytilmagan. Hozirgi kunda ilg`or pedagogik texnologiya elementi bo`lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Agarda biologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorlikni va o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshiradi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o`quv materialini o`rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo`llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo`lishga, birbiridan o`rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo`ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo`llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo`ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o`zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo`nalishi aniqlanadi. Mavzu bo`yicha bir-biriga bog`liq bo`lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo`linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko`rsatmalar beriladi va yo`naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi o`qitish mazmunining yaxshi o`zlashtirishga, muloqotga kirishish ko`nikmasining takomillashishiga olib keladi, vaqtni tejash imkoniyati mavjud, barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi, o`z-o`zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
2. Tolipov O`Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2005.



МАКТАБДА МАТЕМАТИКА ВА ИНФОРМАТИКА ФАНИНИ О’ҚИТИШДА “БАЛИҚ SKELETI” METODIDAN FOYDALANISH.

Sharipova Laylo

Xonqa tuman 32- son maktabning
mamatematika fani o'qituvchisi

Ro'zmetova Shahnoza Ulug'bekovna

Urganch tuman 18- son maktabning
informatika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Baliq skeleti” metodi orqali o’quvchilarni fanlarga qiziqtirish, aqliy, ruhiy, axloqiy sifatлари va yoshlikdan fikrlash qobiliyatini oshirishga bog’liq bo’lgan ma’lumotlarni qamrab olgan.

Kalit so’z: metod, interfaol, matematika, informatika, o’quvchi, pedagog.


Pedagogik texnologiya atamasi ta’lim jarayoniga yangicha, o’ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo’lgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Bu talim jarayoniga innovasion yondashuv demakdir. Yangi ta’limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo’llaniladigan ilg’or metod va usullar, texnika vositalari, o’qitishning shakllarini ta’lim jarayoniga har bir o’quvchi shaxsi, ruxiy o’ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiya o’quvchiga ta’lim jarayonining sub’ekti, ya’ni faol ishtirokchisi, o’qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o’quvchi faol ishlovchi shaxs bo’lib, u butun mashg’ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo’llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma’lumdan noma’lumga qarab boradi.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o’quvchini mustaqil fikrlashga o’rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg’otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish demakdir.

Pedagogik texnologiya ta’limda o’quvchilarni qiziqtirib o’qitish va bilimlarni to’liq o’zlashtirishga erishish, o’quvchilarning o’z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir. Pedagogik texnologiya jarayonida dars o’tishda eng asosiy talab o’quvchining hayotiy tajribasi, avval o’zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko’zda tutadi.

Baliq skeleti



hal qilish hal qilish hal qilish hal qilish

Ta’rifi

Muammoni qo’yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta’riflash va yechib ko’rishga imkon beradi.

Strategiya:

1. Bir varaq oq qog’ozda (vatman yoki A-3 varag’i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg’alari).

2. YUqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastidagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo’llari, o’qituvchi o’z oldiga qo’ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo’yiladi.

3. To’ldirilgan sxemaning taqdimoti.



Ushbu sxema muammolarning o`zaro bog`liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi. Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsy javobgarli – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.:”O'zbekiston”.2017.-B44

2.Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o`qitish texnologiyalari. – T.: —”Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007.




МАКТАБДА РУС ТИЛИ ФАНИДАН О’ҚУВЧИЛАРНИ О’ҚИТИШДА “МУЗЬОРАР” INTERFAOL O’QITISH METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Sultonova Mohinur Yuldashovna
Utganch tumani 9- maktab
Atamurotova Fazilat Adambayevna
Urganch tuman 18- maktabning
rus tili fani o'qituvchilari

Annatotsiya: Bu maqolada o’quvchilarni rus tili fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni erkin, mustaqil ishlashga o’rgatish, aqliy faoliyatini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o’stirish.

Kalit soʻzlar: suhbat, o’quv, ta’lim, juftlik, muz, ishtirokchi, sifat.

Ta’lim jarayoni o’quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo’yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi.



O‘zaro tanishuvda qo‘llaniladigan texnikalar

Muzyorar – muomaladagi tusiklarni yengib o‘tishga va o‘zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdır. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o‘zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

Treninga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o‘zini tanishtiradi. Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

- Juftliklarda **besh daqiqalik suhbat**, so‘ngra har bir ishtirokchi o‘zining suhbatdoshini tanishtiradi.
- **Doirada koptokcha bilan o‘ynash** - bunda qo‘liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o‘z ismini hamda o‘zi haqidagi ma’lumotni aytishi kerak bo‘ladi.

O‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarini top. Agar trening vaqti kam chegaralangan bulsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga guruh a‘zolarini o‘zaro bog‘laydigan 5 ta umumiy o‘xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bulgan 3 ta xususiyatni topish topshirig‘i beriladi. So‘ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq



natijasini taqdim etadilar. Ta’lim mazmunida, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushuncha, ko‘nikma hamda malakalarning hajmi ham o‘z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta’lim mazmunining g‘oyaviy jihatdan mukammalligi o‘quvchilar tomonidan muayan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Hozirgi zamonaviy bosqichlarda pedagogik dolzarb vazifalarga fan texnika, ilg‘or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash o‘qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni metodlarini ilmiy ta’minlash kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J.F.Yuldoshev, “Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari”. “Xalq ta’limi” jurnali, T., №4 1999 yil.
2. Jo'rayev R.H. va bosh. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2005. -49 b.



МАКТАБДА ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ О`ҚИТИШДА «BIRGALIKDA O`QIYMIZ»
BIRGALIKDA O`QISH TEXNIKASINING AXAMIYATI.

Tavbasarova Venera, Babajonova Shoxista
Xorazm viloyati Urganch tuman
18- son maktabning ingliz tili o`qituvchilari

Annotatsiya: Bu maqolada ingliz tili fanini o`qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash, dars o`tish jarayonida aynan dars mavzusiga mos interfaol metodlarni qo`llay olish va yangi interfaol yordamida o`quvchilarni bilimini baxolash ko`rsatib berilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so`z: ingliz tili, interfaol, pedagogik, metod, texnologiya, ta`lim.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish esa o`qituvchiga bog`liq. O`qituvchi ijodkor bo`lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllarini, usullarini yaratib borishi, ularni ta`lim jarayonida qo`llab borishi lozim.

Ingliz tili dasturi va darsliklarida til materiallarining berilishi dars samaradorligi bilan uzviy bog`liqdir. Ma`lumki, uzoq davr mobaynida ingliz tili mashg`ulotlari dastur va darslik materiallari asosida tashkil qilindi. O`qituvchilar asosan darslik doirasida, uning materiallari asosida ishlashga odatlandilar. Buning bosh sababi ta`lim jarayonida deduksiya metodining ustivor bo`lganligidir.

Birgalikda o`qish: o`quv guruhi kichik guruhlariga bo`linadi. Har bir kichik guruh o`rganilayotgan mavzuning ma`lum bir sohasida ekspert bo`ladi va boshqalarni o`rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi barcha boshqa guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to`la hajmda egallab olishidan iborat.

«Birgalikda o`qiyimiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo`lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o`quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.



4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.





5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalarini tinglaydi. Umumiy natija (butun ekspert varag'i bo'yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



6. Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

☞ *Guruhning yakuniy bahosi ma'ruza uchun umumiy ballni va mustaqil ish uchun individual ballarni o'z ichiga oladi.*

Ekspert varag'i

☞ *Matnni o'qishda asoslanish zarur bo'ladigan savollardan iborat varaq. Savollar o'quv materialini ustidan olib boriladigan mustaqil faoliyatni yo'naltiradi.*

☞ *Odatda ekspert varag'i 3 ta savoldan iborat.*

Birinchi ikkita savol javoblari butun o'quv matni bo'yicha oz-ozdan yig'iladi.

Uchinchi savol javoblarini tayyorlash birinchi va ikkinchi savol javoblari uchun yig'ilgan material asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ishlanma, extimol, guruhdan o'z fikrini aniqlashni yoki masala mohiyati yuzasidan qator isbotlarni tuzib chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J. F. Yuldoshev, “Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari”. “Xalk ta'limi” jurnali, T., №4 1999 yil.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000